

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI**

**S.B.SANAYEVA, Sh.N.XAYDAROVA**



# **MAKTABGACHA TA’LIM- TARBIYANI TASHKIL ETISH**

**(60110200 – “Maktabgacha ta’lim” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari  
uchun darslik)**

**NAVOIY – 2023**

***Mualliflar:***

S.B.Sanayeva – Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, PhD

Sh.N.Xaydarova – Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD

Darslik 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" o'quv fan dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning umumiy asoslarini, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish, sog'lom, yetuk shaxs qilib tarbiyalash qonuniyatlarini talabalarga o'rgatish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga u bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining nazariy va amaliy masalalarini yoritib berib, ularda pedagoglik kasbiga nisbatan qiziqishlarini shakllantirishda foydalaniladi.

Учебник подготовлен на основе учебной программы "Организация дошкольного образования", входящей в учебную программу образовательной программы бакалавриата 60110200 - Дошкольное образование, и служит для обучения студентов основам воспитания дошкольников, их всестороннего развития, принципам вырастить из них здоровых и зрелых людей. В то же время она освещает теоретические и практические вопросы науки организации дошкольного образования у будущих воспитателей организаций дошкольного образования, используется для формирования у них интереса к профессии педагога.

This textbook is prepared on the basis of the curriculum "Organization of preschool education" included in the curriculum of the bachelor's education program 60110200 - Preschool education. It serves to teach students the basics of educating preschool children, their comprehensive development, and the principles of raising them to be healthy and mature individuals. At the same time, it illuminates the theoretical and practical issues of the science of organizing preschool education for educators of future preschool education organizations, and is used to form their interest in the profession of pedagogy.

***Mas'ul muharrir:***

N.B.Kobulova – Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

***Taqrizchilar:***

D.X.Narzikulova – Navoiy davlat pedagogika instituti Umumiy pedagogika va psixologiya kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)

M.B.Kubayeva - Navoiy innovatsiyalar universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mazkur darslik Navoiy innovatsiyalar universitetining 2023 yil 1-dekabrda 2-sonli Kengashida ko'rib chiqilib, ikkinchi nashrga tavsiya etilgan.

© Sanayeva S.B., Xaydarova Sh.N.

## SO‘Z BOSHI



*Yosh avlodni tarbiyalash, kelajak hayotga tayyorlash o‘z istiqboli, taraqqiyoti, ertangi kuni xususida qayg‘uradigan har qanday mamlakat uchun eng ustuvor vazifalardan biri sanaladi.*

**Navoiy innovatsiyalar universiteti rektori,  
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
Nuriymon Abulxasan**

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘z kelayotgan yosh avlodning barkamol bo‘lib voyaga yetishiga alohida e‘tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta‘lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy o‘zgarishlar ta‘lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma‘naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamda ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda.

Maktabgacha ta‘lim bosqichi uzluksiz ta‘limning eng muhim, mas‘uliyatli, bola tarbiyasi va ta‘lim olishi shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me‘rosi va ma‘naviy-axloqiy an‘analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi

bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani tarbiyachi-pedagoglar amalga oshiradi. Har bir ota-ona o'z farzandini bilimdon, yuksak mahoratli, odobli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishini xohlaydi. Jamiyat talabi darajasidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarini, yordamchi tarbiyachilarini yetishtirish oliy ta'lim muassasalarining maktabgacha ta'lim yo'nalishi zimmasiga tushadi. Shu jihatdan, bo'lajak tarbiyachilarni "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" fanining nazariy asoslari, ta'lim-tarbiya berishning tartib qoidalari, ilk yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, metodlari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilishi juda muhim sanaladi.

Mualliflar tomonidan "Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish" nomli ushbu darslikda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini paydo bo'lish tarixi; O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim tizimidagi me'yoriy asoslar; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish hujjatlari; maktabgacha ta'lim va tarbiyaning umumiy asoslari kabi mavzular ketma-ket yoritib berilgan.

Mavzular yuzasidan savollar, mustaqil ta'lim uchun topshiriqlar, fanning asosiy tushunchalari izohidan tashkil topgan glossariy hamda testlar berilgan.

Darslik oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlarining 60110200 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari foydalanishi uchun mo'ljallangan.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI PAYDO BO'LISH TARIXI



*Bolalar – Xudoning nihollari, shuning  
uchun ularga xuddi bog'dagi nihol kabi  
parvarish va e'tibor kerak.*

*Frederix Vilgelm Avgust Frobel*

### REJA:

1. “Bolalar bog‘chasi” tushunchasining paydo bo‘lish tarixi.
2. Bolalar bog‘chalarini paydo bo‘lishining xronologik qisqacha tarixi.
3. O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning vujudga kelishi.
4. Ikkinchi jahon urushi yillarida maktabgacha ta’lim

*Tayanch tushunchalar: Fridrix Frobel, “Bolalar bog‘chasi” atamasi, kichik bolalar uchun maktab, Robert Ouen, Moskvada birinchi maktabgacha ta’lim tashkiloti, birinchi bepul maktabgacha ta’lim tashkiloti, “Bog‘cha” nomli jurnal, “Kolxoz bolalar bog‘chalari to‘g‘risidagi Nizom”, “Kolxozlarda bolalar bo‘chalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror, 1896 yilda Turkistonda “yasli”larning paydo bo‘lishi, Toshkentda 1903 yil fevral oyida “Oilaviy ta’lim - tarbiya to‘garagi” tashkil qilinishi.*

### “BOLALAR BOG‘CHASI” TUSHUNCHASINING PAYDO BO'LISH TARIXI

**“Bolalar bog‘chasi” atamasi.** “Bolalar bog‘chasi” atamasi Germaniyada 1840 yilda o‘qituvchi Frederix Vilgelm Avgust Frobel tomonidan asos solingan.

1839 yilda Fridrix Frobel Blakenburgda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan kattalar uchun o‘yinlar va mashg‘ulotlar

uchun ta'lim muassasasini ochdi. Ungacha dunyoda kattaroq bolalar uchun maktablar bo'lgan, biroq bunday ta'lim muassasalari mavjud bo'lmagan.

Oradan bir yil o'tib, 1840 yil Fridrix Frobel o'zi yaratgan ta'lim muassasasini **“kindergarden”**, ya'ni **“bolalar bog'chasi”** deb atagan va unda ishlayotgan pedagoglarni **“bog'bonlar”** deb atagan. Shundan buyon, **“Bolalar bog'chasi”** nomi saqlanib qolgan va hali ham mavjud.

Fridrix Frobel bu nomning tavsifiga shunday to'xtaladi: “Bolalar – Xudoning nihollari, shuning uchun ularga xuddi bog'dagi nihol kabi parvarish va e'tibor kerak”. Shundan so'ng “bolalar bog'chasi” nomi keng yoyilib ketgan.

Nima uchun “bog'cha” deb atalgan? Fridrix Frobel buni shunday izohlagan:

- 1) bolaning tabiat bilan muloqot qilish joyi sifatidagi haqiqiy bog' muassasaning ajralmas qismi bo'lishi kerak;
- 2) bolalar, o'simliklar kabi, mohirona parvarishga muhtoj.

Keyinchalik Frobelning “bolalar bog'chasi” iborasi 1902 yilgi Brockhaus - Efron ensiklopedik lug'atida quyidagicha keltirilgan: “Ushbu tushuncha ikki xil ma'noga ega bo'lib: birinchidan, bog'da bolalar o'ynashi va tabiatdagi o'simliklar hayoti bilan tanishishi mumkin, ikkinchidan, bu ramziy ma'noda bolalarning mohirona va ehtiyotkorlik bilan parvarish qilishni talab qiladigan o'simliklarni bildiradi.



Bolalar bog'chasining vazifasi erkin, mustaqil, o'ziga ishongan shaxsni tarbiyalash edi. Frobel bolalar bog'chasi bolalarning quvonchli joyi bo'lishini xohlardi. Pedagoglar faoliyatining asosiy maqsadi bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirish edi. Bolalarga g'amxo'rlik qilish va ularning barkamol rivojlanishi uchun yordam berish kerak bo'lgan gullar sifatida ko'rilgan.

Bolalar bog'chalari uchun tarbiyachilar va enagalar maxsus o'qitilgan. Bolalarga mehr-muhabbat, o'yinga intilish, fe'l-atvorning pokligi bilan ajralib turadigan qizlar pedagoglik kurslariga qabul qilinib, o'sha paytga qadar ayollar maktabini bitirib bo'lishgan edi. Bo'lajak bog'cha tarbiyachilari ta'lim vositalarini, inson va bolaning rivojlanish qonuniyatlarini o'rgandilar, amaliy mashg'ulotlar olib boradilar hamda bolalar o'yinlarida qatnashadilar. O'sha paytda yosh bolalarni tarbiyalash va rivojlantirish uchun ularning rivojlanishi haqida maxsus bilim va pedagoglarning maxsus kasbiy mahorati zarurligi tushunilgan.

**BOLALAR  
BOG'CHALARINI  
PAYDO  
BO'LISHNING  
XRONOLOGIK  
QISQACHA  
TARIXI**

Pedagogik muassasaning bir turi sifatida, birinchi maktabgacha ta'lim tashkiloti 1802 yilda Nyu-Lanarkda (Shotlandiya) utopist sotsialist Robert Ouen tomonidan tashkil etilgan bo'lib **“Kichik bolalar uchun maktab”** deb nomlangan.

Robert Ouen  
muassasa guruhlarini

yoshga qarab ajratgan. Ushbu muassasa Buyuk Britaniyadagi birinchi bolalar bog'chasi bo'ldi. Kichikintoylarga tarbiyachilar qarashar edi. Robert uchun ular bolalarni sevishlari, ularga ovoz chiqarmasliklari, ularga qarshi kuch ishlatmasliklari, kitob o'qishni



ortiqcha yuklamasliklari va bolalarni xursand qilishlari muhim edi. Tarbiyachilar bolalarni tartibli va pokiza bo'lishga, janjaldan saqlanishga, bir-birlariga mehribon bo'lishga o'rgatishgan.

Bolalarning yoshiga mos o'yinlar tashkil etilib, hikoyalar o'qib berilgan. To'rt yoshgacha bo'lgan bolalar keng xonada, to'rt yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar boshqa xonada bo'lishgan. 4-6 yoshli bolalar xonasida hayvonlar

va xaritalar tasvirlangan rasmlar mavjud edi. Bog‘, dala, o‘rmon, tabiat ob‘ektlari ham bor bo‘lgan. Tarbiyachilar ba‘zan ular haqida aytib berishgan va bolalarni o‘zlariga ko‘rganlarini muhokama qilishga taklif qilishgan. Biroq, bolalar bog‘chasida majburiy topshiriqlar yoki kitoblarni o‘qish talab etilmagan.

1832 yillarda Yegor Osipovich Gugel - Gatchinskiy va uning izdoshlari I.Pestalossi, do‘sti P.Gurev bilan birga, o‘n nafar 4-6 yoshli yetim o‘g‘il bolalar uchun “Bolalarni qobiliyatlarini to‘g‘ri rivojlantirish yo‘nalishlari” va shu bilan birga “Yosh bolalar uchun maktablar” nomli muassasalarda bolalar ta‘lim - tarbiyasiga oid birinchi tajribasini amalga oshirgan. Bu maktabgacha ta‘lim tashkiloti Xelsingfors shahri, hozirgi Finlandiya poytaxti Xelsinki joylashgan. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti Frebel Adelaida Simonovichning izdoshi yozganidek, nafaqat “Tarbiyalanuvchilarni parvarish qilish zavodi”, balki “Hayot gullari o‘sadigan bog‘”ga aylanishi kerak edi.

Montessori ta‘limiga ega bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun birinchi “Bolalar uyi” (Casa dei Bambini) 1907 yilda San-Lorenzoning Rim kvartalida ochilgan.

Rossiyada o‘sha paytda maktabgacha ta‘lim tashkiloti yo‘q edi. Ishchi onalarning iltimosiga ko‘ra 1837 yil 15-mayda A.N.Demidov o‘z uyidan bir xonani ajratib, u yerda kuni bo‘yi bolalarni olib o‘tirilgan va bu jarayonda bolalarni mehnatsevarlikka o‘rgatishgan. Dastlab bu yerda 6 nafar o‘g‘il va 11 nafar qiz qaramoqqa olingan, bir yil o‘tib bolalar soni 112 nafarga yetgan. Biroq, o‘sha paytda bolalarni tarbiyalashning pedagogik tamoyillari hali ishlab chiqilmagan edi.

Jamoat arbobi, yozuvchi V.F.Odoyevskiy vaqtincha qarovsiz qolgan (1839) 3 yoshdan 9-yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun muassasa tashkil etadi va bu zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga o‘xshardi. Bunda ertalab soat 7 dan qabul qilish, soat 10 dan - 12 gacha darslar - tushlik soat 14.00 gacha, undan keyin - o‘yin, o‘qish, ertaklarni aytib berish, qo‘shiqlarni o‘rganish, madhiyalar, yozma darslar, hisob-kitoblar ishlari amalga oshiriladi.





Moskvada birinchi maktabgacha ta'lim tashkiloti 1866 yilda Gerke qizlar pansionatida ochilgan.

Birinchi pullik maktabgacha ta'lim tashkiloti 1859 yilda Xelsingforsda Sedmigradskiy tomonidan, ikkinchisi 1863 yilda Sankt Peterburgda Sankt - Peterburg universiteti professori S. A. Lugebil tomonidan, uchinchisi 1863 yilda Xelsingforsda, to'rtinchisi 1866 yilda Sankt-Peterburgda ochilgan.

1866 yildan 1870 yilgacha Irkutsk, Voronej, Moskva, Smolensk, Tbilisi, Sankt - Peterburgda xususiy shaxslar tomonidan bir nechta pullik bolalar bog'chalari ochilgan.

1868-1869 yillarda Moskvada Mamontova, Levenstern, Soloviyova va Rimskiy - Korsakovaga tegishli to'rtta pulli bolalar bog'chalari ochildi. 1893 yilda Moskvada qiz va o'g'il bolalar uchun 7 ta pullik xususiy bolalar bog'chalari mavjud bo'lgan (35 qiz va 21 o'g'il). Ularning barchasi o'quv muassasalarida bo'lgan va yosh bolalar uchun tayyorgarlik maktablari bo'lgan. Ushbu bolalar bog'chalariga 3 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilingan.

Birinchi bepul maktabgacha ta'lim tashkiloti 1866 yilda Rossiyada ochilgan. Bu "Sankt - Peterburg ishchilarining bolalari uchun arzon turar joylar jamiyati" xayriya muassasasi edi. Bu yerda bolalar kiyimlarini tikish tikuvchilik ustaxonasi, oshxona, kir yuvish, bolalar uchun maktab bor edi. Katta yoshdagi bolalarga oyatlar, ibodatlar, turli xil hunarmandchilik buyumlari, masalan, to'qish, chizish, o'yma va boshqa hunarlar o'rgatilgan. Ammo pul mablag'lari yetishmasligi sababli tez orada bepul maktabgacha ta'lim tashkiloti yopilgan.



1863 yil 27 sentabrda Adelaida Semyonovna Simonovich turmush o'rtog'i bilan birinchi marta Peterburgda bog'cha tashkil etadi va o'sha yili **“Bolalar bog'chasi”** deb nomlangan jurnalini chiqara boshlagan.

XIX asrda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, serfdomizm (dehqonlar qaramliklari)ning bekor qilinishi, Rossiyada ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy holatining o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bolalar bog'chalari shaharlarda ishlaydigan ayollar uchun zarur edi. Maktabgacha ta'lim tizimi faol rivojlanib bordi. 30 yildan keyin Rossiyada o'nlab bolalar bog'chalari paydo bo'ldi, ular pullik va bepul bo'lib, bunda zodagonlar va ziyolilar bolalari, ishchilar bolalari va mehribonlik uylari bolalari qamrab olingan.

Ta'kidlash joizki, sobiq ittifoq davrida davlat bolalar bog'chalarining doimiy mavjudligi moliyalashtirish bilan bog'liq qiyinchiliklarga duch kelgan. Shuning uchun ularning soni juda ko'pchilikni tashkil etmas edi va ular asosan yirik shaharlarda mavjud edi.



Sobiq ittifoq davrida ayollar ham iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kuch sifatida jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishgan. Ayollar fuqarolarining ko'payishini ta'minlaganliklari uchun, davlat onalik va ayollar salomatligini ijtimoiy qo'llab - quvvatlash siyosatini olib bordi. Ayollarni og'ir **“Maishiy qullikdan”** xalos qilish uchun davlat bolalar bog'chalari, mehribonlik uylari va ovqatlanish joylari tizimi ish boshladi. Hukumat tomonidan maktabgacha ta'lim tashkiloti jamiyat ishlariga faol ishtirok etishiga ruxsat berildi.

1949 yil urushda erkaklarning ko'pchiligi jalb etilganligi va katta yo'qotishlar uchun sobiq SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi tomonidan maxsus

qaror qabul qilindi, unga muvofiq bolalarni bog‘chalari uchun to‘lov 50 foizga kamaytirildi.

Qishloq joylarda bolalar bog‘chalari tarmog‘ini rivojlantirishga ham katta e’tibor berildi.

“Kolxoz bolalar bog‘chalari to‘g‘risidagi Nizom” va “Kolxozlarda bolalar bog‘chalari tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (1973) qarori qabul qilindi.

1937 yilda joriy etilgan idoraviy bolalar bog‘chalari, ya’ni ma’lum bir tashkilotga tegishli bog‘chalar ochildi.

1959 yilda maktabgacha ta’limning yangi turi ota - onalarning iltimoslariga binoan, bolalarni ikki oylikdan yetti yoshgacha tarbiyalash maskani joriy etildi.

1989 yilda sovet ittifoqida maktabgacha yoshdagi bolalarning faqat 57% bolalar jamoat tashkilotlariga jalb etilgan. O‘rta hisobda maktabgacha yoshdagi bolalarni bog‘chalarda ta’lim - tarbiya olishlarini ta’minlash respublikalar o‘rtasida keskin farq bor edi.

<b>T/r</b>	<b>Respublikalar</b>	<b>Bolalarni bog‘chaga jalb etish foizda</b>
<b>1.</b>	Rossiyada	69%
<b>2.</b>	Ukrainada	61%
<b>3.</b>	Belarusiyada	73%
<b>4.</b>	Moldaviyada	73%
<b>5.</b>	Qozog‘istonda	52%
<b>6.</b>	O‘zbekistonda	37%
<b>7.</b>	Gruziyada	44%
<b>8.</b>	Qirg‘izistonda	31%
<b>9.</b>	Armanistonda	35%
<b>10.</b>	Turkmanistonda	33%
<b>11.</b>	Ozarbayjonda	21%

Tarixiy faktlarga ko'ra, 1988 yilda sobiq ittifoqqa 147,4 ming doimiy bog'chalar va 17.354 ming nafar maktabgacha yoshdagi bolalar mavjud bo'lgan.

**O'ZBEKISTONDA  
MAKTABGACHA  
TA'LIMNING  
VUJUDGA KELISHI**

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga to'g'ri keladi.

O'rta Osiyoda XIX asrning 80-90 yillari taraqqiyparvarlik kayfiyatidagi mahalliy ziyolilar mehnatkash ayollarning og'ir ahvolini va bolalar nazoratsizligini ko'rib, ularning ijtimoiy hayotini yaxshilashga harakat qildilar. Bu ziyoli vakillar 1872 yilda Turkistonda tuzilgan "Jamiyati xayriya" a'zolari edilar. "Jamiyati xayriya" tashkiloti tomonidan miskinlar uylari, tunash joylari, tug'ruqxonalar bilan bir qatorda ota-onasi bo'lmagan bolalar uchun yetimxonlarni tashkil etdilar. Bu yetimxonalar butun Turkiston bolalarining taxminan 150-200 kishisini o'z ichiga olardi. Yetimxonalarda yasli yoshdan tortib, maktab yoshidagi bolalar ham qamrab oilingan.

1891 yilda "Bog'dorchilik" jamiyati tomonidan Toshkent istirohat bog'ida maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun "Bolalar maydonchasi xilida" birinchi bolalar bog'chalari ochildi. Maydonchada arg'imchoq, qayiqlar, katta arg'imchoq (ustunga osilgan) o'rnatildi va xilma-xil o'yinchoqlar tayyorlandi. Maydonchada gulzor katta o'rinni egallab, bolalar o'zlari o'simliklarni parvarish qilishardi.

1896 yilda Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun "yasli"lar deb ataladigan muassasalar tuzila boshlandi. Yaslilarga atak-chechak qila boshlagan bolalar qabul qilingan va maktabga ketgunga qadar tarbiyalangan. Bolalar kun bo'yi yasli bo'lishar va uch marta ovqatlantirilar edi. Yasli ishlarini nazoratchi ayol boshqargan, xizmat qiluvchi xodimlar ham bo'lgan. Bu muassasada bolalar duolar o'qishga (duogo'ylikka) qat'iyat bilan o'rgatilgan. Shuningdek, bolalar oddiy o'qish - yozishga, sanashga, to'qishga, to'r to'qishga, tikish - bichishga va boshqa hunarlarga o'rgatilgan. Butun o'lka bo'ylab shunday yaslilardagi bolalar soni 50 - 60 boladan oshmas edi.

1891 - 1903 yillar davomida mablag' yo'qligi sababli bog'chalar bir necha marta yopilgan. Ta'lim - tarbiyaga oid ilg'or g'oyalarning ta'siri ostida Toshkentda 1903 yil fevral oyida "Oilaviy ta'lim - tarbiya to'garagi" tashkil qilindi. To'garak harbiy ministr va Xalq maorifi tomonidan tasdiqlangan Ustav asosida ish boshlagan. U o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'ygan:

1. Bolalarga ta'lim - tarbiya berish usullarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam berish;
2. Pedagoglar bilan ota - onalarni va bolalar tarbiyasi ishini boshqaradigan kishilarni (oila, maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotining yagona tarbiyaviy ta'sir etishini belgilash maqsadida) bir - birlariga yaqinlashtirishni qo'yadi.

Bu to'garakda maktabgacha ta'lim seksiyasi ham faoliyat ko'rsatgan. Ta'lim - tarbiya to'garagi yuzaga kelgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyaviy ishida muayyan pedagogik tizim yo'q edi, shu sababli to'garak a'zolari bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan masalalarni muhokama qilishar edi.

Bolalar birinchi marta 4 - yoshdan 6 - yoshgacha va 6 - 10 yoshgacha bo'lgan ikki xil yosh guruhlariga bo'lindi. Mashg'ulotlar, o'yinlar va ko'ngil ochishlar programmasi tuzilib, ular ketma - ketlikda belgilab qo'yildi. Harakatli o'yinlar, xor bo'lib aytiladigan ashula, o'qish, rasm chizish, loy va plastilindan narsalar yasash, gimnastika mashqlarini reglamentga soladigan jadval tuzildi. Ota - onalarning talabi bilan xorijiy tillar ya'ni fransuz va nemis tillari o'rgatilgan, bu ishlarni mutaxassislar tomonidan tekin amalga oshirilgan.

Turkistonda kambag'allarning bolalari uchun Toshkent, Samarqand, Sirdaryo va Namanganda yetimxonalar tashkil etilgan. Sirdaryo, Samarqand, Toshkent shaharlarida bolalar bog'chalari kabi ayrim bog'chalar yuzaga keldi.

1909 - 1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog'chalar paydo bo'ldi: bu muassasalarda 6 yoshdan boshlab bolalar asosan gimnaziya o'qishga tayyorlanar edi. Bunday bolalar bog'chalari iqtisodiy jihatdan yaxshi ta'minlangan xususiy uylarda ochilar va tamomila ota - onalar ta'minotida bo'lgan. Ma'lumotga ega bo'lgan va chet tillarini biladigan o'qimishli ayollar

tarbiyachi bo‘lib ishlar edilar. Ammo mazkur bolalar bog‘chalari faqat badavlat ota - onalarning bolalari uchun edi.

Davlat tomonidan ijtimoiy bolalar bog‘chalari faqat 1917 yildan keyingina yalpi tarzda tashkil etildi.

Ijtimoiy maktabgacha ta’lim - bu hukumat tomonidan tashkil etiladigan davlat qaramog‘idagi bolalar muassasalari bo‘lib, unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim va tarbiya berilar edi. Ijtimoiy maktabgacha ta’limning vujudga kelishi asosan XX asrning 1917-1918 yillardan keyingi davrlarga to‘g‘ri keladi. Bunda xalq komissarligining maktabgacha tarbiya bo‘yicha 1917 yil 20 noyabrdagi Deklaratsiyasi “Bolalar himoyasi Soveti”ning tuzilishi mamlakatda davlat tomonidan maktabgacha tarbiya muassasalarini ko‘plab ochilishi maktabgacha tarbiya bo‘yicha xodimlarni tayyorlash vazifalarini qo‘yadi. Xotin-qizlarni mamlakatning xo‘jalik va siyosiy hayotiga jalb etish ishlari bolalar bog‘chalari tarmoqlarini kengaytirish va qishloqda dastlabki bolalar bog‘chalarini tashkil etilishiga daslabki qadam qo‘yiladi.

1918 yil 20 oktabrdan boshlab Respublikadagi maktabgacha tarbiya sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma’muriy organ sifatida “Maktabgacha tarbiya bo‘limi” faoliyat yurita boshladi. Xuddi shu yilda viloyat “Xalq maorifi bo‘limlari”ning qoshida “Maktabgacha tarbiya kichik bo‘limlari” tashkil qilingan. Bu tadbir Respublikada maktabgacha tarbiyaning jonlanishiga yordam berdi. Maktabgacha tarbiya bo‘limlarining faoliyati uch asosiy yo‘nalishda:

1. Bolalar bog‘chalarini ochish uchun joy qidirish, ularni binolar, mebel va jihozlar bilan ta’minlash.
2. Maktabgacha tarbiya xodimlari, shu jumladan mahalliy, milliy vakillaridan kadrlar tayyorlash.
3. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishdan iborat edi.

O'zbekistonning tub aholisi joylashgan hududlardagi bolalarini maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb etish uchun kurash juda murakkab va qiyin sharoitda kechdi.

1918 yilda Toshkentning sobiq eski shahar qismida o'zbek bolalari uchun 4 ta bog'cha ochishga muvaffaq bo'lindi:

**birinchi bog'cha** – Shayxontoxur dahasida joylashgan bo'lib, Hasanova mudiri bo'lib, Mahsuma Qoriyeva va Robiya Abdurashidovalar tarbiyachi bo'lib faoliyat ko'rsatishgan;

**ikkinchi bog'cha** - Xo'ja ko'chasida joylashgan bo'lib, Anvar Yausheva mudirlik qilgan;

**uchinchi bog'cha** - Ko'kcha dahasidagi Langar ko'chada ochilgan;

**to'rtinchi bog'cha** - Beshyog'och dahasida ochilgan bo'lib, bunda Qodirxonov mudirlik qilar edi.

1920 yilda Turkiston Respublikasida 71 ta bolalar bog'chasi, shu jumladan, mahalliy aholi bolalari uchun 16 ta bog'cha va 12 ta bolalar maydonchalari tashkil etilib, bolalar bog'chalardan 4 tasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlarning bolalari tarbiyalana boshlandi. O'sha davrda maktabgacha tarbiya muassasalarida hammasi bo'lib 6394 bola tarbiyalanar edi. 1921 yilga kelib bolalar bog'chalarining soni 105 taga, shu jumladan, mahalliy millat bolalari uchun 32 taga yetdi. Bolalar bog'chalarida tarbiyalanuvchilarning soni qariyb 8000 kishiga yetdi, ulardan 2000 dan ko'prog'i boshqa millatlarning farzandlari edi.

1926 yilga kelib jami 40 ta bolalar bog'chasida 2000 ga yaqin bolalar bo'lgan. Bu esa respublikadagi maktabgacha yoshdagi bolalarning 36,4 % dir. Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining chiqarilishi muhim muvaffaqiyat bo'ldi.



1927 yilda boshlangan ayollarning hujum harakati munosabati bilan bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish hollari yanada ko'paydi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlar yordamida ishlayotgan ayollarga yana bir yordamchi tashkilot yozgi

sog'lomlashtirish maydonchalari ta'ris etildi.

XX asr 30 yillarining maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog'chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish keng tarqaldi. Bu tekshirishlar natijalariga ko'ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta'minlanmaganligi, tozalik me'yorlariga amal qilinmasligi kabi kamchiliklarga qarshi kurash olib borilgan. Qishloqlardagi bolalar bog'chalari va maydonchalari maktabgacha tarbiya muassasalariga nisbatan bo'lgan salbiy qarashlar tufayli katta qiyinchiliklarga duchor bo'lgan.

1930 yilda O'zbekistonda respublikaning barcha katta shaharlari va viloyatlarida o'z bo'linmalariga ega bo'lgan maktabgacha tarbiya pedagogik maslahatxonasi tashkil qilindi. Uning faoliyati doimiy ma'ruzalar, radiosuhbatlar, ayollar uchun ko'rgazmalar tashkil qilishdan iborat edi. Ular uchun bolalarga eng yaxshi burchak qilish bo'yicha musobaqa ham o'tkazilgan.

1933-1934 yillarda sanab o'tilgan harakatlar natijasida O'zbekistonda 3840 ta kolxoz maydonchalari bo'lib, unda 127 ming bolalar qatnashgan. 1933 yil bolalar bog'chalari uchun ilk dastur loyihalarini ishlab chiqarish yili sifatida muhrlandi. Rusiy zamon bolalar bog'chalari dasturlari asosida tuzilgan bu dasturlar keyinchalik mahalliy sharoitlarni inobatga olib qayta tuzilgan. Maktabgacha tarbiya birlashmalarining metodik faoliyati yagona markaz tomonidan rahbarlikni amalga oshirishga ehtiyoj sezgan. 1934 yil Toshkentda tuzilgan Respublika maktabgacha tarbiya metodik xonasi shunaqa markaz vazifasini bajardi.



Natijada 1938-1939 yillarda respublikada 927 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilgan edi va ularda 36710 ta bola bor edi. Shu bilan birga bu vaqtda onalar uchun "Bolalar xonalari" nomli maktabgacha tarbiya muassasalari ham tuzilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar bog'chalari va bolalar maydonchalarining tarmog'i deyarli ikki barobar kengaydi. 1944 yil 1 - yanvariga kelib 54 ming bola tarbiyalandi, davlat tamonidan 77 million so'm mablag' ajratildi. Bu yillarda O'zbekistonning bolalar bog'chalarida ko'chirib keltirilgan 16000 dan ko'proq bolalar tarbiyalandi. Shuningdek, ota - onasiz qolgan qariyib 400 bolani vasiylikka olish prinsipiga muvofiq boqib olingan va tarbiyalab katta qilingan.

Ulug' Vatan urushi bolalar bog'chalari tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida ularning soni keskin oshdi: agar 1941 yilda qariyib 14,3 ming kishi bo'lsa, 1945 yilda 25 mingdan oshdi. Bu asosan, mamlakatning ishchi kuchlariga kuchli ehtiyoj borligi bilan bog'liq. Yana bir sabab - bu O'zbekistonga evakuatsiya qilingan bolalarning ko'pligi bilan bog'liq. O'sha yillarda tarbiyachilar va enagalarning mehribonligi, bag'rikengligi bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasasini ikkinchi uy bo'lishiga sabab bo'lgan va bog'chalar oilaga aylanishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishdi.

Shunday qilib, 1941 yil qishida Moskvadagi ko'plab bolalar bog'chalari bomba tashlanmaydigan joylarga o'tkazilishi kerak edi. Bolalar qorong'i va yopiq xonalarda edi. Bu vaziyatni 12-sonli bog'chaning keksa onasi Praskovya Fedorova o'zining barcha pullariga sham sotib olib, ularni devorlarga mustahkamlab qo'ydi va tashqariga chiqmasliklarini tayinlab, bolalarni kechayu kunduz kuzatib bolalarga soya teatrini namoyish etish bilan ularni asrab qolgan.

**IKKINCHI JAHON  
URUSHI YILLARIDA  
MAKTABGACHA  
TA'LIM**

Urush yillari O'zbekistonda minglab bolalar ko'chirib keltirilganligi sababli bolalar bog'chalari tarmog'ining kengayishi, ularda ish

kunini uzaytirish zaruriyati paydo bo'lgan. Urush yillari maktabgacha internatlar ham tashkil qilingan. Ulardagi tarbiyaning o'ziga xosligi shundan iborat ediki, ularda o'z oilasi, yaqinlaridan ajragan bolalar tarbiyalanishgan. Bu holda pedagoglardan juda katta mas'uliyat talab etardi. Urushdan keyingi davrda oziq - ovqat muammolari munosabati bilan kuchsizlangan bolalar uchun sog'lomlashtirish chora-tadbirlari kuchaytirildi. Bu maqsadda respublikaning bir qator shaharlarida sanatoriya tipidagi bog'chalar tashkil qilindi.

Qishloq hududida maktabgacha tarbiyaning rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, ayollar mehnatidan foydalanish zaruriyati bilan bog'liq edi. 1959 yildan maktabgacha tarbiyaning yagona tuzimini tashkil qilish maqsadida ikki turdagi maktabgacha tarbiya muassasalari bitta yasli bog'chaga birlashtirildi. Bu esa bolalarni tarbiyalash jarayonining faollashuviga olib keldi.

O'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar Toshkent va Marg'ilon pedagogika o'quv yurtlari tomonidan amalga oshirilgan. 1957-1958 yillarda esa 517 ta mutaxassis chiqarishgan. Metodik va tarbiya ishlarini yaxshilash maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan, Farg'ona va Chirchiq shaharlarida maktabgacha tarbiya xonalari ochilgan.

1961 - yil Qori Niyoziy nomidagi pedagogika fanlari ilmiy - tadqiqot markazida O'zbekistondagi maktabgacha tarbiya muammolari ustida tadqiqot olib boruvchi, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va metodika xonalariga yordam ko'rsatuvchi markaz ochildi.

Toshkentda 1966 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan zilzila natijasida 225 ta maktabgacha tarbiya muassasalari barbod bo'ldi. Biroq qisqa vaqt mobaynida boshqa Respublika quruvchilari yordami bilan bu muassasalar qayta tiklandi.

XX asrning 60-80-yillarda ommaviy maktabgacha tarbiya quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:

✚ markazlashgan jamoa xo'jaliklariaro maktabgacha tarbiya muassasalarining ish tajribasini o'rganish uchun Respublika majlislarini o'tkazish;

- ✚ kolxozlar orasida eng yaxshi maktabgacha tarbiya muassasasi nomiga musobaqa o'tkazish;
- ✚ yuqumli kasalliklardan aziyat chekuvchi bolalar uchun maxsus muassasalar tashkil etish;
- ✚ bolalar sog'ligini saqlash bo'yicha maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil qilish;
- ✚ yasli bog'cha va boshqa tarbiya muassasalari uchun mutaxassislar tayyorlash;
- ✚ respublikaning pedagogik va musiqa o'quv yurtlarini keng turdagi mutaxassislar tayyorlab berishga o'tkazish;
- ✚ maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning yagona dasturini ishlab chiqish;
- ✚ bolalarning estetik tarbiyasiga katta ahamiyat berish;
- ✚ o'zbek milliy san'ati asarlaridan foydalanish va boshqalar.

O'tgan asrning 40-60 yillariga kelib, maktabgacha tarbiya sohasi jadallik bilan rivojlandi. Maktabgacha tarbiya muassasalariga bo'lgan talab ortishi munosabati bilan turli (kecha-kunduz) yo'nalishdagi sanatoriya, bolalar internatlari tashkil etildi.

#### **O'zbekistonda davlat maktabgacha tarbiya muassasalarining o'sishi**

<b>Yillar</b>	<b>Bolalar bog'chalarining soni</b>	<b>Muassasalardagi bolalar soni</b>	<b>Direktor va tarbiyachilar soni</b>	<b>Bolalar maydonchalari</b>	<b>Maydonchadagi bolalar soni</b>
<b>1923-1924</b>	12	687	24	-	-
<b>1927-1928</b>	49	2547	123	-	-
<b>1929-1930</b>	410	20739	1196	170	<b>10470</b>
<b>1933-1940</b>	<b>780</b>	<b>33800</b>	<b>2473</b>	<b>316</b>	<b>7900</b>

Maktabgacha tarbiya sohasini rivojlantirishda 1943 yilda Pedagogika fanlari Akademiyasida maktabgacha tarbiya sektorining tashkil etilishi katta voqea bo'ldi. Bu yillarda bolalarning aqliy tarbiyasi muammolari, elementar matematika nazariyasi va metodikasi bo'yicha tadqiqot olib borgan pedagog A.M.Muxina, "Maktabgacha pedagogikaning didaktik materiallari" asosini ilmiy jihatdan ishlab chiqqan B.I.Xachakuridze, maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyati bo'yicha tadqiqotlar olib borgan Ye.A.Figurina, maktabgacha ta'lim-nazariyasini (o'qitish) ishlab chiqqan A.P.Usova kabi pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar maktabgacha tarbiya sohasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Bolalar bog'chasi" tushunchasi va uning asoschisi haqida ma'lumot bering.
2. Ilk bolalar bog'chalari qayerlarda tashkil etilgan?
3. Rossiyada bolalar bog'chalarining ta'lim tizimida tutgan o'rni qay darajada edi?
4. Maktabgacha ta'lim sohasida A.N.Demovning olib borgan ishlari haqida ma'lumot bering.
5. Sobiq ittifoq davrida maktabgacha ta'lim tizimi haqida ma'lumot bering.
6. O'zbekistonda bolalar bog'chasining paydo bo'lish tarixi va rivojlanishi haqida ma'lumot bering?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Rossiyada hamda O'zbekistonda bolalar bog'chasining paydo bo'lishining xronologiyasini tuzing.

<b>№</b>	<b>Maktabgacha ta'lim sohasida bo'lgan voqea va hodisalar</b>	<b>Sana va muddati</b>
<b>1.</b>		
<b>2.</b>		

## O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINING ME’YORIY ASOSLARI



*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.*

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh  
Assambleyasining  
72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan*

### **REJA:**

1. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy prinsiplari va ta’lim olish huquqi.
2. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimi va turlari.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari.
5. Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi.

**Tayanch tushunchalar:** *“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, ta’lim sohasidagi prinsiplar, ta’lim olish huquqi. uzluksiz ta’lim, ta’lim turlari, maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim, professional ta’lim, oliy ta’lim, oliy ta’limdan keyingi ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta’lim, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonun, inklyuziv ta’lim, korreksiyalash, umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti, qo‘shma turdagi Maktabgacha ta’lim tashkiloti, ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti.*

**“TA’LIM  
TO’G’RISIDA”GI  
QONUNNING  
ASOSIY  
PRINSIPLARI VA  
TA’LIM OLISH  
HUQUQI**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan hamda Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan bo‘lib, 2020 yil 23 sentabrda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan O‘RQ-637-son bilan tasdiqlandi.

Ushbu Qonunning maqsadi ta’lim sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

**“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy tushunchlari:**

**davlat akkreditatsiyasi** - davlat ta’lim muassasalari va tashkilotlari, shuningdek nodavlat ta’lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta’lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablariga hamda o‘quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e’tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon;

**davlat ta’lim muassasasi** - davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan davlat mulki bo‘lgan mol-mulk negizida tashkil etilgan, davlat ta’lim standartlariga va davlat ta’lim talablariga muvofiq ta’lim beradigan muassasa;

**davlat ta’lim standartlari** - davlat tomonidan ta’limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui;

**davlat ta’lim talablari** - ta’limning tuzilmasiga, mazmuniga va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga, shuningdek ta’lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlariga qo‘yiladigan majburiy talablar;

**malaka** - shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma’lumot to‘g‘risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko‘nikmalar darajasi;

**mutaxassislik** - malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi;

**nodavlat ta'lim tashkiloti** -davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish huquqini beradigan litsenziya asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxs;

**tarbiya** - aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

**ta'lim** - ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon;

**ta'lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilari** - ta'lim oluvchilar, voyaga yetmagan ta'lim oluvchilarning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari, pedagog xodimlar va ularning vakillari;

**ta'lim kampusi** - yagona hududda birlashtirilgan o'quv binolarini, ilmiy-tadqiqot institutlarini (markazlarini), ishlab chiqarish majmualari va texnoparklarni, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining vaqtincha yashash joylarini, laboratoriyalarni, axborot-resurs markazlarini (kutubxonalarni), sport inshootlarini, umumiy ovqatlanish obyektlarini o'z ichiga olgan binolar hamda inshootlar majmuidan iborat bo'lgan, o'quv jarayoni, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan ta'lim-tarbiya muhiti;

**ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi** - ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

**Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar quyidagilardan iborat:**

 ta'lim ustuvorligining tan olinishi;

- ✚ ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;
- ✚ ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ✚ ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ✚ ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi;
- ✚ ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati;
- ✚ ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ✚ o'n bir yillik ta'limning hamda olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyligi;
- ✚ davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- ✚ o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- ✚ insonning butun hayoti davomida ta'lim olishi;
- ✚ jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ✚ ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- ✚ bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- ✚ ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ✚ ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

**Ta'lim olish huquqi.** Jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.

#### **Ta'lim olish huquqi:**

- ✚ ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish;
- ✚ ta'lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va o'quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish;
- ✚ ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan holda (sirtqi, kechki, masofaviy) ta'lim olishni tashkil etish;
- ✚ kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;



✚ umumiy o‘rta, o‘rta maxsus ta’limni va boshlang‘ich professional ta’limni bepul olish;

✚ oilada yoki mustaqil o‘qish orqali ta’lim olgan fuqarolarga, shuningdek umumiy o‘rta ta’lim olmagan shaxslarga akkreditatsiyadan o‘tgan davlat ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

### **Ta’lim tizimi:**

✚ davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablarini, o‘quv rejaları va o‘quv dasturlarini;

✚ davlat ta’lim standartlarini, davlat ta’lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini;

✚ ta’lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni;

✚ ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;

✚ ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi.

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM TIZIMI VA TURLARI**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 7-bobida **ta’lim turlari** haqida ma’lumot berilgan. Bular quyidagilardan iborat:

✚ maktabgacha ta’lim va tarbiya;

✚ umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim;

✚ professional ta’lim;

✚ oliy ta’lim;

✚ oliy ta’limdan keyingi ta’lim;

✚ kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

✚ maktabdan tashqari ta’lim.

**Maktabgacha ta’lim va tarbiya.** Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va




jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy oʻrta taʼlimga tayyorlashga qaratilgan taʼlim turidir.

Maktabgacha taʼlim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha boʻlgan bolalarni boshlangʻich taʼlimga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha taʼlim va tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek, “Maktabgacha taʼlim va tarbiya toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi.

**Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim.** Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim umumtaʼlim oʻquv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda koʻnikmalarni oʻzlashtirishga qaratilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

-  boshlangʻich taʼlim (I-IV sinflar);
-  tayanch oʻrta taʼlim (V-IX sinflar);
-  oʻrta taʼlim (X — XI sinflar).

Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi.

Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek taʼlimning keyingi

turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish, shuningdek ta'lim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.




Nodavlat ta'lim tashkilotlarida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim to'lov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

**Professional ta'lim.** Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

-  boshlang'ich professional ta'lim;
-  o'rta professional ta'lim;
-  o'rta maxsus professional ta'lim.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim

fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'рта professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'рта, o'рта maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'рта maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'рта, o'рта maxsus, boshlang'ich professional va o'рта professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'рта va uch yillik o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan fuqarolar ham o'рта professional va o'рта maxsus professional ta'lim olish huquqiga ega.

Kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar ta'lim oluvchilarning o'zi tanlagan kasbga va mutaxassislikka ega bo'lishini ta'minlaydi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi professional ta'limni olish huquqiga ega.

**Oliy ta'lim.** Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'рта (o'n bir yillik ta'lim), o'рта maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'рта va ikki yillik o'рта maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'рта va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, shuningdek ushbu Qonun kuchga kirguniga qadar o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik

umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: bakalavriat va magistratura bosqichiga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir.

Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega.

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.** Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

**Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.** Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi.

**Maktabdan tashqari ta'lim.** Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

**“MAKTABGACHA  
TA’LIM VA TARBIYA  
TO’G’RISIDA”GI  
QONUNI**

Mamlakatimiz tarixida ilk bor “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019 yil 22 oktyabrda qabul qilinib, Senat tomonidan 2019 yil 14 dekabrda ma’qullangan hamda 2019 yil 16 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 595-son O‘RQ bilan tasdiqlangan.

Mazkur Qonunda, maktabgacha ta’lim va tarbiya – bolalarga ta’lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta’lim turi etib belgilandi.

Ushbu Qonunning 6-moddasida har bir bola maktabgacha ta’lim va tarbiya olish huquqiga egaligi hamda davlat har bir bolaning umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga o‘qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o‘tishga bo‘lgan huquqini kafolatlashi belgilangan.

Bolaning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishiga doir davlat kafolatlari davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari negizida maktabgacha ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatish, shuningdek ta’lim va tarbiya berishning muqobil shakllarini tashkil etish orqali ta’minlanadi.

Davlatimizda keyingi uch yilda maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar bugun yurtimizdagi har bir xonadonga kirib bordi, shaharu qishloqlarimizda ko‘rkam maktabgacha ta’lim tashkilotlari qad rostladi. Shu ma’noda, sohaning huquqiy asoslari alohida qonun bilan mustahkamlanishi Davlatimiz rahbari tomonidan kelajak avlod ta’lim-tarbiyasiga ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikning yaqqol namunasi sanaladi. Zero, O‘zbekistonda dunyo tajribasida birinchi marta maktabgacha ta’lim vazirligi tashkil etildi, mamlakatimizda birinchi marta davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat olib

boradigan bog‘chalar tashkil etildi, mobil guruhlar bazasida maktabgacha ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi.

Maktabgacha ta’lim sohasiga oid qonun bilan mamlakatimizda yashovchi har bir bolaning maktabgacha ta’lim-tarbiya olish huquqiga ega bo‘lgani, eng muhim jihat, davlat har bir bolaning umumiy o‘rta ta’lim tashkilotiga o‘qishga kirishidan bir yil oldin davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida umumiy o‘rta ta’limga majburiy bir yillik tayyorgarlikdan o‘tishga bo‘lgan huquqini kafolatlashi belgilab qo‘yilgani katta yangilikdir.

**O‘ZBEKISTON  
RESPUBLIKASIDA  
MAKTABGACHA  
TA’LIM  
TASHKILOTLARINING  
TURLARI**

Qonunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari aniq ko‘rsatib qo‘yilgan (umumiy turdagi, ko‘p tarmoqli ixtisoslashgan, inklyuziv guruhlariga ega hamda qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari) bo‘lib, maktabgacha ta’lim

tashkilotlarining ish rejimi, maktabgacha yosh davrlari, bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilish va ulardan chiqarish, maktabgacha ta’lim tashkiloti guruhlarini to‘ldirish va bolalarni bir guruhdan boshqasiga o‘tkazish haqidagi aniq normalar nafaqat amaliyotda ishlovchilarga, balki ota-onalar uchun ham har tomonlama qulaylik tug‘diradi.

**Umumiy turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotining** umumiy rivojlantirish yo‘nalishidagi guruhlarida maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

**Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotida** rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi amalga oshirilishi ta’minlanadi.

**Inklyuziv guruhlariga ega maktabgacha ta’lim tashkilotida** bolalarning alohida ta’lim olish ehtiyojlari va individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularni sog‘lom muhitga uyg‘unlashtirish orqali ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlar ta’minlanadi.



**Qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotida** rivojlanishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalarning va rivojlanishida nuqsonlari bo'lmagan bolalarning bitta tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek inklyuziv guruhlarda birgalikda o'qishini hamda tarbiyalanishini tashkil etishga qaratilgan maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM VA  
TARBIYA TIZIMI**

Mazkur Qonunning 15-moddasi maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimi haqida bo'lib, maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimiga quyidagilar kiritilgan:

- maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- ta'lim berishning muqobil shakllari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari va ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlar.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti davlat va nodavlat tashkiloti bo'lishi mumkin. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ham tashkil etilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga hamda faoliyat yuritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Ilk bor mazkur qonun bilan maktabgacha ta'lim tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir qat'iy talab va cheklovlar belgilanayotganining sababi ularning qo'lida yurtimiz kelajagi bo'lgan farzandlarimiz tarbiyalanishi bilan izohlanadi.

Qonunga muvofiq, kelgusida muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari yoki jismoniy nuqsonlari bo'lgan fuqarolar, shuningdek

qasddan jinoyatlar sodir etgani uchun ilgari hukm qilingan fuqarolar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas. Shuningdek, vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va tashkilotlar bilan o'z mehnat shartnomalarini salbiy sabablarga ko'ra tugatgan fuqarolar, qo'llanilgan jazo chorasidan, sudlanganligi holati tugatilganidan yoki olib tashlanganidan, o'ziga nisbatan amnistiya yoki avf etish akti qo'llanilganidan qat'i nazar, qasddan sodir etilgan jinoyatlar uchun ilgari hukm qilingan shaxslar, jinoyat ishlari aybdorligi to'g'risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlar sodir etgan shaxslar maktabgacha ta'lim tizimi organlari va tashkilotlarining rahbar xodimlari bo'lishi mumkin emasligi haqidagi norma kiritilgan.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsini har tomonlama shakllantirishga, ularni jismoniy, ma'naviy-axloqiy va hissiy rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratiladi, bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrovining oshishiga erishiladi. Tarbiyalanuvchilarning sifatli maktabgacha ta'lim olishi uchun teng imkoniyatlar yaratiladi. Sohada davlat-xususiy sheriklik rivojlanadi.

Qonunning 23-moddasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning majburiyligi bayon etilgan bo'lib, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlari tashkil etilganda, turar joy majmualari qurilganda, tegishli hududda maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarning qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan soni oshganda majburiy tartibda tashkil etilishi ko'rsatilgan.

Bir nechta ko'p kvartirali uydan yoki yakka tartibdagi uylar guruhlaridan iborat bo'lgan yangi turar joy majmualarini loyihalashtirish va qurishda ko'p kvartirali uylarning birinchi qavatlarida yoxud alohida bino tarzida har bir ikki yuzta kvartira yoki yakka tartibdagi uylar uchun kamida ellikta o'rindan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotining mavjud bo'lishi shartligi nazarda tutiladi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etiladi, boshqaruv organlari va ularning faoliyatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moliyaviy faoliyatida ochiqlik, shaffoflik prinsiplarining ustuvorligi ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirishga, tizim xodimlarini tanlash va rivojlantirishda yangicha yondashuvlar tatbiq etilishiga erishiladi.

Eng muhimi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sifatli tibbiy xizmat, bolalarning ratsional va sog'lom ovqatlanishi ta'minlanadi, ayniqsa, bolalarning maktabgacha ta'lim olishida ota-onalarning roli kuchaytiriladi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunning 24-moddasida maktabgacha ta'lim tashkilotining huquq va majburiyatlari belgilangan. Unga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkiloti:

- maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqishga;
- bolaning qonuniy vakillari bilan tuzilgan shartnoma asosida maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturida nazarda tutilganidan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatishga;
- bolaning qonuniy vakillari bilan ta'lim va tarbiya borasida hamkorlikni amalga oshirishga haqli.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti:

- davlat maktabgacha ta'lim va tarbiya standarti talablariga mos keladigan maktabgacha ta'lim darajasini ta'minlashi;
- bolalarning rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratishi;
- bolaga ta'lim va tarbiya berish masalalari yuzasidan uning qonuniy vakillariga maslahat yordamini berishi;

➤ bolaning hayotiga yoki sog‘lig‘iga tahdidlar, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi faktlari to‘g‘risida vakolatli organlarni xabardor qilishi shart.

Ushbu Qonunning 5-bobi maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga bag‘ishlangan bo‘lib, bobning 28-moddasida Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti haqida. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat standarti barcha maktabgacha ta‘lim tashkilotlari uchun majburiylik, davlat standarti kamida besh yilda bir marta qayta ko‘rib chiqilishi, ushbu davlat standarti maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta‘lim va tarbiya berish sohasidagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarni, uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, shuningdek maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini loyihalashtirishda, qurishda, jihozlashda va ularning faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi aytib o‘tilgan.

Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim dasturi bolani to‘laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta‘minlaydi. Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat ta‘lim dasturi:

- bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni;
- bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlarini va an‘analari bilan tanishtirishni;
- bolaning ijtimoiy moslashuvini;
- alohida ta‘lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan pedagogik-tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy-psixologik ishlar amalga oshirilishini;
- bolalarni umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlashni ta‘minlashi kerak.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) hamda rehabilitatsiya qilishga muhtoj bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta‘lim va tarbiya olishi maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning davlat

ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo'yicha amalga oshiriladi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning maqsadi?
2. Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar nimalardan iborat?
3. Ta'lim olish huquqida nimalar kafolatlanadi?
4. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunni qabul qilishdan maqsad?
5. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turlari qaysilar?
6. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunga ko'ra maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimiga nimalar kiritilgan?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

"Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning bob va moddalarini "Idrok xaritasi" asosida tahlil qiling.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING ISH HUJJATLARI**

*Bilimsizlik – insoniyat uchun eng  
qorong'u tundur.*

*Konfutsiy*



### **REJA:**

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining ish hujjatlari.

3. Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlari.
4. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali).
5. Bolalar davomatini qayd etish daftari.
6. Bolalarning rivojlanish xaritalari.

**Tayanch tushunchalar:** *O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, tarbiyachining shaxsiy ish rejasi, bolalar davomatini qayd etish daftari, tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar, bolalarning rivojlanish xaritalari.*

**DAVLAT  
MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARI  
PEDAGOGLARINING ISH  
HUJJATLARI**

O'zbekiston Respublikasining  
"Maktabgacha ta'lim va tarbiya  
to'g'risida"gi Qonuni va Vazirlar  
Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda  
"Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat

standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 802-sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yuritilayotgan ish hujjatlarini tartibga solish, xodimlarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida, Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug'iga asosan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro'yxati hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining ish hujjatlarini yuritilishi bo'yicha qo'llanma tasdiqlangan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari ro'yxati 01 dan 12 gacha indeksatsiya qilingan bo'lib, bunda yig'ma jildlar nomi, saqlanish muddati va modda raqamlari qayd etilgan. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari quyidagi hujjatlar ro'yxatidan iborat:

- 01- Boshqaruv hujjatlari (01-01dan 01-09 gacha )
- 02 - Tarbiyalanuvchilarga oid hujjatlar (02-01 dan 02-02 gacha)
- 03 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari (03-01 dan 03-03 gacha)
- 04 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti (04-01 dan 04-03 gacha)

- 05 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (05-01 dan 05-04 gacha)
- 06 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi (06-01 dan 06-04 gacha)
- 07- Maktabgacha ta'lim tashkiloti musiqa rahbari (07-01 dan 07-05 gacha)
- 08 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisi (08-01 dan 08-04 gacha)
- 09 - Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi (09-01 dan 09-05gacha)
- 10 - Maktabgacha ta'lim tashkiloti til o'qituvchisi (10-01 dan 10-02 gacha)
- 11 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (11-01 dan 11-05 gacha)
- 12 - Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti defektologi (12-01 dan 12-06 gacha)

**MAKTABGACHA  
TA'LIM TASHKILOTI  
TARBIYACHISINING  
ISH HUJJATLARI**

**Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlari.**

Umumiy tipdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi (05-01 dan 05-04 gacha)

ish hujjatlari quyidagilardan tashkil topadi:

**05-01.** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018 yil 18 iyundagi 1-MH-son buyrug'i bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 3 iyul 2018 yilda 3032-son bilan ro'yxatdan o'tgan) "O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil 4-fevraldagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan takomillashgan "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish" qo'llanmasi har bir tarbiyachi ishlayotgan guruh yoshiga mos ravishda ta'minlangan bo'lishi shart.

**05-02. Oylik ish reja (Ish jurnali).** Jurnalning titul varag'idan keyingi betga tavsiyalar joylashtirilgan bo'lib, tarbiyachi bu tavsiyalardan faoliyati davomida foydalanishi mumkin. Keyingi sahifada tarbiyachining joriy o'quv yilida o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalari yoritiladi. Asosiy vazifalar tashkilotning dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda olinadi. Unda tarbiyachi o'zining pedagogik salohiyatini oshirish uchun amalga oshirmoqchi bo'lgan, markazlar faoliyatini boyitishga qaratilgan, zamonaviy jihozlash, rejalashtirilgan tadbirlar, ota-onalar, pedagoglar bilan hamkorlikdagi ishlarni yoritadi. MTTning ish vaqti va guruh yoshiga qarab kun tartibi va mashg'ulotlar jadvali ta'lim tashkilotining 1-sonli pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi. Bir oy uchun ikki xil tartibda ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtirilib, 1-15 sanagacha predmetsiz mashqlar, 16-31 sanalarda predmetlar (guruhdagi tarbiyalanuvchilar soniga yetarli bo'lishi lozim) bilan ertalabki badantarbiya mashqlari rejalashtiriladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarini rejalashtirishda tarbiyalanuvchilar yoshini inobatga olgan holda oldindan kartotekalar tayyorlab olish lozim (bolakadem.uz elektron platformasidan tayyor kartotekadan foydalanish mumkin). Ertalabki qabul — tarbiyachining ish jurnalida berilgan ushbu qismda bolalarni birlamchi tibbiy ko'rikdan (filtr) o'tkazish, bolaning holati haqidagi ma'lumotlarni ota-onalardan olish, davomatga belgilab qabulni yakunlash va bolalarning xohishlariga qarab mehnat turlariga jalb etish tadbirlari amalga oshiriladi. O'yinlar – tarbiyalanuvchilarning xohish-istaklariga ko'ra, hafta mavzusi bo'yicha ta'limiy, rivojlantiruvchi, syujetli-rolli, sahnalashtirish o'yinlarining nomi qayd etiladi; Bolalar bilan suhbat - tarbiyachining ish jurnalida ta'lim-tarbiya faoliyati aks ettirilib, unda oy mavzusi, sanasi, hafta mavzusi, hafta mavzusining maqsadi yoritiladi. Ertalabki qabul jarayonida tarbiyalanuvchilar bilan quyidagi 5 ta mavzuda suhbat olib borishlari tavsiya etiladi:

**1. Dushanba – “Madaniy-gigiyenik ko'nikmalar”** (bolalar orqali ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini o'rnatish maqsadida hamda haftaning birinchi kunini inobatga olib, bolalarda shaxsiy gigiyenani shakllantirish, tozalikka, to'g'ri



ovqatlanishga, atrof-muhitga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga o‘rgatish maqsadida suhbatlar tashkil etiladi).

**2. Seshanba – “Odob-axloq qoidalari”** (bolalarda milliy qadriyat, urf-odatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, salomlashish, do‘stlashish, sog‘lom hayot faoliyatiga o‘rgatish, mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, kamtarlik va b.);

**3. Chorshanba – “Huquqiy savodxonlik”** (bolalarda men konsepsiyasini shakllantirish maqsadida, ularni Vatan, ota-ona oldidagi burchlari va huquqlari mavzusida suhbatlar o‘tkaziladi).

**4. Payshanba – “Yo‘l harakati qoidalari”** (bolalar ishtirokidagi yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish maqsadida “Xavfsiz piyoda”, “Odobli yo‘lovchi”, “Svetofor” kabi mavzularda suhbat olib boriladi).

**5. Juma – “Bola hayoti xavfsizligi asoslari”** mavzularida (haftaning shanba va yakshanba kuni dam olish kunlari bo‘lganligi sababli, bolalar uyda yolg‘iz qolishlari yoki ota-onalar bilan ko‘ngil ochar maskanlariga borishlari, suv havzalarida cho‘milishlari va boshqa holatlarni inobatga olib, bolalarga begona shaxslar bilan muloqat qilganda, adashib qolganda qanday harakat qilish lozimligi to‘g‘risida suhbat o‘tkaziladi). Ertalabki badantarbiya mashqlari (yuqoridagi uchinchi xat boshida ko‘rsatilgan ma‘lumotga qarang!).

Ta‘lim-tarbiya jarayoni Oy va hafta mavzusiga ko‘ra ta‘lim-tarbiya jarayoni rejalashtiriladi. Ertalabki davra suhbatlari (umumiy guruh bilan) – tarbiyalanuvchilar hafta mavzusi bilan tanishtiriladi, mavzu doirasida yangiliklarni bilishlari hamda rivojlantirish markazlarda qanday faoliyat turlari bilan shug‘ullanishlari yuzasidan tanishtirilib o‘tiladi (tarbiyachiga markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yishda ota-onalar bilan ishlashi tavsiya etiladi).

**Umumiy guruh bo‘lib ishlash** – *frontal mashg‘ulot* bo‘lib, unga nutq, o‘qish va yozish malakalarini rivojlantirish, elementar matematika; savodxonlikka o‘rgatish; xorijiy til; jismoniy tarbiya; musiqa faoliyatlari hamda xoreografiya mashg‘ulotlari kiradi. Tarbiyachi tomonidan mutaxassislar bilan

kelishgan holda, ushbu frontal mashgʻulotlarni olib borish vaqti ishlab chiqiladi va 1-pedagogik kengash qarori bilan tasdiqlanadi.

**Markazlardagi faoliyatlar** – taʼlim faoliyati mavzuli rejalashtirish asosida tashkil etilib, har bir yosh guruhlari uchun alohida oy va hafta mavzulari aks ettiriladi hamda beshta rivojlantirish markazlarida taʼlimiy faoliyat turlari tashkil etiladi:

- Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
- Syujetli-rolli oʻyinlar va sahnalashtirish markazi;
- Til va nutq markazi;
- Fan va tabiat markazi;
- Sanʼat markazi.

Namunaviy rejalashtirish berilgan markazlardagi faoliyatlarga, hudud (shahar)larning ichki imkoniyatlarini inobatga olib yoki ijodiy yondoshgan holda (asosiy oy mavzusidan chiqib ketilmaydi) oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganda markazlardagi faoliyat ish daftarida qayd etiladi. Ish jurnalining sayr boʻlimi 5 qismdan iborat.

Kuzatish – ikki turdan iborat boʻlib, jonli va jonsiz tabiatni kuzatadi. Obyektga mos boʻlgan mehnat turini tanlashi kerak (oʻz-oʻziga xizmat, xoʻjalik-maishiy mehnat, tabiatdagi mehnat, qoʻl mehnati (katta va tayyorlov guruhlarda oʻtkaziladi).

Mehnat - ushbu qismda tarbiyachi maydonchada olib borilishi mumkin boʻlgan bolalarning yoshiga mos mehnat turlarini tanlaydi. Maydonchaga chiqishda albatta mehnat qurollarini ham olib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli oʻyin – jismoniy tarbiya yoʻriqchisi tomonidan oʻrgatilgan yangi harakatlarni mustahkamlashga qaratilgan boʻlib, asosan 1 ta harakatli oʻyin rejalashtiriladi va qayd etiladi. Asosiy harakat turlarini mustahkamlash – ushbu qism barcha bolalar uchun emas balki, ayrim sakrash, yugurish, tirmashib chiqish, uloqtirish, irgʻitish, turli usullarda yurishda kamchiliklar boʻlgan bolalar bilan

olib boriladi va qaysi harakat mustahkamlanishi kerak bo'lsa o'sha harakat qayd etiladi va mustahkamlanadi.

Ixtiyoriy o'yinlar – bolalarning xohish-istaklariga ko'ra deb qayd etiladi. Kunning ikkinchi yarmini rejalashtirish (taxminan 13:00 dan 15:00gacha, takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning uyqusiz vaqtida).

To'garak ishlari – (MTTning Kuzatuv kengashi qaroriga ko'ra turli to'garaklar kunning ikkinchi yarmida tashkil etiladi. Badiiy adabiyot – hafta mavzusiga ko'ra tanlanadi.

Pedagoglarning bolalar bilan yakka ishlashlari – pedagoglar (psixolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya yo'riqchisi) hamkorligi asosida rivojlanish xaritasining indikatorlari bo'yicha yakka tartibda ishlash tashkil etilib, tarbiyalanuvchi o'zlashtirmagan rivojlantiruvchi sohalar indikatorlari bo'yicha ishlar rejalashtirilib, tarbiyalanuvchining familiyasi va ismi qayd etiladi.

Kechki davra suhbatlari o'tilgan mavzu taxlili (refleksiya)– ushbu suhbat jarayonida bolalarning kun davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalari (bola kompetensiyasi) tahlil qilinadi va umumlashtiriladi hamda bolalarni qiziqishlarini inobatga olgan holda, ertangi kunda faoliyat yuritadigan markazlar haqida ma'lumot beradi (refleksiya). Kechki soat (taxminiy vaqti 16:30 dan 18:00 gacha. 10,5 soatli MTT uchun)

Ikkinchi sayrda – ixtiyoriy o'yinlar, ota-onalar bilan suhbat rejalashtiriladi (tarbiyalanuvchining o'zlashtirishi, ta'lim jarayondagi ishtiroki, uyga vazifasi, bolaning rivojlanish xaritasi bajarilmagan indikatorlari bo'yicha (bola shaxsiga tegishli ma'lumot yakka holatda o'tkaziladi) mavzularda). Ikkinchi sayrdagi jadvalning izoh qatoriga bir nechta ixtiyoriy o'yinlar tanlanganda jadvalning birinchi qatoriga yoziladi. Ikkinchi qatoriga ota-onalar bilan o'tkazilgan suhbat mavzusiga izoh talab etilganda va birdan ortiq mavzular tanlanganda mazkur qator to'ldiriladi

**05-03. Bolalar davomatini qayd etish daftari (tabel, filtr, ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar):** Tarbiyachi tomonidan yuritiladigan tabel, filtr daftari bir-biriga uzviy bog'liq bo'lib, ular bolalarni qabul qilish va qatnovini nazorat qiluvchi hujjatlar hisoblanadi. Daftarda ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar ham qayd etiladi. Daftarlari umumiy bitta bo'lishi yoki 3 ta daftar alohida yuritilishi mumkin, alohida yuritilganda, ularning har biriga 05-03 raqami qo'yiladi. Daftarlarning yuritilish tartibi quyidagicha:

**Bolalar davomatini qayd etish daftari** yosh guruhlarida bolalar qatnovini har kuni soat 9.00 dan kechiktirmay belgilab boriladi va kelgan bolalarning umumiy soni chiqarib qo'yiladi. Oy yakunida ro'yxatdagi bolalar kelgan, kelmagan kunlarining umumiy soni chiqariladi va natijalar umumlashtiriladi. Tahlilda ro'yxat bo'yicha bolalar soni, ushbu oy davomida kelgan va umuman kelmagan bolalarning aniq soni yoziladi. Ushbu tahlil asosida bola kuni bajarilishi aniqlanadi. Umumiy bolalar kuni va bola kelmagan kunlarning sababli va sababsiz soni yoziladi. Tahlil qilgan tarbiyachining familiyasi va imzosi, hamshira tomonidan bolalar sonining haqqoniyligini tasdiqlab imzo qo'yiladi. Tashkilot direktori oy davomida yuritilgan davomat va tahlilni nazoratdan o'tkazib, oy yakunida imzo va muhr qo'yadi. Tabel daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**Filtr daftari** tarbiyachi bolalarni qabul qilish vaqtida har bir bolaning ota-onasi bilan bola salomatligi haqida qisqacha suhbatlashadi, birlamchi tibbiy nazoratdan o'tkazadi. Filtr daftarida tana harorati, teri tozaligi, bosh tozaligi (pedikulyozga tekshiruv) va ota-onadan olingan so'rovnomalar natijalari belgilanadi. Bolaning filtr nazorati ota-ona oldida o'tkaziladi. Bola uch kun kelmagan taqdirda filtr nazoratini tashkilotning tibbiyot xodimlari tomonidan o'tkazilishi va ota-onadan bolaning tashkilotga kelmaganlik sababini tasdiqlovchi tegishli hududiy davolash tashkiloti tomonidan berilgan maxsus shakldagi tibbiy

ma'lumotnoma taqdim etilishi talab etiladi. Filtr daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**Patronaj daftari** - ushbu daftarni yuritish tashkilot hamshirasiga yuklatiladi. Lekin tarbiyachi hamshira bilan hamkorlikda ishlashi va tarbiyalanuvchining kelmaslik sabablarini o'z vaqtida aniqlashda yordam berishi zarur hisoblanadi.

**Ota-onalar to'g'risidagi ma'lumotlar daftari:** ushbu daftarga bolaning familiyasi, ismi, sharifi, tug'ilgan sanasi, uy manzili, telefon raqami, ota-onasining familiyasi, ismi, otasining ismi, ularning ish joylari haqidagi ma'lumotlar kiritiladi va qo'shimcha ma'lumotlar olinganda daftarga qayd etib boriladi. Ota-onalar haqidagi ma'lumotlar daftari tikilgan, sahifalangan, muhrlangan, direktor tomonidan imzolangan bo'lishi kerak.

**05-04. Bolalarning rivojlanish xaritalari.** Yillik hisobot bolalarning rivojlanish xaritasi ularning rivojlanishini hujjatlashtirishning asosiy shaklidir. Bolaning rivojlanish xaritasini to'ldirish uchun uch bosqichdan iborat bo'lgan kuzatish olib boriladi:

- dastlabki (o'quv yili boshida),
- oraliq (o'quv yili o'rtasida)
- yakuniy (o'quv yili yakunida).

**Dastlabki kuzatish** o'quv yili boshida o'tkaziladi (taxminan sentyabr oyida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang'ich imkoniyatlari (boshlang'ich, ayni damdagi dolzarb rivojlanish darajasi) aniqlanadi. Uning shu davrgacha erishgan yutuqlari, kuchli tomonlari, shuningdek o'quv yilining boshida rivojlanish ehtiyoj va muammolari aniqlanadi hamda ularni hal qilish uchun pedagogning yordami talab qilinadi. Pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (+) bilan belgilaydi. Kuzatish rivojlanishning barcha sohalari bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu rivojlanish sohasidagi indikator (kutilayotgan natijalar) "ishlamasa", pedagog (tarbiyachi) "Pedagog

izohi” ustunida eslatma yozishi lozim. Bolaning rivojlanish darajasi quyidagi tushuntirishlar yordamida belgilanadi:

**K** – kuzatilmaydi yoki kamdan-kam kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti harakatlarini kam yoki umuman namoyon qilmaydi).

**B** – ba’zida kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari tasodifiy yoki ma’lum vaziyatlarda).

**T** – tez-tez kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikma / xatti-harakatni vaziyatga qarab namoyish etadi).

**D** – doimiy ravishda kuzatiladi (bola asosiy ko‘nikmalarni namoyon qiladi / xatti-harakatlari talab darajasida, mustaqil tarzda takrorlaydi).

**Oraliq kuzatish** shu tartibga binoan o‘tkaziladi. Kuzatishning bu turi birinchi yarim yillik oxiri (dekabr, yanvar)da o‘tkaziladi. Bunday kuzatishni o‘tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to‘g‘riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatish natijalariga ko‘ra, pedagog, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug‘ilgan holatlarda pedagogik jarayonga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O‘quv yili oxirida (odatda may oyida) pedagog **yakuniy kuzatishni** o‘tkazadi. Mazkur kuzatish asosida yil boshida qo‘yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko‘zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi. Kuzatishni o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatish bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatish kamida ikki hafta (yoki bir oy) mobaynida olib boriladi.

- pedagog bola to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin.

- pedagog bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozim. 3-6 yoshdagi bolalarni oraliq va yakuniy kuzatish natijalariga ko‘ra, ushbu bolaning rivojlanish sohalari bo‘yicha

rivojlanishida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayonning maqsadlari aniqlanadi. 6-7 yoshdagi bolalar uchun (MTT bitiruvchisi) faqat oraliq kuzatish maqsadlari aniqlanadi, yakuniy kuzatishdan soʻng bolaning maktabga tayyorligi xaritasi toʻldiriladi.

Namuna:

4-5 yoshli bolaning rivojlanish xaritasi

Bolaning familiyasi ismi: \_\_\_\_\_ yoshi: \_\_\_\_\_

Tugʻilgan sanasi: \_\_\_\_\_

Jinsi: \_\_\_\_\_ (Oʻgʻil /qiz)

Pedagog: \_\_\_\_\_

Kuzda toʻldirilgan sana: \_\_\_\_\_

Qishda toʻldirilgan sana: \_\_\_\_\_

Bahorda toʻldirilgan sana: \_\_\_\_\_.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Davlat maktabgacha taʼlim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari nomini ayting?
2. Umumiy tipdagi maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyachisi ish hujjatlariga nimalar kiradi va qaysi raqamlar bilan indeksatsiya qilingan?
3. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasida nimalar aks etishi kerak?
4. Umumiy guruh boʻlib ishlash mashgʻulotida qaysi mashgʻulotlar tashkil etiladi?
5. Tarbiyachi ish jurnalining sayr boʻlimida nimalar aks etadi?
6. Ish jurnalida “Hafta yakuni” boʻlimi boʻlib, u necha qismdan iborat va unda nimalar yoziladi?
7. Bolalar davomatini qayd etish daftarida nimalar aks etadi?
8. Tabel, filtr, patronaj haqida maʼlumot bering?

### **Mustaqil taʼlim uchun topshiriq:**

Tarbiyachining ish hujjatlarini “Klaster” metodi asosida tahlil qiling.

## MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING UMUMIY ASOSLARI

*Maktabgacha tarbiya ta'lim tizimining  
birlamchi va eng muhim bo'g'ini  
hisoblanadi. Sog'lom genofondni, yetuk  
kadrlarni tarbiyalash, avvalo, shu tizimdan  
boshlanadi.  
Sh.M.Mirziyoyev*



### REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tarbiyaning umumiy asoslari.
2. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
4. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining barkamol insonni tarbiyasidagi o'rni.
5. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining asosiy kategoriyalari.
6. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning ilmiy-tadqiqot metodlari.

**Tayanch tushunchalar:** Ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifasi, fanining boshqa fanlar bilan aloqasi, "Avesto" da ta'lim-tarbiya masalalari, fanning asosiy kategoriyalari, ta'lim (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish, fanning ilmiy tadqiqot metodlari, pedagogik kuzatish metodi, suhbat metodi, adabiyotlarni o'rganish metodi, anketa metodi, intervyu metodi, ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish



*metodi, test metodi, pedagogik tahlil metodi, bolalar ijodini o'rganish metodi, pedagogik tajriba metodi, matematik-statistik metod.*

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TARBIYANING  
UMUMIY  
ASOSLARI**

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fani maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o’rganadigan fan. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o’rganadi.

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” tug‘ilgandan to yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarga har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o’rganadi va maktabgacha ta’lim tashkiloti sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg‘un rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi.

U maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va maktab ishidagi izchillikni ta’minlaydi hamda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlaydi.

Mazkur fan “Umumiy pedagogika”ning alohida sohasi bo‘lib, uning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari, metodologik asosi, tashkiliy shakl, metod va vositalariga tayanadi. “Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fani maktabgacha yoshdagi bolalarga yaxlit tarbiya berishni ko‘zlangan maqsadni, bolaning yosh imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha ta’limni hayot, amaliyot bilan bog‘liqlikda olib borishning zarurligini, bola shaxsining shakllanishida muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslaydi.

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihatini, ya’ni, shu yoshdagi bolalarni o’qitish va tarbiyalashga asosiy e’tiborni qaratganligi bois didaktika (ta’lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Didaktika (yunon. “didaktikos” – o’rgatuvchi, didasko – o’rganuvchi) ta’limning nazariy jihatlarini, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlari, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo’llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

Tarbiya nazariyasi – pedagogikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, tarbiya jarayoni mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari, uni tashkil etish muammolarini o’rganadi.

Bola tug’ilgan kundan boshlab, uni maktabga borgunigacha bo’lgan davrda har tomonlama yetuk, barkamol etib tarbiyalash, qonuniyatlarini o’rganish maktabgacha pedagogikaning mavzusi hisoblanadi. U maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilaning tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishi birligini, maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab ishidagi aloqadorlikni, bolalarni maktabda o’qishga tayyorlashda, ijtimoiy maktabgacha tarbiya sharoitida tarbiya va ta’lim berish ishlarining vazifalarini, tamoyillarini, mazmunini, metodlarini, shakllarini va uni tashkil etishni ishlab chiqdi. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish ta’lim tizimida uning ajralmas qismi bo’lib shakllandi.

**MAKTABGACHA  
TA’LIM-TARBIYANI  
TASHKIL ETISH  
FANINING PREDMETI,  
MAQSADI VA  
VAZIFALARI**

Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining nazariyasi va amaliyoti maktabgacha yoshdagi bolalarga har tomonlama tarbiya berishning maqsadi, bolaning imkoniyatlari va uni ilk yoshdan boshlab tarbiyalashning roli, maktabgacha

tarbiyani hayot, zamon bilan bog‘lab olib borishning zarurligi, bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligiga asoslanadi.

Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fani ijtimoiy tarbiya tajribasini sinchkovlik bilan o‘rgandi. Bu esa maktabgacha ta‘lim tashkilotlari ishini takomillashtirishga yordam beradi.

**Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fanining ob‘ekti** – maktabgacha pedagogik faoliyat jarayoni sanaladi.

**Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fanining predmeti** – maktabgacha ta‘lim-tarbiya jarayoni, mazmuni, qonuniyatlari, shakl, metod va vositalaridan iborat.

**Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fanining maqsadi:** Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fani bo‘lajak tarbiyachilarni ta‘lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtiradi va Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fanining nazariy, milliy asoslari bilan qurollantiradi.

Shuningdek, u maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari, tamoyillari, mazmuni va pedagog-tarbiyachining shakllantirishni pedagogik asoslarini o‘rgatadi.

**Maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etish fanining vazifalari:**

- bo‘lajak tarbiyachi oldiga qo‘yiladigan maqsad va vazifalar O‘zbekiston istiqboli va istiqloli uchun barkamol avlodni tarbiyalashning dastabki bosqichi;
- maktabgacha ta‘lim-tarbiyani tashkil etishning mazmuni, o‘zi xos xususiyatlari, ta‘limiy-tarbiyaviy jihatlarini topishi hamda kasbiga bo‘lgan munosabatni tarbiyalashdan iborat;
- tarbiyachining kasbiy xususiyati va unga qo‘yilgan talablar;
- o‘qitish jarayonida mutaxassislik bo‘yicha mahorat, tashkiliy metodik malaka, bolalarni jonajon yurtimizni sevis, asrab-avaylash ruhida tarbiyalash jarayonida bilimlarini amalda tadbiiq qila bilish qobiliyatini rivojlantiradi.

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fani bo‘lajak tarbiyachilarni ta’lim-tarbiya qonuniyatlari bilan yaqindan tanishtirish.

“Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish” fanini o‘rganish orqali talabalar tug‘ilgandan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni oilada va maktabgacha ta’lim tashkilotilarida ta’lim-tarbiya ishlari mazmuni va metodlarini, uni tashkil etish shakllarini, bolalarni maktabga tayyorgarligining samarali metodlari, maktabgacha ta’lim tizimi shakllanishining tarixiy jihatlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish tamoyillari, ularning faoliyatini uslubiy jihatdan ta’minlash va nazarot qilish masalalari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

**MAKTABGACHA  
TA’LIM-TARBIYANI  
TASHKIL ETISH  
FANINING BOSHQA  
FANLAR BILAN  
ALOOASI**

Bu masalalarni chuqur va har tomonlama o‘rganishda pedagogika fani asoslari va umumiy nazariy-metadologik qoidalarga tayanilgan. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining g‘oyaviy-nazariy darajasini ta’minlashga, uning mazmunini pedagogika fani sohasida qo‘lga kiritilgan ilmiy-nazariy yutuqlar xulosalar negizida yoritishga imkon beradi.

Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma’lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo‘lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma’lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, uning umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ana shu nuqtai nazardan Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida yaqin aloqadorlik mavjud:

**Falsafa** – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta’limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

**Iqtisod** – maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

**Sotsiologiya** – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma’lumotlarga ega bo‘lish asosida ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

**Etika** – bola shaxsi ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

**Estetika** – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

**Yosh fiziologiya va gigiyena** – inson oliy nerv faoliyatining rivojlanishi, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari, sezgi organlari, tayanch harakat apparati, yurak-tomir va nafas olish sistemalari, ichki sekretiya bezlari va shu singarilarning rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarga tayanadi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to‘g‘ri hal etishda: bola rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irsiyat va tarbiyaning ta’siri va shu singarilarni begilashda pedagogikaga yordam beradi. O‘sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy tamoyillarini ochib beruvchi yosh fiziologiyasi ta’lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega. Fiziologiyaning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining tipologik xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalarni pedagogikaga o‘quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatlari uchun yaxshiroq sharoitlar yaratishda yordam beradi.

**Umumiy psixologiya** – har bir yoshda bolaning yoshga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan holat va xislatlarni (tafakkur, xotira, tasavvur, xis-tuyg‘u, iroda va hokazo) tadqiq qiladi.

**Tarix** – maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fani taraqqiyoti, ta’lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g‘oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo‘naltiriladi.

**Madaniyatshunoslik** – bolalarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

**Tibbiy fanlar** – shaxsning fiziologik-anatomik jihatdan to‘g‘ri rivojlanishini ta’minlash, uning organizmida namoyon bo‘layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o‘qitish hamda tarbiyalash muammolarini o‘rganishda ko‘maklashadi.

**Bolalar jismoniy tarbiyasi** – bola organizmining rivojlantirish, uning faoliyatini normallashtirish masalalarini o‘rganishda umumiy va sotsial gigiena, mehnat gigiyenasi, maktab gigiyenasi, pediatriya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlaridagi xulosalardan foydalanadi.

Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining nazariy asoslari: yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan, ta’lim-tarbiya borasida yaratilgan tajribalarga, nazariy va metodik manbalarga, O‘rta Osiyo va jahon tan olgan buyuk mutafakkir olimlarning asarlari va ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining milliy asoslari ta’lim-tarbiya muammolarini, muayyan millatning milliy qadriyatlarini umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lagan holda hal etish, har bir millatning ma’naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayangan holda milliy tarbiya masalalarini yosh avlod ongiga yetkazish mazmuni, usul, metod va tamoyillarini milliyashtirishdan iborat.

O'sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o'stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha pedagogika fanining dolzarb muammolaridan sanaladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM-TARBIYANI  
TASHKIL ETISH  
FANING BARKAMOL  
INSONNI  
TARBIYASIDAGI O'RNI**

Insonni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa pedagogika fanini maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki insonni ma'rifatli va ma'naviy komillikka erishishi pedagogika fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Pedagogika - grekcha so'z bo'lib, «**bola yetaklovchi**» - manosini bildiradi. Insonlarni ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarni o'zgartirib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o'z mavqeiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida pedagogika dunyoviy fanlar tizimi qatoridan alohida o'rin egallagan. Uning bosh masalasi tarbiyadir. Ya'ni "bolani tarbiyalash" demakdir.

Bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto"da ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgani holda, uning ibodatxonalari qoshida maktablar tashkil etilib, koinlar tomonidan bolalarning ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan. Bu ta'lim-tarbiya tizimi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: diniy va axloqiy tarbiya, jismoniy tarbiya, o'qish va yozishga o'rgatib borilgan.

Ota-bobolarimiz azal - azaldan bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratganlar. Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az-Zamaxshariy,

Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy singari ulug‘ olimu adiblar, fozilu-fuzalolar ta‘lim-tarbiya borasida ko‘p asarlar bitganlar. Sharq pedagogikasining asoschilari Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari, Alisher Navoiyning “Maxzub ul-qulub”i, Kaykovusning “Qobusnoma”si kabi asarlar bunga dalildir.

Mazkur ta‘limiy asarlarda inson shaxsini ma‘naviy kamolga yetkazish yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallash asosidagina amalga oshirish mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan. Haqiqiy bilimga asoslangan ta‘limiy uslub shakllanadi, natijada ta‘lim-tarbiya olimlar diqqat markazida bo‘ldi.

Farobiy ta‘lim-tarbiyaga bag‘ishlangan asarlarida inson takomilida ta‘lim-tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e‘tibor berish zarurligi, ta‘lim-tarbiya usul va usublari haqida fikr yuritilgan. “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv to‘g‘risida”, “Ilmlarning kelib chiqishi” kabi maorifiy asarlarida olimning tarbiyaviy qarashlari o‘z ifodasini topgan.

Abu Rayhon Beruniyning bilimlarni egallash yo‘llari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Tarbiyalanuvchiga bilim berishda ularni zeriktirmaslik, uzviylik, izchillik va hokazolarni e‘tiborga olish kerakligini uqtiradi. Beruniy inson kamolotida uch narsa muhimligini ta‘kidlaydi. Bu hozirgi zamon pedagogikasida e‘tirof etiluvchi irsiyat, muhit va tarbiyadir.

Ibn Sino insonlarni kamolotga erishishining birinchi mezoni sanalgan bilim egallashga da‘vat etadi. Bilimsiz kishilar johil bo‘ladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, ular yetuk bo‘lmagan kishilar deydi. Ibn Sino bilim olishda bolalarni yengildan og‘irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo‘lishi, bilim berishda bolani qiziqishi va qobiliyatlarini hisobga olish, o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan olib borish kerakligini uqtiradi.

Pedagogik fikrni rivojlanishida rus pedagogi K.D.Ushinskiyning pedagogik, nazariy qarashlari “Inson tarbiya predmeti sifatida” degan mukammal asarida bayon qilib berilgan. “Ona tili”, “Bolalar dunyosi” kitoblari barchaga yaxshi



ma'lum bo'lib, u ta'limning ko'rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi.

Pedagogika fan sifatida rivojlanishida chex pedagogi, olimi Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning hissasi katta bo'ldi. Uning "Buyuk didaktika" asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi.

Undan tashqari "Onalar maktabi" degan maktabgacha tarbiya qo'llanmasi va bir qancha kitoblari diqqatga sazovordir. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. Pedagog bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatlarini hisobga olishi shart, deydi. Komenskiy o'qishga hammaning tortilishini, hamma umumiy tarzda ta'lim olishi kerakligini uqtiradi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM-TARBIYANI  
TASHKIL ETISH  
FANINING ASOSIY  
KATEGORIYALARI**

Ma'lumki, har bir fan o'zining tayanch tushunchalari, qonuniyatlari, tamoyillari, qoidalari tizimiga ega. Aynan mana shu holat uning fan sifatida e'tirof etilishini kafolatlaydi. Fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha **kategoriya** deb ataladi. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining asosiy kategoriyalari maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchisi shaxsi kamolotini ta'minlash, ta'lim va tarbiya samaradorligiga erishishga qaratilgan jarayonlarning umumiy mohiyatini yoritadi.

Eng muhim kategoriyalar sirasiga quyidagilar kiradi: *ta'lim (o'qitish, o'qish), tarbiya, ma'lumot, shakllanish va rivojlanish.*

**Ta'lim** – tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon. Ta'lim o'zida uch asosiy elementni aks ettiradi: *bilim, ko'nikma va malaka.*

**Bilim** – tarbiyalanuvchining ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.

**Ko'nikma** – shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.

**Malaka** – muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.

Ta'lim ikki tomonlama tavsifga ega bo'lib, o'qitish va o'qishni o'z ichiga oladi.

**O'qitish** – pedagogik faoliyat bo'lib, u bilim, ko'nikma, malakalarni bolalarga singdirish, ularning bilish va amaliy faoliyatiga rahbarlik qilishdir.

**O'qish** – ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi amaliy faoliyatidir.

**Tarbiya** – muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

“Tarbiya” tushunchasi maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Jamiyat va pedagogikaning tarixiy rivoji davomida mazkur kategoriyani tushuntirishga turlicha yondashuvlar yuzaga keldi. Eng avvalo, keng va tor ma'nodagi tarbiya farqlanadi. Keng ma'noda tarbiya shaxsga jamiyatning ta'sir etishi, ijtimoiy hodisa sifatida qaraladi. Mazkur holatda tarbiya ijtimoiylashtirish bilan uyg'unlashadi.

Tor ma'noda tarbiya deganda, pedagogik jarayon sharoitida ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati tushuniladi. Ushbu holatda pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati tarbiyaviy ish deb ataladi.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma, malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Shakllanish** – pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo‘lib, ko‘pincha “shaxsning shakllanishi” tarzida ishlatiladi. Jumladan, pedagog olim Yu.K.Babanskiy shaxsning shakllanishi “muhit, irsiyat, tarbiya ta’sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasi” ekanligini ta’kidlaydi. V.A.Slastenin, I.F.Isayev, Ye.N.Shiyanovlarning fikricha, shakllanish – hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta’sirida inson rivojlanishining muhim shakli. Shaxsning shakllanishi – ijtimoiylashuv, tarbiya va o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayoni va natijasi. Shakllantirish – “aniq shaklga kiritish, tugallanganlik” ma’nolarini bildiradi.

Bizningcha, shakllanish pedagogik tushuncha sifatida zamonaviy yondashuv asosida I.P.Podlasiy tomonidan to‘liqroq ochib berilgan: “Shakllanish – hech qanday istisnosiz omillar – ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik va b.ning ta’sirida insonning rivojlanish jarayoni. Shakllanish – undan keng foydalanilayotganligiga qaramay, hali to‘liq o‘zlashtirilmagan pedagogik kategoriya. Shakllanishning mazmuni ba’zi holatlarda juda qisqarib ketadi, ba’zan esa, haddan tashqari kengaytirib yuboriladi. Avval nashr etilgan pedagogik adabiyotlarda shakllanish atamasi ba’zan boshqarilmaydigan, shaxsga ta’sir ko‘rsatuvchi tasodiflarni aniqlash uchun qo‘llanilgan. M: pedagogika qo‘llanmasining taniqli muallifi P.N.Gruzdev shakllanishni stixiyali tarbiya – “ongli faoliyatdan mustaqil tarzda insonlarga ta’sir etuvchi turli shart-sharoitlar” deb nomlashni taklif etgan”.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon. Boshqacha aytganda, rivojlanish deganda tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga aytiladi. Rivojlanish – yangi sifat holatiga o‘tish, harakat va o‘zgarishlar jarayoni. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etishda rivojlanish haqida gap ketganda yoshga doir (maktabgacha yosh davrlari bilan bog‘liqlikda rivojlanishning o‘ziga xosliklari va qonuniyatleri), individual (rivojlanishning

individual o'ziga xosliklari), shaxsiy (bolada shaxsiy sifatlarning yuzaga kelishi va ularning o'ziga xosliklari) rivojlanishni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq.

**MAKTABGACHA TA'LIM-  
TARBIYANI TASHKIL  
ETISHNING ILMIY-  
TADQIQOT METODLARI**

Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon yetkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul, ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.

Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berish tamoyillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda, O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar tizimli-metodologik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayonlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomillashtirib borishini ta'minlashi, qarama-qarshiliklarning shaxs

kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

- ✚ muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
- ✚ ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
- ✚ vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
- ✚ tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
- ✚ tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
- ✚ tadqiqot natijalarini oldindan tashxislash va uning natijalarini aytib o'tish;
- ✚ tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fani yo'nalishida, tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlar qo'llaniladi:

- ✚ pedagogik kuzatish metodi;
- ✚ suhbat metodi;
- ✚ adabiyotlarni o'rganish metodi;
- ✚ anketa metodi;
- ✚ intervyu metodi;
- ✚ ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- ✚ test metodi;
- ✚ pedagogik tahlil metodi;
- ✚ bolalar ijodini o'rganish metodi;
- ✚ pedagogik tajriba metodi;
- ✚ matematik-statistik metod.

**Pedagogik kuzatish metodi.** Uni qo'llash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bola shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- ✚ kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- ✚ kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- ✚ kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
- ✚ har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
- ✚ xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

**Suhbat metodi.** Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda individual, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bo'lishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- ✚ maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
- ✚ suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;
- ✚ suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma'lum to'xtamga kelish;

- ✚ suhbatdosh to'g'risida avvaldan muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish;
- ✚ suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo'lish;
- ✚ suhbatdoshning o'z fikrlarini erkin va batafsil aytib olishi uchun sharoit yaratish;
- ✚ savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
- ✚ olingan ma'lumotlarni o'z vaqtida tahlil qilish.

**Adabiyotlarni o'rganish metodi.** Pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatga doir adabiyotlar, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik, psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

**Anketalar metodi.** Bolalardan so'rash usuli bo'lib, u bolalar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmoo'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi.

Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqarish murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarni EHM da qo'llab, matematik-statistik metodlari bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi sababli bo'lanishlari va bog'liqliklarini aniqlashga yordam beradi.

**Intervyu metodi.** Respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini

ta'minlaydi. Intervyu respondent e'tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o'tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

**Ta'lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi.** Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o'quv mashg'ulotlarining jadvali, o'quv dasturi, guruh jurnallari, bolalarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig'ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash qarorlari, ta'lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta'lim muassasasi jihozlari (o'quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo'nalishlarda o'quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, bolalarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi, ilg'or pedagogik tajribalar mazmunini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

**Bolalar ijodini o'rganish metodi.** Mazkur metod bolalarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda bolalarning ijodiy ishlari – rasmlar, konstruksiya ishlari, qo'l mehnati asosida yaratilgan buyumlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum bolaga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

**Pedagogik tajriba metodi.** Pedagogik tajriba (eksperiment; lot. "sinab ko'rish", "tajriba qilib ko'rish") metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo yechimini topishga yo'naltirilgan pedagogik



tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining asosiy kategoriyalari qaysilar?
2. Ta'lim va tarbiya tushunchalarini bir-biridan farqini ayting.
3. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish fanining tadqiqot metodlariga qaysi metodlar kiradi?
4. Ilmiy tadqiqot metodlaridan kimlar foydalanadilar, ular qaysilar?
5. Bolalar ijodini o'rganish metodi nima maqsadda qo'llaniladi?
6. Pedagogik tajriba qachon qo'llanadi?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha yoshdagi bolalardan "Kasb", "Do'stlik", "Oila", "Vatan" mavzularida anketa oling.

## **MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYANING TASHKIL TOPISHI**

*Bolalarni seving! Agar siz o'zingizda*

*Alloh yo'qtirgan ustozlik nomini  
olmoqchi bo'lsangiz, bolani seving!*

*Sh. Amonashvili*




### **REJA:**

1. Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'limning alohida turi sifatida.
2. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi maktabgacha

ta'lim.

3. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim tizimiga yangicha yondashuv.
4. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish haqida. Maktabgacha ta'lim tarbiyani tashkil etish fanining tadqiqot metodlari.

*Tayanch tushunchalar: maktabgacha ta'lim, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktabgacha ta'lim sohasi, Uchinchi Renessans davri, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni, Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyaviy o'zgarishlar, STEAM texnologiyasi, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.*



Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim

uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev bu tizimga alohida e'tibor qaratmoqda. Maktabgacha ta'limsohasiga doir qator tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligini muhtaram Prezidentimiz qabul qilayotgan Qaror va farmoyishlarida bayon etilgan.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk maktabda o'qishga tayyorgarlik darajasida shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Ushbu ta'lim bolaning 3 yoshdan 7 yoshga to'lgunga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlari va mulk shaklidan qat'iy nazar ta'lim tashkilotlarida olib boriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar rivojlanadilar va ta'lim – tarbiya oladilar. Ularning sog'ligi mustahkamlanadi, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini hosil qiladi. Ularda mehnatga muhabbat uyg'onadi. Kattalarni hurmat qilish hamda vatanparvarlik tuyg'ulari tarbiyalanadi. Bolalar maktab ta'limi uchun bosqichma-bosqich tayyorgarlik ko'radilar.

Maktabgacha ta'lim sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi. Bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari – O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta'lim dasturlarini amalga oshiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim - maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishi, individual ruhiy holati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda bolalarga ta'lim-tarbiya berishga yo'naltirilgan jarayon hisoblanadi. Bu jarayon bolalarda

ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallashiga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlanib borayotgan yurtimizning jahon hamjamiyatida qay darajada o'rin egallashi, o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, yosh avlodning qanchalar bilimli, yetuk, komil, erkin fikrlaydigan va o'z menini yarata oladigan, qisqa qilib aytganda yurt uchun o'z hissasini qo'sha oladigan bo'lib yetishishi ta'lim tizimiga qo'ygan ilk qadami bilan boshlanadi. Bola maktabgacha ta'lim tashkiloti ostonasiga qo'ygan qadami, uning ilk qadami hisoblanadi. Bu dargoh murg'ak qalblarga ilm eshiklarini ochuvchi, uni yuqori marralar tomon yetaklovchi nurli maskan hisoblanadi. Nima sababdan hozirgi davrda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda, degan savol tug'iladi, albatta. Chunki, bola tug'ilgandan so'ng yetti yoshgacha bo'lgan davr uning uchun eng muhim davrdan biri hisoblanadi. Bola bu davrda o'z hayoti uchun kerakli bo'lgan barcha ta'lim- tarbiyani olishi va u olgan ta'lim-tarbiyasi umr yo'llarida hamroh bo'lishi hammamizga ma'lum albatta. Bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga borar ekan bola erkin fikrlashni, o'zgaralar bilan tez muloqotga kirishishni, o'zida ta'lim - tarbiyaga oid bilimlarni, atrof muhitni, uni o'rab turgan zaminning turfa xil ne'matlarini artofdagi predmetlar haqidagi to'liq ma'lumotlarni, mashg'ulotlar orqali kerakli bilimlarni oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga borgan bolaning ko'zi yonib turadi. U hamma narsani yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o'rganishga, u narsa haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishga qiziqadi. Bolaning bu yosh davri shijoatga to'la, doimo harakatda bo'ladigan davri hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim va tarbiya tizimi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bugungi kunda

maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va modernizatsiyalash davri sifatida tarixga muhrlanmoqda. Negaki, mamlakatimizda mazkur tizimni davlat siyosati darajasigacha ko'tarilishi, hali hech bir davrda o'z aksini topmagan. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini hisoblanmish maktabgacha ta'lim tizimiga qaratilayotgan e'tibor tahsinga loyiq. Biz shunday sharoitda zamonaviy, teran fikrlaydigan intellektual va madaniy-estetik qadriyatlarda o'zining mukammal bilimi va tajribasi nuqtayi nazaridan yondasha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashni bosh maqsadimiz deb bilar ekanmiz, buning mas'uliyatini astoydil his qilish bizning oldimizda turgan murakkab, o'z o'rnida sharaflil vazifa ekanligini unutmashimiz talab etiladi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini yanada oshirish va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo'ldi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimi bolalarni katta hayotga o'rgatish, ularda jamiyatga moslashuvchanlik, guruhlarda o'z o'rniga ega bo'lish va o'zining mustaqil o'rnini haqidagi ilk qarashlar barq urib boradigan maskan vazifasini o'tamog'i lozim hisoblanadi. Bugungi kunda tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirish va uni jamiyat uchun munosib voris qilib tayyorlab berishdir. Bunda ta'lim jarayonida yangi pedagogik talablar, yani pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi, ulardan foydalanishga oid

pedagogik talablar, ya'ni pedagogik tamoyillarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga tatbiq etishni taqazo etadi. Amaliyotga tadqiq etilayotgan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari va maktabgacha ta'limtashkilotlarining davlat o'quv dasturi bu – ta'lim jarayoniga qo'shilayotgan kichik yoshli bolalarning ilk qadamlaridir.

Umuman olganda, davlat talablarida kichik va maktab yoshigacha bo'lgan bolalarni besh yo'nalishda rivojlantirish kerakligi ko'rsatilgan. Bu besh yo'nalishni rivojlantirib, bola 4 kompetensiyaga ega bo'ladi, yani u 1-sinfga chiqishga motivatsiya oladi, - deydi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining birinchi o'rinbosari-Maktabgacha ta'lim agentligi direktori Agrippina Shin. Bularning asosi ijtimoiy yondashuvdir, ya'ni diqqat markazda – bola va uning manfa'atlari yotadi. Pedagog ota-ona, pedagogik tarkib, bolaning o'zi va albatta, jamiyat hamda davlat kabi ijtimoiy hamkorlar bilan bir ijtimoiy muhitni tashkil qiladi. Dastur asosida bilim olish jarayoni o'yinlar orqali rivojlantirish yotadi.

**O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASIDA  
MAKTABGACHA  
TA'LIM TIZIMIGA  
QARATILAYOTGAN  
E'TIBOR**

Sog'lom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalash, avvalo, shu tizimdan boshlanadi. Prezidentimiz mamlakatimiz hududlariga tashrifi davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga borib o'zlari shaxsan tanishib, ko'rib bormoqdalar. Umuman olganda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohatlar o'tkazib kelinmoqda. Ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan. Umid qilamizki, amalga oshirilayotgan barcha islohotlar amalda o'z ifodasini topib, kutilayotgan natijadanda ko'proq meva berishi davlatimiz va xalqimiz yordamida eng mustahkam tizim bo'lib boradi.

O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, bu esa ta’lim-tarbiya tizimi asosiy zamin bo‘lib xizmat qilishini anglatadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida, turli shakldagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu o‘rinda, maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish, umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish, maktabgacha ta’lim sohasidagi istiqbol maqsadlarga intellektual salohiyatni safarbar qilish orqali erishish imkonini berdi. Maktabgacha ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 30 sentabrda mamlakatimizda birinchi marotaba “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi” tashkil etildi va yangi tashkil etilgan Vazirlik uchun bir qancha vazifalar belgilab berildi.

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va yetuk, umumiy o‘rta ta’limga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Zero, inson o‘z hayoti davomida oladigan barcha ma’lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o‘z ona tilini o‘zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg‘onadi, umr davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oila asosiy rol o‘ynasa, maktabgacha ta’lim tashkilotining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas bo‘lagiga, ta’bir joiz bo‘lsa, uning debochasiga aylangan. Ta’kidlash joizki, olib borilayotgan islohotlar samarasi 2023 yil avgust oyi holatiga ko‘ra Respublikamizda 30 792 ta

maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning 6 734 tasi davlat va 24 058 tasi nodavlat (789 ta xususiy, 21941 ta oilaviy va DXSH asosidagi 1 328 ta nodavlat MTT) maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etilishiga erishildi. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 4 barobar ortib, 75 foizga yetdi.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyaviy o'zgarishlar tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakli va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratdi. Bugungi zamonaviy ta'lim sohasidagi asosiy natija berilgan bilimlarni tarbiyalanuvchilar qay darajada o'zlashtirib olgani, bu uning rivojlanishiga, shaxsda integrativ xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilgani bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining o'quv jarayoni STEAM texnologiyasi asosida, 5 ta rivojlantiruvchi markaz faoliyati orqali tashkil etilishi nafaqat bolalar faolligi, balki tarbiyachilardan katta mas'uliyat va ijodkorlikni talab etmoqda. Bu kabi innovatsiyalarning tub mohiyatida maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish, bolani maktabga sifatli tayyorlash va ularda bolalikdan bilim, izlanish, kashf etish kabi xususiyat va qobiliyatlarni shakllantirish sanaladi.

Jumladan, 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni ham maktabgacha ta'lim tizimida katta o'zgarish, katta islohotlar bo'lishi bilan birga, bu sohada ko'plab ishlar qilish lozimligini belgiladi. Ushbu qonunga ko'ra, har bir bola uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkoniyatining mavjudligi, har bir bolaning iste'dod nishonalarini, ishtiyoqlari va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar tengligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish uyg'unligi, bolaning shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan shaxsiy yondashuv, maktabgacha ta'lim va tarbiya mazmuni, darajasi hamda hajmining maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning



rivojlanish xususiyatlariga hamda sog‘lig‘i holatiga muvofiqligi belgilangan. Zamonaviy maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bunyod etilayotgani, ta‘lim-tarbiya jarayonida tub o‘zgarishlar bo‘layotgani, kadrlar salohiyati va ma‘lumoti kundankun oshirilayotgani, maktabgacha ta‘lim tizimi elektron va raqamli iqtisodiyotga aylantirilayotgani sohadagi olib borilayotgan islohotlar va rivojlanish sanaladi. Ushbu islohotlarda tizimdagi barcha ishtirokchilar birday faol bo‘lishi maktabgacha ta‘lim sohasini yanada rivojlantiradi.

Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar etib belgilandi:

- maktabgacha ta‘lim sohasidagi me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish;
- bolalarni sifatli maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish ko‘lamini oshirish, undan teng foydalanishi imkoniyatlarini ta‘minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikchilikni rivojlantirish;
- maktabgacha ta‘lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta‘limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirishning shaffofligi va samaradorligini ta‘minlash;
- maktabgacha ta‘lim tizimiga xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish;
- maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni sog‘lom va balanslashtirilgan oziq-ovqat, sifatli tibbiy parvarish bilan ta‘minlash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini

qayta ko‘rib chiqishni hamda maktabgacha ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi.

Ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta‘limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma‘lumotning necha foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi?
2. Maktabgacha ta‘lim sohasiga doir qanday tarixiy qarorlar qabul qilinmoqda?
3. Maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari haqida ma‘limot bering?
4. Maktabgacha ta‘lim tizimining joriy holati va uni rivojlantirishdagi mavjud muammolar?

### **Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:**

2017-2022 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta‘lim sohasida olib borilgan islohotlar yuzasidan 10 ta ma‘lumot yozing.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI  
SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR**



*Haq yo'linda kim senga bir harf  
o'qitmish ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado, oning haqin yuz  
ganch ila.  
Alisher Navoiy*

**REJA:**

1. Tarbiyachilik kasbi va unga qo'yiladigan zamon talablar.
2. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida kreativ yondashuv.
3. Tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi.
4. Tarbiyachining pedagogik mahorati.

***Tayanch tushunchalar:** tarbiyachining vazifalari, tarbiyachining fazilatlari, kreativlik, tarbiyachilarning kreativlik sifatlari, kasbiy kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, maxsus kompetentlik, psixologik kompetentlik, metodik kompetentlik, informatsion kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat.*

**TARBIYACHILIK  
KASBI VA UNGA  
QO'YILADIGAN  
ZAMON  
TALABLAR**

*Qalbidagi qaynoq mehr – muhabbatini  
bolalarga baxshida eta oladigan, yuragidagi  
o'chmas alanga uchqunlari bilan ular yuragida  
ham alanga paydo qila biladigan insonlargina –  
tarbiyachi bo'la oladi.*

Maktabgacha ta'lim bilim olishning poydevorini tashkil qiladi. Ta'lim jarayonining keyingi har bir bosqichi maktabgacha ta'limning qanchalik

muvaffaqiyatli bo'lishiga bog'liq. Hamda biz bu sohani kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylik deyishimiz mumkin. Bu boylikning qadr-qimmatini shu qadar buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi. Dunyoda biror kimsa yo'qki, uning ustozini bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qo'yingki, barcha-barchaning o'z ustozini va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'l boshchisi bo'ladi. Maktabgacha ta'lim sohasida ham o'z ustozlik faoliyati bilan kelajak avlod vakillariga bilim va ilm chashmalaridan ilinayotgan tarbiyachilar ham shundayin yuksak e'tirofga egadirlar.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va faxrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi. Tarbiyachi o'zi yashab turgan o'lka hayotini bilishi tabiat va jamiyat omillarini tushunishi ijtimoiy faol bo'lishi kerak.

Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o'yinlarda, mashg'ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo'ladigan muomalada ta'sir ko'rsatadi. U har bir bolani diqqat bilan o'rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak, ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi, oiladagi ahvoli bilan qiziqishi zarur.

Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi o'z kasbini sevishi va bu kasbga bo'lgan cheksiz sadoqati boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'z sohasini, uning metodikasini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Tarbiyachi kasbiga xos bo'lgan muhim

talablaridan biri bolalarni sevish, ularning hayoti bilan qiziqish va har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat.

Tarbiyachi mashg'uloti uchun kerakli bo'lgan didaktik ashyoni maqsadga ko'ra o'zi tayyorlaydi, tarbiyalanuvchilarni yasash, ijod qilish jarayoniga jalb qilib, ularning aqliy, jismoniy va ruhiy rivojlanishiga turtki beradi. O'z faoliyati mobaynida tarbiyachi kreativlik sifatlariga ega bo'lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi.

**TARBIYACHILARNIN  
G PEDAGOGIK  
FAOLIYATIDA  
KREATIV**

Tarbiyachilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishlari ularda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, bolalarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi. Odatda tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi, shakllantiriladi va u asta sekin takomillashib, rivojlanib boradi.

**Kreativlik** (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik

iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, ta'lim oluvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi. Kasbiy faoliyatda pedagogning kreativligi turli shakllarda namoyon bo'ladi.

Ular quyidagilardir: axborot, shu jumladan, kompyuter texnologiyasi yordamida pedagog - tarbiyachi tomonidan kreativ yondashuv asosida tayyorlanib, ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan ijod mahsulotlari sanab o'tiladi. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

**Ijodkorlik** – muayyan yangilikning ahamiyati va foydali ekanligini belgilovchi shaxs faoliyati va uning natijasi.

**Ijodkor shaxs** – ijodiy jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan hamda aniq ijodiy natija (mahsulot)larga ega shaxs.

**Kreativ shaxs** – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o'ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

**Ijod** – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi.

**Ijodkor shaxsni tarbiyalash** – kasbiy-ijodiy faoliyat tajribalarini qaror toptirish va boyitish asosida ijodiy g'oya, ularni amalga oshirish ko'nikma va malakalariga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirish.

**Kasbiy – ijodiy faoliyat** – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

**Ijodiy topshiriqlar** – muammoli vaziyatlarni tizimli tahlil asosida hal qilishga yo'naltirilgan masalalar tizimi.

**Ijodiy tafakkur** – tafakkurning ijod jarayonini tashkil etish va ijod natijalari (mahsullari)ni bashoratlashni ifodalovchi turi.

**Ijodiy qobiliyat** – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning natijalanganligini baholashda namoyon bo‘ladigan individual xususiyat.

**O‘zini o‘zi ijodiy faollashtirish** – shaxsning ijodiy faoliyatda o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo‘lishi yoki bo‘lmasligi emas, balki mashg‘ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g‘oyalarni ta’lim jarayonida sinab ko‘rishga intilishi zarur.

Yuqoridagi berilgan ta’riflardan kelib chiqqan holda, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi didaktik munosabatlarni o‘rinli va mazmunli tashkil etishda tarbiyalanuvchida mavjud yosh xususiyatlarini albatta, inobatga olish lozim. Bu inobatga olingan xususiyatlar tarbiyachiga kreativ faoliyati davomida faqatgina foyda uchun xizmat qiladi. Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv yosh avlod vakillarida zamonaviy jamiyatimizga kirib kelayotgan innovatsion texnologik jarayonlarda faol bo‘lish imkoniyatlarini kengaytiradi, kreativ fikrlash ko‘nikmalarini yanada shakllantirib, erkin mavzularda erkin fikr bildirish bilan birga o‘xshamas, o‘zgalar fikridan ajralib turuvchi fikrlarni namoyon qilish xislatlarini oshiradi.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi.

## TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGI

“**Kompetentlik**” so‘zining ma‘nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi.

“**Kompetentlik**” tushunchasi ta‘lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik —noan‘anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma‘lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmuni ifodalaydi:

**Psixologik kompetentlik**–pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta‘lim oluvchilar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**Metodik kompetentlik**– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash,



metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash;

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish;

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**Innovatsion kompetentlik**–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta'lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

**Kommunikativ kompetentlik** – ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta'lim oluvchilar bilan samimiy muloqotda bo'lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olish;

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish;

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish;

**Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik;

**Kasbiy – pedagogik kompetentlik** – ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim beruvchilarning kasbiy kompetentligining samarali olib borilishini ta'minlash ham dolzarb masalaga aylandi.

Tarbiyachi kasbiy kompetentligi deganda, uning bilim, ko'nikma, qobiliyat, qarashlari tarbiyachining malakasi yoki ta'lim berish qobiliyatlarining namoyon bo'lishi belgilab beradigan shaxsiy sifatlari va qadriyatlar yig'indisini

tushunamiz. Tarbiyachining kasbiy kompetentligi **kasbiy mahorat, o'z sohasini yaxshi bilishi, kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi, kasbiy faoliyati davomida zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalana olishi** kabi ko'rsatkichlarga qarab aniqlanadi.

**Kasbiy mahorat.** Bu ta'lim jarayonining barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo'naltirish, bolalarda dunyoqarash, qobiliyatni shakllantirish, ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan faoliyatga moyillik uyg'otish.

**O'z sohasini yaxshi bilishi.** Bunda tarbiyachi o'z kasbi doirasidagi bilimlarga ega bo'lishi, kasbiga oid amalga oshirilayotgan yangiliklar, islohotlardan muntazam ravishda xabardor bo'lishi, kasbini sevishi muhim ahamiyatga ega.

**Kasbiy malakasini muntazam oshirib borishi.** Hozirgi kunda tarbiyachi, pedagoglar har uch yilda bir marta qayta tayyorlash institutlarida o'z malakalarini oshiradilar. Buning natijasida ular axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning yangi imkoniyatlari, metod va usullari bilan yaqindan tanishadilar hamda olgan bilimlarini o'z ish faoliyatlariga tatbiq etish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar.

**Kasbiy faoliyati davomida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishi.** Zamonaviy axborot texnologiyalari bu – ma'lumotlarni olish, saqlash, qidirish, qayta ishlash va axborot tuzishdir. Zamonaviy axborot texnologiyalarini audio-video, kompyuter, multimedia, kompyuter-konstruktor kabi turlarga ajratish mumkin.

Faoliyat jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim berish va ta'lim olishni yengillashtiradi, tarbiyachi uchun ta'limda qulaylik va tizimlilikni ta'minlaydi. Ta'lim oluvchilarning bilimga bo'lgan qiziqishini, aqliy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanish asrida tarbiyachidan katta mahorat talab etilmoqda. Bu esa o'z navbatida tarbiyachining o'z ustida

muntazam ishlashiga, mavjud zamonaviy axborot- texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishiga undaydi.

Tarbiyachi kasbiy kompetentligiga bolalar talabining o'sishi, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, jamiyat ehtiyoji hamda talabning o'sishi, tarbiyachi rolining o'zgarishi, ta'lim sohasida xalqaro tajribalar va qiyosiy tahlil natijalari ta'sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining o'ziga xos xususiyatlaridan shu ma'lum bo'ladiki, tarbiyachi kasbiy kompetentligini, kasbiy mahoratini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim samarasini, balki tarbiyachi ish faoliyati natijasini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, tarbiyanuvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, o'zini-o'zi va o'z faoliyatini o'zi tahlil qiladigan va ob'ektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma'naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo'lgan, shuningdek, axborotlar to'plash, tahlil qilish, ob'ektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta'lim oluvchilar faolligini ta'minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligiga va tarbiyanuvchilar faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lgan hamda ta'lim-tarbiya jarayoni sub'ektlari faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish, faolligini ta'minlash yo'nalishida zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan pedagogni kompetentli deyishimiz mumkin.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining o'z funksional vazifalarini amalga oshirish jarayoni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga yo'naltirilgan vazifalarni amalga oshirish jarayoni bo'lib,

pedagogik jarayonlarda ko‘zlangan natijalarga erishish uchun belgilangan maqsadlar yo‘nalishidagi sub’ekt (tarbiyachi-tarbiyalanuvchi)lar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish, tahlil qilish va baholash, pedagogik jarayonlarda bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatish orqali sub’ektlarning faoliyatini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Pedagogning ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi turli faoliyatlari davomida zaruriy pedagogik ko‘nikmalarining shakllanishi, kasbiy qobiliyatini namoyon etish jarayonida esa uning uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan intellektual qobiliyat, tasavvur va tushunchalari, tafakkuri rivojlanadi va ma’naviyati oshadi.

Yuqoridagi qayd etilgan fikrlardan bugungi kun tarbiyachisi shaxsiga nisbatan qo‘yilayotgan talablarning naqadar muhimligini anglash lozim. Demak, tarbiyachi maxsus pedagogik, psixologik va mutaxassislik bo‘yicha yetuk bilimli va yuksak fazilatli shaxs sanaladi. Shuning uchun zamonaviy tarbiyachi-murabbiy qiyofasida quyidagi fazilatlarni namoyon eta olishi kerak:

✚ Zamonaviy murabbiy o‘zini mutaxassisligi bo‘yicha chuqur puxta bilimga ega bo‘lish, o‘z ustida tinimsiz ishlashi kerak. Tarbiyachi maktabgacha tarbiya pedagogikasi va psixologiya, fiziologiya fanlarining asoslarini bilish, ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarning yoshi va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etishi kerak;

✚ Tarbiyachi ta’lim-tarbiya jarayonida samarali shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak;

✚ Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olish lozim;

✚ Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tayyorlashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas'uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi.

Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo'lishi, o'zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo'lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak.

Shuningdek, pedagog-tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

So'nggi yillarda respublikamiz rahbariyati tomonidan tarbiyachilarning faoliyati yuqori baholanmoqda. Yosh avlodning barkamol, komil inson bo'lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o'qituvchilarning roli benihoyat kattadir. Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Birovni o'qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o'zi har tomonlama barkamol bo'lmog'i shart". Shuningdek, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Pedagog-tarbiyachi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo tarbiyachi-pedagogning o'zi shunday bilimga ega bo'lishi kerak". Ayniqsa, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga eng yetuk, tajribali tarbiyachi-pedagoglarni biriktirib qo'yilishini oddiy mantiqning o'zi talab etadi. Bu muammoni oqilona hal qilishning eng muhim omillaridan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etishdir. Shunga binoan, mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimi sohasida amalga oshirilayotgan

islohotlarning ustivor yo‘nalishlaridan biri ham kadrlar tayyorlash sifatini jahon talablari darajasiga yetkazish bugungi kun dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

**Tarbiyachining kasbiy mahorati.** Tarbiyachining kasbiy mahorat – bu ma’lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarining yig‘indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo‘llarini izlab topishida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarini ham takomillashtirish lozimdir.

Murabbiy faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi? Murabbiy avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim. Bu esa, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ana’nalarni bilishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib berishi, tarbiyalanuvchilarning ota-bobolarimiz qoldirgan boy merosga bo‘lgan hurmatini tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo murabbiyning o‘zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e’tiqodda bo‘la olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunishi, milliy-axloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglashi, tarbiyalanuvchilarda bobolar, ajlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Tarbiyachi pedagogik kasbi sohasida:** bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik, qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik, o‘zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik.

**Tarbiyachining bilim sohasiga:** keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni his qila bilish.

Faoliyatlar kishini o‘ziga duch kelgan hodisalarni tahlil qilish va umumlashtirish tajribasi bilan boyitadi.

Pedagogik malaka egallagan bilim va ko'nikmalarni faoliyatning ma'lum turini egallab olish, yaxshi bajara olish qobiliyatidir. Bu fahm-farosat va bilimlarning chinakam ilmiyligi, tarbiyadagi qiyinchiliklarning yengishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlik bolalar qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashish, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat mujassamdir.

Shuni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, pedagoglik kasbi murakkab va mas'uliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliigi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu tarbiyachilarda pedagogik – psixologik va metodik tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy - psixologik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Pedagog faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagog eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqq olishi kerak. Muloqot jarayonida pedagogning so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin. Hozirgi sharoitda jamiyatning pedagoglik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi pedagogga bog'liq.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi pedagog faqatgina ta'lim oluvchilarni muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash, ilg'or pedagoglar ish tajribalarini o'rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur.

Hozirgi zamon pedagogi fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi taqozo etiladi.

Shu sababli tarbiyachi-pedagoglarning ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratlarini va kreativligini oshirish asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

## **TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATI**

Tarbiyachi sharoqona tarbiya ta'sirini o'zida mukammal etib, uni tarbiyalanuvchilarga ham singdira olmog'i lozim. Buning uchun milliy qadriyatlariga tegishli bilimga ega bo'lishi shart.

Tarbiyachining tarbiyalanganlik darajasi uning shaxsiy fazilatlarida namayon bo'ladi. Tarbiyachining so'zi, o'zi, kiyinishi hatto yurish - turishi ham bolani tarbiyalaydi. Shunday ekan, tarbiyachi shaxsiy fazilatlarini shakllanishi uning shaxsiy namunasini ifoda etadi.

Tarbiyachining kasbiy fazilati pedagogik mahorat sirlarini egallashi bilan bog'liqlikdagi masala hisoblanadi. O'z - o'zini tarbiyalab borishda, o'z ustida tinmay ishlashga harakat qilish kasbiy fazilatlarni shakllantirishga zamin hozirlaydi.

Pedagogik mahorat - tarbiyachining shunday shaxsiy va kasbiy, fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur puxta va atroflicha bilishida, psixologik - pedagogik va metodik - didaktik tayyorgarligida, yoshlarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab - topib amaliy faoliyatida qo'llashida namoyon bo'ladi.

Pedagogik nazokat(takt) – pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining



chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi va pedagog – tarbiyachida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo o‘z kasbining mohir ustози bo‘lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o‘ylash, pedagogik ish tutish lozim bo‘ladi. Bu deganimiz, o‘z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog‘lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta‘lim-tarbiyaga doir g‘oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo‘ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo‘llarini topish ustida o‘ylash ham kerak.

Hozirgi kunda ta‘lim-tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xarakterda ekanligi, tarbiyalanuvchilarni erkin, mustaqil fikr yuritishga va ongli intizomga o‘rgatish, intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, tarbiyachidan chuqur bilimga, kasbiy malaka va ko‘nikmalarga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Shu jihatdan tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan munosabatida —Pedagogik takt muhim pedagogik mahorat sifatida e‘tirof etiladi.

**Pedagogik mahorat** tarkibi quyidagilarni tashkil etadi:

- pedagogning insonparvarligi;
- kasbiy bilimdonligi;
- pedagogik texnikasi;
- pedagogik qobiliyat.

**Tarbiyachi - pedagogning insonparvarligi.** Insonparvarlik kishining vijdonliligida o‘z aksini topadi. Vijdonli kishigina to‘g‘ri so‘z, halol, mehribon bo‘ladi. Uning natijasida bolaga to‘g‘ri yondasha oladi, bolalar o‘rtasida ta‘lim - tarbiya ishlarini to‘g‘ri tashkil eta oladi, muhimi bolaga mehribon bo‘ladi. Bolaga

mehribonlik yanada munosabatni yaqinlashtiradi. Demak, tarbiyachi, albatta insonparvar bo'lmog'i lozim.

**Kasbiy bilimdonlikni** oshirib borish uchun har bir tarbiyachi - pedagog o'z ustida quyidagi tizimda ishlashni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

Matbuot sahifalarini mutoala qilish, badiiy adabiyotlarni o'qish, konferensiyalarda qatnashish va ularda ma'ruza qilish, kasb sohasiga oid chiqayotgan yangiliklardan xabardor bo'lish, fan sohalarini chuqur egallab borish, axborot - kommunikatsiyalar bilan ishlash orqali amalga oshiriladi. Kasbiy bilimdon bo'lgan kishigina mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil qila oladi.

**Pedagogik texnika** - tarbiyachi faoliyatida boshqaruvchilikda ko'rinadi. Pedagogik texnika tizimida mimik, pantomimik ifodalar mavjud. Mimik va pantomimik ifoda, tarbiyachining imo - ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular tarbiyachi - o'qituvchi pedagogik ta'sir ko'rsatishida, mashg'ulotlarni samarali va mazmunli o'tish uchun puxta zamin tayyorlab beradi.

Pedagogning mimikasi o'z fikrlari, kayfiyati, holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'ati. Yuz va nigoh ifodasi tarbiyachiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. Bolalar tarbiyachiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini bilib oladilar. Yuz ifodasida, mimik belgilarida mashg'ulotlarga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida mashg'ulotlarga xos ko'rinishlarni ifodalashi lozim.

Tarbiyachi faoliyatida uning pantomimik harakati muhim o'rin tutadi. Bu gavda, qo'l, oyoq harakati. Tarbiyachi ma'lumotlarni bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chiza olsa, bola bundan zavqlanadi, ichki his - tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi. Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini

aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda ifodalash tarbiyachining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi.

**Pedagogik qobiliyat** tarbiyachining shaxsiy namunasida o'z kuchiga ega.

Bilish qobiliyati, tushuntira olish qobiliyati, ko'zatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obro' ortira olish qobiliyati, kommunikativ - to'g'ri muomala qila bilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

Tarbiyachi - pedagog qobiliyatini mukammallik darajasiga yetkaza olishi zarur. Bola bilan ishlash jarayonida o'z samarasini berib boradi. Keltirilgan har bir qobiliyat tarbiyachi uchun instrument hisoblanadi.

Baliqchiga ov jarayonida qarmoq qanchalik kerak bo'lsa, tarbiyachi - pedagog ham ta'lim - tarbiya jarayonida pedagogik mahoratga shunchalik muhtoj bo'ladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni qanday?
2. Tarbiyachi o'zining mutaxassisligi bo'yicha qanday malakalarga ega bo'lishi kerak?
3. Hozirgi zamon tarbiyachisining asosiy fazilatlaridan biri qaysi?
5. Tarbiyachining kreativligiga nimalar kiradi?
6. Kompetensiya deganda nimani tushunasiz?
7. Kasbiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
8. Pedagogik mahorat nima?
9. Pedagogik qobiliyatlari haqida ma'lumot bering.


#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Kompetensiya va kompetentlik so'zlarini "Venn diagrammasi" asosida tahlil qiling.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM-TARBIYASI

*Bola rivojlanish jarayonida uni o‘rab turgan predmetlar va kattalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi. Bu esa, ikkita faoliyat tizimini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi: “bola - ijtimoiy predmet” va “bola - ijtimoiy yetuk”.*

*Elkonin*



### REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari.
3. Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.

*Tayanch tushunchalar: rivojlanish, shaxs rivojlanish, ehtiyoj, qiziqish, yosh xususiyatlari, temperament, go‘dakning vazni, ilk bolalik davri, kichik yosh (uch yoshdan to‘rt yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari, maktabgacha bo‘lgan o‘rtacha yosh (to‘rt yoshdan besh yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari, maktabgacha bo‘lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari, individ.*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA'LIM- TARBIYASINING O'ZIGA XOSLIGI

Oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz - mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham,

O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham - bularning barcha-barchasi, avvalambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir. Uzoqni ko'zlab aytilgan bu so'zlar istiqbol yillarida mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini yorqin ifodalaydi. Haqiqatan ham, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning oddiy hodisa emasligi, bu xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirish, milliy davlatchilikni mustahkamlash, mustaqillikni asrab-avaylash, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan o'rin olish, yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin farovon hayot barpo etish, jamiyatimizni yangilash va modernizatsiyalash jarayonining tarkibiy qismi ekani dunyo hamjamiyati tomonidan ham bejiz e'tirof etilmayapti.

Maktabgacha yoshdagi davr har bir inson hayotidagi eng muhim davrlardan biridir. Aynan shu yillarda bolaning salomatligi, barkamol, aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishining poydevori qo'yiladi va shaxs sifatida rivojlanadi va shakllanadi.

Shaxs rivojlanishi hamda kamolga yetishi murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, bunda nasl-irsiyat (biologik omil), ijtimoiy muhit, maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va kishining o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega.

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi.

Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, tanosil a'zolarining, nerv-funksional faoliyatining kamol topishi, aql zakovatining shakllanishiga aytiladi.

Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'quv, sport va b) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar,

begona kishilar va b. bilan). Bunda u o'ziga xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi.

Bola tug'ilganidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi.

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI  
BOLALARNING  
YOSHGA DOIR  
PEDAGOGIK VA  
PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

Inson hayoti davomida o'zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola tug'ilganidan to 7 yoshgacha bo'lgan davr maktabgacha yosh davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o'zgarishlari

bo'lishini inobatga olgan holda 6 davrga bo'linadi:

- Go'daklik davri (0-1);
- Ilk bolalik davri (1-3);
- Kichik maktabgacha yosh (3-4 yosh);
- O'rta maktabgacha yosh (4-5 yosh);
- Katta maktabgacha yosh (5-6 yosh);
- Maktabga tayyorlov yosh (6-7 yosh).

Bola rivojlanish jarayonida kishilik avlodi tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo'lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o'zlashtirib, asta-sekinlik bilan egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o'sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilishi lozim.

Maktabgacha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya, ularning murakkab harakatlarini o'zlashtirish, elementar gigiyena, madaniy va mehnat malakalarini

shakllantirish, nutqini rivojlantirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilishga qaratilishi lozim.

Mashhur rus pedagogi Lestgaftning fikricha, insoning maktabgacha yoshidagi davri shunday bir bosqichki, bu davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Bola maktabgacha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kuchaya boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bola mustaqil faoliyatda bo'la olishi uchun zarur bo'lgan ikkita qudratli kuchga ega. Birinchidan, ma'lum darajada o'ziga bo'ysundirilgan harakat apparatiga, ikkinchidan esa, atrofidagi katta odamlar va o'z tengdoshlari bilan bir qadar erkin munosabatda bo'la oladigan nutqqa ega. Mana shuning uchun bu yoshdagi bolalarning xulq-atvorlari, xatti-harakatlari, qiziqish va ehtiyojlari kichik yoshdagi bolalarnikidan keskin farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga ham turlicha munosabatda bo'lishni taqozo qiladi. Maktabgacha yoshdagi davrda bolaning barcha psixik jarayonlari jadal rivojlana borib, uning tashqi muhit bilan bo'ladigan munosabatlarida anchagina o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bir tomondan, bola maktabgacha yoshga yetgach, kattalarning doimiy yordamlaridan ancha ozod bo'lib, ulardan bir qadar uzoqlashadi, ikkinchi tomondan, kattalar bilan bo'lgan munosabatlari murakkab, ko'p tomonlama xarakter kasb eta boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar bolalarni u yoki bu harakatga undovchi, ularni ishga soluvchi (omil) hisoblanadi. Ma'lumki, ilk yoshdagi bolalarda (yangi chaqaloqlarda) asosan organik ehtiyojlar (masalan: ovqatlanish, tashnalikni qondirish, uxlash kabi)lar mavjud bo'ladi. Bolaning faoliyat doirasi kengaygan sari atrofidagi narsalarni bilishga qaratilgan ehtiyojlari ham orta boradi. Bunga sabab bolada turmush tajribasining ozligidir. Har bir narsa bola

uchun yangilik bo'lib tuyuladi va bola uni har tomonlama bilib olishga intila boradi. Shuning uchun ham ular juda ko'p savollar beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida maktabgacha ta'lim muhiti juda katta rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'limdagi tartib, intizom va turli-tuman ta'limiy mashg'ulotlar bolalarda yuksak ijtimoiy, intellektual, axloqiy va gigiyenik ehtiyojlarning uyg'un ravishda yuzaga kelishi uchun sharoit tug'diradi.

Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda, odatlar o'z mohiyati jihatidan ehtiyojga yaqin narsalardir. Boshqacha qilib aytganda, turlicha odatlar kundalik hayotda takrorlana borishi natijasida vujudimizga juda singib ketib, ehtiyojga aylanib qoladi. Shuning uchun bolalarda ijobiy va foydali ehtiyojlarni tarbiyalash deganda ularda ijobiy va foydali odatlarni hosil qilishni tushunamiz. Maktabgacha yoshdagi davrda hosil qilingan mustahkam ijobiy odatlar (ehhtiyojlar) kishining butun umri davomida saqlanib qoladi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida qiziqishning ham roli g'oyat kattadir. Qiziqish, xuddi ehtiyoj kabi, bolani biror faoliyatga undovchi (harakatga soluvchi) omillardan biridir. Qiziqish deganda, biz voqelikdagi narsa va hodisalarni birmuncha chuqurroq bilishga qaratilgan maxsus intilishni tushunamiz. Demak, qiziqish bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan har bir shaxsning murakkab sifatidir. Maktabgacha yoshidagi bolalar hamma narsalarga birdek qiziqmaydi. Ular ayrim narsalarga ko'proq, boshqa bir narsalarga kamroq qiziqadilar. Lekin bog'cha yoshidagi bolalarning qiziqishlari katta odamlardagi kabi bir narsaga nisbatan qat'iy hamda mustahkam bo'lmay, bir narsadan ikkinchi bir narsaga tez-tez o'tib turadi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshidagi bolalarning qiziqishlari juda tarqoq va yuzaki bo'ladi. Ular narsa va xodisalarning mohiyati yoki natijalariga emas, balki shu narsa va xodisalarning o'zigagina qiziqadilar. Shu sababli maktabgacha yoshidagi bolalarda asosan beqaror va bevosita qiziqishlar ustun turadi. Tarbiyachi tarbiyalanivchilarga turli mashg'ulotlar, ekskursiyalar, suhbatlar o'tkazish va kitoblar o'qib berishi va



bolalarda markazlashgan barqaror qiziqishlarni yuzaga keltirishga harakat qilishlari lozim.

Bola psixologiyasining rivojlanishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasining mumkin qadar chuqurroq bilishga tirishadi. Binobarin, uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa, o'z navbatida, bolaning diqqati, irodasi kabi muhim psixik jarayonlarini rivojlantirish hamda mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarda biror sohaga nisbatan barvaqt yuzaga kelgan qiziqish kelajakda ularning shu sohani yaxshi egallashlari uchun qandaydir tayyorgarlik rolini o'ynaydi.

Maktabgacha hayotining ko'p qirrali va sermazmunligi bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga hamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa asosiy bilish jarayonlari bo'lgan – sezgi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o'zgartirib yuboradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda bu asosiy bilish jarayonlari bir-biridan differensiyalashgan (ajratilgan) bo'ladi. Maktabgacha yoshidagi bola biron o'yin faoliyati yoki biron narsa bilan mashg'ul bo'lishi jarayonidagina emas, balki bunday amaliy faoliyatdan tashqari ham biror narsa yoki xodisani idrok qilishi, tasavvur etishi, esida olib qolishi, esiga tushurishi hamda oddiy tarzda tafakkur qilishi mumkin. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshidagi davrida ana shu asosiy psixik jarayonlari va xususan tafakkur hamda nutq jarayonlari jadal rivojlanadi. Bolalar kattalar bilan bo'lgan munosabatlarida narsa va xodisalar haqida elementar tushunchalar tizimini egallab olib, tafakkur qilishga o'rgana boshlaydilar. Kichik va maktabgacha yoshidagi bolalarga xos bo'lgan «nimaga?», «nima qiladi?», «nima keragi bor?» kabi ko'p savollar ularni narsa va xodisalarning sabablari haqida fikr yurita boshlayotganliklaridan darak beradi. Maktabgacha yoshidagi bolalarning xis-tuyg'ulari nihoyatda kuchli bo'ladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshidagi bolalarning xis-tuyg'ulari chuqur va mustahkam bo'la boshlaydi. Bolalarda maktabgacha yoshidan boshlab axloqiy, intellektual va estetik xis-siyotlarning eng sodda turlari yuzaga kela boshlaydi.

Maktabgacha yoshidan boshlab bolalarda iroda va irodaviy sifatlar ham tez rivojlana boshlaydi. Ularda o'zining butun xatti-harakatlarini ongli ravishda qo'yilgan umumiy bir maqsadga bo'ysundirish uquvi yuzaga kela boshlaydi.

Maktabgacha yoshidagi bolalarda ayrim psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan birga ularning shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Bolaning tashqi muhitdagi narsa va xodisalar hamda o'ziga nisbatan bo'lgan to'g'ri, oqilona munosabatlarining asosi xuddi shu davrda yuzaga keladi. Bundan tashqari, maktabgacha yoshidagi davrda bolaning qobiliyatlari tez rivojlanib, yangi-yangi ehtiyojlar va qiziqishlari hosil bo'ladi. Bola shaxsining ana shunday rivojlanib borishi natijasida uning xarakteriga oid xislatlar namoyon bo'la boshlaydi.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida xilma-xil bo'ladi. Abu Ali ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniyilar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tgan.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM DAVRIDA  
YOSH  
DAVRLARINING  
O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI**

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

M: ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez

kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual, o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

**Temperament** (lot. "temperamentum" – qismlarning bir-biriga munosabati) shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Maktabgacha bo'lgan yosh bola shaxsining jismoniy, psixologik va ijtimoiy jihatdan shakllanishining asosiy davridir.

### **Go'daklik davri bolalarining rivojlanishidagi o'ziga xosliklar.**

Insonning rivojlanish davri ona qornidan boshlanadi. Bola ona qornida to'qqiz oy mobaynida juda tez rivojlanish jarayonini va murakkab taraqqiyot davrini o'taydi. Bu davrda ham bola ma'lum darajada tashqi muhit ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun ham bu ta'sirning ijobiy bo'lishini ta'minlash lozim.

Go'dakning vazni tug'ilgan paytda 3,5 kg, bo'yi 50 sm bo'lgan bo'lsa, uch oylik davrida uning vazni taxminan 5 kg, bo'yi 60 sm, 6 oylik bo'lganda esa taxminan 7 kg, bo'yi 64 sm bo'ladi.

Bir yoshgacha bo'lgan davrda bolaning rivojlanishi asosan oila muhiti ta'sirida bo'lib, u ona suti bilan oziqlanishi lozim. Bola bu davrda nutqqa ega bo'lmasa ham nutqni tushunish, anglash, harakatlarni idrok etish, oila a'zolarini tanish qobiliyatiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklik davridan boshlab uch yoshgacha bo'lgan davrda bolaning nutqi va tafakkuri jadal rivojlanadi. Bola bir yoshgacha bo'lgan davrda dastlabki so'zlarni ayta boshlaydi. Bu davrda kattalar, asosan, oila a'zolari go'dakni to'g'ri parvarish qilishni yo'lga qo'yishlari lozim. "Bola tushunmas ekan" deb, unga befarq bo'lmasliklari, atrof-muhitdagi buyumlarning nomini to'g'ri talaffuz qilib, ularning nutqini to'g'ri rivojlantirish uchun keng yo'l ochishlari kerak.

Oilada bolani tarbiyalashda ota-ona bilan bola o'rtasida qalban yaqinlikka erishish lozim. Ota-onalar hech qachon tarbiyani o'z holiga tashlab qo'ymasligi,

ya'ni bolaning ilk yoshligidan bu jarayonga kirishish talab etiladi. Chunki, bola oilada birinchi hayotiy tajribani o'rganadi, kuzatadi va o'zini turli xil vaziyatlarda qanday tutish kerakligini o'rganadi. Bola nimaga o'rgatilsa, uni aniq, hayotiy misollar bilan mustahkamlash zarur, ya'ni bola kattalar aytgan gaplariga amal qilishlari, shaxsan tarbiyaning samaradorligini ta'minlaydi.

**Ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha).** Bu davr o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bir yoshdan ikki yoshgacha bo'lgan davr mobaynida bolaning nutqi va o'zgalar tomonidan aytilgan so'zlarni tushunish qobiliyatlari jadal rivojlangan bo'lsa, 2-3 yoshga kelib, o'zgalar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez beriladi.

Shuning uchun ham unga xuddi shu davrdan boshlab she'rlar aytish hamda raqsga tushishni o'rgatish lozim. Ularda kattalarga jo'r bo'lib qo'shiq aytish, musiqaga muvofiq harakat qilish, ohangni his etish ko'nikmasi shakllanadi.

Bu yoshdagi bolalarni bir joyga jamlaganda ular orasida o'zaro muloqotga kirishish ko'nikmalari shakllana boshlaydi. Ta'lim-tarbiyaviy ishlar bolalarda shakllana boshlagan xuddi ana shu ko'nikmalarni rivojlantirishga va ularni malakalarga aylantirishga yo'naltirilmog'i lozim.

**Maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari.** Bola 3 yoshga qadam qo'yganda jismoniy o'sishi bir qadar sekinlashadi. Bu davrda uning og'irligi 14-15 kg, bo'yi 90-95 smga yetadi. Bola jismonan ancha chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi. Tayanch harakat organlari takomillashib boradi. 3 yoshli bolalar qisqa muddat davomida o'z hatti-harakatlarini idora qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Ulardagi mustaqillik ortib boradi, hissiyot hamda sensor idroki rivojlanib boradi. Jamoa bo'lib o'ynash ko'nikmalari shakllanadi. O'yin asosida amalga oshiriladigan mehnat faoliyatini farqlash imkoniyati kengayadi. Tasviriy faoliyat hamda qurish-yasash faoliyatining dastlabki ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Uch yoshli bolalarning diqqati qisman markazlashadi, xotirasi mustahkamlanib boradi, moddiy borliqni idrok etish jarayoni boshlanadi, faraz qilish imkoniyatlari vujudga keladi. Bunda

o'yin faoliyati yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur dastur xuddi mana shu faoliyatni kengaytirishga va rivojlantirishga keng yo'l ochadigan ta'limiy mashg'ulotlar tizimini belgilab berishga yo'naltirilgan.

**Maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (to'rt yoshdan besh yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari.** Bola to'rt yoshga yetgach, uning jismoniy o'sishi bir muncha jadallashadi, bu davr mobaynida bo'yi 105-108 sm gacha o'sadi, og'irligi esa 18-19 kg bo'ladi. Bu davrda bolaning miyasi tez rivojlanadi. Katta yarim sharlar po'stlog'ining faoliyati takomillashib boradi. Boladagi asosiy harakatlarning rivojlanishida jiddiy-sifat o'zgarishlar sodir bo'ladi, ularni bajarishda tabiiylik ortib boradi, bolalarda qiyoslash ko'nikmasi shakllanadi. Bu yoshdagi bolalarning nutqi ravon, xotirasi ancha teran, mustaqil fikrlash darajasi bir qadar rivojlangan bo'ladi. Barcha harakat va faoliyatlarni o'zi mustaqil bajarishga intiladi. Bu yoshda bola nihoyatda serharakat, o'yinqaroq, o'ta qiziquvchan bo'ladi. U har qanday tadbirga bajonidil qatnashadi. Shuning uchun ham ularni to'g'ri ovqatlantirish, o'z vaqtida uxlatish, salomatligini muhofaza qilish, ruhiy holatini nazorat qilib borish, quvnoq kayfiyatda bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Ular bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning mazmunini xuddi mana shunga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

**Maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan yetti yoshgacha)ning rivojlanish xususiyatlari.** Bu davrda bolaning bo'yi bu davrda 7-8 sm ga o'sadi. Uning oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg ni tashkil etadi. Bolalarning umurtqa suyaklari qotmaganligi tufayli tez qiyshayib qolishi mumkin. Shuning uchun ham suyaklarning to'g'ri o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor berish kerak. Ularning yuragi chaqaloq yuragiga nisbatan 4-5 barobar kattalashgan, biroq muskullari hali yetarli darajada mustahkamlanmagan bo'ladi. Olti yoshga yetganda miya po'stlog'ining asab katakchalari rivojlanib, og'irligi va tashqi ko'rinishidan kattalarnikiga yaqinlashadi. Shuning uchun ham bolaning asablariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish talab etiladi. Uning talaffuzi aniq, nutqi ravon bo'lishini ta'minlash kerak. Bolaning bu faoliyatida

nuqson bo'lgan taqdirda uning oldini olish choralari ko'rish lozim. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. Ularning nutqidagi so'zlar bolaning fikr ifodalash ehtiyojlarini to'la qondirishi kerak. Bu davrda bolalarning matematik tafakkuri, hisoblash ko'nikmalarini rivojlanishi lozim. Dastlabki iqtisodiy tushunchalarga ehtiyoj seziladi. Bolaning faraz qilish qobiliyatini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Bola hayotining yettinchi yilida undagi harakatlar ko'lami kengayadi va aniqlashadi, uning jismida harakatlarning o'zaro moslashuvi boshlanadi. 6-7 yoshli bolalar o'zini idora qilish va o'z harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydi. Bu yoshdagi o'g'il bolalarda mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi hamda kattalar fikrini tinglash ishtiyoqi shakllanadi. Bu davrda bolaning bo'yi 120 sm ga yetadi, og'irligi 22-24 kg bo'ladi. Bu yoshda bola chiniqadi, qiziquvchan bo'ladi, o'z salomatligini nazorat qila oladi. Uning idrok kuchi va tafakkuri jadal rivojlanadi, moddiy borliqni bilishga intila boshlaydi. Bolalarda gigiyenik malakalar shakllana boradi.

Har qanday olti yoshli bola maktabga qabul qilinishi mumkin. Buning uchun u jismonan, ruhan hamda aqliy jihatdan ta'lim olishga tayyor bo'lishi kerak. Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashda tashxis markazlarining xulosalariga tayanish lozim. SHu bilan bir qatorda maktabning moddiy-texnik bazasi olti yoshli bolalarga ta'lim berish imkoniyatiga ega bo'lishi shart. Tarbiyachining pedagogik-psixologik bilim darajasi, axloq-odobi va shaxsiy sifatlari olti yoshli bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun loyiq bo'lganda, u olti yoshli bolalarni o'qitish huquqiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham 6-7 yoshli bolalar, ularni qabul qiladigan maktablar hamda bu bolalarni o'qitadigan tarbiyachilar pedagogik-psixologik nuqtai nazardan alohida-alohida diagnostika qilinishi va shundan keyingina ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak.

Demak, maktabgacha yoshdagi bola shaxsining rivojlanishi o'ziga xos, murakkab jarayon sanaladi. Maktabgacha ta'lim yoshi bolalarining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Bu yoshdagi

bolalarning to‘laqonli rivojlanishida biologik (irsiyat), ijtimoiy (ijtimoiy muhit) va tarbiya kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, maktabgacha ta‘lim yoshining o‘zi ham yettita o‘ziga xos, alohida davrlarga ajratiladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘qitish va tarbiyalash ishiga mas’ul bo‘lgan shaxslar – tarbiyachi va ota-onalar, vasiylar bolalarning yosh davri xususiyatlaridan to‘la xabardor bo‘lishlari zarur.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tavsiflang.
2. Go‘daklik davri bolalarining rivojlanishidagi o‘ziga xosliklarini ayting.
3. Ilk bolalik davri haqida ma’lumot bering.
4. Kichik maktabgacha yoshning rivojlanish xususiyatlari haqida ma’lumot bering.
5. O‘rta maktabgacha yoshning rivojlanish xususiyatlarini ayting.
6. Katta maktabgacha yoshning rivojlanish xususiyatlariga nimalar kiradi?

### **Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini jadvalda tahlil qiling.

<b>№</b>	<b>Yosh davri</b>	<b>Bolaning bo‘yi</b>	<b>Bola vazni</b>	<b>Rivojlanishida o‘ziga xosligi</b>
1	Go‘daklik davri			
2	Ilk bolalik davri			
3	Kichik maktabgacha yosh davri			
4	O‘rta maktabgacha yosh davri			
5	Katta maktabgacha yosh davri			

## BOLA SHAXSINI RIVOJLANISH OMILLARI

*Tarbiya bolani muhitga moslashtirishdan iborat emas, balki bu muhitdan tashqariga chiqadigan, go'yo oldinga intilayotgan shaxsni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, bolani tashqaridan tarbiyalash shart emas, u o'zini o'zi tarbiyalashi kerak.*

*L.S. Vigotskiy*



### REJA:

1. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
2. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillari.
3. Shaxs shakllanishida biologik omillarning ta'siri.
4. Shaxs shakllanishida ijtimoiy omillarning ta'siri.
5. Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyaning roli.
6. Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni.
7. Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni.

*Tayanch tushunchalar: shaxs, shaxs rivojlanishi, individ, jismoniy rivojlanish, ruhiy rivojlanish, omillar: irsiyat (biologik), ta'lim-tarbiya, bolaning mustaqil faoliyati, ijtimoiy muhit, tabiiy muhit, oila muhiti, barkamol inson, barkamol shaxs.*

### SHAXS RIVOJLANISHI HAQIDA TUSHUNCHA

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi.



“Shaxs” - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs – muayyan jamiyatning a’zosi hisoblanadi. Demak, davlat tomonidan uning ta’lim xizmatlari iste’molchisi sifatida bilim olishi va kasb-hunarga ega bo’lishi uchun zarur shart-sharoit yaratiladi. O’z navbatida shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida kasbiy malakaga ega bo’lgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko’rsatish sohasida faoliyat olib borib, bilimi va tajribasini namoyon etadi. Bu esa ta’lim jarayonida aqlan rivojlangan, ma’naviy-axloqiy shakllangan, jismoniy yetuk, muayyan kasb-hunar asoslarini puxta egallagan, har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga jiddiy talablar qo’yadi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o’sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo’ladi. U o’zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi.

Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo’lib, u barcha tug’ma va egallangan miqdor va sifat o’zgarishlarini o’z ichiga oladi.

Jismoniy rivojlanish bo’yicha o’sishi, vazinning ortishi, sezgi a’zolarini mukammallashuvi, harakatlarni to’g’ri boshqara bilish bilan bog’liqdir.

Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar va belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o’zgarishlar ro’y beradi.

Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo’lgan munosabatida namoyon bo’ladi.

Shaxs qator ijtimoiy fanlar, xususan, falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlarining o’rganish ob’ektidir. Falsafa shaxsni uning ijtimoiy ahvoli, faoliyati, bilish, ijod sub’ekti sifatida qarab chiqadi. Psixologiya shaxsni psixik holatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy-psixologik munosabatlar, shaxsning temperamenti, fe’l-atvori, qobiliyati, irodaviy fazilatlari va hokazolarning uyg’unligi asosida o’rganadi.

Sotsial yondashuv esa shaxsning ijtimoiy o'ziga xosligini belgilab beradi. Faylasuflarning fikrlariga ko'ra shaxs keng ma'noda – inson individ, kishi; tor ma'noda ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari bilan boshqalardan farq qiluvchi muayyan jamiyat a'zosi. “Inson” tushunchasi barcha kishilarga xos bo'lgan sifat va qobiliyatlarni ifodalash uchun qo'llaniladi va hayot, faoliyat usuli bilan farqlanadigan odam, inson sifatida sub'ektlarning tarixiy birligini ifodalaydi. Inson tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlari va barcha zamonlarda o'ziga xos mavjudot sifatida muayyan antologik maqomni saqlab keladi. Insonning o'ziga xosligini ifodalaydigan xislatlar va fazilatlar uning individualligini belgilaydi. Individ esa insoniyat vakili bo'lib, ijtimoiy va psixologik belgilar (jumladan, aql-idrok, iroda, ehtiyojlar, qiziqish, mayllar va hokazolar)ni o'zida ifodalaydi. “Individ” tushunchasi “alohida inson” sifatida tushuniladi. Masala bunday qo'yilganda turli biologik omillar (yosh xususiyatlari, jinsi, temperamenti)ga muvofiq inson hayoti va faoliyatining ijtimoiy xususiyatlari belgilanadi. Insonning individual, shuningdek, tarixiy rivojlanishining turli bosqichlaridagi xususiyatlarini aks ettirish uchun “individ” tushunchasi bilan birga “shaxs” tushunchasi ham qo'llaniladi. Bu o'rinda “individ” shaxs sifatida shakllanishga yo'naltirilgan inson sifatida qaraladi. Shaxs – individ rivojlanishining yakuni, barcha insoniy fazilatlarining to'la namoyon bo'lishidir.

Inson shaxs darajasiga yetishi uchun uning ongi, faoliyati, o'z-o'zini anglashidan iborat ichki yo'naltiruvchi mexanizmi muhim ahamiyatga ega. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishi, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Ana shu xususiyatlar rivojlanib, insonning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati ma'lum bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko'tariladi. Garchi bugungi kunda ham tarbiyaning eng oliy maqsadi barkamol shaxsni shakllantirishdan iboratligi e'tirof etilayotgan bo'lsa-da, biroq

“barkamol shaxs”, “barkamol inson” tushunchalari hali hatto pedagogik lug‘atlardan ham o‘rin olmagan.

Pedagogikada barkamol shaxs tarbiyasi tarixini birinchilardan bo‘lib tadqiq etgan olim S.Nishonova mazkur tushunchaga ham tarixiy, ham zamon talablari nuqtai nazaridan yondashadi va quyidagicha ta’riflaydi: “Barkamol inson – bu o‘zida ma’naviy-axloqiy xislatlar majmuini mujassamlashtirgan, jamiyatda o‘zligini va o‘z qobiliyatini har tomonlama namoyon eta oladigan, ma’rifatli, irfoniy va dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, aqlan yetuk, yuksak iste’dod va salohiyatga ega bo‘lgan, ma’naviy jihatdan yuksak, axloqan pok, jismonan sog‘lom, hayot go‘zalliklarini his eta oladigan erkin, ijodkor shaxs”. “Barkamol shaxs” tushunchasini pedagogik nuqtai nazardan ta’riflash bilan birga uning yaxlit modelini ham yaratadi va bu model bugungi kunda oliy pedagogik ta’limda asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

**SHAXS  
RIVOJLANISHIGA  
TA’SIR ETUVCHI  
OMILLAR**

Shaxsning rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: *biologik omillar, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya va faoliyat* aniq maqsadga qaratilgan jamiyatning faoliyatidir. Bunda jamiyat o‘zida mavjud bo‘lgan barcha imkoniyat hamda vositalardan foydalanadi.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqida biologik va ijtimoiy omillarning ta’sir kuchi hamisha ham bir xil bo‘lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga vaziyat ham ta’sir etadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya va faoliyat muhim ahamiyatga ega. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Inson, ijtimoiy mavjudod sifatida turli ijtimoiy guruhlar bilan o‘zaro harakatda bo‘ladi, jamiyat hayotida birga ishtirok etadi. Biroq, amalda shaxs hech qachon muayyan guruhga to‘la dahldor bo‘lib qolmaydi. Ayni paytda ko‘plab ijtimoiy guruhlarining

ishtirokchisi sifatida ularning har birida guruhlarning boshqa a'zolari bilan o'zaro turlicha munosabatda bo'ladi.

**SHAXS  
SHAKLLANISHIDA  
BIOLOGIK  
OMILLARNING  
TA'SIRI**

Biologik omillar insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga o'tilishi tushuniladi. Nasldan bola inson organizmi, inson asab tizimi, inson miyasi va sezgi a'zolarini oladi.

Irsiyat - ota qoni yoki ajdodlariga xos bo'lgan biologik xususiyat va o'xshashliklar, tana tuzilishi xususiyatlari, soch rangi, ko'z, teri rangi kabi bir insonni boshqa insondan farqlaydigan tashqi omillar naslga (bolaga) o'tish jarayonidir. Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinuvi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uning atrof-muhit ta'siriga beriluvchan qilib qo'yadi), asab reaksiyalari jo'shqinligi va tezligini meros qilib oladilar. Asosiy shartsiz reflekslar ham, xilma-xil faoliyat turlariga qobiliyatning alohida anatomik-fiziologik asoslari - qobiliyat nishonalari ham meros bo'ladi.

Irsiyat qonunlari to'g'risidagi fan - genetika odamlarda yuzlab turli qobiliyat nishonalari - mutlaq eshitish, favqulodda ko'rish xotirasi, g'oyat tez ta'sirlanishdan tortib nodir matematik va badiiy iste'dodgacha mavjud bo'lishini nazarda tutadi.

Nasldan-naslga o'tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

Anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko'zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste'dod alomatlari ham nasldan naslga o'tadi. Iste'dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan

mehnat va ijod turiga yo'naltirilgan emas. Iste'dod alomatlari muayyan faoliyatga moyillikni aks ettiradi, xolos. Ma'lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste'dod nishonasi aks etganda, aynan ana shu iste'dodning shakllanishida muhim rol o'ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlarga ega oila muhitini nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror bir qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo'lgan layoqat bilan tug'iladi.

Layoqat go'yo "mudroq" holatda bo'lib, uning "uyg'onishi" - rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishni talab qiladi.

Nasldan asab tizimining ba'zi bir xususiyatlari ham o'tadi. Bular asosida asab faoliyatining ma'lum bir turi rivojlanadi.

Inson rivojlanishida intellektual xislatlarning o'tishi masalasi juda muhimdir. Filolog va psixologlar tadqiqotlariga ko'ra qobiliyatlar nasldan o'tmaydi, faqat qobiliyatlarni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar hisoblangan qobiliyat nishonalari o'tadi.

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim. Masalan, psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm va giyohvandligi nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikliklar (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga "kirish" ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi.

Inson bo'lib yetishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya qilmaydi. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar

bilan o‘zaro ta’sirda shaxs bo‘lib yetishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma’naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo‘la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma’lum hollar, ya’ni inson bolasi hayvonlar orasida o‘sgani yanada mustahkamlaydi.

Inson bo‘lib tug‘ildi, lekin inson bo‘la olmadi. Hozirgi kunda inson sivilizatsiyasi tarixida qayd etilgan bir qancha dalillar bor. Rim asoschilari Romul va Rem bo‘ri onasi bilan emizilgan edi (shunday deb afsonada gap yuritiladi), maugli bo‘rilar to‘dasida tarbiyalangan edi.

1920 yili Hindistonda doktor Sing bo‘rilar uyasida bo‘ri bolalari bilan birga ikkita qizchani (biri 2 yoshda, ikkinchisi 7-8 yoshlarda) topgan. Kichigi Amala, kattasini Kamala deb nomlashdi. Boshida ular o‘zini yovvoyi hayvonlardek tutdi. Tunda emaklab yurishardi va yugurishardi, kunduzi uxlashardi, qo‘ldan foydalanmay chapillatib ovqatlanishardi. Kichik qizcha tezda o‘lib qoldi, kattasi 10 yilga yaqin yashadi. Shu yillar ichida doktor Sing Kamalani kuzatish kundaligini batafsil olib bordi. Qiyinchilik bilan o‘qirdi. 2 yil uni tik turishga o‘rgatishga to‘g‘ri keldi. 6 yildan so‘ng yura boshladi, lekin ilgaridek emaklab yugurardi. Birinchi 4 yillar ichida 6 ta so‘zni o‘zlashtirdi. 7 yildan so‘ng so‘z boyligi 45 ta so‘zga, 9-10 yillarda esa 100 gacha yetdi. Shuni o‘zida til jarayoni to‘xtadi. Bu vaqtga kelib Kamala inson jamiyatini yaxshi ko‘rdi, yorug‘likdan qo‘rqmay qoldi, qo‘l bilan ovqatlanishga va stankandan ichishga o‘rgandi. 17 yoshga yetgach Kamalaning rivojlanishi darajasi tekshirilganda u 4 yoshlik boladek edi. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, odam oxir-oqibatda insonlar jamiyatiga tushib qolganida ham odam darajasiga yetmagan.

**SHAXS  
SHAKLLANISHIDA  
IJTIMOIY  
OMILLARNING  
TA’SIRI**

Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi.

Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o'simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko'paytirib, kishilarini xayvonlarni, o'simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muxofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqatda bo'lish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o'z navbatida odamga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga yoki ijobiy, yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq.

Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi olam voqelik, hodisalar majmui tushuniladi. "Muhit" tushunchasi o'zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit o'zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog'da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo'lib, oila, maktab, do'stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o'z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o'z tug'ma layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo'lmasa yo'q bo'lishi yoki "mudroq"ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning o'zaro ta'siri asosida vujudga keladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta'siri roliga alohida e'tibor beradi. Ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri o'oyat muhim ekanligini ta'kidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar.

Oila muhiti - mikro muhit ham o'ziga xos muhim tarbiyaviy ta'sirga ega. Shu bois, mustaqillikka erishilgandan so'ng o'tgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan "Oila" ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Mavjud ijtimoiy muhit insonning o'sib borayotgan ongiga ta'sir etadi. Ijtimoiy tuzum darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning shaxsga nisbatan ongli ta'siri ham shunchalik yuqori bo'ladi. Ushbu ta'sir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Mutaxassislar ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga ta'siri roliga alohida e'tibor bergan holda, ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga ta'siri g'oyat muhim ekanligini, ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar ta'siri ostida o'zgarib boradi, deya ta'kidlaydilar.

### **BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI**

Maktabgacha pedagogika tarbiyani yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to'plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta'sir ko'rsatishning maxsus uyushtirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar bo'chasida, maktabda, mehnat jamoalarida amalga oshirilib, turmushni, faoliyatni, muomalani tashkil etishga qaratilgandir. Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro'y beradi, inson tarbiyasi uning xalq baxt-saodati yo'lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarini hal etishda namoyon bo'ladi.

**Tarbiya** – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya – aniq maqsadlarga ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

❖ Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi.



❖ Tarbiya tufayli tug‘ma kamchiliklar ham o‘zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko‘rlar, gunglar ham o‘qitilib, sog‘lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

❖ Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta‘sirini bartaraf etish mumkin.

❖ Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta‘lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro‘y beradi. Natijada bola o‘zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi.

Bolaning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo‘lgan insoniy tajribani o‘zlashtirishi kerak, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o‘zlashtirish usullarini hali egallamagan bo‘ladi.

Tarbiya va ta‘lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo‘lgan mazmunni tanlaydi, uning o‘zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo‘shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o‘zi doimiy bo‘lib qolmaydi. U o‘zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o‘zgaradi, o‘sayotgan odam shaxsiga ta‘sir ko‘rsatish usullari tobora xilma-xil bo‘lib boradi.

Tarbiyaning o‘zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L.S.Vigotskiy) bilan bog‘liq bo‘lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko‘nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o‘zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo‘lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o‘zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo‘lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o‘zlashtirish; buyum asosidagi o‘yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo). Tarbiya va ta‘lim «eng yaqin rivojlanish zonasi»ga asoslanib, bugungi

rivojlanish darajasidan oldinda boradi va bolaning rivojlanishini olg'a harakatlantiradi.

Odam shaxsining rivojlanishi bir qancha bosqichdan o'tadi. Har bir navbatdagi bosqich avvalgisi bilan mustahkam bog'liq bo'ladi, avval erishilgan bosqich yanada yuqoriroq, bosqichning tuzilishiga uzviy tarzda qo'shiladi. Ilk yosh bosqichida shakllanadigan rivojlanish odam uchun vaqtincha emas, doimiy ahamiyatga ega bo'ladi. Mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari aloqadorligi birinchi bosqichdan oxirigacha tarbiyaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi. Biroq tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun maktabgacha pedagogikada bola shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rta qo'yiladi (A. V. Zaporozhes).

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchiligi hamda pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi:

“Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarz dordir”.

Demak, tarbiya – biror maqsadga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, u muayyan darajadagi dastur g'oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta'sirlarning barchasi bilan bog'liq holda ta'sir qiladi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy

ta'sirlarning kuchini ma'lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta'siri stixiyali, tarbiyaning ta'siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

**BOLANI  
RIVOJLANTIRISH VA  
TARBIYALASHDA  
FAOLIYATNING ROLI**

Bolaning faolligi ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirishga yordam beradi, buning asosida uning roli bilish, ko'rgazmali, o'yin, eng oddiy mehnat va o'quv kabi xilma-xil faoliyat turlari, shuningdek, muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o'zlashtirib, faollik ko'rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bog'liq bilimlar, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi.

- ❖ Faoliyat – kishining moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish borasidagi hamda shaxsiy va ijtimoiy sohadagi ma'lum bir maqsad sari qiladigan xatti-harakatlar majmuasidir.
- ❖ Faoliyat – insonni belgilangan (rejalashtirilgan) maqsadga erishishdir.
- ❖ Faoliyat – bir narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi (jarayoni).

Bolaning faoliyatdagi faol mavqei uni faqat tarbiya ob'ektiga emas, shu bilan birga tarbiya sub'ektiga ham aylantirdi. Bu bolani rivojlantirish va tarbiyalashda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalarning rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog'liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonma-yon bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, lekin bunda ularning roli bir xil bo'lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo'ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi.

Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ularni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, bolalar Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiya va ta'lim sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi.

Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining (hissiy va hissiy-predmetli muomalasining) eng oddiy turlari unda ta'surotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar. Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi. Buyumlar bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha talim tashkilotida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar.

Bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Kattalar uyushtiradigan muloqot va faoliyatda bolalarda o'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari shakllanadi. Bola o'zini atrofdagi odamlardan ajratadigan, o'z imkoniyatlarini anglab yetadigan bo'la boshlaydi. Mustaqillik rivojlanishining ana shu bosqichida bolalar kattalarning vasiyligini qisman cheklashga intiladilar. O'zini-o'zi anglashning dastlabki shakllari xulq-atvor sabablarini shakllantirishning boshlanishi bo'ladi.

Ilk yoshdagi bolalarning faolligi va mustaqilligi bevosita katta odamning ishtiroki va ta'siri ostida ro'y bersa, 4-6 yoshli bolalar xilma-xil faoliyatga tobora

mustaqil, o'z xohishlariga ko'ra qo'shiladilar, bunda ongning roli oshadi va ba'zan ijodiy xususiyatga ega bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya yoshida yetakchi bo'ladigan o'yin faolyatida maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy, bilish faolligi rivojlanadi. Tarbiyachilar rahbarligidagi o'yinlar chog'ida bolalar turli harakat usullarini, buyumlar, ularning xususiyatlari va belgilari to'g'risidagi bilimlarni o'zlashtiradilar. Bolalar makon, vaqt munosabatlarini, o'xshashlikka va bir xillikka oid aloqalarni anglab yetadilar, tushunchalarni egallaydilar. Harakatli o'yinlar harakatlarning rivojlanishiga, makonda yo'l-yo'riq topishga yordam beradi. Birgalikdagi o'yinlarda bolalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarni, harakatlarni muvofiqlashtirishning ahamiyatini anglab yetadilar va o'zlashtiradilar, atrofdagi narsalar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradilar.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi. O'yin hayolni rivojlantirishga, atrofdagi voqelik, odamlar mehnati to'g'risidagi bilimlarni chuqurlashtirishga, shaxsning jamoatchilik xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashadi.

Muntazam mehnat topshiriqlari o'z faoliyatini jamoat manfaatlariga bo'ysundirish, ijtimoiy foyda kelishiga amal qilish, mehnatning umumiy natijalaridan quvonish ko'nikmalarini tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

Mashg'ulotlardagi eng oddiy o'quv faoliyati atrofdagi tabiat, ijtimoiy turmush, odamlar haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek aqliy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Agar 3-4 yoshda ta'lim paytida bolalarning e'tibori tabiat, odamlar xayotidagi aniq faktlar va hodisalarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta'lim berish muhim aloqalar va munosabatlarni o'zlashtirishga va aloqalarni umumlashtirishga hamda eng oddiy tushunchalarni shakllantirishga karatilgan bo'ladi, bu esa bolalarda tushunish tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. O'zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatlarni bolalar xilma-xil o'yinlarda va mehnatda qo'llaydilar. Bularning

hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Shaxs tushunchasiga ta'rif bering.
2. Shaxs va unga ta'sir etuvchi omillar haqida ma'lumot bering.
3. Mikro muhit deganda nima tushuniladi?
4. Irsiyat qonunlari to'g'risidagi fan nima deyiladi?
5. Bola rivojlanishida irsiyatning ahamiyati qay darajada?
6. Barkamol shaxs tarbiyasiga olim S.Nishonova tomonidan berilgan ta'rifni ayting.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Sizning shaxs sifatida shakllanganingizga qaysi omillar ko'proq ta'sir etgan? Kichik "Esse" yozing.

## **TARBIYA TURLARI VA ULARNING SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIRI**

*Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdordir.*

*A.S.Makarenko*



### **REJA:**

1. Tarbiya tushunchasi va uning shaxs kamolotiga ta'siri.
2. Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyaning roli.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish.

4. Aqliy tarbiyaning vazifalari.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida aqliy tarbiyani tashkil etish yo'nalishlari.

***Tayanch tushunchalar:*** *aqliy rivojlanish, aqliy kamolot, aqlning teranligi, aqlning sustligi, fikrning moslashuvchanligi, aqlning barqarorligi, fikriy faoliyatning anglanganligi, aqlning mustaqilligi, fikrning tejamkorligi, aqliy tarbiya, sensor tarbiya, nutqni o'zlashtirish.*



**Tarbiya** – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo'lib, tarbiyalanuvchini ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun muntazam va tizimli ta'sir etish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama shakllantirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini, ijtimoiy ongini tarkib toptirishda xalqning boy mafkuralariga yo'naltirilgan qizg'in faoliyat jarayonidir.

Tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, o'zida ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topish uchun zarur bo'lgan, kishilar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek adibi Abdulla Avloniyning "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidir" – deb aytgan fikrlari barcha millat vakillarining tarbiyasiga mos keluvchi haqiqatdir. Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy va davlat ishidir.

Tarbiya – har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayon hisoblanadi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan azaliy va abadiy qadriyatdir. Alohida odam ham, butun insoniyat ham tarbiyasiz mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar avloddan-avlodga tarbiya tufayligina o'tadi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda

ota-ona zimmasiga uni sogʻlom, aqlli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qoʻyiladi. Ilmiy adabiyotlarda “tarbiya” atamasi keng va tor maʼnolarda ishlatiladi.

**Keng maʼnoda tarbiya** inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, maʼrifiy hayotida faol ishtirokini taʼminlashga qaratilgan adabiyot, sanʼat, kino, radio, televidenie va boshqa vositalar va shu bilan birga oila, bogʻcha, maktab, mahalla va hk.

**Tor maʼnoda tarbiya** shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, maʼnaviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi oʻstirilishiga yoʻnaltirilgan maxsus faoliyatni anglatadi.

Hozirgi davrda mamlakatimizda samarali tarbiya va taʼlimuygʻunlashib, barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Mana shu yoʻnalish bizning yurtimizda davlat siyosati darajasiga koʻtarilgan. Mamlakatimizda sogʻlom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni zamon talablariga toʻliq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib borilmoqda. Shu oʻrinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi soʻzlarini eslash joizdir: “Albatta, taʼlim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, yaʼni xalq maʼnaviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin. taʼlim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni oʻzgartirmasdan turib, maʼnaviyatni rivojlantirib boʻlmaydi”.

Har qaysi ota-ona, tarbiyachi va ustoz-murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni koʻrishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega boʻlgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish taʼlim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi boʻlishi lozim. Inson tarbiyasi insonning oʻzi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi boʻlib, ajdodlarimiz maʼrifat va madaniyatni yosh avlodga oʻrgatish, ularni komillikka yetaklash yoʻllari, qonun - qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning maʼrifatliligi va maʼnaviy komilligiga erishish ishlari



pedagogika fani yetakchiligida amalga oshiriladi. Demak, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo'lida xizmat qiladi. Maktabgacha pedagogika esa bolaga tug'ilganidan to'rtti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganadi va maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi.

Inson tarbiyasiga oid qonunlar dastlab xalq og'zaki ijodida: ertak, qissa, pandnoma, maqol va matal kabilarda, keyinroq yozma yodgorliklarda, hadislarda asoslab berilgan. Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'rni kattadir.

Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor bilan qaraganlar. Faylasuf olim Forobiy o'zining "Fozil shahar kishilarining qarashlari" asarida tarbiya orqali insonga beriladigan 12 fazilatni sharhlab beradi. Abdulla Avloniy esa tarbiya haqida g'oyat ibratli fikrlarni bildiradi. "Pedagogika — Abdulla Avloniyning yozishicha, — bola tarbiyasining fani, demakdir". "Dars ila tarbiya ikkisi jon ila tan kabidir", "Dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi – amal qiluvchidir". Bu yerda pedagogika faniga qisqa va lo'nda ta'rif berib, ta'lim bilan tarbiyani esa jon bilan tanga o'xshatib, ularni bir-biridan ajratib tushunish mumkin emasligini yorqin ifodalab bergan. Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi. Demak, pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, his - tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun

zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

### **BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI**

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi.

Tarbiya – aniq maqsadlarni ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi.
2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.
3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin.
4. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Tarbiya jarayonida tarbiyachi axloqiy xulq-atvor normalarini tarbiyalanuvchilar ongiga singdiradi, uning o'zlashtirishiga rahbarlik qiladi. Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo'shqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o'zi doimiy bo'lib qolmaydi. U o'zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o'zgaradi, bola shaxsiga ta'sir ko'rsatish usullari tobora xilma-xil bo'lib boradi.

Tarbiya va ta'limning mazmuni, vositalari, metodlari bolalarning rivojlanish jarayoni, ularning yoshi bilan izohlanadi. Jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borganda ularning mustaqil hayotga butunlay moslashmaganligi hisobga olinadi.

Keyingi yosh guruhlarida maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi va moslashishi ancha oshib boradi, shunga muvofiq tarzda ta'lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari va metodlari o'zgaradi. Bolaning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan tarbiya-ta'lim ishini murakkablashtirish imkonini beradi.

Tarbiya vazifalari mazmuni, metodlarini yoshga qarab tabaqalashtirish hozirgi fanda qabul qilingan odam hayotini davrlarga bo'lishga tayanadi. Bir tomondan, vaqtni orqaga qaytarib bo'lmazligi, odam umrining qancha davom etishi va ikkinchi tomondan, tarbiya va ta'lim sistemasi bilan izohlanadigan ruhiy rivojlanishning olg'a harakat qilishi yoshga qarab tabaqalashtirishning asosi hisoblanadi.

Yosh davrlari – odam rivojlanishining majburiy bosqichlaridir. Yosh kattalashgan sari ruhiy faoliyat boyib boraveradi, shu bilan birga teskari jarayon ham ro'y beradi, shu sababli har bir yosh uchun shaxsning sensor, aqliy, hissiy, irodaviy tomonlari kabi xususiyatlar xosdir; ular orasidagi o'zaro aloqa o'zgaradi, bu esa rivojlanishning umumiy darajasiga, xulq-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan birga faoliyatning yetakchi turi ham o'zgaradi. Biroq shaxsning ruhiy rivojlanish darajasi faqat yashagan yillar natijasi emas har qanday yoshda, ayniqsa bolalikda tarbiya va ta'lim sistemasi, shaxsning faoliyati va faolligi hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Yosh bilan bog'liq rivojlanish muddatlarida o'ziga xos siljishlar ham bo'lishi mumkin. Bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo'lib, xuddi mana shu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, mehnat, estetik rivojlanishiga poydevor bo'ladi.

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI  
BOLALARGA  
AQLIY TARBIYA  
BERISH**

**Aqliy rivojlanish** hayotiy ta'sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayoni demakdir. Aqliy rivojlanish atamasi bilan bir qatorda “aqliy kamolot”

atamasi ham qo'llaniladi.

**Aqliy kamolot** – yoshning o‘sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro‘y beradigan miqdor va sifat o‘zgarishlarining majmuasidir.

Maktabgacha yoshda bilimlar tez sur‘atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta‘minlash ularning kelajakdagi butun faoliyatlari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola ijtimoiy muhit ta‘sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar tizimini o‘zlashtiradi. Natijada maktabgacha yoshdayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo‘lib qoladi.

XX asrning so‘ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta‘lim jarayonining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi pedagogik yondashuv va tamoyillarni asoslanganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, “aqliy rivojlanish” tushunchasi keng qo‘llanilsada, biroq, aynan qanday belgilariga ko‘ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga to‘laqonli javob qaytarilmagan. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta‘lim asosiy, hal qiluvchi rolni o‘ynashini e‘tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma‘lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O‘z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta‘siri ostida ijtimoiy tajribani o‘zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o‘zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo‘ladi.

Olimlar orasidagi ba‘zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi. M: A.N.Leontev bilimlar bilan aqliy rivojlanish, xuddi shunday rivojlanish o‘rtasida aniq teng ishorasini qo‘yadi. Uning fikricha, insoniyat tajribasini “o‘zlashtirish” butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarda qo‘lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi.

Boshqa olimlar (E.N.Kabanov-Meller, V.A.Krutetskiy) bilimlarni ahamiyatini pasaytirmaydi, biroq, uni mutlaqlashtirmaydi ham. Ular bilim aqliy rivojlanish sharti sifatida aks etadi, lekin uning tuzilishiga kirmaydi, deb hisoblashadi. Mazkur mualliflarning fikricha, aqliy rivojlanish faqatgina bilimni o'zining emas, insonning mazkur bilimni yangi sharoitlarda o'zlashtirish, qo'llay olish, uzatish imkoniyatidan kelib chiqadi.

Z.I.Kalmikov esa quyidagi ta'rifni taklif etadi: **aqliy rivojlanish** – inson psixikasining individual o'ziga xosliklari, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o'zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak. Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim olganlik o'z aksini topadi. Ta'lim olganlik – aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi.

Aqliy rivojlanish quyidagi tushunchalar tizimini o'z ichiga qamrab oladi:

- 1) **aqlning teranligi** bola yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi uni o'zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo'ladi;
- 2) **aqlning sustligi** qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdar tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi;
- 3) **fikrning moslashuvchanligi** maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi;
- 4) **aqlning barqarorligi** bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi; ushbu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi;

- 5) **fikriy faoliyatning anglanganligi** – uning mahsuli sifatida so‘z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati;
- 6) **aqlning mustaqilligi** – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo‘llarini faol izlashda namoyon bo‘ladi;
- 7) **fikrning tejamkorligi** – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

**Aqliy tarbiya** ta’lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlari, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma’lum maqsad bilan ta’sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otish, aqliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha yoshda boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur‘atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo‘riqishlardan asrashni talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. M: oilada, maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o‘ynashiga e’tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o‘zlashtirishda qiyinchilik tug‘diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o‘ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo‘ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko‘z oldiga aks ettira oladi, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o‘zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o‘stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san‘at kabilarga munosabatni qaror toptiradi.

### AQLIY TARBIYANING VAZIFALARI

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi aqliy tarbiyani tashkil etishda ham muayyan vazifalar hal qilinadi. Aqliy tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aqliy qobiliyat, iqtidor va salohiyatni rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini oshirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda o‘z bilimlarini to‘ldirish, umumta’limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta’lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish.

Mazkur vazifalarni maktabgacha ta’lim bilan bog‘liqligi quyida ko‘rib chiqiladi. Ilk yoshdan boshlab bolani aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi ularning **bilish faolligini oshirish**dir. Bilish faolligini oshirish orqali bola uni o‘rab turgan tevarak-atrofnı o‘rganadi. Bola atrof-muhitni o‘yin, mehnat, sayr, mashg‘ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida anglab boradi.

Bilish faoliyati idrok etish va fikrlash tarzida amalga oshadi. **Idrok etish** orqali bola narsa-buyumlarning tashqi xususiyatlari (rang, shakl, o'lcham va b.)ni anglaydi. Mazkur xususiyatlarini aks etishi orqali ongda narsa-buyumning timsoli yaratiladi. Bolaning fikrlashida narsa-buyumlarning ichki, yashirin xususiyatlari, narsa-hodisalar orasidagi sabab-aloqadorlik aks etadi. Fikrlashning natijasi so'zlar yordamida ifoda etiladi. Bolalarning fikrlashlari natijasi fikr yoki savol ko'rinishida namoyon bo'ladi. Stol atrofida o'tirgan 5 yoshli Alisherning oyisiga bergan savoli: "Ko'zni nima harakatga keltiradi?"

Idrok etish va fikrlash orasida chambarchas aloqadorlik mavjud. Idrok etish bola hayotining ilk oylaridan shakllanadi, fikrlashning rivojlanishi esa qariyb ikki yoshdan boshlanadi. Fikrlashning asosida hissiy (sensor) tajribani chuqurroq bilib olish uchun qo'llaniladigan idrok etish yotadi. Maktabgacha yoshda idrok etish tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun fikrlashga yordam beradi. Fikrlash esa o'z navbatida idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yo'naltirilganligi, samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
AQLIY TARBIYANI  
TASHKIL ETISH  
YO'NALISHLARI**

Bola hayotining ilk kunlaridanoq uning to'liq aqliy kamoloti uchun idrok etish jarayonini rivojlantirish haqida qayg'urish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotida aqliy tarbiyasini tashkil etishda quyidagi yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

**1. Sensor tarbiya.** Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok etish tashkil etadi. Bunday tasavvurlarning aniqligi, to'laligi sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Sensor tarbiya sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. "Sensor" tushunchasi lotinchadan "sensus" – "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati" ma'nolarini anglatadi.

Sensor tarbiyaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor



qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat. Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nominigina bilishi yetarli bo‘lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlab, ular bilan muomalada bo‘lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhim deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida e‘tibor berishi, bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishda ularning og‘irligini his etish, buyumni qo‘lga olib uning sirtini sezish va sifatini – silliq yoki g‘adir-budirligini, issiq yoki sovuqligini va shunga o‘xshashlarni aniqlash kerak.

Sensor tarbiya o‘z navbatida quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi:

- bolalarda perseptiv harakatlarni shakllantirish;
- buyumlarning xususiyati, sifati, munosabati to‘g‘risidagi umumlashgan tasavvurlar, sensor etalonlar tizimini shakllantirish.

Sensor etalonlar ijtimoiy-tarixiy tajriba jarayonida hosil qilingan namunalardir. Asosiy ranglar, geometrik shakllar, notalarda ifodalangan musiqali tovushlarning turli balandligi ana shunday etalonlar jumlasiga kiradi. Agar bola etalonlar va ularning og‘zaki ifodalanishi bilan tanish bo‘lsa, uning tevarak-atrofnı bilishi oson bo‘ladi, u o‘zi uchratgan buyumlarni ma‘lum bir etalon bilan taqqoslaydi hamda buyumning rangi, shakli, katta-kichikligi, detallarining fazoviy joylashishini aytib beradi.

Sensor etalonlarni o‘zlashtirish uzoq davom etadigan va murakkab jarayon. Ana shu sababli mezon, etalonlarni tanlay olishni maktabgacha yoshdan boshlash kerak. Aniq mezonlarni o‘zlashtirish orqali bolalar mazkur o‘lchovlar orqali istalgan narsa-hodisalarni tasavvur qila oladilar hamda ularga ta‘rif bera olishadi. Ana shu “o‘lchov birliklari” bolaga aniq narsa-buyumlarning farqli jihatlarini chuqur va to‘liq bilish imkonini beradi.

Go‘daklik davridayoq bolalarda sensor etalonlarga layoqatlilik shakllanadi. Bir yoshning ikkinchi yarmidan boshlab to uch yoshning boshlarigacha

sensomotorli ilk etalonlar shakllanadi. Mazkur yosh davrida bola o'zining harakatlanishi uchun ahamiyatli bo'lgan narsa-buyumlarning alohida xususiyatlarini (shakli, kattaligi, masofasi) idrok eta oladi.

Maktabgacha yoshda bola predmetli etalonlardan foydalanadi: narsa-buyumlarning obrazini aniq predmetlar bilan tenglashtiradi (sariq rangni sabziga, kvadratni dastro'molga o'xshatishadi). Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, katta maktabgacha yosh guruhi bolalari narsa-buyumlarning xususiyatlariga umumtomonidan qabul qilingan etalonlar (quyosh – shar, limon va bodring – yassi shakl) bilan bog'liqlikda munosabat bildiradilar.

**2. Fikrlash faoliyatni rivojlantirish.** Aqliy tarbiyaning mazkur vazifasi o'zida bolada fikrlashga doir harakatlar, bilish jarayonlari va qobiliyatlarni rivojlantirishni aks ettiradi.

Amaliy tajribada “fikir” so'zi ko'p qo'llaniladi. Oddiy qilib aytganda, ob'ektiv olamdagi voqea-hodisalarni ongimizga ta'sir etishi natijasida hosil bo'lgan tuyg'u **fikr** deb ataladi. Uning tub mohiyati shunda-ki, fikrimiz orqali biz ko'zimiz bevosita ilg'amayotgan, ko'z o'ngimizda bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham o'sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo'lgan “sirli” jihatlarini ko'rish imkoniga ega bo'lamiz.

**Fikrlash** bilish faoliyati jarayoni bo'lib, voqelikni bevosita va umumlashgan holda aks ettirish bilan xarakterlanadi. Fikrlash o'zida fanlararo tadqiqotlar va kompleks fanlarni aks ettiradi. **Falsafa** materiya bilan bog'liqlikda fikrlash yordamida dunyoni bilishning yo'llari va imkoniyatlarini o'rganadi. **Formal mantiq** fikrlashning asosiy shakllari (tushuncha, hukm, xulosa)ga e'tibor qaratadi. Fikrlashga oid tadqiqotlarning **sotsiologik** jihati turli jamiyatlarning ijtimoiy tuzilishi bilan bog'liqlikda fikrlashning tarixiy rivojlanish jarayonini tahlil qilish bilan tavsiflanadi. **Fiziologiya** fikrlash hodisasini aniqlashtiruvchi aqliy mexanizmlarni o'rganadi. **Kibernetika** esa, insonning fikrlashiga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydi. **Psixologiya** fikrlashni bilish faoliyati sifatida o'rganadi hamda foydalanilayotgan vositalarning karakteri va

umumlashgan darajasiga, sub'ekt uchun yangiligi bilan bog'liqlikda fikrlashning turlarini differensiyalaydi. **Pedagogika** fikrlashni falsafiy, fiziologik, psixologik jarayon ekanligini e'tirof etgan holda, uni shakllantirishning shakl, metod va vositalarini o'rganadi va amaliyotga tatbiq etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashini shakllantirishda narsa-buyumlar bilan tanishtirishga doir harakatlar juda muhim. Amaliy harakatlar asosida bola ob'ektlarni qiyoslash, tahlil etish, taqqoslash, guruhlashga o'rganadi. Ana shu tarzda bolada fikrlashning ilk – **ko'rgazmali-amaliy** shakli tarkib topadi. Asta-sekin bolada nafaqat bevosita narsa-buyumlarni idrok etish orqali, balki timsollar asosida fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Ya'ni **ko'rgazmali-obrazli** fikrlash shakllanadi. Maktabgacha yosh davrining ikkinchi yarmida **mantiqiy-nutqiy** fikrlash rivojlana boshlaydi. Fikrlashning mazkur shakli narsa-hodisalar o'rtasidagi mavjud aloqalarni yo'lga qo'yishda namoyon bo'ladi.

Fikrlashning barcha shakllarida asosiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirish amalga oshadi. Bolalarni fikrlashga o'rgatish kattalar tomonidan hal etilishi lozim bo'lgan vazifadir. Hatto yosh bolalarga bilimlarni asosiy yuk xotiraga tushadigan "tayyor holda" berish ham maqsadga nomuvofiqdir. Aksincha, bolalarni tahlil etish, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirishga o'rgatish hamda o'zining shaxsiy fikrini bildirishga undash lozim. Bolalarning oldiga ularning bilish faolligini rag'batlan-tiruvchi, tafakkur yuritish, taqqoslashni talab etuvchi vazifalarni qo'yish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida bilish jarayonlari – **xotira** va **xayol** katta ahamiyatga ega. **Xotira** inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Bola tug'ilganida hech narsani bilmaydi va hech narsa qila olmaydi. U rivojlanishning birmuncha yuqoriroq darajasiga ko'tarilib, biron bir foydali ish qilish uchun ko'pgina bilim va malakalarni eslab qolishi hamda xotirasida saqlashi lozim.

Xotiraning rivojlanishi bolaning hayot sharoitlariga, uning ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xotirasi ko'pincha

beixtiyor tarzda bo‘ladi, bunda bola buyumlarni amaliy mashg‘ulotlar yoki o‘yin o‘ynash jarayonida o‘z-o‘zidan esda saqlab qoladi. Maktabgacha yoshda beixtiyor esda saqlab qolish bilan birga ixtiyoriy eslab qolish kurtaklari ham paydo bo‘la boshlaydi. Bu o‘zgarishlar, bolalar faoliyatining murakkablashuvi kattalar talabining ortishi natijasida ro‘y beradi. M: kattalar bolada biror topshiriqni hozir emas, balki bir qancha vaqtdan keyin bajarishni talab qiladilar (buning uchun topshiriqni ixtiyoriy ravishda eslab qolish kerak) yoki bir necha kun oldin (M: sayr vaqtida, dam olish kuni uyda) nima bo‘lganligini aytib berishni taklif qiladilar, buning uchun esa o‘sha narsalarni yodga tushirish lozim.

Ruhiy faoliyatning maxsus shakli – **xayol** maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Xayol ijodiy faoliyat uchun zarurdir, shuning uchun uni maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega. Xayol bolaning hayoti jarayonida, uning faoliyatida, ta’lim va tarbiya ta’sirida tarkib topadi.

Bolaning xayoli u syujetli o‘yinlar o‘ynay boshlaganida, ularga kattalar qiziqarli ertaklar aytib berganida, o‘sha ertaklarga qiziqish orqali xayolning dastlabki alomatlari ko‘rinadi. Ammo boladagi xayollar ko‘proq aniq vaziyatga bog‘liq bo‘ladi (m: qo‘g‘irchoq ko‘rinib qolsa, ungi uxlatadi, mashina bo‘lsa, biror narsani tashiydi, koptok turgan bo‘lsa, uni uloqtirib o‘ynaydi va b.).

Maktabgacha ta’lim yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur xayoli bo‘ladi, hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha yoshdagi bola uchun ko‘rgazmali-harakatli, ko‘rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so‘z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyatini tarkib toptiradi, bu esa hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ulardagi muhim va muhim bo‘lmagan tomonlarni ajratishga o‘rgatadi.

Katta maktabgacha ta’lim yoshiga kelganda bolaning tajribasi ortib, faoliyati murakkablashadi va buning natijasida bola xayolida sezilarli o‘zgarish

yuz berayotganini kuzatish mumkin. Bola ko‘rganlari, eshitganlari, ishlagan rasmlari, buyumlari to‘g‘risida maroq bilan anchagina yaxshi hikoya qilib berishi mumkin. Bolalarning bunday hikoyalari faqat real borliqni aks ettirib qolmay, balki endi ularni ijodiy boyitib, hatto o‘zgartirib ham hikoya qilib berishlari mumkin.

**3. Nutqni o‘stirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish alohida rol o‘ynaydi. Inson o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning fikrlarini tushunish uchun ona tilidan foydalanadi. Nutqni egallash bolaga bevosita va bilvosita (hikoya, badiiy asar, tarbiyachining tushuntirish va boshqalar) yo‘l bilan borliq haqida bilimlar hosil qilishga imkon beradi. Maktabgacha ta‘lim tashkilotda lug‘at boyligini oshirish, so‘zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish vazifalari hal etiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish lozim:

- ✚ tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada avvalo, nutqni eshitish shakllanadi, keyinroq talaffuzni egallaydi);
- ✚ aniq talaffuzni hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona va aniq talaffuz qilish);
- ✚ so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash;
- ✚ nutqni orpoefik jihatdan to‘g‘riligi ustida ishlash;
- ✚ nutq sur‘atini rivojlantirish;
- ✚ nutqning ifodaliligini shakllantirish;
- ✚ nutqiy aloqa ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✚ nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✚ nutqiy nafas olishni shakllantirish;
- ✚ o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish ko‘nikmasini shakllantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish xilma-xil faoliyat turlarida amalga oshadi:

- ✚ tabiat ob‘ektlari bilan tanishtirish mashg‘ulotlarida;

- ✚ badiiy asarlar bilan tanishtirish mashg'ulotlarida;
- ✚ savodga o'rgatishda;
- ✚ o'yin faoliyatida;
- ✚ ijtimoiy-foydali mehnat jarayonida turli ishlarni bajarish asosida.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish quyidagi qonuniyatlarni hisobga olishni talab etadi:

- ✚ ona tilida nutqni idrok etish qobiliyati bola nutq organlarining mashqiga bog'liq;
- ✚ nutq ma'nosini tushunish bola tomonidan umumlashtirishning turli darajasining leksik va grammatik til belgilari o'zlashtirilishiga bog'liq;
- ✚ nutq me'yorini o'zlashtirish bolada tilni his etishning rivojlanganligiga bog'liq.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda tovush madaniyati alohida o'rin tutadi. Nutqning tovush madaniyati o'z mohiyatiga ko'ra nutq madaniyatining tarkibiy qismidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning tovush madaniyatini shakllantirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- ✚ bolalarning fonematik eshitishi, mazkur sur'at va ohangni idrok eta olish qobiliyatini asta-sekin rivojlantirib borish;
- ✚ artikulyatsion apparatni rivojlantirish;
- ✚ iboralar vositasida erkin gapira olish qobiliyatini shakllantirish;
- ✚ muomala sharoitiga bog'liq ravishda ovoz balandligi yoki pastligini boshqara olishni tarbiyalash;
- ✚ ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish;
- ✚ har bir tovush, shuningdek, so'z va iboralarni aniq va ravon talaffuz qilish;
- ✚ so'zlarni adabiy til orpoefiyasi qoidalariga muvofiq talaffuz qilishga o'rgatib borish;
- ✚ nutqning maromli sur'atini shakllantirish;
- ✚ nutqning ohangdor va ifodali bo'lishiga erishish.

**4. Qiziquvchanlik va bilishga qiziqishni tarbiyalash.** Maktabgacha yoshda aqliy tarbiya bilishga doir motivlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning yana bir muhim vazifasi bolalarda qiziquvchanlikni, bilishga qiziqishni tarbiyalashdir. Atrof-muhitni bilishga intilish bola tabiatiga xos xususiyatdir. Bolalar tomonidan eng ko‘p beriladigan savol ham – “bu nima?”. Mazkur refleks asosida bola narsa-buyumlarning xususiyatlari bilan tanishib boradi, o‘zi uchun ular orasidagi yangi aloqadorliklarni hosil qiladi. Bolalar nutqni egallaganlaridan so‘ng ularning bilish faoliyati yangi sifat bosqichiga ko‘tariladi. Nutq yordamida bolalarning bilimlari umumlashadi, narsa-buyumlarni nafaqat bevosita idrok etish asosida, balki tasavvurlar negizida ularda analitik-sintetik faoliyatga qobiliyatlilik shakllanadi.

Qiziquvchanlik va bilishga qiziqish atrof-muhitni bilishga doir munosabatning xilma-xil shakllarini o‘zida aks ettiradi. **Qiziquvchanlik** bilish faolligining muhim shakli sifatida bolaning tevarak-atrofdagi narsa-hodisalarni bilishga differensiallashmagan (ahamiyatli yoki ahamiyatsiz ekanligi muhim emas – ta’kid bizniki) yo‘nalganligidir. Qiziquvchan bola bilishni xohlaydi, uning qanchalik zarurligi ahamiyatli emas.

**Bilishga qiziqish** bolaning yangini bilish, narsa-buyumlarning, borliq hodisalarining sifat va xususiyatlarini aniqlash, ular orasidagi mavjud aloqadorlik va munosabatlarni izlab topishga intilishida namoyon bo‘ladi. Ana shu tariqa bilishga qiziqish qiziquvchanlikdan ob’ektlarning keng qamrab olinganligi, bilishning chuqurligi va to‘liqligi, izlanuvchanlik bilan farqlanadi. Bilishga qiziqishning asosi – faol fikriy faoliyat. Bolaning bilishga qiziqishi ta’sirida unda diqqatni davomiy va barqaror ushlab turish qobiliyatlilik shakllanadi, intellektual va amaliy vazifalarni hal etishda mustaqillik namoyon bo‘ladi.

Bolaning bilishga qiziqishi uning o‘yinlari, rasmlari, hikoyalari va boshqa ijodiy faoliyatida aks etadi. Ana shu sababli kattalar bolaning ijodiy faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta’minlashlari lozim. M: bola transport vositalariga qiziqadi. Uning ana shunday qiziqishiga mos o‘yinchoqlarni olib berish, u bilan

birgalikda biror modellarni yasash, o'yinchoqni bo'laklarga taqsimlash va yig'ishda yordam berish kerak. Qiziqishni oshirish uchun bolaning transport vositalari haqidagi hikoyalarini eshitish, uni rasm chizishga jalb etish talab etiladi. Bolaning muvaffaqiyati garovi sifatida **bilishga qiziqishni rag'batlash** turadi.

Shuningdek, bolalarning bilishga qiziqishlarini oshirishda **bilish motivlari** ham alohida o'rin tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish motivlari savollar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bolalarning savollarini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: **bilishga doir va kommunikativ**. Kommunikativ savollar bola tomonidan o'zining hayratiga kattalarni jalb etish, ular bilan aloqa o'rnatish maqsadida beriladi. M: to'rt yoshli Alisher dadasidan so'raydi: "Siz kichkina bo'lganigizda qorong'u xonaga bir o'zingiz kirishga qo'rqqanmisiz?". Bolalar tomonidan berilgan bu kabi savollarga tushunarli tarzda javob berilishi ulardagi qo'rquv, hayratlanish hissini bartaraf etib, o'zini bosiq va dadil tutishiga yordam beradi.

Vaqt o'tib borishi bilan bolalarning bilish motivlari bilan bog'liq savollari ham o'zgarib boradi. Ikki-uch yoshli bolalarni ko'proq narsa-buyumlarning nomlanishi, ularning xususiyatlari qiziqtiradi. Ularning savollari ko'pincha nima? kim? qanday? qayerda? so'rog'lari tarzida beriladi. M: uch yoshli Elyor so'raydi: "Bu nima? Bu durbinmi? Bu kimga, mengami?"

Katta maktabgacha yosh (4-4,5 yosh)dagi bolalar uchun tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini faol fikriy qayta ishlash xos. Ularning savollari narsa-hodisalar orasidagi aloqa va munosabatlarni bilish, tasavvurlarini tizimlashtirish, ulardagi o'xshashlik, umumiylik va farqlarni topishga yo'naltirilgan bo'ladi. Beriladigan savollar ham murakkablashib boradi va "nega?", "nima uchun?" tarzida ifoda etiladi. Shunday tarzda to'rt yarim yashar bola so'raydi: "Nimaga quyosh qizdiradi-yu, oy esa isitmaydi? Nima uchun odamlar uyda yashaydi, hayvonlar ko'chada ham yuraveradi-ku?" Besh-olti yoshli bolalar uchun biron narsa-hodisa haqidagi zanjirsimon savollar xos: "Bulutlar nimadan hosil bo'ladi? Nega ular osmonda suzib yuradi? Bulutlar qanaqa qilib yomg'ir bo'lib yerga



yog‘adi? Nima uchun bulutlar oq, qora ranglarda bo‘ladi? Siz bulutni ushlab ko‘rganmisiz? Bulutni idishga solib qo‘ysa bo‘ladimi?”

Bola tomonidan beriladigan savollarning katta hajmi to‘rt-besh yoshga to‘g‘ri keladi. Katta maktabgacha yoshda bolaning savollari nisbatan kamayib boradi. Buning sababi bolaning savollarga o‘z kuchi bilan javob topishga intilishi bilan birga, aksariyat hollarda ota-onalarning bola bergan savollarga javob bermasdan, uning savollaridan norozi bo‘lishidir. Natijada bolada savol bersam, dakki eshitaman degan tasavvur hosil bo‘ladi. Bu esa, bolaning qiziquvchanligini, bilishga qiziqishining pasayishiga olib keladi.

Bolalarning savollariga javob berishda quyidagi jihatlarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Yodda tutish lozimki, bola savolni o‘zi ishongan kishiga beradi. Bunday xulosaga u kattalarning o‘zi tomonidan berilgan savollarga munosabatlari asosida keladi. Shuning uchun bola savollarini kim diqqat bilan tinglab, jiddiy va qiziqarli javob bersa, o‘sha kishiga beradi. Ana shu sababli bola tomonidan berilgan savollarga hurmat bilan, ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib javob berish kerak.


2. Bola tomonidan berilgan savolning nima maqsadda berilayotgani, bolani nima ajablantirayotganligiga e‘tibor berish zarur. Ko‘pincha bola tomonidan berilayotgan bilishga oid savollar ham kattalar bilan muloqotga kirishish, o‘zining emotsional holatiga jalb etish uchun xizmat qiladi.

3. Bola tomonidan beriladigan savollarga qisqa va aniq javob berish lozim. Mazkur jarayonda bolaning aqliy rivojlanish darajasini hisobga olish, uning hayotiy tajribasiga e‘tibor qaratish talab etiladi.

4. Bolaning savoliga oxirigacha to‘liq javob berishga shoshilmaslik kerak. Aksincha, bu bolada yangi savollarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

5. Bolalarning savollariga javob berishda uning o‘zini munosabatini ham bilish maqsadga muvofiq. Shu maqsadda “Sen o‘zing nima deb o‘ylaysan? Sening fikringcha, qanday bo‘lishi mumkin?” kabi savollardan foydalanish zarur. Bolani birgalikda o‘ylashga undash, uni suhbatga jalb etish foydali.

6. Bolaning savollariga javob berishda bolalar uchun yaratilayotgan adabiyotlardan foydalanish samarali. Bu orqali bolani olam manzarasi haqida bilimlar beradigan manbalar bilan tanishish, o‘qishga jalb etiladi.



Bola rivojining ilk bosqichida shaxsiy tajriba tevarak-atrofni bilishning muhim yo‘lidir. Biroq buning o‘zi bolaning aqliy kamoloti uchun yetarli emas. Bu esa o‘z navbatida uni faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etishni talab etadi.

**Maktabgacha yoshdagi bolalarning faoliyati** o‘zining turi, mazmuni, shuningdek, aqliy rivojlanishga ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ko‘ra ham farq qiladi. Shubhasiz, bolaning ko‘z o‘ngidagi xilma-xil faoliyat turlari turli bilishga doir vazifalarni, u yoki bu faoliyat orqali hal etiladigan yechimlarni paydo qiladi.

Maktabgacha yosh davrida tashkil etiluvchi muhim faoliyat turlaridan biri – kun tartibiga amal qilish bilan bog‘liq kundalik-maishiy faoliyat. Mazkur faoliyat mazmuni aynan sensor rivojlanishga samarali ta’sir ko‘rsatishi bilan alohida ahamiyatga ega. Yuvinish jarayonida bolalar issiq va sovuq suvni farqlashga o‘rganishadi, suvning boshqa xususiyatlarini bilib olishadi, sovunning hidini, sochiqning quruq va namligini his etadilar. Ertalabki nonushta, tushlik va kechki ovqatlanish vaqtida bolalar taom, mahsulotlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning ta’mi, hidi, rangi kabilar bilan tanishishadi. Kun tartibini bajarish jarayonida bolalar fazoviy harakatlar (o‘ng, chap qo‘l, oyoq, yon tomon, orqa tomon)ni bajarishadi. Bolalarning kun tartibi vaqtining belgilanganligi

ularga sutka qismlari (kun, tun), hafta kunlari, bugun, ertaga, hozir, keyin kabi tushunchalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Bolalar vaqtni qadrlash, kechikmaslik, kuttirib qo'yimaslik kerakligini o'rganishadi.

Bolalar idish, mebel, kiyimlarning nomlarini bilib oladilar, ular tayyorlanadigan materiallar bilan tanishadilar, ulardan foydalanish qoidalarini o'zlashtiradilar. Malakali tarbiyachilar turmushga oid narsa-buyumlar bilan tanishtirish jarayonida qiyoslash, guruhlash mashqlari yordamida bolalarda analitik-sintetik faoliyatni rivojlantirishga harakat qiladi.

Yuvinish, kiyinish, yechinish, ovqatlanish, stolni tuzatish uchun zarur ketma-ket harakatlarni o'zlashtirish va amalga oshira olish diqqat, xotira, fikrlash, xulq-atvorni boshqara olishga e'tibor qaratishni talab etadi. Tarbiyachi bolalarning diqqatini tartiblilik, tevarak-atrofdagi kishilar faoliyatiga jalb etadi. Bularning hammasi bolaning fikrlash doirasini kengaytiradi va aqliy rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Aqliy rivojlanish deganda nima tushuniladi?
2. Aqliy rivojlanishning tarkibiy qismlari nimadan iborat?
3. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Sensor tarbiyaning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
5. Sensor etalonlarga nimalar kiradi?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlashning qaysi turlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega?
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilishga qiziqish va qiziquvchanlikni tarbiyalashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

“Bolaning aqliy rivojlanishida tarbiyachining vazifalari” mavzusida kichik insho yozish.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA SENSOR TARBIYA BERISH



*Bolaning sensor rivojlanishi - bu uning idrokini rivojlanishi va predmetlarning tashqi xususiyatlari: ularning shakli, rangi, o'lchami, muhitdagi holati, shuningdek hidi, ta'mi va boshqalar haqidagi g'oyalarni shakllantirish.*

*Mariya Montessori*

### REJA:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berish.
2. Sensor tarbiyaning vazifasi va mazmuni.
3. Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri – tekshirishdir.
4. Mariya Montessori metodikasi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berish.

*Tayanch tushunchalar: sensor, sensor tarbiya, tekshirish, sensor tarbiya usuli, Mariya Montessori metodikasi, pedagog-bola-muhit, Mariya Montessorining noan'anaviy 10 ta qoidasi.*

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA SENSOR TARBIYA

Tevarak atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Tasavvurning asosini bevosita sezish orqali idrok qilish tashkil etadi. Bunday tasavvurning aniqligi, to'raligi sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

**Sensor tarbiya** sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir. “Sensor” so‘zi lotincha “sensus” – “tuyg‘u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma'nolarini anglatadi. Borliqni bilish sezgi, idrok qilishdan boshlanadi.

Inson ko‘rish, sezish va hokazolar yordamida tevarak – atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi, faqat shular asosidagina unda xotira, tafakkur, xayol jarayonlari hosil bo‘ladi.

Bog‘cha va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining 10 dan 9 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo‘lsa, insonning tevarak-atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo‘ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning rivojlanish darajasi bilish faoliyatining muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Sensor tarbiya pedagogika fanida bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasining asosi hisoblanadi.

Maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davridir. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o‘rinni egallaydi. Sensor tarbiya hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga, sezgi, idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik ta’sir sistemasidir.

**SENSOR  
TARBIYANING  
VAZIFASI VA  
MAZMUNI**

**Sensor tarbiyaning vazifasi va mazmuni.**

Sensor tarbiyaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor qobiliyatlarini o‘stirishdan iborat.

Sensor tarbiya qobiliyatlarni rivojlantirish uchun bolalar buyumning faqat nimaga ishlatilishini, nomigagina bilishi yetarli bo‘lib qolmay, balki ular buyumlarni chuqurroq idrok etishi, ularni ushlab, ular bilan muomilada bo‘lganda xilma-xil sezgilar ishtirok etishi ham juda muhimdir, deb biladi. Tarbiyachi sensor tarbiyaning ana shu tomonlariga alohida e’tibor berishi, bolalarga tegishli topshiriqlar berishi: buyumlarni bir joydan ikkinchi joyga olib qo‘yishda ularning og‘irligini his qilish, buyumni qo‘lga olib, uning sirtini sezishi va sifatini - issiq yoki sovuqligi kabilarni aniqlashi kerak.

Bolalarning yoshi ulg‘ayib, hayot tajribalari ortishi, sharoitlarning o‘zgarishi bilan idrok etish jarayoni va unga qo‘yiladigan talab ham murakkablashadi. Navbatchilar tarelkalarining katta-kichikligi, chuqur yoki

yuzaligini, piyola va chinni idishlarning og'irligini, sirtining silliqqligini, ushlaganda sovuqroqligini, plastmassa buyumlarning yengilligini his qiladilar. Stollarni u yoq bu yoqqa siljitish, stullarni joy-joyiga qo'yish kabi harakat sezgilarini uyg'otadi, fazoviy munosabatlarni, kontur chiziqlar va hokazolarni idrok qilishni talab etadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, sensor tarbiya bolalarning hamma faoliyatlarida amalga oshiriladi deb aytish mumkin.

**Sensor tarbiya usuli.** Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi. Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applikatsiyalar yasash) sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratibgina qolmay, balki buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ham ehtiyoj paydo qiladi. Biror narsaning rasmini chizishdan oldin bolani buyumlarning rangiga qarab taqqoslashga o'rgatiladi, suratlarni ko'zdan kechirishda esa qanday qilib rang yordamida tasvirning badiiy ifodaliligiga erishilishini ko'rish qobiliyati rivojlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanishtirib boriladi, ularga o'simliklarni, hayvonlarni parvarish qilish topshiriladi. Bu suv, yer, quyosh issiqligining xususiyatlarini sezib bilib olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Bolalar tabiat bilan bevosita munosabatda bo'lish tufayli gul, toshlarning nomini osongina va bajonu dil bilib oladilar, keyinchalik ularning shakli, rangi, tuzilishi, hidi, nomini, silliqqligi va mayinligiga qarab topadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar "oldinga", "orqaga", "tepada - pastda", "uzoq-yaqin", "chapda-o'ngda" kabi fazoviy tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar va hayotiy vaziyatda ularga amal qiladilar, buyumlarning shakli, ular o'lchamining farqiga yetadilar, ularni o'zaro taqqoslaydilar.

Bolalar tabiat bilan tobora ko'proq aloqada bo'lishlari tufayli taassurotlari, eshitib ta'sirlanish xususiyatlari ortib boradi. Bolalarni qushlarning sayrashi,

barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg'irning shatir-shuturi va momaqaldiroqning gumburlashini diqqat bilan tinglashga o'rgatish zarur.

**SENSOR  
TARBIYANING  
ASOSIY  
USULLARIDAN  
BIRI –  
TEKSHIRISHDIR**

**Sensor tarbiyaning asosiy usullaridan biri – tekshirishdir.** Tekshirish – buyumlarni maxsus ravishda tashkil etilgan idrok qilishdan iborat bo'lib, uning natijalaridan keyinchalik ma'lum bir mazmunli faoliyatda foydalaniladi. Tekshirish jarayonida bolalar katta-kichiklikni, shaklni, fazoviy

munosabatlarni, rangni, nutq tovushlari bilan musiqiy tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va farqlashga o'rganadilar.

Mashg'ulotlarda bolalarning hissiy bilish tajribasini egallab olishlari muhim rol o'ynaydi. Holbuki shu mashg'ulotlarda bolalarning sezgi, idrok va tasavvurlarni tarbiyalashga jonli rahbarlik qilish uchun barcha sharoitlar yaratiladi.

Bolalar biror buyumni nima uchun sinchiklab qarash, ba'zi tolvushlarni yaxshilab eshitish kerakligini aniq tushunganlaridagina, ularda sinchiklab qarash, narsa va hodisalarni idrok qilish malakasi hosil bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi bolalarni narsa va hodisalarni idrok qilishga o'rgatib, ular qiladigan ishlarning ma'nosini aniq tushuntirib berishi lozim.

Boshqa faoliyat turlariga, masalan, mehnatga tayyorgarlik ko'rishda tegishli tekshirish usullari tanlanadi. Masalan, qog'oz va gazlamaning xossalarni aniqlash uchun tarbiyachi bolalarga qog'oz va gazlamani g'ijimlaganda nima bo'lishini eshitib ko'rishni, qog'oz va bir parcha gazlamani yirtib ko'rishni, qog'oz va gazlamadan qilingan qo'g'irchoq ko'ylagini suvda yuvishni taklif etadi.

Buyumlarning xususiyatlarini, nomini, va ta'rifini aniqlash, ularni ma'lum bir xossalarga ko'ra taqqoslash uchun didaktik o'yin va qo'llanmalardan ham foydalanish mumkin. Ular bolalar bilan olib boriladigan xilma-hil mashg'ulotlar,

mehnat, kuzatishlar va bolalarning mustaqil ishlarida yaxshigina qo‘shimcha material hisoblanadi.

**MARIYA MONTESSORI  
METODIKASI ORQALI  
MAKTABGACHA  
YOSHDAGI  
BOLALARGA SENSOR  
TARBIYA BERISH**

Mariya Montessori texnologiyasi aynan shu fikrni olg‘a suruvchi usullar majmui bo‘lib, ma‘nan yetuk, mustaqil fikrlovchi, intiluvchan shaxsni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Shifokor-pedagog Mariya Montessori yaratgan maktabgacha tarbiya

metodikasi maktab yoshidagi bolalarni tarbiyalash borasidagi barcha tizimlar orasida alohida ajralib turadi. Agar ota-onalar o‘z farzandlariga rahmdillik, mehmuruvvat tuyg‘ularini uyg‘ota olmas ekanlar, u holda bolalar nafaqat begona odamlarga, balki o‘z ota-onasiga ham xissiz bo‘lib qoladilar.



Mariya Montessori asli kim bo‘lgan, uning hayotdagi asosiy maqsadi nima edi?

Mariya Montessori 1870 yilning 31-avgustida Italiyaning Chiaravalli shahrida tug‘ilgan. U maktab davridan katta bilimga ega bo‘lib, matematika faniga qiziqishi kuchli bo‘lgan. 12 yoshda gimnaziyada o‘qib yurgan vaqtida tabiiy fanlarga qiziqib qolib, bolalar shifokori bo‘lishga ahd qildi. Uning shu yo‘ldan intilishi Italiya davlatida birinchi shifokor ayol bo‘lishiga sabab bo‘ldi. 1896 yilda Universitet klinikasida ishlab yurgan davrlarida Montessori imkoniyati cheklangan bolalarni kuzatar ekan u sog‘lom bolalar kabi bemor va imkoniyati cheklangan bolalarni ham katta hayotga tayyorlash, buning uchun maktabgacha davrdan boshlab ular bilan jiddiy shug‘ullanish kerak degan fikrga keladi.





1907 yil 6-yanvarda Montessori tomonidan aqli zaif bolalar uchun birinchi bolalar uyi ochildi. U ushbu bolalar uyida rahbar bo'lib, bolalarga qulay va oson usullarni qo'lladi.

1909 yildan boshlab Montessori usuli hayotda aktiv qo'llana boshladi. Montessori pedagogik kurslari ochildi. London, Barselona va Parij shaharlaridan pedagoglar o'qish uchun kelishardi.

1929 yilda Mariya Montessori asotsiatsiyasini tashkil qildi. Ushbu tashkilot hozirgi kungacha faoliyat yuritib kelmoqda.

Mariya Montessori metodi bolani tabiiy sharoitlarda kuzatish va u qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishga asoslangan.

**Metodning bosh g'oyasi:** bolani mustaqil rivojlanishiga turtki berishdan iborat.

Montessori maktabida bola maxsus yaratilgan muhit yordamida mustaqil ta'lim oladi.

Montessori materiallarida **bolaning o'z-o'zini nazorat qilish, xatolarini o'zi topib, mustaqil tuzatish**ga sharoit yaratilgan. Kattalar bolani faqat yo'naltirib, zarur hollarda rag'batlantirib turishadi. Ularning vazifasi bolalarga ta'lim berish emas, balki ularning mustaqil faoliyatiga rahbarlik qilib turishdan iborat.



Montessori metodining bosh shiori: **“Buni mustaqil bajarishga yordam ber”**.

Montessori sistemasi uchta asosiy qismlardan tuzilgan: **pedagog-BOLA-muhit**.

Montessori bolaning mustaqil rivojlanishi uchun tabiiy maxsus sharoitlar yaratdi. U ta'limda pedagogning o'rnini o'zgacha talqin etgan. Uning faoliyati ta'lim berish emas, yo'naltirishdan iborat bo'lishi lozimligini uqtirgan.

Shuning uchun “o‘qituvchi” so‘zi o‘rniga “rahbar” iborasini qo‘llagan.

Montessori metodikasi bo‘yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni **sensor tarbiyalash**da quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi kerak:

1. Barcha tashqi xissiyotlarni shakllantirish.
2. Tashqi hissiyotlarni tarbiyalash orqali xali to‘liq shakllanmagan barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish kerak. Chunki diqqat, intellekt va iroda to‘liq rivojlanmagan bo‘ladi.
3. Odatiy bir yoqlama madaniy tasavvurdan xolos bo‘lish.
4. Nutq apparatlari orqali tilni rivojlantirish, so‘z boyliklarini oshirish.
5. Bolalarning ruhiy va jismoniy imkoniyatlariga muvofiq tarzda, o‘z-o‘ziga xizmat qilishda ehtiyoj va talablarni rivojlantirish.

Yuqorida ko‘rsatilgan pedagogik maqsadlarga erishish uchun Montessori yaxshi sharoitda bolani tarbiyalash usullarini tavsiya etadi. Uning materiallari ayniqsa aqliy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **Mariya Montessorining noan’anaviy 10 ta qoidasi:**

**Bola - asosiy e’tiborda!** Mariya Montessori bolaga uning xohish-istaklariga qarab munosabatda bo‘lish eng to‘g‘ri va yagona yo‘l, degan qat’iy fikrni ilgari surgan. Bola uchun nima muhimligi uning o‘zigagina ma’lum. U suvni idishlarga quyib, xossalari va jozibasini o‘rganishga bir soat vaqt ketkazishi mumkin, bu paytda bolani rasm chizish yoki boshqa mashg‘ulotga chalg‘itish Montessori pedagogikasiga zid.

**Pedagog bolaning diqqatini bo‘lmasdan yo‘naltiradi.** Albatta, bola ta’lim jarayonining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Kattalar muntazam ravishda kichkintoy bilan hamnafas, lekin ular bolaning tabiiy qiziqishlarini so‘ndirmaslik, bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini barbod qilmaslik uchun ehtiyotkorona yondashishi kerak. Montessori kundaliklarida tarbiyachilarni tayyorlash masalasiga jiddiy e’tibor berish zarurligini ta’kidlagan. Shogirdlarining metodika bo‘yicha olgan yangi nazariy bilimlarini hayotda qo‘llay olmasligining guvohi bo‘lgach, u pedagoglarning bolalar bilan ishlashda

an'anaviy usullarni yangisi bilan uyg'unlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratdi.

**Bolalar atrofidagi muhit ularning qiziqishlariga qarab o'zgartiriladi.**

Muhit – Montessori pedagogikasining poydevoridir. Bolalar xonasidagi jihozlar ularning ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtiriladi va qiziqishlariga mos ravishda o'zgartirib turiladi. Tarbiyachilarning qo'llari “guruh pulsi”da bo'lib, bolalarni kuzatib boradi va jihoz, ko'rgazmalarni mashg'ulotlar mazmuni, dolzarbligiga qarab yangilaydi. Montessori ta'limoti bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar uchun sensor amaliy nutq o'stirish va rivojlantirish muhiti, matematik tasavvurlarni shakllantirishga sharoit yaratish lozim.

**Ba'zi mashg'ulotlarda yoshlari har xil bolalar ham birga shug'ullanishi mumkin.** Bolalar juda ko'p narsalarni tengdoshlariga qarab o'rganadi. Har xil yoshdagi bolalar jamoasi bunday tajriba almashish uchun qulay muhit. Bola vaqt o'tib qanday rivojlanish darajasida bo'lishi kerakligini kattalardan o'rgansa, o'zidan kichiklar bilan hayotiy tajribasini bo'lishishdan zavqlanadi. “Zamonaviy oila”larda (kun davomida ishda bo'ladigan otalarning bolalari bilan muloqotga vaqti qolmaydi) bolalarga taqqoslash, rivojlanish, o'zini namoyon qilish uchun sharoit yetarli emas. Shu sababli aynan shunday mashg'ulotlar bolada o'ziga ishonch hosil qilish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun qulaydir.

**Bolalar mashg'ulotlarda erkin bo'lishi kerak.** Guruhdagi bolalar mashg'ulot uchun maxsus xonaga kiringach (Montessori metodikasida mayda va yirik motorikani rivojlantiruvchi, tabiat bilan tanishtiruvchi, nutq o'stirish mashg'ulotlari va hokazolar uchun alohida xonalar jihozlanadi), uning xohish-istaklari hisobga olinadi. Yangi bilimlar tarbiyachi tomonidan bayon qilingach, bola o'zi tanlagan o'yinchoq yoki jihoz bilan o'ynashi, ba'zan bu jarayonda ular bitta o'yinchoqni talashib qolishi mumkin. Bu holat Montessori metodikasining keyingi qoidasini keltirib chiqaradi.

**Bola yakka o'ynash yoki tengdoshlari bilan shug'ullanishni o'zi tanlaydi.** Bolalar o'zining mustaqil fikrini erkin bayon qilish, boshqalar fikrini hurmat qilish, bir-birlari bilan hamkorlikda ishlash, o'zaro til topishishni erkin muhitdan o'rganadi. Buni tarbiyachi nazorati ta'minlaydi. Guruhga yangi kelgan bola yil oxirida birovlarining xohish-istaklarini hurmat qilib, kelishib shug'ullanishni o'rganadi (bu ko'nikmalar ular katta bo'lgach, mustaqil hayotda asqotadi).

**Bolalar qancha xohlasa, shuncha vaqt shug'ullanadi.** Montessori guruhida bolalarga bosim o'tkazilmaydi, uning qo'lidagini "bu yoqqa ber!" deb tortib olishga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida bola barglarni o'rganib o'tirgan bo'lsa, ikki daqiqadan so'ng sabzavotlar bilan shug'ullanishni xohlasa, "Qaragin, qanday chiroyli rangli barglar bor" deyilmaydi, bu mazkur metodikaga ziddir.

**Guruhda, hatto kattalar ham amal qiladigan qoidalar mavjud.** Masalan, guruhdagi har bir jihoz, ko'rgazma va o'yinchoqlarning o'z joyi bor. Bolalar (kattalar ham) mashg'ulotdan so'ng hamma narsani o'z joyiga qo'yish kerakligini yaxshi biladi. Vaqt o'tib bu ko'nikma malakaga aylanib, eslatmasiz bajariladi. Yana Montessori guruhida bolalar tarbiyachi ko'magida bir-biriga xalaqit bermasdan, xotirjam ishlashni o'rganadi, hatto pedagoglar ham baland ovozda gapirishi mumkin emas.

**Bolaning o'z ishini o'zi baholashiga imkon beriladi.**

Montessori metodikasida shunday jihozlar borki, bola mustaqil ravishda shug'ullanib, yangi bilim hosil qiladi. Masalan, har xil shakldagi silindrlarni o'z hajmiga mos joylarga joylashtirish. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, tarbiyachi ko'rsatmasi bilan topshiriqni bajargan bolalar ertasiga ushbu vazifani qaytadan ko'rsatib berishda xatolikka yo'l qo'ydi, mustaqil bajargan bolalar silindrlarni deyarli bexato bajardi. Mustaqil o'zlashtirish jarayonida ko'proq vaqt talab qilinishi mumkin, lekin ular olgan bilimlarini xotiralarida mustahkam saqlab qoladi.

**Bola murojaatisiz yordam berish taklif qilinmaydi.** Bolaning mustaqilligi qo‘llab-quvvatlanadi, hech kim uni shoshirib, kerak bo‘lmasa ham yordam beravermaydi. Lekin har bir bola doim savol tug‘ilganda tarbiyachining yordam berishini his qiladi.

Mariya Montessorining o‘z davrida butun insoniyatga qilgan quyidagi murojaati mavjud: “Bizda shunday muammo bor – kattalar rivojlanishning diqqat markazida turadi. Agar hokimiyat e‘tiborini bolalarga, ular qalbiga qaratsa, biz tinchlik hukm surgan dunyoni quramiz. Bilim – tinchlik qurolidir”.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. “Sensor” so‘zining ma‘nosi nima?
2. Sensor tarbiya bolalarga beriladigan qaysi tarbiyalarning asosi hisoblanadi?
3. Mariya Montessori kim va uning pedagogik faoliyati nimalardan iborat bo‘lgan?
4. Montessori metodikasining bosh g‘oyasi nima?
5. Montessori metodikasining vazifasi nimalardan iborat?
6. Montessori sistemasi qanday qismlardan tuzilgan?
7. Montessori metodikasi bo‘yicha maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor tarbiyalashda qanday maqsadlar nazarda tutiladi?

#### **Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:**

Internet manbasidan bolalar sensor tarbiyasini rivojlantirishga oid Mariya Montessori metodikasiga oid o‘yinlardan misollar toping.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH



*Inson faqat tarbiya orqali inson bo'ladi,  
uning qandayligi tarbiyaning natijasidir.*

*Immanuil Kant*

### REJA:

1. Axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va uni amalga oshirish vositalari.
3. Axloqiy tarbiya berishning asosiy tamoyillari va metodlari.
4. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi.

*Tayanch tushunchalar: axloq, axloqiy tarbiya, axloq tushunchalari, axloqiy kategoriya, axloqiy tamoyillar, axloqiy ideal, qadriyat, me'yor, tarbiyaga texnologik yondashuv, axloqiy tarbiya metodlari.*

### AXLOQIY TARBIYANING MAZMUN- MOHIYATI

**Axloq** (arabcha “xulq-atvor”) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmuidir.

Axloq ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan yetukligining mezoni bo'lgan ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Axloq – shaxs yoki guruh faoliyatini baholash orqali jamiyatdagi munosabatlarni boshqarish mexanizmi. U shunchaki munosabatlarni tartibga keltirish uchungina emas, balki ularni uyg'unlashtirish uchun ham zarur.

Munosabatlarni boshqarish ikki xil usul bilan amalga oshiriladi:

- 1) xulq-atvorni rag‘batlantirish;
- 2) jazolash.

Axloq jamiyatdagi munosabatlarni tartibga soladi va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari ifodalanadigan maqsadlarni ilgari suradi.

**Axloq tushunchalari** umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Bunday tushunchalar **axloqiy kategoriya** deb ataladi.

Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo‘ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o‘zida birlashtirgan shaxs tavsifi **axloqiy tamoyillar** deb ataladi.

Hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o‘zlariga odamlar orasidan namuna tanlaydi. Bu **axloqiy ideal** deb ataladi.

Axloqning asosiy tamoyillari – **birdamlik** (shaxsiy manfaatlarining umumiylikning yuqori ko‘rinishi sifatidagi ijtimoiylikka bo‘ysundirilishi) va **insonparvarlik** (shaxsga o‘z-o‘zicha qadriyat va yakuniy maqsad sifatida munosabatda bo‘lish). Axloqiy ongning o‘ziga xos tushunchalari sifatida yaxshilik va yomonlik, burch, vijdon, sha’n, qadr-qimmat kabilarni keltirib o‘tish mumkin. Yuqorida aytilganlarni e‘tiborga olib, axloqning, jamiyat a‘zolarining faoliyatiga yo‘nalganligi va uni boshqarilishi ma’nosida, faoliyatli tavsifini ko‘rsatib o‘tish to‘g‘ri bo‘ladi.

**Axloqiy me‘yorlar** har bir inson va jamiyat uyg‘unlikda mavjud bo‘la olishiga intilgan kishilik jamiyatining ko‘p asrlik tajribasi natijasidir.

Insoniyat hamisha eng muhim maqsadlardan biri sifatida kishilarning hamkorlikdagi yashashida uyg‘unlikka intilib kelgan. Axloq me‘yorlari insonning yaxshilik va yomonlikni chegaralash, ezgulik nima ekanini aniqlashga intilishlari natijasida yuzaga kelgan.

Axloq **me'yor** va **qadriyatlardan** iborat. Axloqning uchinchi elementi **ideallarni** esa, shaxs o'zida tarkib toptirishni xohlagan me'yor va sifatlar tarzida ajratib ko'rsatish mumkin.

**Me'yor** – bir turdagi xulq-atvor, takrorlanadigan vaziyat, talab, standart, taqlid uchun misol, ijtimoiy fikr, did, qoida, urf-odat shaklidagi namuna. Me'yorlar ajdodlarning katta ijobiy ahamiyatga ega tajribasini o'zida mujassamlaydi, zero ularda u yoki bu xulq-atvorning ko'plab avlodlar tajribasida sinalgan maqsadga muvofiqligi aks etadi.

**Qadriyatlar** – ijtimoiy munosabatlar va jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli fazilatlari, moddiy va ma'naviy meros. Qadriyatlar xilma-xil tasnifga ega bo'lib, eng umumiy tarzda mutlaq va nisbiy qadriyatlar farqlanadi. Absolyut qadriyatlar, ya'ni umumahamiatli (ob'ektiv) tavsifga ega bo'lib, ular o'zida shubhasiz asoslangan, istalgan nuqtai nazardan, turlicha munosabatlar va barcha sub'ekt uchun ijobiy xususiyatga ega. Ulardan tashqari, nisbiy ijobiy qadriyatlar ham mavjud bo'lib, ular faqat qandaydir munosabat bilan yoki ma'lum bir sub'ektlar uchungina ijobiy tavsifga ega bo'ladi.

**Axloqiy tarbiya** yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismi. Jamiyat tomonidan insonlar xulqining boshqarilishiga zarurat ikki o'zaro bog'liq vazifani shart qilib qo'yadi: birinchidan, jamiyat ongida me'yorlar, tamoyillar, ideallar, adolat, ezgulik va yovuzlik kabi tushunchalar ko'rinishida aks etadigan va asoslanadigan axloqiy talablarni ishlab chiqish; ikkinchidan, inson o'z xatti-harakatlarini yo'naltirishi va nazorat qila olishi, shuningdek, ijtimoiy xulqni boshqarishda ishtirok eta olishi, ya'ni boshqa kishilarga talab qo'ya bilishi va ularning xatti-harakatlarini baholay olishi uchun bu talablarni hamda ular bilan bog'liq tasavvurlarni har bir inson ongiga singdirish. Aynan shu ikkinchi vazifa insonda shaxsning tegishli e'tiqod, ma'naviy moyilliklar, his-tuyg'ular, odatlar, barqaror axloqiy sifatlarni shakllantirishdan iborat bo'lgan axloqiy tarbiya orqali hal qilinadi. U yoki bu jamiyatda axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni uning



maqsadlari bilan belgilanadi. Bu maqsadlar ijtimoiy munosabatlar tavsifi bilan belgilanadi.

**MAKTABGACHA YOSHDAGI  
BOLALARNI AXLOQIY  
JIHATDAN TARBIYALASH  
VAZIFASI VA UNI AMALGA  
OSHIRISH VOSITALARI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatleri va xulqini tarbiyalash hamda

rivojlantirishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning **asosiy vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- bolalarda axloqiy his-tuyg'ular va xatti-harakat ko'nikmalarini shakllantirish;
- xulq madaniyati va ijobiy his-tuyg'ularni tarbiyalash;
- axloqiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida axloqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- kichik, o'rta, katta guruh bolalari uchun sodda elementlar axloqiy tushunchalar haqida ma'lumot berish;
- har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlarini rasmlar, multik tasmalar, diopozitivlar va bolalarni jonli harakatlari orqali tushuntirish;
- bola doimiy ravishda "nima yaxshi-yu, nima yomon?" so'zining ma'nosini anglab o'z fikrini sodda bayon etishi".

Axloqiy tarbiyaning **asosiy tamoyillariga** quyidagilar kiradi:

- axloqqa doir tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- ta'lim-tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va amaliyot bilan bog'lab olib borish;
- bolalarning faolligi;
- jamoada tarbiyalash;
- tarbiyaviy ishning tizimlilik va izchilligi;

- tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi;
- oila, MTT, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta'sirining birligi;
- boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish.

**Tarbiyaning zamonaviy tamoyillari:** tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'rnatilishi, dialog nuqtai nazariga muvofiq tarzda shunday xulosaga kelindiki, axloqiy tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishi uchun psixik jarayonlarga (motivatsiya, anglash, interiorizatsiya va b.) tashqi ta'sirlar ichki, individual-shaxsiyga organik va mustahkam aylanadigan pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarur.

Axloqiy tarbiyani amalga oshirishning **pedagogik shart-sharoitlariga** quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zaro to'g'ri munosabat uslubi:
  - a) jamoaning katta a'zolari o'rtasida;
  - b) pedagogik va ota-onalar jamoasi o'rtasida;
  - v) kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabat, kattalarning bolalarga munosabati.

Kattalar (pedagoglar)ning bolalarga nisbatan insonparvarlik tamoyilida, o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, hurmat munosabatida bo'lishi eng muhim shart-sharoit hisoblanadi.

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rnatilgan qat'iy kun tartibi.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'z tengdoshlariga va boshqa kishilarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltiruvchi muhit yaratish.
3. Bolalarni axloq me'yorlari va qoidalariga o'rgatish hamda shular asosida bola shaxsida ijobiy axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash.
4. Jamoada hamma bolalar uchun teng sharoit yaratish va bolalar jamoasi o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish.
5. Kun davomida bolalarning xilma-xil qiziqarli faoliyatlarini tashkil etish.
6. Bolalarni ijobiy axloqiy xulqini mashq qildiradigan shart-sharoit

tug‘dirish.

7. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti bilan oilaning hamkorligi va boshqalar.

Axloqiy tarbiyaga zamonaviy (shakllantiruvchi, madaniyatshunoslik, aksiologik, ijtimoiylashtiruvchi, germenevtik, sinergetik, antropologik) yondashuvlar tahlili axloqiy tarbiyaning quyidagi pedagogik sharoitlarini **samarali vositalar** sifatida ko‘rsatish uchun asos bo‘ladi:

- o‘yin, muloqot, faoliyat jarayonida tabiiy ijtimoiy-axloqiy moslashuv;
- psixologik muhitni yaratish;
- dialog, hamkorlik;
- axloqiy qoidalar, hodisalarga qadriyatli munosabatni shakllantirish;
- tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil qilish;
- ijtimoiy ahamiyatli sifatlarni shakllantirish;
- axloqiy tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida qarama-qarshiliklarni aniqlash va bartaraf qilish;
- emotsional kechinmalarni uyg‘otish;
- tarbiyalanuvchilarning ichki potensialini ochib berish;
- axloqiy o‘zgarishlarni doimiy tashxislash.

MTT tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyalashda aniq **mezonlarga** asoslanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha yoshdagi bola:

- O‘zbekiston Respublikasida yashayotganini bilishi;
- o‘zi haqida qayg‘urishi, o‘zining narsa-buyumlarini asrab-avaylashi, gullarni va uy hayvonlarini parvarishlay olishi;
- ota-onasi, aka-uka, opa-singil, bobo-buvi, o‘rtoqlari, tabiatni va butun tiriklikni sevishi;
- MTTdagi qiz va o‘g‘il bolalar bilan o‘rtoq bo‘lishi;
- uyda, maktabgacha ta‘lim tashkilotida va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga doir topshiriqlarni bajarishda mehnatsevar bo‘lishi;
- tartibsizlik, ifloslik, nohaqlik, yomonlik, qizg‘anchilikka qarshi turishi;

- uyda va maktabgacha ta'lim tashkilotida foydalaniladigan narsalar, non, elektr toki, suv kabilarni asrab-avaylashi;
- kattalar, ota-onasi, o'rtoqlariga yordam berishi;
- rasm chizish, qo'shiq va she'r aytish, raqs tushish, yangi o'yinchoq va

**AXLOQIY TARBIYA  
BERISHNING ASOSIY  
TAMOYILLARI VA  
METODLARI**

o'yinlarni yarata olishi lozim.

**Tarbiyaga texnologik yondashuv** – tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o'zida uning ko'p omilliligi – ko'plab omillar ta'siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo'lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo'naltirilganligi, ko'p bosqichlilik bilan bog'liq ravishda mujassamdir. Ko'p bosqichlilik tarbiyalanuvchining u yoki bu sifat haqida tasavvur darajasidan tushunchaga va keyinroq o'zlashtirilganlariga muvofiq harakat qilish ko'nikmasini shakllantirish hamda to'g'ri xulq-atvor odatlarini shakllantirishga o'tish bilan tavsiflanadi. Shunga asosan V.S.Selivanov tarbiya jarayoni, uning bosqichlari ketma-ketligi murakkab o'ziga xoslikka ega ekanligi haqidagi xulosaga keladi.

Tarbiya, shaxs sifatlarini shakllantirish emotsional yo'nalganlik, xulqning ma'lum shakliga ijodiy munosabat uyg'otishdan boshlanadi. Ikkinchi bosqich harakatni to'g'ri bajarish malakasini, ya'ni to'g'ri xatti-harakat qilishni mashq qilish sanaladi. Keyinchalik harakatni unga ijobiy munosabat bilan ko'p marta bajarish davomida oqilona xulq-atvorga odatlantiriladi. Tushunchani o'zlashtirish (shakllantirish) – tarbiya jarayonining keyingi bosqichi. O'zlashtirilgan tushunchalar asosida ijtimoiy xulq tajribasi tashkil qilinadi.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayonining pedagogik maqsadlari uning ijtimoiy maqsadlari, ijtimoiy mohiyati va ijtimoiy funksiyalaridan kelib chiqadi. Ular, birinchidan, bolalarning axloqiy ko'rinishlar va tegishli faoliyat

usullarini amaliy tatbiq etish ko‘nikma va malakalarini egallashini ta‘minlash; ikkinchidan, shu asosda o‘rganilayotgan sifatning yuqori darajasini shakllantirishdan iborat. Bu maqsadlarga quyidagi pedagogik shartlar bajarilganidagina erishish mumkin: bolalarni zarur sifatning yo‘naltirilgan rivojlanishiga olib keladigan axloqiy mazmun bilan boyitilgan real hayotiy vaziyatlarga kiritish; bolalarni rivojlantirishga qaratilgan o‘z-o‘zini axloqiy takomillashtirish vazifalarini ongli ravishda o‘z oldiga qo‘yishlari; pedagogik ta‘sir ilgari lab borish tavsifiga ega bo‘lishi, o‘zida yangi, biroq hozirgacha shaxsiy tajribada sinovdan o‘tganlarni aks ettirishi kerak.

Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi.

Ma‘naviy-axloqiy tarbiya ta‘rifi, uning psixologik asoslari va mezonlariga asoslanib, loyihalangan **axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi** sifatida quyidagi tizimli ketma-ketlikka asoslanish maqsadga muvofiq. Axloqiy fazilatlarni shakllantirish texnologiyasi o‘zaro bir-biriga bog‘langan, bir-birini to‘ldirib boruvchi quyidagi qadamlar ketma-ketligidan iborat:

- 1) nazariy bilimlar, fazilatlar ta‘rifini shakllantirish;
- 2) fazilatning rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash;
- 3) suhbatlar, topshiriqlarga emotsional munosabatni aniqlash;
- 4) fazilatning rivojlanganlik darajasini mezonlar bo‘yicha aniqlash;
- 5) pedagogik vaziyatlarni yaratish;
- 6) tarbiyalanuvchilarni fazilatni namoyon qilish bo‘yicha faoliyatga jalb qilish;
- 7) olingan ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mashqlar;
- 8) natijalarni baholash;
- 8) korreksiyalash.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda turli metod va usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI BOLALARNI  
AXLOQIY TARBIYALASH  
METODLARI**

**Axloqiy tarbiya metodlari**

tarbiyalanuvchilarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning

axloqiy his-tuyg'ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usullaridir.

Axloqiy tarbiya metodlarini shartli ravishda quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1. Axloqiy ongni shakllantirish metodlari:** hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash, nasihat, o'git, ko'rsatma, namuna va boshqalar.
- 2. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari:** mashq, o'rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokazolar.
- 3. Axloqiy motivatsiyani hosil qilishga doir metodlar:** rag'batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar.

**Axloqiy ongni shakllantirish metodlari. Axloqiy mavzudagi hikoya** – axloqiy mazmundagi voqea-hodisalarni yorqin emotsional bayon etilishidir. Hikoya bolalarning his-tuyg'ulariga ta'sir etib, ularga axloqiy me'yor va qoidalarni tushunish hamda o'zlashtirishga yordam beradi. Yaxshi bayon tavsifiga ega hikoya axloqiy tushunchalarning mohiyatini ochib berishgagina xizmat qilib qolmay, balki tarbiyalanuvchilarda madaniy xulq-atvor qoidalariga ijobiy munosabatning yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Axloqiy mazmundagi hikoya bir nechta vazifani bajaradi: bilimlar manbai bo'lib xizmat qiladi, bolaning xulq-atvor tajribasini kattalarniki asosida boyitadi.

Ushbu metodning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- 1) bolalarda ijobiy axloqiy hislarni uyg'ota olish, hikoya qahramonlariga hamdardlik bildirish – yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalishib achinish;
- 2) bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim axloq qoidalarining mazmunini ochib berish;
- 3) axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda, sayrlarda, bolalarning o'z hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi zarur:

- Hikoya maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo'lishi maqsadga muvofiq.
- Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo'rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta'minlaydi.
- Axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.
- Hikoyadan ko'zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Tushuntirish metodi** bolalarga yangi axloqiy tushuncha, me'yor va qoidalarni bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslaniladi. M: ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmuomalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lda davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmog'i lozim.

Axloqiy mavzudagi **suhbatni** maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha guruhlarida qo'llash mumkin. Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar axloq me'yorlari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda axloq qoidalari va me'yorlariga nisbatan talab yuzaga keladi. Suhbat jarayonida bolalarning axloqiy tajribalarini kengaytirib borish, xulqning axloqiy sabablarini aniqlab berish kerak. Suhbat vaqtida bolalar o'z fikrlarini erkin aytishlariga keng imkon berish lozim. Shunda ular har bir xatti-harakatlarini ongli ravishda, axloq me'yorlari va qoidalari asosida bajarishga urinadilar.

**Izohlash** – tarbiyalanuvchilarga og'zaki-emotsional ta'sir ko'rsatish metodi. Milliy tarbiyada mazkur metod "ta'birlamoq" tarzida ham ishlatiladi. Ta'birlamoq

– bolada, bolalar guruhida uchrab turuvchi xatti-harakatlarni sifatlamoqdir. Tushuntirish va hikoyadan farqli ravishda izohlashning muhim jihati biror yosh guruhi yoki alohida bolaga ta'sir etishga yo'nalganligidadir. Mazkur metodni qo'llashda maktabgacha yosh guruhi va bolalar guruhining shaxsiy sifatlariga asoslaniladi. Maktabgacha yosh guruhida sodda izohlash ko'rinishidan foydalaniladi: “Mana bunday qilish kerak”, “hamma shunday qiladi” va b. Izohlash metodi yangi axloqiy sifatlar yoki xulq-atvor shakllarini shakllantirish hamda tarbiyalanuvchilarda ma'lum bir xatti-harakatlarga to'g'ri munosabatni tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda **nasihat** qilish muhim o'rin tutadi. Nasihat – sokin, xayrixoh vaziyatda bolani yaxshi yo'lga solish, ta'lim berish maqsadida aytilgan gap, maslahat, pand, o'git. Aynan nasihat tinglash va unga rioya etish mazkur yosh guruhi uchun xosdir. Nasihat orqali bola psixikasiga tizimli ta'sir ko'rsatilib, unda ma'lum bir faoliyat motivlari va ustanovkalar hosil qilinadi.

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy ongini shakllantirishda **ko'rsatma** berishdan ham foydalaniladi. Ko'rsatmoq – bolaga, bolalarga o'rnak yoki ibrat olishlari yoki ularda yangi tushuncha, bilim hosil qilish maqsadida biror narsaga diqqat-e'tiborlarini jalb qilishdir.

**Ishontirish** – bolalarni axloqiy tarbiyalashda katta yordam beradi (“Kasal bo'lmaslik uchun ovqatlanishdan oldin qo'lni yuvish kerak”, “O'rtog'ini urish yomon”). Ishontirish o'z navbatida namuna ko'rsatishni talab etadi.


**Namuna** bolaning birinchi signal tizimiga faol ta'sir ko'rsatib, harakatlanish uchun aniq timsolni hosil qiladi va o'z navbatida bolada axloqiy ong, his-tuyg'u, ishonchni tarkib toptirib, uning faolligini oshiradi.

**Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlari. Mashq** – axloqiy xulq va odatlarni tarbiyalashning eng ta'sirli metodidir. Unga qoidalarni mashq qildirish – foydali odatlarni qaytarish kiradi. Eslatish, o'rgatilgan tajribani yangilash, nazorat – o'rgatilgan odatning to'g'ri va samarali ekanligini tekshirish, o'z-o'zini nazorat



qilish, bolani faollashtiruvchi shaxsiy gigiyena qoidalari, ovqatlanish madaniyati, ko'chada, maktabgacha ta'lim tashkilotida xulq madaniyatini egallashni mashq qildirish bunga misol bo'la oladi. Mashq qildirish natijasida bolada malaka va odatlar tarkib topadi.

Mashq metodining samaradorligi quyidagi omillarni hisobga olishni talab qiladi:



Mazkur omillar orasida mashqning hajmi va sur'ati hamda kutiladigan natija o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqadorlik mavjud: mashq qanchalik ko'p va tez-tez bajarilsa, uning yordamida shakllantiriladigan sifatlar shunchalik tez rivojlanadi.

**Talab** – tarbiyalash maqsadida boladan biror narsani qat'iyat bilan so'rab turish bo'lib, tarbiyalanuvchilarning ma'lum bir faoliyatini rag'batlantirish yoki bartaraf etishga xizmat qiladi.

Taqdim etish shakliga ko'ra bevosita va bilvosita talab farqlanadi. **Bevosita talab** uchun qat'iylik, aniqlik, mohiyatning tushunarli bo'lishi xos bo'lib, keskin ohang, yuz harakatlari uyg'unligi aks etadi.

**Bilvosita talab** (maslahat berish, yalinish, ta'kidlash, qaytarish) bevosita talabdan farqli ravishda bolada qayg'urish, qiziqish, intilish kabi psixologik omillarni chaqirishga xizmat qiladi.

**Maslahat berish** orqali bolada ma'lum xatti-harakatning foydali ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Bola qachonki bildirilayotgan fikrni o'zi uchun muhim ekanligiga ishonch hosil qila olgandagina maslahatni qabul qiladi.

**Yalinish** – agarda boshqa talab qilish ko'rinishi kor qilmasligiga ko'zi yetsa, bola qalbida mehrni yangilash, uyg'otish maqsadida uni biror narsaga ko'ndirish uchun iltimos qilish, o'tinib so'rashdir.

**Ta'kidlash** – bolalar bilan o'tkazilgan har bir vaziyatda, ularga malol kelmaydigan axloqiy mazmuni uqtirib, tayinlashdir.

**Qaytarish** – bola jahli chiqib, qizishib biror kor-hol, yomonlik qilishga qaror qilsa yoki vajohati shuni ko'rsatsa, uni bunday nomaqbul, nojo'ya tishdan, xatti-harakatdan o'zini tutishga undash, tiyish.

**O'rgatish** – bolaga biror ish-harakat (m: turli joy va vaziyatlarda o'zini tutishni, gapirishni va boshqalar) bajarish usulini, yo'l-yo'rig'ini tushuntirish, bildirish va shu ishni mustaqil bajara oladigan qilish). Mazkur metodni to'g'ri qo'llash qoidalariga quyidagilar kiradi:

1. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tarbiya maqsadini aniq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Ayniqsa, bola o'rgatilayotgan ish-harakatning nima uchun xizmat qilishini tushunib yetmasa, tarbiyachining harakati zoye ketadi.
2. Ish-harakatni bajarishga o'rgatishda buyruqqa emas, tushuntirishga asoslanish lozim. Masalan: “Qo'shnilar bilan salomlashib yursang, ular seni yaxshi ko'rishadi”, “Seni chiroyli kuladi deyishlari uchun tishlaringni yuvib yurishing kerak” va boshqalar.
3. Bolalarga o'rgatiladigan ish-harakat uchun maqbul vaqt va miqdor hisobga olinishi lozim. Odatlantirish uchun ma'lum muddat zarur, shoshilish kerak emas. Dastlab bolani harakatlarni to'g'ri bajarishi haqidagi qayg'urish, keyin uni tez amalga oshirishiga intilish zarur.

4. Bolaga harakatlar qanday bajarilishini, natijasi nima bilan tugashini ko'rsatib berish lozim. M: toza va iflos poyabzal, silliq va g'ijimlangan kiyimni taqqoslab ko'rsatish orqali bolani bunday holatlarni bartaraf etishga o'rgatib borish mumkin.

5. O'rgatish doimiy nazoratni talab etadi. Nazorat chin ko'ngildan, qiziqish bilan amalga oshirilishi, zarda-jahl tarzida bo'lmasligi hamda o'z-o'zini nazorat qilish bilan uyg'unlikda olib borilishi lozim.

6. O'rgatish o'yin orqali amalga oshirilsa, yaxshi samara beradi. O'yinda bola belgilangan qoidalarni boshqalarning majburlashisiz ham o'z xohishiga ko'ra bajaradi.

**Muammoli vaziyat** o'zining ahamiyati jihatidan mashqqa yaqin turadi, ammo uning o'ziga xos tomoni bolada faollik, ijodkorlik, mustaqillik namoyon bo'lishi uchun sharoit yaratadi. Dastlab hikoya-vaziyat tavsiya etiladi, M: birorta hikoya ma'lum bir yerida to'xtatiladi.

Tarbiyachi bolalarga hikoyadagi qahramonlar xulqini baholashni tavsiya etadi. Bolalarning javoblari muhokama etiladi va hikoyadagi ijobiy, insoniy xulq haqida bir fikrga kelinadi. Keyinchalik bolalarga real muammoli vaziyat taklif etiladi: futbol o'yini ketyapti. Bir jamoaning sardori yaxshi o'yinchi, uning jamoasi har doim yutib chiqadi. Mana shunday voqea sodir bo'ldi: u jamoadagi bir o'yinchi koptokni noto'g'ri tepgani uchun uni qattiq uradi. Undan o'yinchi bilan qo'pol munosabatda bo'lgani uchun o'yinchidan kechirim so'rash talab etiladi. U kechirim so'rashdan bosh tortadi, demak, uni o'yindan chetlashtirish kerak. Katta guruh bolalariga avval tarbiyachining yordamida, keyinchalik esa mustaqil ravishda bu muammoni hal etish tavsiya etiladi.

**Axloqiy motivatsiyani hosil qiluvchi metodlar.** Bu guruh metodlaridan tarbiyachi bolalarda ijobiy axloqiy sifatlarni mustahkamlash, bola xulqidagi salbiy tomonlarni yo'qotish maqsadida foydalaniladi. Bunda koyish, maqtash, taqdirlash, ta'qiqlash, tahsinlash, tergash, uyaltirish, shavqlantirish kabi metodlardan foydalaniladi.

**Koyish** – jazo berishning yengil turi. Bolaga tanbehlovchi so‘z aytish, tanbeh berish, urishib qo‘yish.

**Maqtash** – bolani uning o‘ziga yoki boshqalar oldida yaxshi tomonlarini ko‘rsatib gapirish, yaxshi qilib ko‘rsatish.

**Taqdirlash** – bolani qadrlash, munosib baholash, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirish.

**Ta’qiqlash** – tarbiyaviy maqsadda bolaga, bolaga biror narsani man etish.

**Tahsinlash** – bolani “ofarin”, “balli” kabi so‘zlar bilan qarshi olish, maqtab yuksak baholash.

**Tergash** – vaqti-vaqti bilan bolaga yetarli darajada qattiq-qo‘llikni namoyon qilib, tekshirib, nojo‘ya xatti-harakatlari uchun koyib, “yo‘li”dan qaytarib turish.

**Uyaltirish** – noma’qul qilig‘i uchun bolaga o‘ta noqulaylik tug‘dirish, xijolot qildirish.

**Shavqlantirish** – bolaning xulqi, muvaffaqiyatlari, kelajagiga g‘oyat mamnunlik hissi bilan qiziqish, rehiy ko‘tarinkilik bilan zavqlanish, zavqlantirish, qanoatlantirish.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**


1. Axloq deganda nimani tushunasiz?
2. Axloq qanday unsurlarni o‘z ichiga oladi?
3. Axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalash mazmuni nimadan iborat?
5. Maktabgacha ta’lim tashkilotida axloqiy tarbiyani tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlariga nimalar kiradi?
6. Axloqiy ongni shakllantirish metodlarini sanang va ularga izoh bering.

#### **Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:**

“Bola odobi bilan go‘zal” mavzusida 10 minutlik Esse yozing.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH

*Sport – bu avvalo sog‘lom  
avlod, sog‘lom kelajak degani.  
Islom Karimov.*



### REJA:

1. Jismoniy tarbiyaning mohiyati va funksiyalari.
2. Jismoniy tarbiyaning muhim omillari.
3. Gigiyenik shart-sharoitlar.
4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirishning o‘ziga xosliklari.
5. Yosh guruhlarida shaxsiy gigiyena va o‘z-o‘ziga xizmat malakalarini shakllantirish.

*Tayanch tushunchalar: jismoniy tarbiya, jismoniy mashq, gimnastika, vosita, jismoniy tarbiya vositalari, jismoniy rivojlanish, gigiyena, shaxsiy gigiyena, o‘z-o‘ziga xizmat.*

### JISMONIY TARBIYANING MOHIYATI VA FUNKSIYALAR

Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va funksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni, qobiliyatlarni rivojlantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taalluqli maxsus bilimlarni o‘zlashtirib olish tushuniladi.

**Jismoniy tarbiya** – tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo‘naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi.

Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'sish va rivojlanish jarayoniga ijobiy ta'sir qilib, ijodiy imkoniyatlarini oshiradi.

Bolalarning jismoniy madaniyatini shakllantirish ko'pgina vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni talab etadi. Jismoniy tarbiyaning vazifalari xilma-xil bo'lib, pedagogikada qator tasniflar yaratilgan. Jumladan, V.A.Slastenin, I.F.Isayev, ye.N.Shiyanovlar jismoniy tarbiyaning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatishadi:

- 1) bolalarning jismoniy to'g'ri rivojlanishiga yordam berish – organizmning morfologik va funksional rivojlanishini ta'minlovchi ishchanlik qobiliyatini oshirish, uning tashqi muhitning noqulay vaziyatlariga barqaror qarshi tura olishini mustahkamlash;
- 2) asosiy harakatlantiruvchi sifatlarni rivojlantirish – bolaning xilma-xil harakatga doir faoliyatga qobiliyatligi uning barcha jismoniy sifatlari – kuchlilik, chidamlilik, chaqqonlik va epchillikni yuksak uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlaydi;
- 3) hayotiy muhim harakatga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish – bolada maxsus harakatga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish. Harakatga doir tasavvurlarga tayangan holda bola turli sharoitlarda o'z xatti-harakatlarini boshqara olish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- 4) jismoniy madaniyatning tizimli mashg'ulotlariga barqaror qiziqish va ehtiyojlarni tarbiyalash. Sog'lom turmush tarzi asosida bolaning doimiy ravishda o'z-o'zini jismonan rivojlantirishga ichki tayyorligi yotadi. U muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish va bolalarning jismoniy mashg'ulotlarga faol munosabati natijasida yuzaga keladi;

5) jismoniy madaniyat va sport, tibbiy va gigiyena sohalariga oid minimum nazariy bilimlarni egallash zarurligi. Bolalar kun tartibi va shaxsiy gigiyena haqida, jismoniy madaniyat, sportning salomatlikni mustahkamlashdagi ahamiyati aniq tasavvurlarga ega bo'lishi zarur.

B.T.Lixachev jismoniy tarbiyaning quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatadi:

1. Rivojlantiruvchi - bolalarning jismoniy kuchini va asab tizimini takomillashtirish, o'zgaruvchan vaziyatlarga moslashuvini ta'minlash;
2. Tarbiyaviy – bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarkib topishiga erishish;
3. Ta'limiy-bolalarni jismoniy madaniyatning nazariy asoslari bilan tanishtirish.

I.P.Podlasiy tomonidan taklif etilgan jismoniy tarbiyaning vazifalari V.A.Slastenin, I.F.Isayev, Y.N.Shiyanovlar tasnifiga mos kelib, shu bilan birga jismoniy tarbiyaning yana ikkita funksiyasi alohida ajratib ko'rsatilgan:

- 1) tarbiyalanuvchilarda estetik sifatlarni tarbiyalash;
- 2) tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni tarbiyalash.

Pedagog olimi P.Yusupovning fikricha, maktabgacha yoshdagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va sistemalarining shakllanishi hali tugallanmagan bo'ladi, shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarni jismoniy tarbiyalashda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi:

- 1. Sog'lomlashtiruvchi vazifalar.** Bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, organizmning shakl va funksiyalarini uyg'un rivojlantirish, ish qobiliyatini oshirish, har xil tashqi ta'sirlarga chidamlilikni kuchaytirish, uzoq umr ko'rishini ta'minlash.
- 2. Ta'limiy vazifalar.** Maktabgacha yoshdagi bolalarga xos bo'lgan o'ta qabul qiluvchanlikni, sharoitning o'zgarishiga yengil moslashish qobiliyati bir qator ta'limiy vazifalarni ham amalga oshirish imkoniyatini yaratadi: zarur ko'nikma, malakalarni shakllantirish, jismoniy sifatlarni (chaqqonlik, kuchlilik,

chidamlilik, tezkorlik, egiluvchanlik, muvozanat, ko‘z bilan chamalash)ni o‘stirish, qaddi-qomat, gigiyena ko‘nikmalarini tarbiyalash, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish.

Boladagi harakat ko‘nikmalari (emaklash, yurish, yugurish, velosipedda uchish va b.) nisbatan yengil shakllanadi, ular bolaning muhit bilan aloqasini osonlashtiradi. Bola chanada uchayotib qor va shamolning, suvda suzayotib suvning xossalari bilan tanishadi. Shu asosda jismoniy mashqlar, gigiyena malakalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan dastlabki bilimlar tarkib topadi.

Bolalar gavda qismlarining nomini, harakat yo‘nalishi (yuqoriga, pastga, oldinga, orqaga, o‘ngga, chapga), to‘la aylanish, jismoniy tarbiya asboblarining nomi va qay maqsadda ishlatilishi, ularni asrash va tutish, kiyim-kechak va poyabzalga qarash qoidasini bilashlari kerak.

**3. Tarbiyaviy vazifalar.** Bolalarda sport mashg‘ulotlariga muhabbatni, ularning natijalari, sportchilarning yutuqlariga qiziqishni tarbiyalash lozim.

Jismoniy mashqlarni bajarishda harakterning ijobiy xususiyatlari (uyushqoqlik, intizomlilik, kamtarlik, ko‘ngilchanlik, va h.k.) va axloqiy fazilatlar (halollik, haqqoniylik, o‘rtoqlik hissi, o‘zaro yordam), jamoada shug‘ullanish malakasi, jismoniy tarbiya asboblarini ehtiyot qilish, topshiriqni mas‘uliyat bilan bajarishlarini tarbiyalash, shuningdek, irodaviy fazilatlar (botirlik, qat‘iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni yengishda sabotlilik, chidamlilik va b.)ni namoyish qilish uchun qulay sharoit yaratiladi.

Maktabgacha ta’lim Dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash **vazifalari** sifatida quyidagilar belgilab berilgan:


- bolalar salomatligini mustahkamlash va ularni chiniqtirish;
- ularni jismoniy jihatdan baquvvat qilish;
- bolalarda axloqiy sifatlarini tarbiyalash;
- ularda maqsadga to‘g‘ri yo‘naltirilgan harakatlarni faollashtirish uchun sharoit yaratish;



- jismoniy harakatlarning muhim sifatlari: yurish, yugurish, sakrash, emaklash, oʻrmlash, otish, ilib olish, suzish, velosipedda uchish, oyoq, qoʻl, tana, bosh harakatlarini rivojlantirish, saflanish va qayta saflanish kabilarni shakllantirish;
- oʻyin harakatlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, jismoniy sifatlarni rivojlantirish: chaqqonlik, epchillik, ziyraklik, irodalilik, sabr-qanoat, kuchlilik va boshqalarga tenglashib tik tutish malakasini oshirish;
- bola qomatini toʻgʻri shakllantirishga taʼsir koʻrsatish va yassi oyoqlilikning oldini olishga yordam berish;
- jismoniy mashq va oʻyinlarning foydasi, asosiy gigiyenik talablar va qoidalar haqida yetarli darajada tasavvur va bilimlar berish;
- bolalarda faol harakatga qiziqishni tarbiyalash.

**JISMONIY  
TARBIYANING  
MUHIM  
OMILLARI**

Jismoniy tarbiyani amalga oshirish vositalari xilma-xil boʻlib, ularni umumlashgan tarzda uch guruhga ajratish mumkin:



**Tabiiy omillar** tabiat inʼomlari (suv, havo, quyosh)ning sogʻliqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy toʻgʻri rivojlanishiga koʻmaklashish imkoniyatlarini oʻzida aks ettiradi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur holat “bola organizmini chiniqtirish” atamasi bilan tavsiflanadi.

**Bola organizmini chiniqtirish** – organizmni mustahkamlash, chidamlilik, zararli taʼsirlarga qarshilik koʻrsatish, hayotiy sharoitlarning oʻzgarishiga tez moslashish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Havo orqali chiniqtirishda sovuq havo bilan jismoniy mashqlar o‘zaro birlikda ta’sir ettiriladi. Havo vannasidan uyqu vaqtida yoki havo bulut bo‘lgan vaqtlarda foydalaniladi. Uyqu vaqtida bolalar salqin yerga qo‘yilgan karavotga yotqiziladi. Havo vannasidan foydalanishda quruq, shamoldan holi tekis maydon tanlanadi. Tarbiyachi bu maydonchada yengil kiyingan bolalar bilan 10-15 daqiqa yengil harakatli o‘yinlar yoki mashqlar bajaradi. Havo vannasi asta-sekin 10-15 daqiqadan 25 daqiqaga olib boriladi.

Suv bilan chiniqtirish barcha yosh guruhlarida yilining hamma fasllarida o‘tkazilishi mumkin. Suv bilan chiniqtirishda bolalarning tibbiy-fiziologik o‘ziga xosliklari hisobga olinishi lozim. Suv, havo temperaturasining o‘zgarib borishi bola organizmining termoregulyatsion apparatini mashq qildiradi, tashqi sharoitga, ob-havoning o‘zgarishiga odatlanish reaksiyasini shakllantiradi. Bola organizmining chiniqishi bilan bir qatorda, uning irodasi ham chiniqib boradi.

Quyosh nurida chiniqtirish orqali organizmda “D” vitamini paydo bo‘lishiga yordam beradi. Ammo undan ortiqcha foydalanish bolada bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, ishtaha bo‘g‘ilishi, kamqonlik, lanjlik bo‘lishiga olib keladi. Sil, bezgak kasalligi bilan og‘rigan bolalarga quyosh vannasi mutlaqo ma’n etiladi.

Quyosh vannasi dastlab to‘rt daqiqadan qabul qilinadi, tananing har bir tomoni bir daqiqadan toblanadi. Quyosh vannasi qabul qiladigan maydoncha quruq, tekis, havo yaxshi aylanadigan, kuchli shamollardan pana bo‘lishi lozim. Yaqinroqda dush, bolalar kiyinadigan, yechinadigan joy bo‘lish kerak.

O‘zbekiston sharoitida quyosh vannasini ertalab soat to‘qqiz-o‘n bir oralig‘ida olgan ma’qul. Bolalar fanerdan yoki taxtalardan yasalgan so‘rilarga oyoqlarini quyosh tomonga, boshlarini esa soya tomonga qarab yotqiziladi. Quyosh vannasi qabul qilingandan so‘ng ularning ustidan suv qo‘yish yoki cho‘miltirish lozim. Bunda bolaning ruhi yengillashadi, terlari yuviladi, qizigan tana va sovuq o‘rtasidagi farq organizmni chiniqtiradi.

Bola organizmini chiniqtirishda ham maktabgacha yosh davr-larining o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda tabaqa-lashtirilgan yondashuvni tatbiq etish lozim. Jumladan:

**Ilk yosh guruhida:**

- har kuni ertalab badantarbiya qilish, harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;
- badantarbiyani ochiq havoda, yengil kiyimda bajarish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);
- yozda ochiq havoda iloji boricha ko'proq bo'lish;
- kattalar nazorati ostida kichik ochiq suv havzasida (basseyn)da cho'milish (gigiyena talablariga amal qilgan holda).

**Kichik guruhda:**

- har kuni ertalab badantarbiya qilish;
- harakatlarni namunaga muvofiq bajarish;
- badantarbiyani ochiq havoda, yengil kiyimda bajarish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini suv muolajalari bilan tugallash (kattalar ko'magida);
- ertalabki badantarbiya mashqlarini aniq va izchil bajarish;
- bolalarni yuz qo'llarini mustaqil yuvishga odatlantirish, suvni sachratmaslik, sovundan to'g'ri foydalanish, badanini xo'l sochiqda artish, yoz oylarida ochiq havoda iloji boricha ko'proq bo'lish, cho'milishga, dushdan foydalanish;
- ochiq suv havzasi (basseyn)da cho'milish.

**O'rta guruhda:**

- har kuni kattalar nazoratida badantarbiya mashqlarini xonada, darchalarni ochib qo'ygan holda bajarish; ochiq havoda esa sport kiyimida bajarish;
- qo'l, oyoq, gavda uchun mashqlarni aniq va izchillik bilan bajarish, qomatni to'g'ri tutish;

- har kuni ertalab badantarbiya mashqlarini bajarish, har qanday ob-havoda ham harakatli o‘yinlar o‘ynash;
- har kuni oyoqlarni yuvish, sekin-asta suv haroratini pasaytirib borish;
- xona haroratidagi suvda ho‘llangan gubka yoki paxmoq qo‘lqop bilan dastlab qo‘llarni, keyin oyoqlarni, ko‘krakni, qorin va orqani teskari yo‘nalishda teri qizarguncha artish.

#### **Katta guruhda:**

- har kuni kattalar nazoratida ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;
- badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, yengil kiyimda predmetlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;
- muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni, qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;
- yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;
- badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratdagi suvda ho‘llangan kichikroq paxmoq sochiq bilan tana a‘zolarini artish: avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, tezda quruq qilib artish;
- faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostida cho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;
- oyoqni shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yalangoyoq yurish;
- chiniqtirish qoidalarini ongli ravishda bajarish.

#### **Tayyorlov guruhida:**

- har kuni ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish;
- badantarbiya mashqlarini ochiq havoda gilamcha ustida, yengil kiyimda buyumlar bilan va ularsiz bajarish, mashqlarni suv muolajalari bilan tugallash;
- muayyan izchillikda, aniq, shiddat bilan muskullarni tarang holga keltirish, mashqlarni qomatni to‘g‘ri tutgan holda bajarish;
- xonada yengil kiyimda bo‘lish, deraza darchasini ochib qo‘yish;
- ertalabki badantarbiya mashqlarini har kuni, har qanday havoda bajarish;
- yuz, bo‘yin, qo‘lni tirsakkacha sovuq suv bilan yuvish;

- badantarbiyadan so‘ng darhol gubka yoki uy haroratidagi suvda ho‘llangan kichikroq paxmoq sochiq bilan tana a‘zolarini artish, avval qo‘llarni, keyin badanni quruq sochiq bilan tana qizarguncha, tezda quruq qilib artish;
- faqat kattalarning ruxsati bilan cho‘milish, kattalarning nazorati ostida cho‘milishning asosiy qoidalariga rioya qilish;
- shikastlantirish xavfi yo‘q joylarda yalangoyoq yurish.

**GIGIYENIK  
SHART-  
SHAROITLAR**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy to‘g‘ri rivojlanishi uchun gigiyenik shart-sharoitlar – uyqu, ovqatlanish va kiyinish, kun tartibi kabilarni hisobga olish zarur.

Bolalarning jismoniy jihatdan tarbiyalashdagi muhim vazifa asab tizimi gigiyenasidir. Bu vazifani hal etishda **uyqu** katta ahamiyatga ega.

**Uyqu** – odam va hayvonlarda davriy yuz beradigan holat. Uyqu asab tizimi, asosan, bosh miya po‘stlog‘ining faolligi pasayadi, ong, muskul tonusi va sezuvchanlik susayadi.

Odatda uyqu miya yarim sharlarining me‘yorli ishlashi uchun zarur bo‘lgan kuch-quvvatni tiklaydi. Chuqur va yaxshi, uzoq davom etadigan uyqu nerv tizimining, organizm charchashining oldini oluvchi asosiy vositadir. Agar bola yomon uxlasa, uyquga to‘ymasa nerv tizimining buzilganidan dalolat beradi. Nerv tizimi qo‘zg‘aluvchan bolalar aksariyat yomon uxlashadi. Bunday bolalarning uyqu tormozlanishi chuqur me‘yorli uyquni ta‘minlay olmaydi. Bunday bolalar arzimagan sharpadan ham uyg‘onib ketaveradi. Bola qanchalik yomon uxlasa, uning axloq me‘yori, o‘zaro munosabati, muomalasi shuncha yomonlashadi, bunday holni biz injiqlik deb tushunamiz. Yaxshi uyqu bolaning sog‘lomligidan darak beradi.

Bola yaxshi uxlashining asosiy sharti uning yoshiga mos bo‘lgan sutkalik rejimni hayotining birinchi kundan boshlab to‘g‘ri tashkil etishidir. Bola tez va yaxshi uxlashi uchun kerakli shart-sharoit yaratish, uyg‘oqlik vaqtida faollashtiruvchi har xil harakatlarni tashkil etish kerak. Bolalar yaxshi uxlashlari

uchun ularni kuchli qo'zg'atadigan aqliy va jismoniy ish qildirmaslik kerak. Bolalarda uyqudan oldin salbiy hislarni uyg'otmaslik kerak, bunday muomala natijasida bolaning miya yarim sharlarida yuqori qo'zg'olish uchog'i hosil bo'ladi. Uyqudan oldin kattalarning bola bilan muomalasi nihoyatda tinch, samimiy, bolalarni uyquga tayyorlovchi bo'lishi lozim. Bolalarni uyquga tayyorlash ularda mustaqillikni tarbiyalash bilan bog'liq holda olib boriladi. Bir yoshning oxiriga kelib, bolalar o'z oyoq kiyimini, paypog'ini mustaqil yechishga o'rgatilishi mumkin. Uch yoshga kelib mustaqil yechinishga, kiyimni chiroyli taxlab qo'yishga, o'z karavoti oldiga borib, unga chiqib olishga o'rgatiladi. Avvaliga buy uyquga tayyorgarlik bo'lgan bo'lsa, keyinchalik borib bu hamma narsa bolalarda uyquni keltiruvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar bo'lmasa bolaning uxlashi qiyin kechadi.

Agar bola yaxshi uxlasa tetik, quvnoq bo'lib uyg'onadi va hafsala bilan kiyina boshlaydi. Bolani bevaqt uyg'otish uning nerv tizimi va xulqiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarni birdaniga uyg'otish juda zararli, chunki ko'pchilik bolalar uyquga to'yamaydi. Bolarni har doim bir vaqtda uyg'otilsa, ularning miyasida ko'nikish paydo bo'ladi. Buning natijasida sekin "turinglar" degan tovushdan hatto eng qattiq uxlab yotgan bolalar ham uyg'onib ketishadi. Uyg'otilmasa, uyg'ongan bolalar kiyinguncha 30-45 daqiqa ichida hamma bolalar uyqusi pishib o'zlari sekin-asta uyg'onishadi.

**Kiyinish** ham gigiyenik omil sifatida bolaning jismoniy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Kiyim-bosh har doim bolani o'rab turgan havo temperaturasiga mos kelishi kerak. U yengil materialdan tayyorlanib, havoni, issiqlikni yaxshi o'tkazadigan bo'lishi, oson yuviladigan, yaxshi ho'llanadigan, namni shimadigan, elastik va badanni bezovta qilmaydigan bo'lishi lozim.

Yozgi kiyim rangi ochiq, asosan, oq gazlamadan, qishki kiyim to'q rangli materialdan tiqilishi lozim. Bolalarning kiyimi ularning yoshiga yarasha, yengil, qulay, qismaydigan, estetik didiga javob beradigan arzon materialdan tiqilishi

kerak. Bolalarning oyoq kiyimi ham qulay, poshnasi 1-1,5 sm bo'lishi kerak. Vaqti-vaqti bilan bolalarga qishda binoning ichida, yozda maydonchada yalang oyoq yurishga ruxsat berish kerak. Notekis joyda yalangoyoq yurish ovon yassiligini yo'qotadi, bola organizmini chiniqtiradi.

**Bolalarning ovqatlanishi** (nonushta, tushki ovqat, kech tushki ovqat va kechki ovqat) osoyishta vaziyatda o'tishi kerak. Bola stol atrofiga yaxshi ishtaha bilan o'tirsa, uning organizmida ovqatning yaxshi hazm bo'lishiga yordam beruvchi shart-sharoit hosil qiladi. Yaxshi ishtaha bolalarda mustaqillikni, madaniy-gigiyenik malakalarni, stol atrofida o'zini to'g'ri tutib o'tirish malakalarini tarbiyalashga yordam beradi. Eng muhimi – bolalarning yoshligidan boshlab ularda yaxshi ishtaha bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni ilk yoshidan boshlab ovqatni mustaqil yeyishga o'rgatish ularda ovqatni ishtaha bilan yeyishga, ovqatga ijobiy munosabatni uyg'otishga yordam beradi. Ikkinchi yoshning boshidan qoshiqqa o'rgatish, to'rtinchi yoshdan sanchqidan, beshinchi yoshda pichoqdan foydalanish malakalarini tarbiyalab borish zarur. Bundan tashqari bolalarda ovqat yeyishdan oldin qo'lini yuvish, tartibli yeb-ichish, chapillatmay, tovushsiz chaynash va ichish, salfetkadan foydalanish, to'g'ri o'tirish, ovqat uchun tashakkur bildirish, ovqatdan keyin og'izni chayqash kabi maishiy-gigiyenik malakalar ham tarbiyalab boriladi. Mazkur jarayonda kattalarning namunasi, tushuntirish, o'rgatish, nazorat kabi tarbiya metodlarining ahamiyati katta.

Jismoniy tarbiyaning muhim sharti kun tartibi sanaladi.

**Kun tartibi** turli faoliyat hamda dam olishning vaqt jihatdan maqsadga muvofiq taqsimlanishi, hayot tartibidir.

Kun tartibini tashkil etuvchi barcha qismlar (ovqatlanish, uyqu, o'yin, sayr, mashg'ulotlar)ni bir me'yorda takrorlash natijasida bolalarda faoliyatning bir turidan ikkinchi turiga o'tishni yengillashtiruvchi mustahkam ko'nikma hosil bo'ladi. Aynan kun tartibiga rioya etish bolaning asab faoliyati tizimi va barcha fiziologik jarayonlarning kechishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Kun tartibiga qo'yiladigan asosiy talab bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olishdir. Kichik guruhlarda uyqu, ovqatlanish, yechinish, yuvinish va b.ga ko'p vaqt ajratiladi. Katta bo'lgan sari bolalarning mustaqilligi ortib, o'yin va faoliyatning boshqa turlariga ko'proq e'tibor beriladi. Kun tartibi, ham gigiyenik, ham tarbiyaviy funksiyani bajaradi.

Kun tartibini tuzish va uni tashkil etishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish zarur:

- kun tartibini tuzishda yil fasllari (yozda bolalarning ko'proq ochiq havoda bo'lishi, ertalab ertaroq uyg'otilib, kechqurun uxlashga kechroq yotqizilishi va b.)ni e'tiborga olinishi;
- kun tartibini bajarishda bolalarning salomatligi, ularning ruhiy rivojlanish darajasi (zaif, kasal bolalarning uxlash, ochiq havoda bo'lish, vaqtining ko'paytirilishi, ta'lim-tarbiya mazmuniga o'zgartirish kiritilishi)ni hisobga olinishi;
- kun tartibining o'zgarmasligi (bolalar vaqtida ovqatlanishlari, shug'ullanishlari, o'ynashlari, uxlashlari)ga alohida e'tibor qaratish (bu bolalarni tartiblilik, intizomlilikka o'rgatadi);
- kun tartibini tuzishda ota-onalarning ish vaqtining boshlanishi va tugashi ham hisobga olinishi (ayrim ota-onalar ish vaqtining bir oz kech tugashini hisobga olgan holda, individuallashtirilgan va tabaqalashtirilgan kun tartiblari ishlab chiqiladi).

**Jismoniy mashqlar** – jismoniy tarbiya qonuniyatlari, vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi. Jismoniy mashqlarga tasnif etishga doir xilma-xil yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'proq umumlashgan tasnif o'zida gimnastika, o'yin, sayr kabilarni qamrab oladi.

Pedagogik nuqtai nazardan **gimnastika** sog'liqni mustahkamlashga yordam beradigan jismoniy mashqlar majmuidir. Gimnastikaning **asosiy, gigiyenik, sportga oid, badiiy, ishlab chiqarishga doir, tibbiy turlari** mavjud.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv dasturlari bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilar asosiy gimnastika (narsa buyumlar va narsa buyumlarsiz bajariladigan umumiy rivojlanishga doir mashqlar, sarash, yugurish, elementar akrobatik mashqlar) bilan shug'ullanishlari lozim.

**O'yin** – tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash maqsadida tashkil etiladigan erkin harakat yoki mashg'ulot. O'z mohiyatiga ko'ra o'yin bolaning jismoniy kuchini, qo'llarining qattiqligini, qaddi-qomatining tikligini, ishonchli ko'zlarni rivojlantirishga xizmat qilib, unda o'tkir zehn, topqirlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yinning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'lib, bolalarda g'amxo'rlik, o'z jamoasi uchun qayg'urish, birgalikdagi harakatlanishdan quvonish, do'stlik va o'rtoqlik hissini kuchaytiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosan ochiq havoda tashkil etiluvchi harakatlantiruvchi o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim yoshida keng qo'llashni talab etadigan jismoniy mashqlardan yana biri sayrdir.

**Sayr** – osuda yerlarda, oromgoh, sayrgohlarda aylanib yurish, tomosha qilish, orom olish sanaladi.

Odatda sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin. Sayr bolalarning uzoq vaqt ochiq havoda bo'lib, ularning sog'ligi va jismoniy taraqqiyotiga har tomonlama ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning sayr vaqtida ochiq havoda bo'lishi natijasida qon kislorodga to'yadi, temperaturaning o'zgarib turishi, havoning namligi, shamol ta'siri termoregulyatsion apparatni mashq qildiradi, organizmni chiniqtiradi. Bolaning faolligi oshadi, harakatlari, jismoniy sifatlari takomillashadi.

Sayrni tashkil etish va o'tkazishda quyidagi pedagogik talablarga rioya etish maqsadga muvofiq:

➤ sayrga yig'ilish ko'p vaqtni olmasligi, bolalarni bir tartibda kiyinish va yechinishga o'rgatish kerak;

- sayr shunchaki tashkil etilmay, uning rejasiga atrof-muhitni kuzatish, sport mashg'ulotlari, mehnat va o'yin faoliyati qamrab olinishi lozim;
- sayrni tashkil etish uchun zarur jihozlar avvaldan tayyorlab qo'yilib, belgilangan talablarga javob berishi kerak;
- sayrning davomiyligi uch-to'rt soatdan oshmasdan, havo harorati hisobga olinishi zarur;
- sayrning davomiyligigagina emas, uning mazmunli tashkil etilishi, bolaga hissiy, jismoniy madad beri olishiga e'tibor qaratish lozim.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM YOSHIDAGI  
BOLALAR JISMONIY  
RIVOJLANISHINING  
O'ZIGA XOSLIKLARI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlash mazkur jarayonga tabaqalashtirilgan yondashuvni tatbiq etishni taqozo etadi. Ana shu sababli tarbiyachi maktabgacha yosh davrlari bilan bog'liqlikda jismoniy rivojlanishdagi o'ziga xosliklarni to'liq o'zlashtirib olishi lozim.

**Ilk yosh tarbiyalanuvchilari (1-2 yoshli bola)** jismoniy tarbiyasining asosiy maqsadi bolaning sog'ligini mustahkamlash, ularning tana a'zolarini chiniqtirish, ularda asosiy harakat turlarini rivojlantirish, bolalarni tetik tutuvchi, toliqishlarining oldini oluvchi harakatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish hamda barmoqlarining mayda muskullarini, yurish va harakat qilishning ayrim ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Ilk yoshli bolalarning jismoniy rivojlanishida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish zarur:

- kerakli masofaga, o'rindiqlik va halqaning tagiga emaklash, bir metr uzunlikdagi zinaga kattalarning yordamida chiqish va undan tushish;
- tayanchsiz to'g'ri yo'nalishda yerda yotgan taxtacha ustidan, yo'lkachadan, qiya (o'n-o'n besh sm yuqoriga ko'tarilgan) taxtachadan yurish, o'n sm balandlikdagi sath ustiga chiqish va undan tushish; pol, yerdagi yoki besh-o'n sm balandlikda joylashgan arqon, xoda yoki taxtacha ustidan o'ta olish;

- to‘g‘ri yo‘nalishda yugurish;
- uncha katta bo‘lmagan tepalikdan koptokni dumalatish, uni oldinga, yuqoriga irg‘itish. Qalamni yoki mo‘y qalamni ushlab turish, ular bilan (aji-buji) chiziqlar chizish;
- uch va undan ortiq qismlardan iborat minoralar qurish, qopcha va qutichaga mayda predmet va o‘yinchoqlarni solish va ularning ichidan olish.
- o‘z-o‘ziga xizmat qilish, qo‘llarini yuvish, cho‘milishga ijobiy munosabatda bo‘lish, piyoladan choy ichish, mustaqil yuz-qo‘llarini yuvish va artish.

**Ilk yosh guruh (2-3 yoshli bolalar)** tarbiyalanuvchilari bilan jismoniy tarbiya bo‘yicha bajariladigan ishni to‘g‘ri rejalashtirish va o‘tkazish uni samarali hal etishda nihoyatda muhimdir. Kun davomida turli xildagi mashg‘ulotlarni jismoniy mashq va harakatli o‘yinlar bilan qo‘shib olib borilishi, bolaning to‘g‘ri harakatini ta‘minlashga yordam beradi. Mashg‘ulotlar to‘g‘ri tashkil etilsa, qiziqarli, ibratli jihatlari oshirilsa, bolalar o‘z vaqtida dam olishlariga e‘tibor berilsagina jismoniy mashqlarning samaradorligi ortadi. Mashg‘ulotda eng muhimi mashq va o‘yinlarning to‘g‘ri taqsimlanishidir. Bunda mashg‘u-lotning asosiy vazifasini ajrata olish lozim, uning mazmuni ko‘zda tutgan maqsadni hisobga olib, bola tanasining ma‘lum qismlariga har tomonlama ta‘sir o‘tkazish zarur. Shu jumladan, mashg‘ulotlar unumdorligini oshirish maqsadida turli mashqlarni bir-biri bilan bog‘lash ham muhimdir.

Mashg‘ulotni rejalashtirishda harakat tartibini va takroriylikini, vazifani to‘g‘ri taqsimlash va bolalarni uyushtirishning eng aniq va oqilona usullari ko‘zda tutiladi. Bunga, avvalo, yetarli harakat faolligi va mashg‘ulotlarning zichligini ta‘minlash orqali erishish kerak. Mashg‘ulotlarni rejalashtirishda guruhning sharoiti, mashg‘ulotlar uchun zarur bo‘lgan jihozlarning mavjudligi hisobga olinadi. Ochiq havodagi mashg‘ulotlar mazmuni yil fasllariga, ob-havoga muvofiq ravishda tanlanadi. Mashg‘ulotni rejalashtirish va o‘tkazish usullari turlicha bo‘lib, ular asosiy harakat va o‘yin mashqlari, bir qolipdagi

mashg'ulotlardan tortib turli xildagi, ya'ni harakatli o'yinlar, xalq o'yinlari, estafetalar, ochiq havoda o'tkaziladigan mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi.

Ertalabki badantarbiya, sayrdagi jismoniy mashq va o'yinlarni mashg'ulotlarning o'quv materialiga muvofiqlashtirish muhim. Kunning turli paytida bolalarning harakat faolligini hisobga olish, shunga ko'ra, harakat ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun harakat sifatlarini o'stiradigan mashqlarning turli usullari tavsiya etiladi. Bolalarning mustaqil faoliyati tarbiyachining bevosita rahbarligida o'tadi. U har bir bolaning o'yin va mashqlarni erkin tanlashiga harakat qiladi.

**Kichik guruh (3-4 yoshli)** tarbiyalanuvchilarni jismoniy rivojlantirishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- bola harakatlarining shakllanishiga yordam berish, gavdasini tik tutishga o'rgatish;
- bolalarni mustaqil o'ynayotgan paytlaridagi harakatlari faolligining barqarorlashuviga yordam berish;
- tarbiyachi tomonidan ko'rsatilayotgan turli harakatlarga bolaning tushunib borishiga va birgalikda harakat qilishga undash;
- bolalarni turgan joyda sakrashga ikki oyoqni juftlab sakrashga va yengil tushishga, emaklashga, tirmashib chiqishga to'p bilan harakat qilishga, dumalatish, uloqtirishga o'rgatish;
- bolalarda ertalabki badantarbiyaga nisbatan qiziqish, ijobiy munosabatlarni uyg'otish o'yinlarda ishtirok etishga o'rgatish.

Kichik yosh guruhi tarbiyalanuvchilarini asosiy harakatlarga tizimli odatlantirib borish lozim. Jumladan:

- to'p-to'p bo'lib yurish, yo'nalishni o'zgartirib yurish, doira bo'ylab juft-juft bo'lib qo'l ushlab yurish, yurishdan yugurishga o'tishga, yon tomonga yurish, ketma-ket yurishga o'rgatish;

- tarbiyachining orqasidan yugurish, dumalatib yuborilgan buyumni quvib yetish, ikki chiziq orasidan chiqmay yugurish, 20-40 metr masofaga o'rtacha tezlikda, 70-80 metrga asta sekin yugurishga o'rgatish;
- ikki oyoqni juftlab turgan joyda sakrash, balandlikka sakrash hamda 20-30 sm masofaga hatlashga, 10-15 sm balandlikdagi predmetdan sakrashga o'rgatish;
- to'pni bir-biriga qaratib dumalatish, to'pni ikki qo'llab oldinga pastdan, ko'krak oldidan, boshidan oshirib otish, 50-100 sm oraliqdagi to'pni ilib olishga harakat qilish, shuningdek, to'p yoki qum xaltachasini 1 m masofaga bir qo'llab o'ng yoki chap qo'l bilan irg'itish;
- 3-4 m masofaga emaklash 30-40 sm to'siq tagidan o'tish, arqonli narvoncha, tik devorchadan bola uchun qulay bo'lgan usulda yuqoriga tirmashib chiqishga o'rgatish;
- to'g'ri yo'lak bo'ylab yurish, eni 20 sm, uzunligi 2-3 m, ilon izi yo'lakchadan, doira bo'ylab tashlab qo'yilgan arqonchadan qiya taxtachadan yurish yoki emaklash, xalqadan – xalqaga, doiradan-doiraga o'tishga, shuningdek, 10-15 sm balandlikdagi to'siqlardan hatlab o'tishga, balandlikda qo'llarni yonga qilib turishga, aylanishga, oyoq uchida ko'tarilishga o'rgatish.

O'rta guruh (4-5 yosh) bolalarning jismoniy rivojlanishini ta'minlashda bolalarni jismoniy harakat turlari bilan tanishtirish, ularni faol bo'lishga undash hamda turli o'yin va mashqlarga qiziqish uyg'otish nazarda tutiladi.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish zarur:

- mashg'ulot vaqtida bolalarni qo'l va oyoq harakatlarini mashqqa muvofiq ravishda oyoqni sudramay, boshni egmay yengil yurishga odatlantirish;
- narvonga tirmashib chiqish, to'pni panjalar yordamida ushlab olish shuningdek, turli usullar yordamida to'p uloqtirishda boshlang'ich holatni to'g'ri egallash, velosiped uchish malakasini tarkib toptirish:

➤ turli tartibda saflanib yura olish, fazoda chamalashni o'rgatish hamda muvozanat saqlashga o'rgatib borish.

Jismoniy tarbiyaga doir vazifalarni hal etish orqali tarbiyalanuvchilarda quyidagi malaka va odatlar tarkib toptiriladi:

➤ badantarbiya vaqtida yurish, yugurish, sakrash qo'l-oyoq mashqlarini faol egallashga, gavda holatini tikka tutishga erishish;

➤ jismoniy sifatlarni rivojlantirish;

➤ o'yinlarni bolalarning o'zlari mustaqil ravishda tashkil etishlariga imkoniyat yaratish;

➤ bolalarda velosiped, chanada uchish, to'p, halqa va boshqa narsalar yordamida bajariladigan harakat malakalarini takomil-lashtirish;

➤ jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida birgalikda dam olish daqiqalaridagi o'yinlarga erkin qo'shilishlariga odatlantirish;

➤ oyoq uchida tizzalarni baland ko'tarib yurish, tovonda, oyoq kaftlarining yon tomoni bilan yurish, turli buyumlar oralab yon tomonga yurish; harakat tezligi va yo'nalishlarini o'zgartirib safda yurish;

➤ oyoq uchida, tizzalarini baland ko'tarib katta qadamlar bilan yugurish, safda juft bo'lib turli yo'nalishda doira bo'lib, qo'lini ushlab, ilon izi bo'lib, yugurish hamda yugurishni yurish bilan almashtirish, to'xtovsiz 1,5 daqiqagacha yugurishga, 30 metrga tez, 40-60 metrgacha o'rtacha tezlikda yugurishga, 200-240 metr masofaga sekin tezlikda yugurishga o'rgatish;

➤ turgan joyida ikki oyoqlab aylanib sakrash, qo'llarni yuqoriga ko'tarib sakrash, oldinga qarab yurish vaqtida sakrash, bir oyoqlab turgan joyida va yurgan holda sakrash; to'siqlardan sakrab o'tish, 70 sm uzunlikka 20-30 sm balandlikdan sakrab o'tish, arqon bilan sakrashga urinish, dumalatish, uloqtirish, ilib olish; aylana orasidan to'pni dumalatish, koptokni yuqoriga otib va yerga urib ilib olish;

➤ kamida 10 m masofani emaklab o'tish, turli balandlikdagi buyumlar ostidan emaklab o'tish; gimnastika kursisida qo'llarga tayangan holda, qorin bilan

sudralish; to'rt oyoqlab yurish, gimnastika devoriga o'ngdan chapga o'tib tirmashib chiqish; 20-30 sm balandlikda tortilgan arqon tagidan, xalqa orasidan emaklab o'tish;

➤ to'pni bir-biriga irg'itib, devorga yerga urib ilib olishga, navbatma-navbat o'ng va chap qo'l bilan to'pni urishga, og'irligi 0,5 kg bo'lgan oddiy va havo to'plarini yerda dumalatib, uloqtirishga o'rgatish;

➤ uch g'ildirakli velosipedda o'ngga va chapga burilib, doira bo'ylab, yerga qo'yilgan buyumlarni chetlab o'tib haydash va buyruq bo'yicha to'xtashga o'rgatish;

➤ chiziq bo'ylab muvozanat saqlab yurish, biror narsani kaftga, bosh ustida qo'ygan holda yurish, gimnastika o'rindiqsida bir-biri bilan almashib o'tish, taxta ustida oyoq uchida yurish, yugurib kelgandan so'ng o'rindig'ida muvozanat saqlab turish, bir oyoqni bukib, ikkinchisida turish hamda ikkala tomonga aylanish, qo'llar belda, yon tomonlarda ko'zni yumib yurish va boshqalar.

**Katta guruh (5-6 yosh)** tarbiyalanuvchilari bilan tarbiyachi jismoniy tarbiya faoliyatiga oid turli usullarni bolalar bilan birgalikda ularning hohishlarini hisobga olgan holda tanlashi maqsadga muvofiqdir. Ularni jismoniy tarbiya bo'yicha mashqlarni ongli ravishda tushunib, aniq va to'g'ri bajarishga, harakatli o'yinlarning qoidalariga rioya etishga, yengil yurish va yugurish, yurish vaqtida tayanchga kuchliroq tayanib itarilib chopish, oyoqni balandroq ko'tarish, qadam oralig'ini oshirish uchun sekin, o'rtacha tezlikda, tez yugurishga, yugurish vaqtida turli to'siqlardan sakrab o'tishga o'rgatib boriladi

Mazkur yosh guruhi tarbiyalanuvchilarida quyidagi jismoniy ko'nikma va malakalar tarkib toptirilishi lozim:

1) yugurib kelib balandlik va uzunlikka sakrash, sakrashning turiga qarab yerga tushish, tushayotgan vaqtda o'zini yig'ishtirib olish ko'nikmalarini shakllantirish, bir qo'l bilan koptokni otish va ilib olishga, biror buyumni qulochkashlab otishni, irg'itib tashlash bilan birga qo'shib olib borishga, tirmashib chiqish va tushishning turli xil usullarini o'rgatish, bolani o'z

harakatini bajarishga, tahlil qilishga, o'zga bolalar xatti-harakati bilan qiyoslashga, qomatni to'g'ri tutishga, muskullarni mustahkamlashga yordam beruvchi mashqlarni bajara olish;

2) velosipedda uchish, suzishga oid turli usullar, har xil sport o'yinlarining qonun-qoidalarini, kurash tushishning ayrim usullari, qoidalarini o'rganish;

3) jismoniy sifatlarni o'stirish, muvozanat saqlash, harakatni boshqarish hamda fazoda mo'ljalga olib bilish;

4) turli usullarda yarim o'tirgan holda tovonda barmoq uchlari bilan qadam tashlab turli tomonga oyoqni yonlama qilib, qarsak chalib yurish, oyoq uchida, qo'llarni bosh orqasiga qo'yib yurish; ko'zni yumgan holda 3-4 metr masofani o'tish, oyoqlarni chalishtirib yurish; harakatlarni bajarib yurish;

5) oyoq uchida kichik va katta qadam tashlab to'siqlarni oshib yoki aylanib o'tish, yugurish vaqtida turli buyumlar orasida ilon izi bo'lib yugurish (yugurish 1,5-2 daqiqa davom etadi) hamda 60-100 metrga o'rta tezlikda yugurish;

6) turgan joyda oyoqni juftlab sakrash, oyoqni chalishtirib to'g'irlab, galma-galdan o'ng yoki chap oyoqdan sakrash, oyoqni juftlab yonlamasiga pastroq to'siq ustidan sakrab o'tish: goh o'ng oyoqda, goh chap oyoqda sakrash, 80 sm uzunlikka sakrash yugurib kelib balandlikka uzunlikka sakrash, qimirlab turgan va qimirlamay turgan arg'imchoq ustidan sakrash.

**Tayyorlov guruhi (6-7 yosh)** tarbiyalanuvchilarini jismoniy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

➤ jismoniy mashqlar va o'yinlar yo'li bilan harakatlarni takomillashtirish jarayonida jismoniy sifatlarni o'stirish hamda kundalik harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish;

➤ yugurishning mustaqil mashq qilish, unchalik murakkab bo'lmagan o'yin va musobaqalar uyushtirish;

➤ mashqlar va o'yinlarni tanlashda mashg'ulotlar uchun joylarni tayyorlashda va jihozlarni saqlashni ta'minlashda tashabbus ko'rsatish;



- mashg'ulotlar vaqtida barcha harakatlantiruvchi mashq-larning tabiiy holda, yengillik bilan va to'g'ri bajarilishiga erishish hamda yurishning har xil turlaridan sharoitga qarab foydalanishga o'rgatish;
- bolalarga predmetlarni uzoqqa va nishonga irg'itishda barmoqlarni oxirgi marta kuchli harakatlantirib otishga o'rgatish hamda turli usullar bilan gimnastika narvonchasiga, arqonli narvonchaga tirmashib chiqishni mashq qildirish;
- jismoniy sifatlar – tezkorlik, chaqqonlikni o'stirish;
- mashqlarni bajarish paytida chidamlilik va kuch ko'rsatishga imkon berish;
- muvozanat saqlashni his etishni, harakatlarni boshqarish va bo'shliqda chamalashni takomillashtirish;
- ertalabki badantarbiya mashqini muntazam ravishda bajarish ishtiyoqini shakllantirish, uni o'tkazayotganda uyushqoqlikka, mashqlar kompleksini mustaqil bajarish ko'nikmasiga erishish;
- kuchli aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlarda charchashning oldini olish va ishlash qobiliyatini saqlash maqsadida bolalarni yengil jismoniy mashqlarni bajarishga odatlantirish;
- mustaqil faoliyat jarayonida harakatlarning turli xillarini muntazam mashq qilish odatini shakllantirish. Turli xil jismoniy mashqlarni va sport o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda yoki ochiq havodagi o'yinlari elementlarini mustaqil bajarayotgan paytda o'yin estafetalarida va yengil musobaqalarida borgan sari yuqoriroq natijalarga erishishga intilishlarini rag'batlantirish.

**YOSH GURUHLARIDA  
SHAXSIY GIGIYENA VA  
O'Z-O'ZIGA XIZMAT  
MALAKALARINI  
SHAKLLANTIRISH**

Maktabgacha ta'lim Davlat o'quv dasturiga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarda gigiyena va o'z-o'ziga xizmat malakalarini shakllantirish lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim – tarbiyani bolalarni yosh guruhlariga ajratgan holda olib borish samarali natija

berar ekan, bolalarda gigiyena va o‘z –o‘ziga xizmat malakalarini ham bolaning yosh xususiyatidan kelib chiqib tashkil etiladi.

**Ilk yosh guruh:** kattalar ko‘magida suvni sachratmasdan yuvinishga odatlantirib borish, og‘zini chayqashga o‘rgatish, shaxsiy dastro‘molchani o‘z vaqtida qo‘llashga o‘rgatiladi. Bolalarda ovqatni tartibli yeyish malakalarini(nonni uvoq qilmaslik, ovqatni to‘kmaslik, og‘izni yumib chaynash, qoshiqni o‘ng qo‘lda ushlab foydalanishlikni) tarbiyalash. Kiyimlarni mustaqil ravishda yechinib, kiyinish malakalarini tarbiyalash. Kattalar ko‘magida kiyimlarni o‘z javonlariga tartibli joylashtirishga o‘rgatish. Xonada tartiblilik va ozodalikni saqlashga odatlantirish.

**Kichik guruh:** tungi va kunduzgi uyqudan so‘ng, suvni sachratmasdan yuvinish, sovundan to‘g‘ri foydalanish malaka va ko‘nikmalarini hosil qilish. Shaxsiy dastro‘molchani o‘z o‘rnida qo‘llashga o‘rgatish. Ovqatlanish jarayonida qoshiqni o‘ng qo‘lda ushlab, to‘kmasdan, shoshmasdan, og‘zini yumib chaynashga o‘rgatib borish, shuningdek, kiyimlarni mustaqil ravishda kiyinib, yechinish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**O‘rta guruh:** uyqudan so‘ng va zarur bo‘lgan hollarda suvni sachratmasdan, isrof qilmasdan, sovundan to‘g‘ri foydalanib, toza yuvinishga o‘rgatib borish. Sochiq bilan quruq artinishga odatlantirish. Oyoq va qo‘l uchun qo‘llaniladigan sochiqlarni farqlay bilish. Kattalarga yuvinmasdan salom berish hurmatsizlik ekanligini singdirish. Kiyimlarni tez va to‘g‘ri kiyinib, yechinish malakalarini rivojlantirish. Ularni maxsus ajratilgan joyga tartib bilan joylashtirishga o‘rgatish. Kiyim-boshlaridagi kamchiliklarni sezishga hamda tartibga keltirishga odatlantirish. O‘rtoqlardagi kamchilikni sezgan holda, sekin - asta ogohlantirish malakalarini rivojlantirish. Zarur holda sochni to‘g‘ri turmaklab olishga odatlantirish.

**Katta guruh:** tez va toza yuvinish, tishni o‘z vaqtida kunda ikki marotaba ertalab uyqudan so‘ng va tunda uyqudan oldin shaxsiy tish tozalagichlar yordamida yuvish, zarur hollarda og‘izni chayqashga o‘rgatish. Hojatdan so‘ng

qo'lni yuvishga odatlantirish. Sovun, suvni isrof qilmasdan tejab foydalanishga o'rgatish.

Kattalarga yuvuqsiz salom berish ularga nisbatan odobsizlik ekanligini anglatish, "savob", "gunoh"ni farqlay bilishga o'rgatish.

Ovqatlanish jarayonida "Bismillohir rahmonir rahim" deb, qoshiqni o'ng qo'lda ushlab, tartibli ovqatlanishga o'rgatish, nonni uvol qilmaslikka odatlantirib borish. Ovqatlangandan so'ng minnatdorchilik bildirib, bo'sh idishlarni yuvishga olib borib qo'yishga odatlantirish.

**Tayyorlov guruh:** yuvinish, ovqatlanish, kiyinish kabi ko'nikma va malakalarni rivojlantira borib, odatga aylantirish. Ertalab ota – ona, kattalar va tengqurlar bilan yuvinib bo'lgach salomlashish kerakligini ongli ravishda idrok etishga o'rgatish. Kundalik zaruriy holatlarda (hojat, yuvinish, kiyinib-echinish) o'g'il va qiz bolalarga alohida yondashish. Bolalarda "uyat", "ibo" kabi xislatlarni tarbiyalab borish. Sochga oroyish berish, tirmoqlarni ko'zdan kechirishga o'rgatish. Kiyimlarni o'z o'rnida kiyishga, asrashga odatlantirish. Kiyimlardan foydalanish tartiblariga qarab o'z o'rnida qo'llashga o'rgatib borish (MTTda, mehmonda, kundalik faoliyatlarda), sabab – oqibat bog'lanishlarni mustaqil seza olishga va uni oldini olishga tarbiyalash. Oilaning umumiy iqtisodiy taqsimotidan kelib chiqib, o'ziga bog'liq narsalarni tejab foydalanishga o'rgatish. Sabr-qanoat qilishning oddiy ko'rinishlarini singdirib borish.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya – tarbiyalanuvchilarning jismoniy va sportga oid faoliyatlarini maqsadga yo'naltirilgan, aniq tashkil etiladigan va rejali tarzda amalga oshirish tizimi bo'lib, MTTda ushbu tizim doirasida turkum tadbirlarning amalga oshirilishi bolalarning jismonan va ruhan baquvvat bo'lib o'sishlariga yoram beradi. Maktabgacha ta'lim davrida bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashning asosiy maqsadi bolalardagi turli ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ulardagi kuchlilik, tetiklik, chaqqonlikni amalga oshirish, ziyraklik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishdan iboratdir. Muntazam ravishda o'tkaziladigan jismoniy mashg'ulotlar bolalarning o'sish va rivojlanish

jarayoniga ijobiy ta'sir qilib, ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. MTTda tarbiyalanuvchilarni jismoniy tarbiyalashda sog'lomlashtiruvchi, tarbiyaviy va ta'limiy kabi birinchi darajali vazifalar ijobiy hal etiladi. Talabalar maktabgacha ta'lim tashkilotida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etish yo'llari, shakllari, metodlari, vositalari, omillari hamda gigeniye talablaridan yetarlia xabardor bo'lishlari zarur.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Davlat o'quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashda nimalarga asosiy e'tibor qaratilgan?
4. Jismoniy tarbiyani samarali tashkil etishga ta'sir etuvchi tabiiy omillarga nimalar kiradi?
6. Bola organizmini chiniqtirishda maktabgacha ta'lim yosh guruhi bilan bog'liqlikda qanday o'ziga xosliklarni hisobga olish lozim?
7. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kun tartibini tuzishda qanday talablarga rioya qilish lozim?
9. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy harakatlarni ta'minlovchi qanday o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti jismoniy tarbiya yo'riqchisining ish hujjatlarini va faoliyatini tahlil qiling.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH

*Ekologik bilim – bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o‘zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning holati, ularning bir-birlari va atrof-muhit o‘rtasida bo‘lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo‘llarini o‘zlashtirishdan iboratdir.*

*Umida Umurzakova*



### REJA:

1. Ekologiya va ekologik tarbiya haqida tushuncha.
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik tarbiya maqsadi va vazifalari.
3. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o‘ziga xosliklari.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari.

*Tayanch tushunchalar: tabiat, atrof-muhit, ekologiya, ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik mas’uliyat, ekologik faoliyat, ekologik madaniyat, “Uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasi”.*

### EKOLOGIYA VA EKOLOGIK TARBIYA HAQIDA TUSHUNCHA

Lug‘aviy jihatdan **ekologiya** (yunon. “oikos” – yashash, uy, makon, “logos” – ta’limot) – organizmlarning yashash joyi, makoni ma’nosini anglatadi.

Ekologiya fani tirik organizmlarning ma’lum bir

muhitda yashash qonuniyatlarini, ya'ni organizmlarning o'zaro va ularni o'rab turgan atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan hayot tarzini o'rganadi. Mazmunan "ekologiya" tushunchasi tirik mavjudotlar, shu jumladan, odamning yashash sharoiti va tashqi muhit bilan o'zaro munosabatini anglatadi.

Keyingi davrda pedagogika nazariyasi va amaliyotiga "ekologik ta'lim", "ekologik tarbiya", "ekologik ong", "ekologik faoliyat", "ekologik mas'uliyat", "ekologik e'tiqod", "ekologik ma'rifat", "ekologik madaniyat" va boshqa bir qator atamalar va ular bilan bog'liq tushunchalar kirib keldi.

**Ekologik ta'lim** ekologik ma'rifatning asosiy jihati bo'lib, o'qitish va o'qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan-avlodga o'tkazilishidir. Ekologik ta'lim orqali shaxsda ekologik bilim, ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

**Ekologik tarbiya** – shaxsda maqsadga muvofiq axloqiy-ekologik fazilatlarni tarkib toptirishga qaratilgan pedagogik faoliyat va jarayon.

**Ekologik ong** – shaxsning amaliy ekologik faoliyati va hatti-harakatini tartibga solib turadigan ruhiyatning oliy shakli.

**Ekologik faoliyat** – esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

Ekologik dunyoqarashning ajralmas bir qismi bo'lmish "**ekologik mas'uliyat**" deganda insonning atrof-muhitga mas'uliyatli munosabati tushuniladi. Bunday munosabat insoniyatning, xususan, ayrim odamlarning bilib-bilmay, uzoqni o'ylamay tabiatga ko'rsatgan salbiy ta'siri oqibatlarini anglash va bunday ta'sirni bartaraf etish istagi natijasidagina shakllanadi.

**Ekologik madaniyat** – shaxs yoki jamiyatning mavjud tabiatning tabiiy, atrof-muhitning esa sanitariya holatini muhofaza qilish yo'lida mavjud axloqiy-ekologik me'yor, talablarga muvofiq faoliyat ko'rsatishi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munosabat darajasini belgilash uchun qo'llaniladi.

Mustaqillik yillarida respublikada “Uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasi” yaratildi. Mazkur konsepsiyaga ko’ra, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim-tarbiyaning eng oddiy, sodda asoslari o’rgatiladi. Samarali tashkil etilgan ekologik ta’lim-tarbiya natijasida tarbiyalanuvchilar atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo’lish, tabiatni asrash, o’simliklar va hayvonlar haqida g’amxo’rlik qilish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, turar-joy va bog’chaning ozoda bo’lishi uchun mas’uliyatli bo’lishni bosqichma-bosqich o’zlashtirib boradi.

**MAKTABGACHA  
TA’LIM  
TASHKILOTIDA  
EKOLOGIK  
TARBIYA MAQSADI  
VA VAZIFALARI**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang’ich ta’lim-tarbiya berishning maqsadi ularni tabiatni sevadigan, asrab-avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi, milliy g’urur egasi, barkamol sog’lom avlod etib tarbiyalashdan iborat.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo’lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi **vazifalar** hal etilishi zarur:

1. Bolalarga mashg’ulot va mashg’ulotdan tashqari jarayonda ekologik tushunchalarni tarkib toptirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to’g’risidagi tasavvurini boyitish.
3. Bolalarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to’g’risidagi mas’uliyatni shakllantirish.
4. Bolalarda tabiatda o’zini tutish malakasini, atrof-muhitni muhofaza qilish tuyg’usini tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTI  
TARBIYALANUVCHILARINI  
EKOLOGIK  
TABIYALASHNING O'ZIGA  
XOSLIKLARI**

Ma'lumki, bola shaxsi o'zaro va bioijtimoiy munosabatlar tizimida tarkib topadi. Ushbu munosabatlarni asoslovchi asosiy manba – bolaning hissiy bilish jarayoni va o'yin faoliyatidir. Demak, bola shaxsiga xos

bo'lgan barcha psixologik holat va jarayonlar ijtimoiy hayot hamda atrof-muhit ta'sirida vujudga keladi. Bola o'z faoliyati jarayonida o'zini o'rab turgan tabiiy va antropogen narsalar va hodisalar mohiyatini bilib oladi.

Bolaning atrof-muhitni hissiy bilish jarayoni o'z mohiyati va xususiyati jihatidan bir-biridan shartli farq qiluvchi uch bosqichdan iborat bo'ladi.

Hissiy bilish bolaning sezgilariga bevosita ta'sir etgan tashqi atrof-muhit (tabiat) va uning alohida xossalarining ko'rinishlar, qiyofalar, tasvirlar, manzaralar shaklida miyasida aks etishidir.

Bola o'zini o'rab turgan atrof-muhit va tabiatning muayyan xossalarini: havoning issiq-sovuqligi (teri), suyuqliklarning ta'mi (til), hid (burun), ob'ektlar shakli va rangi (ko'z), tovushlar (quloq) va b.ni sezadi. Ushbu xossalar bolaning beshta sezgi organlariga ta'sir etadi, natijada miyada ular to'g'risidagi tushunchalar paydo bo'lib, tasavvur hosil bo'ladi.

Falsafiy-psixologik nuqtai nazardan bola bilimining manbai sezgidir. Chunki, bola atrof-muhit haqidagi dastlabki bilimlarni o'z sezgilaridan oladi. Bolaning atrof-muhit haqidagi boshqa birmuncha murakkab bilimlari mana shu dastlabki boshlang'ich bilimlari asosida vujudga keladi. Demak, bolani tabiiy va antropogen muhit bilan bog'lovchi eng birinchi yo'l ham atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni **sezish**dir.

Atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni **idrok etish** sezishga nisbatan birmuncha murakkab jarayon. Idrokning sezishdan farqi shundaki, unda atrof-muhitdagi ob'ektlar yoki hodisa-larning ayrim xossalari emas, balki ob'ektlar yoki hodisalar butun holda aks etadi. Boshqacha ifodalasak, ob'ektlar yoki



hodisalarning yaxlit manzarasi, tasviri vujudga keladi. M: yomg'ir, qor manzaralari va h.k.

Atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarni hissiy bilishning yana bir shakli **tasavvur**dir. Tashqi muhit ta'siri natijasida bosh miya qobig'ining muayyan qismida paydo bo'lgan qo'zg'alish, ya'ni sezish va idrok ma'lum muddatgacha o'z izini qoldiradi. Demak, tasavvur atrof-muhitdagi ob'ektlar va hodisalarning xuddi shu onda idrok qilinmaydigan, biroq miyada qolgan, ko'z oldiga keltirilgan manzara, qiyofa-tasvirlarning tiklanishi yoki manzarali xotiradir.

Tasavvur bilimlarni saqlash va mustahkamlashga xizmat qiladi, ayni paytda ob'ektlar va hodisalarning xususiyatlarini bilib olishda, ya'ni umumlashtirishda ham muhim o'rin tutadi. Tasavvurdagi umumlashtirish xususiyati aqliy bilishning, boshlang'ich ekologik tushunchalarning tashkil topishiga katta yordam beradi.

Xususiy tasavvurlar atrof-muhitdagi aniq ob'ektlar tasviri, manzarasidir. Bu tasavvurlar aniq ob'ektlarni, M: aynan daraxtni, yo'lni, ko'prikni, soyni, ariqni, ko'chani, mahallani aks ettiradi. Xususiy tasavvurlar ayni paytda ko'cha yoki mahalla hududining tabiati va kishilar hayotini ham aks ettiradi. Natijada bola ongida muayyan hududlarning hajmdor yoki hajmsiz, rangli yoki rangsiz, aniq yoki noaniq shakldagi manzaralari hosil bo'ladi va bu jarayon vaqt va tajribaga bog'liq holda tiniqlashib boradi.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-muhit bilan tanishtirish jarayonida ularning hissiy bilishiga tayanilib ish ko'riladi va shu asosda atrofdagi muhit hamda uning har bir tarkibiy qismining tabiat va inson hayotida tutgan o'rni haqida aniq bog'lanishli misollar keltirilib, tegishli munosabat va madaniyat tarkib toptiriladi.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
TASHKIL ETILADIGAN  
EKOLOGIK TARBIYANING  
METOD VA VOSITALARI**

Boshlang'ich ekologik ta'lim va tarbiyani amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalar saviyasiga mos va xos ish shakllari, vositalari va metodlarini tanlab olish muhim shartdir. Maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida boshlang'ich ekologik tarbiyaning eng samarali yo'llaridan biri uni mehnat tarbiyasi bilan qo'shib olib borish, ya'ni bolaning bo'sh vaqtlarini foydali ishlarga jalb qilishdir. Chunki, tabiatga ozor berish bilan bog'liq bo'lgan sho'xliklar ma'lum darajada bolaning bo'sh qolishi natijasida kelib chiqadi. U qiladigan ishi yo'qligidan mushukning dumiga ip bog'laydi, qushlarning iniga chiqib, polaponlarini oladi va hokazolar. Aslida bola jonvorlarga ozor bermasdan, ular bilan do'st tutunib ham olam-olam zavq olishi mumkin. Biz unga qanoatli do'stlari uchun inlar yasab, ho'raklar tayyorlashni o'rgatishimiz maqsadga muvofiqdir.

Ekologik ta'lim va tarbiyaga doir mavjud tadqiqot ishlarida tavsiya etilishicha, bu borada quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq: tushuntirish, ko'rsatmali, amaliy; induktiv va deduktiv, reproduktiv, muammoli; suhbat, savol-javob; hadislar, hikoyalar, rivoyatlar, maqolalar o'qib berish, qayta hikoya qilish; izohlash, ko'zdan kechirish; kuzatish; qiyoslash va taqqoslash; tasavvur qilish; ishontirish, ibrat olish uchun misol va namuna keltirish; talab qilish, odatlantirish va rag'batlantirish; o'yinlar, shu jumladan, improvizatsiyalarda ishtirok etish, kolleksiya to'plash, sayr, ekologik kechalar, ekologiya haftaligi va b.:

**Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan ekologik tarbiyaning shakl, metod va vositalari**

<b>Shakllar</b>	<b>Metodlar</b>	<b>Vositalar</b>
“Tabiat” burchagidagi ishlar;	Kuzatish; tushuntirish; tabiat go'zalliklaridan	Hadislar; rivoyat va

sayr; ekologik kechalar; ekologiya haftaligi; shoirilar va olimlar bilan uchrashuvlar; sahna ko‘rinishlari; kattalarga yordam; bellashuvlar	zavqlantirish; tajriba; bolalarni gapirtirish; nutqiy-mantiqiy masalalar yechish; suhbat; ekologik o‘yinlar; didaktik o‘yinlar	hikoyatlar; she‘rlar; pandu nasihatlar; maqol va matallar; topishmoqlar; ertaklar; loto; labirint; rebus; videoroliklar
--	--	--

**Tabiat burchagi** bolalarni tabiat bilan tanishtirishga, kichkintoylarda ularga mehr paydo etish, muhabbat uyg‘otish ishida katta yordam beradi. Tabiat burchagidagi jonzoatlarni bolalar har kuni ko‘radi, bu narsa tarbiyachilar ishini yengillashtiradi: ular tirik mavjudotlarni muntazam kuzatib boradi va parvarishlaydi. Ularni parvarish qilish natijasida bolalar zaminimizdagi o‘simliklar va hayvonot dunyosining nihoyatda turli-tumanligi to‘g‘risida, o‘simliklar, hayvonlar qay tariqa o‘tib rivojlanib borishi, ularga qanday sharoitlar yaratib berilishi zarurligi to‘g‘risida tasavvur hosil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar mushukcha, kuchukcha, qo‘zichoq, tipratikon yoki quyon bolasini darhol ushlab ko‘rmoqchi, ularning oldiga borib silamoqchi, orqasidan quvlab ushlab olmoqchi bo‘lganliklari ko‘p marta kuzatilgan. Bolalar bu jonivorlarga tezda in yasashga kirishadi. Uni parvarilaydi. Ota-onalar bolaning zo‘r hafsala va ishtiyoq bilan boshlagan ana shu tashabbusini qo‘llab-quvvatlashlari, maslahatlar bilan unga yaqindan yordam berishlari kerak.

Jonli burchakda qushlar va hayvonlarni parvarish qilish bolalarda tabiatga, undagi barcha jonli va jonsiz narsalarga qiziqish, muhabbat uyg‘otish, ularni his etish, mehribonlik ko‘rsatish tuyg‘ularining shakllanishiga yordam beradi.

Qushlar va hayvonlar bilan yaqin munosabatda bo'lish bolaning bilimini har tomonlama boyitishga olib keladi. Bolalarni jonli tabiat, undagi hayvonot dunyosi, o'simliklar olami bilan muntazam ravishda tanishtirib boriladi. Bunda ishlar yil davomida reja asosida tashkil etiladi. Mashg'ulotlar suhbat, kuzatish, o'yin faoliyatlari bilan bog'lab o'tkaziladi. Bunda bolalar ona tabiatga, jonzotlar va qushlarga muhabbatli, mehri bo'lib, ularni asrab-avaylashga o'rganadi.

**Sayr** chog'ida bola o'zidagi bilimlarni, tabiat oldidagi mas'uliyat hissini, ya'ni o'z irodasini amaliyotda sinab ko'radi. Bolalarni sayr vaqtida dalada o'tloqda o'tlab yurgan qo'y, echki va buzoq, sigirlar bilan yaqindan tanishtirish uchun ularning yashash sharoiti, insonlar uchun foydasi haqida hikoya qilib boriladi. Ovqatlarni mazali qilayotgan go'sht, yog', quymoq, sut va qatiqlar shu hayvonlar tufayli ekanligi bolalarga tushuntiriladi.

Sayr chog'ida tarbiyaviy vaziyatlarni yuzaga keltirish va bolalarni atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqealarga hozirjavoblik bilan munosabat bildirishga o'rgatish muhim ahamiyatga kasb etadi. Sayr paytida ilgaridan kelishib olganday, tayyorgarlik natijasi sifatida "timsolga kirish" imkoniyati yaratilishi mumkin. Kimdir tabiatga ziyon yetkazuvchi, kimdir tabiatni muhofaza etuvchi bo'ladi. Bunday paytda bolalar o'zlari payqagan nojo'ya hatti-harakatning oldini olish tashabbusini ko'rsatishlari kerakligi sayrga qadar tayinlab qo'yiladi.

Tabiatdagi yilning istagan faslida go'zallik va rang-baranglik, o'zgarishlar bolalarning bevosita hissiy holatiga ta'sir etadi, ularda kuzatish, so'rash, fikr yuritish, hikoya qilish istagini uyg'otadi. Bu narsa ularning mantiqiy fikrlash va nutqini o'stirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bu borada **ekologiya haftaliklarining** tutgan o'rni beqiyos. Chunonchi, har faslda bir marta ekologiya haftaliklari o'tkazilib, mashg'ulotlardan tashqari tadbirlar tizimi amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berishda **kuzatish** va **tushuntirish** metodlaridan keng foydalaniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ko'rsatmali-timsolli fikrlashga o'rgatish, buning uchun bilib olish kerak bo'lgan

ob'ektlarni ko'rsatmalilik asosida va kuzatishga qulay tarzda taqdim etish, ayniqsa, tabiatning go'zalliklaridan zavq olish vaziyatini tez-tez yuzaga keltirib turish, bilimlarni shu yo'llar bilan singdirish orqali ularning aqliy rivojlanishiga erishiladi.

Bolalar tabiat bilan bir butun organizm darajasida tanishadilar. Eng avval ayrim o'simliklar, hayvonlar, ularning yashash usullari bolaning idrok va faoliyat ob'ektiga aylanadi. Jonli tabiat ob'ektlarining tashqi muhit bilan aloqasi o'quv-biluv mavzui bo'lib qoladi: o'simliklar oziqlanish uchun o'z ildizi bilan tuproq ichkarisiga kirib boradi, hayvonlar makonda joy almashtirib yuradi, ovqat topib yeydi va h.k.

Ayniqsa, harakatlanadigan yorqin, rangin ob'ektlar maktabgacha yoshdagi bolalarda alohida, o'ta kuchli qiziqish uyg'otdi, xotirasida timsollar qoldiradi. Ana shu ob'ektlar yordamida bolalarning hayvonlar o'zlari yashab turgan muhitga moslashganliklari kuzatiladi. M: qo'y va sigir kabi uy hayvonlarining o't-o'lanlar bilan ovqatlanishi ana shunday moslashuv oqibati ekanligiga yaqqol misol bo'la oladi. O'simlik va hayvonlarning ayrim ko'zdan yana ham uzoqroq bo'lgan bog'liq jihatlari, bundagi o'zgarishlarni kuzatish maktabgacha yoshdagi bolalar fikrlashini ekologik yo'naltirish, ularni tahlil qilish va solishtirish yo'li bilan anglashga o'rgatish imkonini beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga tabiatning nafosatli namunalarini ko'rsatgan, go'zallikni idrok ettirgan, uning qismlarini o'rgangan, sensor tekshiruv o'tkazgan, tabiiy go'zallikning turli xil o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini tushuntirgan holda suhbatlar o'tkazish foydali.

**Tabiat ob'ektlarini ko'zdan kechirish** jarayonida bolalarning kuzatishlarini boshqarish, olgan estetik-ekologik taassurotlari haqidagi avvalgi bilimlaridan foydalanish, yangilarini ketma-ket hikoya qilish yo'li bilan ma'lum qilish maqsadga muvofiqdir. Ekologik bilimlarga doir estetik tushunchalarni bolalar ongiga singdirish va ularni go'zallikning eng oddiy alifbosidan bahramand qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarni eshitilganlar yuzasidan

estetik-ekologik mazmunda o‘zaro suhbatlashishga da’vat etish, qayta hikoya qilishni talab qilish zarur bo‘ladi. Ekskursiya, sayr haqidagi hikoyalar mazmunli chiqadi.

Bolalarga jonli va jonsiz tabiatdagi har bir narsaning betakror go‘zallik ekanligini anglatish, his ettirish, kuzattirish, har bir narsaning o‘ziga xosligini aniqlatish, ularning o‘zaro munosabatda va o‘zaro aloqada ekanligiga ishora qiluvchi belgilarini ajratish muhim rol o‘ynaydi.

Tevarak-atrofnı kuzatish, rasm solish jarayonida bola ranglarni, tovushlarni, makon va tabiat ob‘ektining shaklini qabul qilishga o‘rganadi. Bu narsa go‘zallikni his etishga olib keladi. Tarbiyachining vazifasi shundan iboratki, u bolalarning aqliy kuch-g‘ayratini uyg‘otdi, tabiat go‘zalliklar hissini rivojlantiradi va tabiatga bo‘lgan insoniy munosabatlarning axloqiy-estetik tomonlarini ko‘rsatadi. Tabiatdan zavqlanish go‘zalliklarni idrok etishda yorqin namoyon bo‘ladi.

Bolalardan bog‘chaga kelishda va ketishda, ko‘cha-ko‘yda atrof-muhitga qanday zarar yetkazilayotganligini ko‘rganliklari haqida so‘zlab berish so‘ralishi, ya’ni, **bolalarni gapirtirish** ham muhim ekologik metodlar sirasiga kiradi. Bu usul kichkintoylarda kuzatuvchanlikni va ekologik tarbiya olgan yoki olmagan odamlar orasidagi farqni ajratish tuyg‘ularini o‘stiradi. M: bolalar quyidagicha gap topib keladilar: “Bir bola gugurt olib, xazonlarni yoqdi. O‘tib ketayotgan bir kishi uni koyib, olovni o‘chirtirdi” va h.k.

Bolalarning tabiatni muhofaza qilish amaliyotida uch xil faoliyatdan (ta’lim, mehnat, o‘yin) keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bolalarning **ekologik mazmundagi o‘yin faoliyati** ta’lim unsurlariga ega bo‘lib, tegishli ko‘nikmalarni hosil qilishda ularning ahamiyati katta bo‘ldi.

**Didaktik o‘yin** o‘quv-bilish vazifalari (m: narsaning xossalari va sifatini aniqlash, turli buyumlarni tasnif qilish va guruhlash) o‘yin bilan (topish, rol ijro etish, musobaqalashish) qo‘shib olib boriladiki, bunda didaktik o‘yin ta’limning alohida shakli – yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo‘ljallanmagan

bilimlarni o'zlashtirish shakliga aylanadi. M: "Bu hayvonning nomi "Qizil kitob"ga kiritilganmi? Shu hayvonni top" o'yini. Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turg'izib, hayvon nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, "Qizil kitob"ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi.

Tabiatni muhofazasiga doir o'yin mazmunini ishlab chiqishda shaxsning axloqiy pozitsiyasi, odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g'amxo'rlik bilan munosabatlari markaziy o'rinda turmog'i lozim.

**Rolli o'yinlar** har bir ishtirokchiga mustaqillik va uyushqoqlik namoyon etish imkonini berdi. Ijodiy rolli o'yinlar tushunchalarni, tasavvurlarni, faktlarni tiklash, qayta guruhlash tariqasida kechdi. M: rolli o'yin sifatida bolalardan biri maqbul va nojo'ya harakatlar qilib ko'rsatadi. Nojo'ya xatti-harakatga kelganda, bolalar: "To'xta!" – deb buyruq berishlari kutiladi. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunday paytlarda ko'p vaqt sukutda bo'ladigan bolalarda ham qat'iyat, jur'at paydo bo'ldi. Bu esa o'yinning muhim jihati hisoblanadi.

Tabiat bilan insonning o'zaro aloqador ekanligini o'rgatish, umuman, bolalarda atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirish – uzoq vaqtni o'z ichiga oladigan jarayon. Buning uchun bolalarning atrof-muhit, tabiat bilan har tomonlama doimiy aloqalarini ta'minlash zarur. Maktabgacha ta'lim tashkiloti hududida, sayr chog'ida bog'da, tabiat quchog'ida bo'lish, bu muddatda turli xil ekologik o'yinlar uyushtirish ana shu imkoniyatni yuzaga keltiradi.

**Voqeaband rolli o'yinlar** bola hayotida katta rol o'ynaydi. Dastlab sahna ko'rinishlari tariqasida tayyorlanadigan o'yin chog'ida bola tabiatni muhofaza qilish bilan shug'ullanuvchi turli mutaxassislar rolini ijro etadi, ko'pchilik ana shunday mutaxassislarni ko'radi, shunday mutaxassislar borligidan darak topadi, keyinchalik o'zi ham shu mutaxassis rolini o'ynashga muvaffaq bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'yin jarayonida bola bilan mutaxassis o'rtasida muloqot sodir bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik tarbiyalashda **nutqiy mantiqiy masala yechish** metodidan ham foydalanish mumkin. Bunday masalalar tabiat

haqida topishmoq-hikoyalardir. Qo‘yilgan masalani yechish, savolga javob berish uchun bolalar tabiat hodisalari orasidagi ma‘lum bog‘lanishlar va qonuniyatlarni o‘zlari uchun tushunib olgan bo‘lishlari kerak. Tarbiyachi bolalarga nutqiy mantiqiy masala berar ekan, ularni aqliy faoliyat usullaridan (qiyoslash, hodisalarni turli tomondan ko‘rib chiqish, masalani yechish yo‘llarini izlash) vaziyatiga solishi zarurki, bu narsa fikrlashning mustaqil, aqlning o‘tkir bo‘lishiga turtki beradi.

Bolalar tomonidan tabiatdagi narsa va hodisalar, odamlarning ayrim nojo‘ya xatti-harakatlari haqida **hikoya-etyudlar tuzish** ijodiy topshiriq turlaridan biridir. Albatta, bu ish daf‘atan boshlanmasligi kerak. Dastlab ishni bolalarbop hikoyalar tanlash va ularni so‘zlab berish usuliga murojaat etishdan boshlash lozim. Bu hikoyalar oxir-oqibatda hikoya-etyudlar tuzish uchun andaza vazifasini bajaradi.

MTTda ekologik mavzulardagi **videofilmlardan** foydalanish maqsadga muvofiq. Bugungi kunda bolalarbop bunday videodisklar va filmlar ko‘payib bormoqda. Har bir namoyishdan so‘ng bolalar bilan ko‘rilgan filmlar haqida suhbat o‘tkazilishi mumkin.

Bolalarni ekologik tarbiyalashda **hadislardan namunalar aytish, rivoyat va hikoyatlar so‘zlab berish** samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Atrof-muhitga eng qadimgi zamonlarda ham juda katta e‘tibor berilib kelingan. Hadisi shariflarda quyidagi kabi bandlar bor: “Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do‘zaxga mahkum etur”; “Dunyo yam-yashil go‘zaldir, kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi”.

Ajdodlarimiz o‘z farzandlariga oila davrasida pandu nasihatlar qilganlar va turli suhbatlarda quyidagilarni alohida uqtirganlar: “Suvni iflos qilma, barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi”; “Rizq-ro‘zingni isrof qilma, gunohkor bo‘lasan”; “Pishib yetilmagan uzumni uzma, agar uzsang katta gunoh ish bo‘ladi, chunki unda ahli mo‘minning nasibasi bor”.



Xalq og‘zaki ijodi namunalarida muammolarni hal etish yo‘llarining bevosita va bilvosita usullarda qo‘llanadi, shunga ko‘ra bu usullarning tarbiyaviy va ta’limiy imkoniyatini oshirib, tug‘ilgan muammolarning bolalarga yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi hamda ta’sirchanligini kuchaytiradi. M: “Urug‘ sepmay ekin bo‘lmas, Yog‘och ekkan soyada yotmas” naqlida soyaning fayzli dam olish joyi, lekin shu soyaning bo‘lishi uchun ter to‘kib mehnat qilish, daraxt ekish zarurligi tushuntiriladi.

**Loto, labirint, rebus, boshqotirma, topishmoq, topishmoq-hazillardan** foydalanish ham bolalarni ekologik tarbiyalashda yaxshi natija beradi. **Ertak to‘qish, she’r ijod qilish, tabiatda o‘zini qanday tutish kerakligi haqida eslatmalar aytish** bir tomondan, ijodiy nutq o‘stirish uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ekologik ongini rivojlantiradi.

Qisqa qilib aytganda, mustaqillik yillarida respublikamizda “Uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasi” yaratildi. Mazkur konsepsiyaga ko‘ra, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga ekologik ta’lim-tarbiyaning eng oddiy, sodda asoslari o‘rgatiladi. Samarali tashkil etilgan ekologik ta’lim-tarbiya natijasida tarbiyalanuvchilar atrof-muhitga ijobiy munosabatda bo‘lish, tabiatni asrash, o‘simliklar va hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilish, atrof-muhitni ifloslantirmaslik, turar-joy va bog‘chaning ozoda bo‘lishi uchun mas’uliyatli bo‘lishni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang‘ich ta’lim-tarbiya berishning maqsadi ularni tabiatni sevadigan, asrab-avaylaydigan, odobli, erkin fikrlovchi, milliy g‘urur egasi, barkamol sog‘lom avlod etib tarbiyalashdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik tarbiya uch bosqich, ya’ni: atrof-muhitdagi ob’ektlar va hodisalarni sezish (1-bosqich); idrok qilish (2-bosqich) va tasavvur qilish (3-bosqich)da amalga oshiriladi. Bosqichlarning samarali kechishida tarbiyachi-metodist tomonidan pedagogik faoliyat shakli, metod va vositalarining to‘g‘ri, oqilona, maqsadga muvofiq tanlanishi muhimdir.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologiyadan boshlang'ich ta'lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari nimadan iborat?
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalashning o'ziga xosliklarini bayon eting.
3. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash shakllariga nimalar kiradi?
4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash metodlari va ularning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini ekologik tarbiyalash vositalarini bayon eting.

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish bo'yicha interfaol metodlardan namunalar toping yoki yarating.

## **“ILM FAN VA TABIAT” MARKAZIDA EKOLOGIK TARBIYA**



*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yosh guruhlarida tashkil etiladigan “Ilm fan va tabiat” rivojlantiruvchi ta'lim faoliyati har bir bolada ma'lum shaxsiy xususiyatlarni rivojlanishi hamda olam haqidagi tasavvurlarini har tomonlama egallashlari uchun imkoniyat beradi.*

*Mavluda Kubayeva*

## REJA:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati.
2. "Ilm-fan va tabiat markazi"da bolalarni tabiat bilan tanishtirishning usullari.
3. "Ilm fan va tabiat" markazi faoliyatini o'rganish va tahlil qilish.
4. "Ilm-fan va tabiat" markazida tajriba sinov ishlari.

*Tayanch tushunchalar: rivojlantiruvchi muhit, 5 ta markaz, "Ilm-fan va tabiat" markazi, rivojlantiruvchi muhit mazmuni, bilish jarayoni, "Ilm-fan va tabiat markazi"da bolalarni tabiat bilan tanishtirishning usullari, o'simliklar dunyosini kuzatish, "Ilm-fan va tabiat" markazida tajriba sinov ishlari.*

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
BOLALARNI MAKTAB  
TA'LIMIGA  
TAYYORLASHDA  
RIVOJLANTIRUVCHI  
MUHITNING AHAMIYATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Sh.M.Mirziyoyev "Zamonaviy  
maktabgacha ta'lim – sog'lom va  
barkamol avlodni voyaga yetkazishda  
muhim o'rin tutadi", deya ta'kidlaydi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni sifatli maktab ta'limiga tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti"ning 2-ilovasiga ko'ra maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi keltirilgan bo'lib, dasturni ta'lim-tarbiya jarayonga tadbiq etish, to'laqonli ishlab ketishida metodik ta'minot va metodik yordamning o'rni belgilab berilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi asosida barcha yosh guruhlarida mavjud markazlar hamda umumiy guruhda ishlashni tashkil etishda tarbiyachining o'rniga alohida e'tibor qaratildi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturiga ko'ra mashg'ulotlar 5 ta markazda olib boriladi. Bular quyidagilardir:

1. Til va nutq markazi (Nutq o'stirish, tabiat, atrof-olam va badiiy adabiyot bilan bog'liq mashg'ulotlar)
2. Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi (Qurish yasash va matematika mashg'ulotlari)
3. San'at markazi (Rasm, applikasiya, loy qurish, yasash mashg'ulotlari va origami)
4. Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz (Guruh yoshiga mos bo'lgan syujetli qoidali o'yinlar)
5. Fan va tabiat markazi (Tabiat, atrofi olam bilan tanishtirish mashg'ulotlari)

**Fan va tabiat markazida** tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa, bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi.

Markaz nafaqat bolalarda, balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos belgilarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi muhit mazmuni:

➤ maktabgacha ta'lim tashkilotining ko'rgazmali-rivojlantiruvchi muhiti mazmuni madaniy-tarixiy qadriyatlarga: milliy va mintaqaviy an'analar; tabiat, iqlimdan kelib chiquvchi xususiyatlarga mos bo'lishi lozim;

➤ muhit mazmuni birlamchi dunyoqarash asoslarini shakllantirish, bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuviga yordam berishi lozim.

Ilm-fan va tabiat markazida maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayoni rivojlanadi. Unga ko'ra:

<b>BILISH JARAYONINING RIVOJLANISHI</b>			
<b>3-4 yosh</b>	<b>4-5 yosh</b>	<b>5-6 yosh</b>	<b>6-7 yosh</b>
kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda qatnashadi (eritish, bo'yash, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish va hokazo); tabiatdagi ayrim o'zgarishlarni farqlaydi (qor, yomg'ir, do'l, issiq, shamol va hokazo); ayrim hasharot va qushlarni taniydi va nomini aytadi; ayrim jonivorlar bolalarini nomini to'g'ri aytadi; "syujet" asosida qurilmalar yaratadi; suv va qum bilan o'ynaydi;	kattalar bilan birgalikda tadqiqotlarda ishtirok etadi (eritish, yaxlatish, magnetizm, bo'yash, qizdirish, qaynatish va hokazo); yil fasllariga xos tabiat hodisalarini biladi; nima uchun ovqatlanish, nafas olish, o'qish kerakligini biladi; organizmning	tabiat hodisalarining turli omillarga bog'liqligini tushunadi; tabiatdagi o'zgarishlar sababini tushuntirib bera oladi (masalan, qor erishi); insonlarning atrof olamga ta'sirini tushunadi (ekin ekish, hosil yig'ish); tabiiy materiallardan qo'l ishlarini yaratishni	qurilmani mustaqil o'lchaydi (balandligi, uzunligi, kengligi bo'yicha); shaxsiy qiziqishi va kuzatuvlariga bog'liq savollar beradi; shaxsiy taxminlari haqida gapiradi, avvalgi va hozirgi tajribasini umumlashtiradi va tushuntiradi; tadqiqotda yechimini talab etayotgan muammoni belgilaydi; turli resurslarni

jonli ob'ektlarni kuzatadi.	ma'lum bir organlari funksiyasini biladi; ayrim jismoniy jarayonlar muhimligini tushunadi; konstruktor, pazl, mozaika, Legodan konstruksiyalar yaratadi.	biladi, ish bosqichlarini belgilaydi; mustaqil qurib yasashi mumkin; jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi; insonlar hayotida tabiatning ahamiyatini anglab yetadi.	qo'llagan xolda shaxsiy kuzatuvlarni tasdiqlaydi va ta'riflaydi; atrof muhitni yaxshilashda ishtirokning muhimligini tushunadi (masalan, axlat chiqindilarini tashlash, ularni ajratish, daraxt va gullar ekish, suv, elektr energiyasi va qog'ozni asrash).
-----------------------------	--	--	--

Shaxsning rivojlanishi, ma'naviy yuksalish va axloqiy estetik tarbiyada tabiatning roli beqiyosdir. Shuning uchun tabiat bilan jamiyatning o'zaro aloqadorligini saqlashga layoqatli kishilar avlodini tarbiyalab yetishtirish kerak.

Buning uchun kuzatish, tabiatga ekskursiya, maqsadli sayrlar, mehnat faoliyati, maxsus tashkil etilgan vaziyat, oddiy tajriba, badiiy adabiyot, mashg'ulotlar o'tkazish, texnik vositalar kabi metod va usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Agar insoniyat tabiatga ta'sirini faqat moddiy manfaat nuqtai nazaridan davom ettiraversa, yer yuzidagi jonzot, shu bilan birga insonning o'zi ham butunlay qirilib ketish xavfi bor. Tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uning boyliklaridan unumli foydalanish, tevarakatdagi muhitni yaxshilash to'g'risida g'amxo'rlik qilish, uning buzilishiga, ifloslanishiga yo'l yo'lmaslik tabiatga nisbatan axloqiy qimmatli xatti-harakatlar

qilishga o'rgatish, shuningdek, tabiiy muhitning shart-sharoitlarini saqlaydigan amaliy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirish ishi kishinning butun hayoti davomida ideologiya, siyosat, san'at, adabiyot, ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish praktikasi, ta'lim-tarbiya, tashviqot, targ'ibot orqali amalga oshirilishi mumkin. Ammo bu ishlarning dastlabki formalari bog'cha yoshidan boshlanishi zarur. Chunki, bu davrda tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan ongli munosabat tarkib topa boshlaydi va u ona o'lka tabiati orqali olib borilsagina kerakli natijalarga erishish mumkin.

Tabiatda toza suvni materiyadan okean va dengizga, qaytarib quruqlikka haydab turuvchi ulkan "mexanizm" ishlaydi. Bu mexanizm bundan million yil avval quyosh energiyasi "ishga" tushirgan.

**Suv** – planetamizning muhim hayotiy shartidir. Suv yerdagi quyosh energiyasini taqsimlovchi, iqlimning bosh ijodkoridir; issiqlik akkumulyatori, ulkan harakatlantiruvchi, shu bilan birga sanoatda, qishloq xujaligida asosiy komponent hisoblanadi.

**Tuproq** unumdorlikgi maxsus xususiyatga ega. Tuproqning unumdorligi uni o'simliklarning hayoti uchun zarur moddalarga bo'lgan talabini ta'minlashidir. Unumdorlik tuproqning kimyoviy tarkibi, fizik xususiyati va suv bilan ta'minlanish rejimiga bog'liq. Yer yuzida o'suvchi hamma o'simliklar suv va oziqni tuproqdan oladi. Tuproq moddalarning tabiatda aylanishida juda katta rol o'ynaydi.

Odam o'zining kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy talabi bilan jonli hamda jonsiz tabiat bilan uzviy bog'liq. Odamning biosferada tutgan o'rni ikki tomon- lama. U biologik ob'ekt bulib, muhitning fizik omillariga qaram, chunki atrof-muhitdan nafas oladi, ovqatlanadi, modda almashinadi. Ammo, odam tabiatdagi boshqa jonzotlardan farqli ularoq, o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadiki, u o'z faoliyati bilan tabiatga ta'sir etib, yangi madaniy muhitni yaratadi va uning mehnat hamda ma'naviy tajribasi avloddan avlodga o'tib boradi. Odam o'simlik va hayvonlarni parvarish qiladi, ularning kerakli hamda yangi navlari va

zotlarini ko'paytiradi. Shuning uchun ko'pchilik madaniy o'simliklar va uy hayvonlari odam parvarish qilgani sababli yovvoyilariga nisbatan yaxshi rivojlanadi, ko'p va chiroyli, sifatli hosil beradi.

**“ILM FAN VA  
TABIAT”  
MARKAZI  
FAOLIYATINI  
O'RGANISH VA  
TAHLIL QILISH**

“Ilm-fan va tabiat markazi”da tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorlik munosabatini, o'simlik va hayvonlarga g'amxo'rlikni tarbiyalash va shular orqali tabiatga qiziqish, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatni saqlovchi va uning boylildarini ko'paytiruvchi kattalarning mehnatiga hurmatni tarbiyalash kabi vazifalarni amalga oshirishda tabiat burchagining ahamiyati katta. Tabiat burchagining muhim tomoni yana shundaki uni bolalar har kuni ko'radilar. Tarbiyachi rahbarligida bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni sistemali ravishda kuzatib, parvarish qilib boradilar. Natijada o'simlik va hayvonlar dunyosining rang-barangligi, ularning o'sishi, rivojlanishi, ular uchun qanday sharoit kerakligi to'g'risidagi tasavur va tushunchalarni egallab boradilar. Tarbiyachi bolalarda solishtirish malakasini shakllantiradi. Hayvon va o'simliklarni bir-biri bilan solishtirish orqali ular o'rtasidagi umumiylik va farqlarni, ularga xos belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Tarbiyachi bolalar diqqatini o'simliklarning chiroyli gullashiga, barglarning shakli va tusiga, akvariumdagi baliqlarning chiroyli ko'rinishi va chaqqon harakatiga jalb etadi. Natijada bolalar bu go'zalliklarni ko'zlari bilan ko'rib, qalblari bilan his etadilar, ularning estetik didi o'sadi. Bolalar tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni tarbiyachi rahbarligida kuzatib, parvarish qilib borishlari natijasida tabiatga ehtiyotkorlik munosabatlari shakllanadi. Ularda tabiatni yanada gullab yashnashi uchun o'z hissasini qo'shish, bundan tashqari qoddan kelgan mehnati bilan bu jarayonda qatnashish xohishini uyg'otadi.



**“FAN VA TABIAT  
MARKAZI”DA  
BOLALARNI TABIAT  
BILAN  
TANISHTIRISHNING  
USULLARI**

Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Fan va tabiat markazi”da bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmlarni namoyish qilish);
- amaliy (o‘yin tarzida, mehnat, oddiy tajribalar, vaziyatlar yaratish);
- og‘zaki (tarbiyachining xikoyasi, so‘zlab, tushuntirib berishi, badiiy asarlarni o‘qib berishi, bolalar bilan suhatlashishi, she’rlarni o‘qib berishi).

**Ko‘rgazmali usullar.** Kuzatish – maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishning yetakchi uslublaridan biri hisoblanadi. Kuzatish, ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish maqsadida tarbiyachi-pedagog tomonidan tashkil etiladi va bolalar bog‘chasida keng qo‘llaniladi. Kuzatish - murakkab bilish faoliyati bo‘lib, unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi bilish vazifalariga ko‘ra tarbiyachi kuzatishning xilma-xil turlaridan foydalailadi. Ta’limiy va tarbiyaviy vazifaga ko‘ra kuzatish uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘lishi mumkin. O‘simlik va hayvonlarning o‘sishi va rivojlanishi, tabiatda mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlar jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi - uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarga ob’ektning kuzatilayotgan xolatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to‘g‘ri keladi.

Kuzatish predmetning ayrim belgisiga ko‘ra uning holatini aniqlash (masalan, o‘simlikning tashqi ko‘rinishiga qarab sug‘orish, oziqlantirish, issiqlik, yorug‘lik bilan ta’minlash, tagini yumshatish, akvariumdagi baliqlarning xatti-harakatiga ko‘ra suvni qisman almashtirish zarurligini aniqlash va x. k.).

Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o‘simlik va hayvonlar, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda va shunga o‘xshashlarda tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg‘ulot va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida olib boriladi. Tarbiyachining kuzatishga qancha

bolani jalb etishi kuzatishning mazmuni hamda tarbiyachi o'z oldiga qo'ygan vazifaga bog'liq bo'ladi.

Kuzatish bolalarning aqliy faolligida o'tishi, ularni fikr yuritishga, qo'yilgan masalalarga javob topishga undashi, ularni tabiat hodisalarini bilib olishga bo'lgan qiziqishini o'stirishi, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalashi, uni yanada go'zallashtirish tabiat boyliklarini kuchaytirish uchun faol harakat qilishga ishtiyoq uygotishi lozim. Kuzatishni shunday tashkil etish kerakki, bolalar tabiatni bilib olishlariga samarali ta'sir ko'rsatadi. Kuzatish bolalarni hayvonlar va o'simliklarni parvarish qilish bo'yicha amaliy faoliyat (qushlarga don berish, yo'lkalarni qordan, hazondan tozalash, daraxt va bo'talar tanasi atrofiga qorlarni to'plash, o'simliklar ekish, sug'orish, begona o'tlardan tozalash) bilan qo'shib olib borilsa, yaxshi natijaga erishish mumkin.

**O'simliklar dunyosini kuzatish.** Bahor gullarining nish urib chiqayotgani, yerlar ko'm-ko'k o't bilan qoplanayotgani, daraxtlarning kurtaklari kattalashib qolgani kuzatiladi.

Yerga bahorda birinchi gullaydigan boychechaklar, keyingi sayrlarda esa lolaqizg'aldoq, momaqaymoq, lola, nargis, binafsha gullarining ochilgani kuzatiladi. Bular bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Tarbiyachi bolalar bilan birgalikda daraxtlarning tagini yumshatadi. Daraxtlar gullaganda tarbiyachi bolalar bilan bog'cha hovlisiga bir necha marta sayr uyushtiradi. Bolalar gullab turgan mevali daraxtlarning tagiga borib tomosha qiladilar. Tarbiyachi daraxtlarning pastroqdagi gullab turgan shoxini asta egib, hidlashni taklif etadi, keyin gullarning rangini, gulbarglarning shaklini, har bir gulda nechtdan gulbarg borligini aniqlashadi. Bir daraxtning gulini ikkinchisi bilan taqqoslashadi. Masalan: nok bilan olmani, shaftoli bilan o'rikni va xokazo. Bolalarni daraxtlar va boshqa o'simliklarning nomi, har birining o'ziga xos tomonlari to'g'risidagi tasavvurlarini aniqlash va mustahkamlash uchun quyidagi didaktik o'yinlarni o'ynatish mumkin. Masalan, "Guliga qarab daraxt yoki biron tanish o'simlikning nomini ayt", "Bu qaysi daraxtning

guli” va shunga o‘xshashlar. Keyingi sayrlarda gullardan gullarga o‘tib, guvillashib uchib yurgan asalarilarga bolalar diqqati jalb etiladi, ularning nima uchun gul ustida uchib yurgani, odamlarga keltiradigan foydasi tushuntiriladi.

**“FAN VA TABIAT”  
MARKAZIDA  
TAJRIBA SINOV  
ISHLARI**

**“Fan va tabiat” markazida tajriba sinov ishlari:**

**1. “Cho‘kadi cho‘kmaydi” tajriba sinov mashqi.** Nima uchun ba’zi narsalari cho‘kadiyu, ba’zilarim cho‘kmaydi?

**Kerakli jihozlar:** Stol ustida turli xilda narsa buyumlar qo‘yiladi (masalan, paxta, novda, barg, qum, qog‘oz, bo‘r, qalam, sham, ruchka, plastilin, mato bo‘lagi, machalka, rang, par, meva danagi, don mahsulotlari v.b)

Keyin tarbiyachi stol ustidagai narsalarni suvda cho‘kadiganini alohida, cho‘kmaydiganlarini alohida ajaratish topshirig‘ini beradi. Bolalar topshiriqni bajarib bo‘lganlaridan so‘ng, narsa buyumlarning o‘ziga xosliklari so‘raladi. Shundan so‘ng suvli idish keltirilib tajriba o‘tkaziladi va bolalarning o‘zaro muhokamalari kuzatib boriladi va tarbiyachi tomonidan kerakli ma’lumot beriladi. Tajriba yakunida taassurotlar bilan o‘rtoqlashadi.

**Xulosa:** Narsa-buyum cho‘kayotganda qanchalik tashqariga ko‘proq suv chiqarsa, shunchalik tez kuch bilan yuqoriga siqib chiqariladi.

Narsaning suzish qobiliyati uning shakli va zichligiga bog‘liq.

**2. Sham nega banka ichida so‘nadi? tajriba sinov mashqi.**

Tarbiyachi bolalarga shamdagi olovni (alanga) puflamasdan va shamga qo‘l tekkizmasdan o‘chirish yo‘llarini izlashni taklif etadi.

Bu tajriba davomida yonib turgan shamning ustiga banka yopiladi va bir ozdan shamning so‘nishi kuzatiladi, shundan so‘ng nega sham o‘chib qolganligi so‘raladi, so‘ng tushuntiriladi, ya’ni banka ichidagi kislorod yonish jarayonida gazga aylanadi va shamni o‘chiradi. Tajriba yakunida taassurotlar bilan o‘rtoqlashadi.

**Eslatma:** Bu tajriba bolalarga ko'rsatib berilganda, bolalar o'zlari bu tajribani u uyda o'tkazishlari mumkin emasligi ogohlantiriladi.

### **3. “Havo harakatini kuzatish” tajriba sinov mashqi.**

Tarbiyachi tajriba o'tkazish jarayonida bolalarga (bolalar soniga mos) yelim trubochkalar, shar, qog'oz va qattiq narsa beradi. Avval bolalar trubochkalarining bir tomoniga puflab, barmoqlarini trubochkaning ikkinchi tomoniga qo'yishlari va havo kuchini his qilishlari taklif etiladi. So'ng bolalar, sharlarni puflab, ularni trubochkalar orqali harakatga keltiradilar, keyin esa mayda bo'laklarga bo'lingan qog'ozchalarni puflab ko'radilar va havo harakatini kuzatadilar. So'ng esa og'ir jismlarni harakatga keltirib ko'radilar va ularning xossalarini tushuntiradilar. Tajriba yakunida taassurotlar bilan o'rtoqlashadi.

### **4. “Gullarning suvda ochilishi” tajriba sinov mashqi.**

Tarbiyachi bolalarga qog'ozdan gullarni kesib olishni taklif qiladi. Kesib olingan gul barglarini o'rtaga buklab qo'yish aytiladi, g'uncha holiga keltiriladi. Shundan suv solingan tog'orachaga gul g'unchalarini solish aytiladi va diqqat bilan hamma o'zini gulini kuzatib turishi aytiladi. Nima sodir bo'lyotgani so'rab boriladi. Nima sodir bo'ldi: gul yaproqlari asta-sekin ochilmoqda. Nima uchun? Qog'oz suvni shimib olib, og'irlashadi. Shu sababli yaproqlar haqiqiy gul kabi ochiladi. Tajriba yakunida taassurotlar bilan o'rtoqlashadi.

### **5. “Kemacha nega har doim tog'ora chetiga keladi” tajriba sinov mashqi.**

Tarbiyachi bolalarga qog'ozdan qayiqcha yasab olish taklifini beradi. Barcha bolalarning turli rangdagi qayiqchalari tayyor bo'lgandan so'ng, suv solingan tog'ora olib kelinadi. Shundan so'ng bolalar o'zlarining qayiqchalarini suvga qo'yishadi va nima bo'lishini kuzatib turishadi. Vaqt o'tib qayiqcha tog'ora chetiga kelib qoladi. Tajriba yana bir marta takrorlanadi. Tarbiyachi hodisaning sababini so'raydi va bolalarning fikrlarini tinglaydi. Tarbiyachi bolalarga suvga tosh otilsa nima bo'lishini eslashni tavsiya etadi (kattaroq idishda suv solingan bo'lsa, buni misolda ko'rsatsa ham bo'ladi). Tosh tushga joydan doirasimon

to‘lqinlar tarqalishi eslanadi. Demak, tog‘oraning o‘rtasiga tushirilgan qayiqcha suvni tebratadi va bu tebranish doirasimon yoyilib tog‘ora chetiga keladi.

**Xulosa:** suv o‘rtasiga qo‘yilgan kemachaning suv chetiga chiqib qolishining sababi, ya’ni hosil bo‘lgan to‘lqinlarning doirasimon, o‘rtadan tog‘ora chetiga qarab kelishi. Shu to‘lqinlar ustida turgan kemacha ham tog‘ora chetiga chiqib qoladi. Tajriba yakunida taassurotlar bilan o‘rtoqlashadi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturiga ko‘ra mashg‘ulotlar qanday markazlarda tashkil etiladi?
2. “Fan va tabiat” markazida bolalar nimalar bilan shug‘ullanadi?
3. “Fan va tabiat markazi”da bolalarni tabiat bilan tanishtirishning qanday usullaridan foydalaniladi?

#### **Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:**

“Fan va tabiat” markazida tajriba sinov ishlariga misollar keltiring.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TARBIYA BERISH**

*Bugungi zamonaviy raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanish davrida maktabgacha yoshdagi bolalarda dastlabki iqtisodiy tushuncha va terminlarni o‘rgatish muhimdir. Albatta, bu pedagogik faoliyatni shakllantirishda pedagog -tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e’tiborga olgan holda iqtisodiy bilimlarni berishlari talab etiladi.*

*Madina Savriyeva*



## REJA:

1. Iqtisod va iqtisodiy tarbiya tushunchasi.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk iqtisodiy tushuncha va atamalar bilan tanishtirish.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida iqtisodiy tarbiya berishda Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida iqtisodiy tarbiyani samarali tashkil etish.

*Tayanch tushunchalar: iqtisod, iqtisodiyot, tarbiya, iqtisodiy tarbiya, maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya berish haqidagi Sharq mutafakkirlari fikrlaridan foydalanish, interfaol metodlar.*

### IQTISOD VA IQTISODIY TARBIYA TUSHUNCHASI

“Iqtisod” tushunchasi eramizdan avvalgi IV asrda yunon olimi Ksenofont tomonidan kiritilgan bo‘lib, “uy xo‘jaligini boshqarish san’ati” ma’nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchaning mohiyati kengayib borilgan. Iqtisodiyot – juda keng va murakkab tushuncha.

“Iqtisod” atamasi: 1) tor ma’nodda inson yaratgan barcha boyliklarni tejash, shuningdek, inson mehnatini qadrlash; 2) keng ma’nodda iqtisodiyot insonning tirikchiligini o‘tkazishga qaratilgan xo‘jalik faoliyati bo‘lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlarni iste’mol etish bilan yakunlanadi.

Demak, iqtisod inson faoliyatining asosiy jihati bo‘lib, jamiyatning eng muhim negizi, uning poydevori hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya o‘z ichiga bolalar tomonidan iqtisodiyot asoslarini o‘rganish, ularning unumli va ijtimoiy mehnatning turli ko‘rinishlarida ishtirok etish, rejalashtirishga doir bilim va malakalarga ega bo‘lish, ishlab chiqarish mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish kabilarni oladi.

**Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi.** Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi insonni iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga, uni jamiyatimiz iqtisodiy hayotida ishtirok etishga, respublikaning tirishqoq, serg‘ayrat fuqarolarini shakllantirishdan iborat.

U bolalar ongida jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonuniyatlari haqida aniq tasavvurlar shakllanishini va shular asosida unda kundalik hayotida zarur bo‘ladigan iqtisodiy bilimlar tarkib topishini ta‘minlashi kerak.

Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi ko‘pgina kundalik muammolarni hal etishga bo‘lgan qarashi o‘zgaradi. Uning negizida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- bolalarda iqtisodiy ongini qaror toptirish, ularda iqtisodiy tushunchalar tizimini shakllantirish;
- ularni jamiyatni iqtisodiy rivojlantirish qonuniyatlari bilan tanishtirish;
- bolalar tomonidan iqtisod, ishlab chiqarishni tashkil etishga doir umumiy ma‘lumotlarni samarali o‘zlashtirib olinishi uchun sharoit yaratish;
- ularda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda fikrlash operatsiyalari (tahlil, sintez qilish, umumlashtirish va b.)ni rivojlantirish;
- eng oddiy iqtisodiy tahlil qilish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Shu sababli maktabgacha yoshdanoq matematika mashg‘ulotlarida iqtisodiy tarbiya elementlarini oshirib borish lozim. Buning uchun bolalarni oila budjeti asoslariga o‘rgatish kerak. Shunda ular turli xil oila harajatlari, oila a‘zolari daromadi (ish haqi, pensiya, stipendiya, yordam puli va b.)ning qanday manbalar hisobiga qoplanishini bilib oladi. Bolalarni budjetning raqamlaridagi ifodasi bilan tanishtirish, oilaning ovqatlanish, kiyim-bosh, poyabzal, kommunal xizmatlar, o‘yin-kulgi, sayr-tamosha va h.k. uchun bo‘ladigan harajatlarni misollar bilan tushuntirish kerak. Shundan keyin bolaning shaxsiy budjetini misol qilib ko‘rsatish maqsadga muvofiq: ota-onalari unga maktabda ovqatlanishga, o‘yin-kulgilarga necha so‘m berishi, ularni qanday sarflashi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya negizida bolalarni daromad va harajatlarni taqsimlashga o‘rgatish,

jamg'armalardan qanday foydalanish mumkinligini ularga gapirib berish maqsadga muvofiqdir. Shundan so'ng bolalarga ishlab chiqarish harajatlari va ularning turlari haqida oddiy tushunchalar berish kerak. Ularga qo'shimcha ishlab chiqarish yoki uy xo'jaligini yuritishni, har qanday faoliyat harajatlari bilan bog'liqligini eng oddiy misollarda tushuntirish zarur. Biror-bir ishni bajarish, tovar ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish uchun bir qancha resurslar sarflash lozimligini tushuntirish kerak.

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI  
BOLALARNI ILK  
IQTISODIY  
TUSHUNCHA VA  
ATAMALAR BILAN  
TANISHTIRISH**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk iqtisodiy tushuncha va atamalar bilan tanishtirish, uning shaxs sifatida ulg'ayib kamol topishida asos bo'la oladi. Shuning uchun har bir guruh tarbiyachisi bolalarni ilk iqtisodiy saboqlari bilan tanishtirish bo'yicha dastur talablarini ya'ni bolalarga beriladigan tushunchalar hajmi, ularni amalga oshirish yo'llari va metodlarini bilish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ilk iqtisodiy tushunchalar (tejamkorlik, oila, mehnat, bozor, do'kon, ishlab chiqarish va savdo)ning o'ziga xos xususiyati shundaki, o'rta guruhda asosan tejamkorlik mavzularida bilim berilib, do'kon, bozor o'yinlari soddaroq shaklda o'tiladi.

Katta tayyorlov guruhlarida mashg'ulot mavzulari deyarli o'zgarmaydi, ammo har bir mavzuni ochib berish, boyitish, kengaytirish hisobiga mashg'ulotni o'tishda faqat shu mavzuga tegishli tushunchalar yangi misollar, yangi muammolar yechib berilaveradi. Shuning hisobiga bolalarning ilk iqtisodiy tushunchalari ham kengayib borishi ko'zda tutilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ilk iqtisodiy ta'lim integral ta'lim asosida olib boriladi: tevarak-atrof bilan tanishtirish, matematika, tasviriy faoliyat, mehnat, o'yin faoliyatlarida olib boriladi.



**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
IQTISODIY TARBIYA  
BERISHDA SHARQ  
MUTAFAKKIRLARI  
FIKRLARIDAN  
FOYDALANISH**

Tarixiy manbalarda iqtisodiy munosabatlarni tashkil etishning ma'naviy-axloqiy mezonlari to'g'risida keng to'xtalib o'tilgan.

Sharq mutafakkirlaridan biri – Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida muayyan yo'nalishlarda iqtisodiy

munosabatlarni tashkil etish (xalq orasida keng tarqalgan so'zlashuv uslubiga ko'ra “tirikchilik qilish”)ning eng muhim vositasi – kasb-hunar egallash ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga kasb yoki hunarlar bo'yicha faoliyatini yo'lga qo'yishda insonning ma'lum fazilatlarga ega bo'lishi uning samaradorligini ta'minlovchi omil bo'lsa-da, biroq u tug'ma fazilat emasligi qayd qilinadi. Xususan, “... insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat to'g'ma emasdir, aks holda uning fikriy fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiyat bo'lib qolar edi. Nazariy va buyuk fikriy fazilat, ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat, malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi. Bunday odamlar cheksiz va juda kuchli tabiat va iroda egalaridir”.

Allomaning fikricha, kasb-hunar asoslarini o'rganish va tanlangan yo'nalishlarda faoliyat yuritish shaxsdan kuch, sabr-toqat va chidamni talab qiladi. Darhaqiqat, irodasi mustahkam, sabr-toqatli, yuzaga keladigan mashaqqatlar oldida ruhiy tushkunlikka tushmaydigan, g'ayratli shaxslargina o'zlari tanlagan kasb yoki hunar yo'nalishlarida puxta bilim olish, o'zlarida yuqori darajada amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, shuningdek, kasbiy va mehnat faoliyatlarida yutuq, muvaffaqiyatlarga erishishning uddasidan chiqa oladilar. Ko'rsatilgan holatlarning to'la namoyon bo'lishida esa ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-pedagogik jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Ya'ni: "... xalqlar va shahar ahllarida axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar odati va irodani hosil qilish uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi.

Ta'lim so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o'rganishlar, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo'lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo'lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularning butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ularo kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar.

Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallangan ishni bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar, yoki hikmatlar o'rgatadi".

Ma'lumki, shaxsni iqtisodiy munosabatlarga tayyorlashda samarali yo'llarning tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'z davrida iqtisodiy munosabatlar jarayonida hal qiluvchi omil – amaliy fazilatlar (kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha egallangan ko'nikma va malakalar)ga ega imkonini beradigan quyidagi yo'llarni taklif qiladi: "bulardan birinchisi – qanoatbaxsh so'zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so'zlar yoramida hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, qasd-intilish harakatga keltiriladi. Ikkinchi yo'l (yoki usul) – majbur etish yo'li. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Chunki, ular o'z istaklaricha so'z bilan g'ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni o'rganishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo'ladi. Kasb-hunarlarini va juz'iy san'atlarni egallashga intilishi bo'lmasa, bunday odamlarni majbur etmaslik kerak, chunki, shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad – ularni fazilat egasi qilish va san'at ahllariga aylantirishdir".

Sharq mutafakkirlaridan yana biri – Abu Rayhon Beruniy ham insonga xos hayot tarzi u mansub bo'lgan jamoada, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarga, bevosita mehnat, oldi-sotti, oldi-berdi

munosabatlari, ularning mazmuniga bog‘liqligiga e’tiborni qaratadi. Alloma “ijtimoiy hayot o‘ziga xos “shartnoma” asosida tuziishini e’tirof etadi. “Inson o‘z ehtiyojlarini tushunib, o‘ziga o‘xshash kishilar bilan yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o‘zaro kelishuvchanlik qabilidagi “shartnoma” tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushigina insonni haqiqiy qudratga erishishiga, uning ehtiyojlarini qondirishiga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat ham qilishi zarurdir... Insonning qadr-qimmatini o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishidan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat bilan belgilanadi, inson o‘z xohishiga mehnat tufayli erishadi”.

Alloma ham o‘z asarlarida iqtisodiy munosabatlar bevosita mehnat hamda kasbiy faoliyat (hunarmandchilik)ning yo‘lga qo‘yilishi bilan bog‘liqligini, shu bois bolaga yoshlikdan hunar o‘rgatish zarurligini aytib o‘tadi hamda bu o‘rinda hunar o‘rgatishning yo‘llari, metodlarini ko‘rsatadi. Mutafakkirning fikricha, bolaga hunar asoslarini o‘rgatishning eng samarali yo‘li – bu vorislik, sulola an’analari rioya etish, shaxsiy namuna ko‘rsatish deya ta’kidlaydi.


Abu Rayhon Beruniyning “Mineralogiya” asarida “hunarmandchilikni yo‘lga qo‘yish, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rgatish metodlari” haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda hozirgi pedagogika fani tili bilan aytganda, shaxsiy namuna metodidan foydalanilgani, ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilgani shogirdlarning malakali usta bo‘lib yetishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘sha davrda Xuroson, Movarounnahr zebi-ziynat buyumlari yasash, metallurgiya, konchilik, to‘quvchilik, qog‘oz va oyna ishlab chiqarish kabi sohalarda dunyo bozorida nom chiqargan.

Hunarmandchilikning bunday yakka holda o‘rgatilishi malakali kasb egalari yetishib chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo‘llaganki, bu insonning kamolga yetishishida muhim pog‘ona bo‘lgan”.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida jamiyat a’zolari tomonidan yo‘lga qo‘yiladigan iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllaridan sanalgan tijorat va

bozorgonlik (bozor sharoiti (muhiti)da savdo-sotiqni yo‘lga qo‘yish) masalalari alohida bob asosida yoritilgan. Muallifning qayd etishicha, tijorat hamda bozor ishlarini tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – foyda topish (ko‘rish) jarayoni “aql asosiga qurilmish”. Tijorat va savdo-sotiqni tashkil etishda “o‘zining moli va taniga dalir (shijoatli) bo‘lmog‘i, bebok (tortinmas, hayosiz, beparvo) bo‘lmasligi, o‘zining nafi uchun o‘zgalarning ziyonin tilamasligi kerak” deyiladi.

Kaykovusning “Qobusnoma” asarida, shuningdek, tijorat va savdo-sotiqni tashkil etishda bir qator shartlarga rioya etish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi. Allomaning bu boradagi qarashlarini mohiyatiga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:



### **Tijorat va savdo-sotiq faoliyatini tashkil etish**

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
IQTISODIY TARBIYANI  
SAMARALI TASHKIL  
ETISH**

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach, iqtisodiy madaniyatni yuksaltirish davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor

iqtisodiyotiga o'tish o'munosabati bilan asosiy o'zgarishlar amalga oshirilib, bozor madaniyatini shakllantirish uchun jiddiy asos yaratildi. Iqtisodiy madaniyat rivojining asosiy omillaridan biri bo'lgan xo'jalik yuritish erkinligining asosi ta'minlandi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, barcha mulk shakllarining teng huquqli ekanligi va ularning bab-baravar muhofaza etilishi, xususi mulkning ham davlat muhofazasiga olinganligi belgilab berildi. Iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi uchun keng yo'l ochildi. Aholining iqtisodiy bilim saviyasi va malakasini, iqtisodiy fikrlash qobiliyatini kengaytirish, mehnatga bo'lgan ijodiy yondashuvini kuchaytirish, ularning tadbirkorlik faoliyatidagi ishtirokini faollashtirishga asosiy e'tibor qaratilib, ularni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshiriladigan **iqtisodiy tarbiyaning maqsadi** bolalarni iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga tayyorlashdir.

Mazkur maqsadga erishishda quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish lozim:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash doirasini kengaytirish va chuqurlashtirishga imkon beruvchi turli vaziyatlarni ishlab chiqish;
- iqtisodiy tushunchalar bilan bog'liq vaziyatlarni hal etishni amalga oshirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish;
- iqtisodiy bilimlarni egallashga zamin bo'luvchi, mantiqiy-matematik tasavvurlarni rivojlantiruvchi o'yinlar majmuini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish o'rta guruhdan boshlanib, "Ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya dasturi"ga ko'ra mazkur yosh guruhida bolalarni olti xil iqtisodiy tushuncha bilan tanishtirish ko'zda tutiladi:

 iqtisod;

- ✚ mehnat;
- ✚ boylik;
- ✚ mulkiy munosabatlar;
- ✚ bozor;
- ✚ pul.

Katta yosh guruhi bolalariga esa oʻrta guruhda oʻrgatilishi moʻljallangan tushunchalar mohiyatini kengroq va toʻliqroq yoritish bilan birga quyidagi sakkiz turdagi iqtisodiy tushuncha haqidagi bilimlar tarkib toptiriladi:

- ✚ iqtisod;
- ✚ mehnat;
- ✚ boylik;
- ✚ mulkiy munosabatlar;
- ✚ tadbirkorlik;
- ✚ bozor;
- ✚ pul;
- ✚ mahsulot.

Maktabga tayyorlov guruhida esa oʻn bir xil iqtisodiy tushuncha mazmuni yoritib beriladi:

- ✚ iqtisod;
- ✚ mehnat;
- ✚ oila;
- ✚ jamiyat;
- ✚ aloqa;
- ✚ maʼnaviyat;
- ✚ qoida va tartibni saqlash;
- ✚ boshqaruv;
- ✚ savdo;
- ✚ pul;
- ✚ mahsulot.

Ilk iqtisodiy ta'lim-tarbiya mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining "Atrof-olam to'g'risida bilimga ega bo'lish va uni anglash" hamda "Elementar matematik bilim va ko'nikmalar"ni tarkib toptirishga doir mashg'ulotlar negizida amalga oshiriladi.

Bolalar iqtisodiy tushuncha va tasavvurlarni o'yin, amaliy mashqlar orqali oson va tez qabul qiladi. Bunday usullar, bolalarning iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy terminlar olamiga oson va qiziqarli yo'llar bilan kirishiga omil bo'ladi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. "Iqtisod" tushunchasi qachon va kim tomonidan fanga kiritilgan?
2. "Iqtisod" atamasi qanday ma'nolarda tasniflanadi?
3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi nimalardan iborat?
4. Iqtisodiy tarbiyaning negizida qanday vazifalar hal etilishi mumkin?
5. Abu Nasr Forobiy amaliy fazilatlar (kasb yoki hunar yo'nalishlari bo'yicha egallangan ko'nikma va malakalar)ga ega bo'lish imkonini beruvchi qanday yo'llarni taklif qiladi?
6. Abu Rayhon Beruniyning qaysi asarida "hunarmandchilikni yo'lga qo'yish, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o'rgatish metodlari" haqidagi fikrlar bayon etilgan?
7. Kaykovusning fikricha, tijorat, savdo-sotiq ishlarini samarali tashkil etish qanday omillarga bog'liq?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bilan tejamkorlik bo'yicha olib boriladigan noan'anaviy mashg'ulot ishlanmasini yarating.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA FUQAROLIK TARBIYASINI BERISH



*Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!  
Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!  
Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!  
Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!  
Abdulla Oripov*

### REJA:

1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari.
2. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalash.
3. Davlat ramzlariga nisbatan hurmat hissini shakllantirish.
4. Rivojlantirish markazlarida bolalarda Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash.

*Tayanch tushunchalar:* fuqaro, fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik tarbiyasining maqsadi, fuqarolik tarbiyasining vazifalari, fuqarolik tarbiyasining mazmuni, fuqarolik tarbiyasining shakllari, davlat ramzlari, bayroq, gerb, madhiya.

### FUQAROLIK TARBIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Mustaqil respublikamizda shakllanayotgan milliy istiqlol g'oyalari fuqarolarini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvarlik, demokratik,



huquqiy davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik (huquqiy) madaniyatini qaror toptirish fuqarolik (huquqiy) jamiyatning asosiy talabi sanaladi.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish: bir tomondan, jamiyat manfaatlari uchun, ikkinchi tomondan, shaxs (fuqaro) manfaatlari, shuningdek, jamiyat hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatlariga to'la mos keladi. Shu sababli respublika mustaqilligi sharoitida ijtimoiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish mazmunini tubdan yangilash zaruriyati yuzaga keladi. Ijtimoiy tarbiyani keng ko'lamda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda.

O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizm sifatida maydonga chiqadi. Huquqiy o'ri qonun yo'li bilan kafaolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'iy nazar, ma'lum bir davlatga qarashlilik holatiga **fuqarolik** deyiladi.

Shunday huquqqa ega shaxs **fuqaro** deb ataladi.

Jamiyat tomonidan qonunchilik yo'li bilan belgilangan talab fuqaro xulqini baholash, xatti-harakatlar mohiyatini tahlil qilish uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Ana shu talablarga muvofiq fuqaroning xulq-atvoridagi ayrim ko'rinishlar, harakatlar yoki odatlar ma'qullanadi yoki qoralanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining **maqsadi** erkin, demokratik, insonparvar, huquqiy davlat va jamiyat qurishdir. Bu jamiyatni bunyod etish jarayoni yangi ijtimoiy fuqarolik tarbiyasi vazifalarini murakkablashtiradi. Chunki, demokratik-huquqiy jamiyat barpo etilishining muvaffaqiyati fuqaroning ijtimoiy-siyosiy onglilik darajasiga, fuqarolik fazilatlarining qaror topganligiga, ijtimoiy faollik ko'rsatkichlariga bog'liq. Fuqarolikning ijtimoiy asosi yangi iqtisodiy munosabatlar bo'lib, unda fuqarolarning shaxsiy manfaati

jamiyat manfaati bilan qo‘shilib uyg‘unlashib ketadi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar g‘oyalari, demokratik talablar hamda axloqiy-huquqiy me‘yorlarga muvofiq faoliyat yuritish ijtimoiy fuqarolik munosabatlarining muhim qoidasiga aylanadi.

Fuqarolik tarbiyasining **maqsadi** fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglash orqali yosh avlodda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Fuqarolik tarbiyasining **vazifalari** asosan quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me‘yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish;
- bolalarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risidla dastlabki ma‘lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida elementar ko‘nikma va malakalar hosil qilish;
- bolalarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha‘ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;
- bolalarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlariga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ularda g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;
- Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishiga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;
- Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e‘zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e‘tiborini jalb etish;
- bolalarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Davlat Konstitutsiyasida ko‘rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarining bajarilishi xususida ma‘lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil

etishda huquqlaridan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

**MAKTABGACHA  
YOSHDAGI  
BOLALARDA  
VATANPARVARLIKNI  
TARBIYALASH**

Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U avlodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira.

Vatan ota-bobolarimizning hoki poklari jo bo'lgan, vaqti soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Vatani bor odamning g'ururi, iftixori yuksak, maqsad muddaolari aniq bo'ladi. Tog'dek tayangan Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi.

Vatanparvarlik esa, eng avvalo, kindik qoni to'kilgan joyga qarindosh-urug' va mahalla-ko'yga, el-yurt, ona zaminga bo'lgan hurmat-e'tibor, mehr-muhabbatdan boshlanadi. Vatanparvarlik ijtimoiy, tarixiy va axloqiy his-tuyg'u sifatida insonlar jamiyatining ijtimoiy taraqqiyoti davomida paydo bo'ladi. Buyuk o'zbek mutafakkirlarining fikricha, biz tug'ilgan yurtimizdan uzoq bo'lsak, bizni tortib keladigan quvvat o'z vatanimizning, ona tuproqning mehru-muhabbatidir.

Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin, vatanparvarlik o'zi nima? U qanday maqsadga xizmat qiladi?

Milliy vatanparvarlik, avvalo, o'z xalqining qoniga singib ketgan imon va insof, mehr-muhabbat, oqibat, shafqat, vijdon va andisha, or-nomus, ona yurtga, o'z millatiga sadoqat kabi azaliy axloqiy-ma'naviy qadriyatlar haqidagi g'oyalar, qarashlar yig'indisidir.

Bugungi kun milliy vatanparvarlik mafkurasining tarkibiy qismlari quyidagilar:

- mustaqillik tuyg'usi va uni to'la idrok etish;
- o'zbek milliy mafkurasi;

➤ ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining vatanparvarligi.

Vatanparvarlik jamiyatdagi barcha kishilarni, millat va elatlarni ijtimoiy-siyosiy kuch va guruhlarni birlashtiruvchi muhim omil ekanligini doimo diqqat markazida saqlash lozim.

Vatanparvarlik tuyg‘usi, tarbiyachi va ota-onaga, o‘z mahallasi, qishlog‘i, tumani, shahri viloyatiga bo‘lgan cheksiz muhabbatdan, uning tarixi, madaniyatiga hurmat va sadoqatdan boshlanadi. Vatan tuyg‘usi kichkina odam ko‘z o‘ngida ko‘rayotgan narsadan qoyil qolishdan, uni hayratlantiradigan va qalbida aks sado beradigan nar-salardan boshlanadi.

Kattalarning vazifasi - bola oladigan ko‘plab taassurotlardan unga eng tushunarli bo‘lganlarini, eng yaqin kishilari, jonajon o‘lka, uning tabiati va hayvonot dunyosi, xalq farovonligi, Vatanning gullab yashnashi yo‘lidagi mehnati, o‘rtoqlik, o‘zaro yordam va boshqalarni tanlab berishdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolaning tushunchasiga nima ko‘proq mos keladi va nima uni qiziqtirishi, hayajonlantirishi mumkin?

Dastavval, u tug‘ilgan va yashayotgan joylar. Jonajan ona tabiat Vatanga muhabbatni tarbiyalashning kuchli omillaridan hisoblanadi. Uning go‘zalligidan zavqlanish, tabiatiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, inson mehnatining tabiatdagi o‘zgartiruvchanlik rolini tushunish - bularning hammasi jonajon o‘lkaga muhabbatni shakllantirish manbalaridir.

Odam Vatanga bo‘lgan muhabbatini o‘zi tug‘ilib o‘sgan oilasi, bolalar bog‘chasi va maktabi, bolalar bilan o‘ynagan o‘yinlari va joylari bilan bog‘laydi.

Vatanga muhabbat eng chuqur ijtimoiy hislardan biridir. Bizning davlatimizda Vatanga muhabbat hissi baynalmilalchilik bilan uyg‘unlashib ketadi. Vatanga muhabbat maktabgacha yoshdagi bolalarda kattalar tomonidan bolalarning ruhiy rivojlanishini va ular tafakkurining aniq hamda obrazlilikini e‘tiborga olgan holda ma‘lum izchillik bilan tarbiyalab borila-di. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarda Vatanga muhabbatni, ularga yaqin va tanish bo‘lgan aniq faktlar, yorqin misollar orqali tarbiyalab boriladi. Tarbiyachilar

bolalarda o'z oilasiga, uyiga, bog'chasiga va ularni o'rab turgan tevarak-atrofga muhabbat hamda ularga sodiq bo'lishni o'rgatish orqali eng muhim ijtimoiy tuyg'u - Vatanga muhabbatni tarbiyalab boradi.

O'zbekiston xalqining vatanparvarlik tarbiyasi, baynalmilallik tushuncha bilan yo'g'rib ketganki, har bir fuqaro O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarini hurmat qiladi.

Baynalmilal tarbiya Vatan ravnaqi yo'lida xalqlar do'stligi, birdamligi, hamkorligi, hamfikrligi, hurmat kabi tushunchalarni tarbiyalashdir. Mamlakatimiz ko'p millatli maskan bo'lib, unda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni baynalmilalchilik ruhida tarbiyalash asosida boshqa millat xalqlariga ijobiy munosabat va do'stona his-tuyg'ular uyg'otish maqsadi yotadi.

**DAVLAT  
RAMZLARIGA  
NISBATAN HURMAT  
HISSINI  
SHAKLLANTIRISH**

Davlatimiz ramzlari - bayroq, gerb, madhiya O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash o'zining qadri-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash demakdir. O'z mamlakati bilan faxrlanadigan inson juda ko'p narsalarga qodirdir. Bu esa oilaning ham o'z Vatanining ham shon-shuhratini oshiradi.

Davlat ramzlari muayyan millatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy-ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuyidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerbi hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuyini ifodalaydi. Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmun ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerb) tasvirlangan ranglar, tasivrlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalarini ifodalashiga xizmat etadi. Davlat

madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlat mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardan oq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan. Davlat bayrog'i, gerbi ham jahon miqyosida mavjud bo'lgan muayyan davlatning o'z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi. Shu bois, "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida"gi 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o'tkazilgan VII sessiyasida, "O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida"gi 1992-yil 2-iyulda Oliy Kengashining X sessiyasida qabul qilingan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bayrog'i 4 xil rangda bo'lib, ko'k, qizil, oq, yashil ranglardir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyalangan. Respublika bayrog'ida yurt tarixi, o'zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiati jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushirilgan. Moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obi-hayot ramzidir. Timsollar tilida bu yaxshilikni, donishmandlikni, shon-shuxrat va sadoqatni bildiradi. O'rtadagi oq rang esa yorug' kun va pokiza, oq ko'ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda urayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim - qadimdan tabiatning yangilanish belgisi, oy (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o'ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir, yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga, muchal hisobiga nisbatdir. Milliy bayrog'imizning huquqiy maqomi, O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi ma'lumotlarni bolalarga yetkazish mashg'ulotlarda, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi. Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun xizmat

qiladi. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari respublika bayrog‘i hamda chet ellik mehmonlarni hurmat qilishi shart. Davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatsizlik qilgan shaxslar qonun yo‘li bilan jazolanadi.

Davlat ramzlarining yana biri, bu - davlat gerbidir. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining qabul qilinishi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi qonun g‘oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasi asosida amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog‘lar, daryolar, bug‘doy boshloqlari (chap tomonda), ochilgan g‘o‘za shoxlarining (o‘ng tomonda) gulchambar holdagi tasviri aks ettirilgan. Gerb o‘rtasidagi serquyosh yurt ramzi bo‘lgan quyosh o‘zining zarrin nurlarini sochib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo‘lib, ichida yarim oy va yulduzlar joylashtirilgandir.

Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo‘lgan kumush rangli Xumo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Gerbning pastki markaziy qismida Davlat bayrog‘i ranglaridagi chambar lenta o‘zagida «O‘zbekiston» so‘zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ma‘lum bir g‘oya, kuch birlashtiradi degan ma‘noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug‘doy boshloqlarining tasviri rizq-u ro‘zimiz nishonasidir. Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo‘riqlanadi.

Madhiya - har bir davlatning bosh va asosiy qo‘shig‘i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o‘ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi”da jonajon mamlakatimiz O‘zbekistonning asosiy jihatlari, betakror tabiati xalqimizning ajoyib xislatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag‘rikengligi, mustahkam iymon jo‘shqin misralarda kuylanadi. Yurtimizning kelajagiga umid va ishonch uyg‘otadi. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” O‘zbekiston Oliy Majlisining 1992-yil 8-dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida O‘zbekiston

Respublikasi Davlat madhiyasi sifatida qabul qilindi. Ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida bolalarga davlat ramzlari va ularning mohiyati borasidagi ma'lum otlarni berish, ularning ongiga davlat ramzlarining xalq, millat or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmati timsoli ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni singdirish orqali bolalarda ularga nisbatan hurmat tuyg'usini qaror toptirish kabi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq sanaladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi matni bolalar tomonidan nafaqat yod olinishi, balki madhiyada ifoda etilgan fikrlar mazmunini chuqur tahlil etilishi borasida shart-sharoitlarni yaratib berish ta'lim muassasalari jamoasi, ularning rahbariyati oldidagi asosiy vazifalardan biridir.

Inson shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi. muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlariga hurmatsizlik bilan munosabatda bo'ladigan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish lozimligini uqtirib borish maqsadga muvofiqdir.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik hissini tarbiyalashning ahamiyati.
2. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari asosan nimalardan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasi davlat ramzlari haqida ma'lumot bering.
4. Baynalmilal tarbiyani tavsiflang.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari" mavzusiga tarbiyaviy tadbir ssenariysini tayyorlang.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASH

*Estetik tarbiya - bu ijodiy shakllanishning maqsadli jarayoni bo'lib, go'zallikni idrok etish, his qilish, baholash va yaratishga qodir bo'lgan shaxsning badiiy shakllanishidir.*

*B.T.Lixachev*



### REJA:

1. Estetik tarbiyaning mazmuni va mohiyati.
2. Tarbiyalanuvchilar estetik madaniyatini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
3. Tarbiyalanuvchilarda estetik rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Tarbiyalanuvchilarning estetik tarbiyalash omillari va vositalari.
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa ta'limi va tarbiyasining maqsad hamda vazifalari.

*Tayanch tushunchalar: estetika, estetik tarbiya, badiiy tarbiya, estetik ehtiyoj, estetik qiziqish, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik ideal, mehnat, san'at, qo'g'irchoq teatri, kitob, ertak, tasviriy san'at, musiqa, alla.*

### ESTETIK TARBIYANING MAZMUNI VA MOHIYATI

Ta'lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o'z diqqat-e'tiborini alohida shaxsga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Bu turdagi tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

**Estetik tarbiya** (lot. "estezio" – go'zallikni his etaman) – shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat, mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok


etish, to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning estetik didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish, shuningdek, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan estetik tarbiya tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. **Estetik tarbiyani olib borish jarayonida** tarbiyalanuvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Estetik tarbiyaning maqsadi** shaxsning voqelikka estetik munosabatini shakllantirishdan iborat.

Tarbiyalanuvchilar o'rtasida qo'l mehnati, musiqa, tasviriy san'at mashg'ulotlarida, ertaklar o'qish chog'ida estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud.

Nafosat tarbiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:



Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga

xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg'ulariga, tasavvuriga, e'tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta'sir o'tkazishni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi.

Estetik tarbiya ham ana shu umumiy maqsad va vazifaning tarkibiy qismi sifatida amal qilib, tarixiy-ijtimoiy jihatdan ahamiyatga molik xodisani anglatadi. Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi dunyoda umuman tarbiya maqsadi estetik asosda namoyon bo'lgan. M: qadimgi yunonlarda estetik tarbiya maqsadi fuqarolarning har tomonlama rivojlanishiga, "ruh va badan" hamohangligini qaror toptirishga yo'naltirilgan edi. Aristotel va Platon kabi buyuk mutafakkirlarning ta'limotlarida estetik tarbiya tizimining bir-biridan farqli tomonlari bo'lgani holda umumiylik ham mavjud bo'lib, u yagona estetik orzuni qapop toptirishga, yagona axloqiy xulq-atvor va fuqarolik sifatlarini shakllantirishga xizmat qilgan edi.

Avvallari estetik tarbiya o'ta tor va bir tomonlama talqin qilinardi, ya'ni uni san'at asarlarini to'g'ri idrok etish, bu bilan alohida lazzatlanish yoki biror san'at turini bilib olib, muayyan badiiy ko'nikmalarga ega bo'lish doirasida in'ikos etilardi edi. Ba'zan estetik tarbiyaga odamlarda yuksak estetik did-farosatni shakllantirish sifatida qaralardi edi. Bularning barchasi badiiy-estetik tarbiyaning vazifa va maqsadlari doirasiga kirardi.

Badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u estetik tarbiyaning asosiy mazmunini va maqsad yunalishlarini to'la ifodalamaydi. **Badiiy tarbiyaning asosiy maqsadi** – estetik munosabatni san'at vositalari yordamida shakllantirishdir. Estetik tarbiya bilan badiiy tarbiyani bir-biriga tenglashtirish ham, qorishtirish ham, qarama-qarshi qo'yish ham xato bo'lardi. Shuni nazarda tutish lozimki, estetik tarbiya san'at bilan chegaralanib qolmaydi, balki uning asosiy mazmuni insonning voqelikka estetik munosabatini faollashtirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Voqelikka estetik munosabat o'z xususiyatlariga ega bo'lgan holda nisbiy mustaqillikka ham ega bo'lib, foydali-amaliy, ilmiy-nazariy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, voqelikka bo'lgan inson munosabatining har qanday

ko‘rinishi estetik mazmundan ajralib qolsa, u asl insoniy mohiyatini yo‘qotib qo‘yadi.

Estetik tarbiyaning estetik ongini shakllantirish maqsadi va vazifasi ko‘proq yosh avlodga taalluqli estetik ongini shakllantirish demakdir. Estetik tomonsiz dunyoqarash chala, biryoqlama bo‘lib qolishi turgan gap, estetik dunyoqarash falsafiy, axloqiy va boshqa dunyoqarash sohalaridan bahramand bo‘lib, o‘z navbatida ularni ham boyitib turadi.

Estetik tarbiya, eng avvalo, odamlarning estetik didlari shakllanishiga katta ta‘sir o‘tkazadi. Shaxs o‘zligi uning estetik didi orqali namoyon bo‘ladi. Estetik didda inson aqliy va xissiy dunyosi, orzu-umidlari, talab-extiyohlari, maqsad-manfaatlari ro‘yobga chiqishi ifodalanadi. Did faqat kayfiyat baholarigina emas, balki inson faoliyati samaralari vositasida ham ifoda topadi. Inson faoliyatining barcha samaralarida uning didi aks etadi.

Estetik tarbiya o‘z diqqat-e‘tiborini shaxs estetik ehtiyojlarini shakllantirishga qaratadi, xilma-xil o‘ta murakkab talab-ehtiyojlarni birlashtiradi, uyg‘unlashtiradi va hamohang tarzda amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Estetik tarbiyaning inson talab-ehtiyojlari madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ham beqiyosdir, zero insonning talab-ehtiyojlari madaniyatida muayyan mezon tuyg‘usi ham mavjud bo‘lishini, bu mezon tuyg‘usi shaxsiy ehtiyojni jamiyat ehtiyoji bilan mutanosib tarzda ko‘shib olib borishni taqozo etadi. Ana shu mezon tuyg‘usida yetuklikka erishish estetik tarbiyaning eng muhim vazifalaridan biridir.

Estetik ehtiyoj faqat moddiy va ma‘naviy go‘zalliklardan lazzatlanishgina emas, balki har qanday amaliyot sohasida narsalarni nafosat qonunlariga rioya qilgan holda yaratishni, faoliyatga go‘zallikni tatbiq qilishni ham bildiradi. Shu bois estetik tarbiya hayot jabhalarining hammasiga o‘qish, mehnat qilish, ilmiy va texnik izlanish, jamoaviy faoliyatga tatbiq etilishi lozim bo‘ladi.

Bolalarni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshadi. Estetik tarbiyani tashkil etish tizimida qator tamoyillar yotadi.

Estetik tarbiya va badiiy ta'limning hamma uchun umumiyligi shundaki, kattalar va bolalar ma'naviy hayotda, kundalik mehnat, san'at va tabiat bilan muloqotda, turmushda va shaxslararo munosabatda estetik hodisalar bilan doimiy ravishda o'zaro munosabatda bo'ladi. Anna shu jarayonda ularning go'zalligi va xunukligi, fojiali va kulgili jihatlari namoyon bo'lib boradi. Bundan ma'lum bo'ladiki, estetik savodlilik, ideallar, estetik rivojlanish va badiiy ta'limsiz, ishda mahsulotni estetik takomilga yetkaza olmasdan, shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib rivojlanishi mumkin emas.

Estetik tarbiyani tashkil etish tizimi yana **barcha tarbiyaviy ishlarga yaxlit yondashuv** tamoyiliga asoslanadi. Bolalarning estetik tarbiyasida san'atning barcha turlari o'z-o'zidan birga harakatlanadi, bolaga yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro harakat badiiy asarlar, tasviriy san'at, musiqiy savodxonlikni oshirishda mustahkam aloqadorlik natijasida amalga oshadi. Bundan tashqari estetik tarbiya fan, mehnat, jismoniy madaniyat, estetik munosabat va turmush go'zalliklarini ochish hisobiga ham amalga oshadi.

Estetik tarbiya tizimi **bolalarning butun badiiy-estetik faoliyatini hayot, jamiyatning amaliy taraqqiyoti, bolalarda dunyoqarash va axloqiylikni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro aloqadorlik** tamoyiliga tayanadi. Jamiyatning demokratlashuvi – go'zallik va axloqiylik manbaidir.

Bola shaxsining estetik va umumiy shaklanishi o'zaro aloqadorligi **bolaning badiiy va umumiy psixik rivojlanishi birligi** tamoyilini taqozo etadi. Bolalarning badiiy-estetik faoliyati ularda his etish, emotsiya, obrazli va mantiqiy xotira, nutq, fikrlashni jadal rivojlanishini ta'minlaydi.


Estetik tarbiyaning amaliyligi to'g'ridan-to'g'ri **bolalarning badiiy-ijodiy va mustaqil faoliyati** tamoyiliga amal qilinishiga bog'liqdir. Milliy xalq o'yinlari, xalq qo'shiqlari, she'rlar, hikoyalar, ocherklar tadqiqotchilik

ko'nikmalarini hosil qiladi, bolalarning badiiy rivojlanishi, alohida va jamoaviy ijodkorligi vositasida ma'naviy hayot mazmuni shakllanadi.

**Bolalarning butun hayotini estetikashtirish** tamoyili munosabat, faoliyat, bolalarning munosabatlarini go'zallik qonunlari, ulardan quvonish hissini uyg'otish asosida tashkil etishni talab etadi.

Bolalarning estetik tarbiyasi tizimi ularning **yosh bilan bog'liq psixologik-pedagogik o'ziga xosliklarini hisobga olish** tamoyili asosiga quriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida estetik tarbiyani tizimli tashkil etishda uning mohiyatini, uning yetakchi g'oyalari ifodalovchi ushbu tamoyillarga qat'iy rioya etiladi:



### **Estetik tarbiyaning ustuvor tamoyillari**

Estetik tarbiya insonning estetik ongini shakllantirish jarayonida uni axloqiy, mehnat, ekologik jihatlardan ham tarbiyalash vazifalarini qamrab oladi. Estetik tarbiyaning axloqiy tarbiyaga ta'siri shundaki, nafosat olami ezgulik va yaxshilikdan, beg'arazlikdan ajralmagan holda amal qiladi. Estetik tarbiyaning


mehnat tarbiyasi bilan birlashish asosi shundaki, mehnat jarayoni shaxsning tabiiy ehtiyojiga aylanib borishida o'z ifodasini topadi. Estetik tarbiya bilan ekologik tarbiya bog'liqligi esa tabiatga beg'araz, insoniy munosabatda bo'lishda, jamiyat bilan tabiat o'rtasida hamohang aloqadorlik munosabatlarini o'rnatishda namoyon bo'ladi.

**TARBIYALANUVCHILAR  
ESTETIK MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISHNING  
TARKIBIY QISMLARI**

Estetik tarbiya insonparvarlik mohiyatiga ega bo'lib, estetik orzu mos keladigan voqelikni idrok etish, baholash va nafosat qonunlari asosida qayta yaratishga qobil bo'lgan bola shaxsini shakllantirishga mo'ljallangan ta'lim-tarbiya sohasidir.

Estetik madaniyatni shakllantirish – borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadriyatlardan zavqlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu orqali bolalarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi.

Oilada va ta'lim muassasalarida nafosat tarbiyasini tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda estetik ehtiyoj, estetik qiziqish, estetik ong, estetik mulohaza, estetik did, estetik ideal shakllantiriladi:



Shaxsning voqelikni estetik jihatdan bilib olishga undovchi sub'ektiv omillar **estetik ehtiyoj** deb ataladi. Shaxsning estetik faoliyatiga, voqelik va san'at asarlarini estetik jihatdan o'zlashtirishga kirishishi **estetik qiziqish** deb ataladi. Ijtimoiy voqelik, tabiat, san'at bilan bevosita muloqot jarayonida – nazariyalar, qarashlar, badiiy ta'lim va tarbiya natijasida shakllanadigan xususiyat **estetik ong** deb ataladi. Shaxsning aniq bir estetik hodisaga munosabatini bildiruvchi aqliy harakati **estetik mulohaza** deb ataladi. Estetik axborotlar oqimi, estetik va axloqiy normalar yig'indisi orqali shakllanadigan va shaxsning buyum, hodisalarga estetik baho berishida yaqqol namoyon bo'ladigan hodisa **estetik did** deb ataladi. Shaxsning tabiat, jamiyat va san'atdagi maqsad tarzida idrok etadigan, takomillashgan go'zallik borasidagi bahosining aks etishi **estetik ideal** deb ataladi.

**TARBIYALANUVCHILARNI  
ESTETIK  
RIVOJLANTIRISHNING  
O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLAR**

Maktabgacha ta'limning ilk yosh davri bolalari ham tevarak-atrofdagi, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at asarlari, tabiatdagi go'zallikni idrok eta oladi, shuningdek, o'zlari rasm chizish, yasash, kuylash, raqs tushish, she'r yodlay olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bolalarda kuzatiladigan ushbu holatlar estetik tarbiyani maktabgacha ta'lim davridanoq boshlash haqida xulosa qilishga imkon beradi.


Estetik tarbiya – shaxsda tabiat, mehnat, ijtimoiy munosa-batlardagi go'zallikni estetik ideal nuqtai nazaridan idrok etish va baholash, shuningdek, voqelikni go'zallik qonunlariga ko'ra o'zgartirish ehtiyojini his etish qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan muntazam ta'sir jarayonidir.

Estetik tarbiya – bolani tarbiyalashning muhim jihatini o'zida aks ettirib, u hissiy tajriba, shaxs emotsional sohasini boyitishga imkon beradi, borliqni axloqiy jihatdan anglashga ta'sir ko'rsatadi, bilish faolligini oshiradi, hatto



jismoniy rivojlanishga ham ko'maklashadi. Estetik tarbiya natijalari estetik rivojlanishda o'z aksini topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashning vazifalarini ikki guruhga ajratish mumkin:



### **MTT da tashkil etiladigan estetik tarbiya vazifalari**

tarbiyani amalga oshirishning o'ziga xosliklari ham aniq namoyon bo'ladi.

**Ilk yoshli bolalarda** hali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq buyoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolalarda hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o'ynaydi. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishiga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki humrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari bolalarda shu buyumga yoki uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi.

Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki asta-sekin takomillashib boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu

yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta'siri paydo bo'ladi.

**O'rta yosh guruhi** davrida bolalar estetik idrokining rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. Ammo u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'liq bo'lib qoladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladi, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladi.

Bolalarda go'zallikni idrok etish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga qo'shilib bemalol harakat qiladi, ularning muayyan vaziyatda o'zlarini qanday tutishlarini aytib turadilar, go'yo o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadi. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradi va ba'zi bir xulosalar chiqaradi. Bolalarni she'rni hikoyadan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy san'at va musiqaning ayrim turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va b.) bir-biridan ajrata boshlaydi.

**Katta yosh guruhining** oxiriga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydi, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadi, ulardagi ijobiy qahramonlar xatti-harakatlardan quvonadi, yomonlikni qoralaydi. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarda badiiy ijodiy qobiliyat rivojlana boshlaydi, ular mustaqil ravishda topishmoqlar, ashulalar, ertaklar, she'rlar to'qiydilar, applikatsiya va rasmlar ishlaydi. Endi ular o'zlarining va o'rtoqlarining ishlarini baholaydigan bo'lib qoladi.

Kuzatayotgan san'at asarlari, eshitayotgan musiqa asarlari, o'qilayotgan she'rlarning eng nozik tomonlarini ko'ra biladilar, seza boshlaydi. Badiiy asarlardagi ba'zi she'riy obrazlarni eslab qoladilar va o'z nutqlarida ishlatadilar.

Tevarak atrofdagi go‘zallikka, san’atga, badiiy va o‘yin faoliyatining xilma-xil turlariga nisbatan ularda qiziqish shakllana boshlaydi.

**TARBIYALANUVCHILARNI  
ESTETIK TARBIYALASH  
OMILLARI VA VOSITALARI**

Shaxsning estetik madaniyatini shakllanishi ko‘p jihatdan estetik kamolotiga ta’sir o‘tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga bog‘liq. Bunday

tashqi va ichki shart-sharoitlar **estetik tarbiya omillari** deb ataladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun ma’lum bir sharoitlarni yaratish lozim. Bolalarni o‘rab turgan muhit, **turmush estetikasi** ana shunday eng muhim omildir. Agar muhit estetiklikka asoslangan bo‘lsa, agar bola odamlar orasidagi xushmuomala munosabatni ko‘rsa, tevarak-atrofdan olingan taassurotlar ijobiy tavsifga ega bo‘lsa, u kichikligidanoq estetik borliqni o‘zi uchun me’yor sifatida qabul qiladi. Turmush estetikasi o‘zida ko‘plab detallarni qamrab oladi.

Shuningdek, bolalarni borliqni va uning go‘zalligini tahlil etib borishga o‘rgatish lozim: “Seni ko‘ylagingga qaysi rangdagi tufli mos tushadi deb o‘ylaysan?”, “Uyimiz devoriga ko‘proq qaysi rangdagi parda to‘g‘ri tushadi: ko‘kmi yoki yashil?”. Mazkur holatda bolaning aynan javobining o‘zi muhim emas, asosiysi uning e’tiborini rangning mos kelishi yoki kelmasligiga qaratish, shuningdek, bolada u ham go‘zallik yaratishi mumkinligi haqidagi xulosani hosil qilishga erishishdir.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili – tabiatdir. Tabiat bilan doimiy ravishda munosabatda bo‘lmay turib, estetik jihatdan rivojlanish, estetik tarbiyani uyushtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, tabiat hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan go‘zallik manbai. U estetik his-tuyg‘u, kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun boy material beradi. Ayniqsa, tabiat badiiiy obrazlar orqali ifodalansa, yanada o‘zining estetik jihatini yaqqol namoyon etadi.

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go‘zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi.

Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa, chuqur va yorqin idrok qilinadi, inson ularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rang-barangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar. Mana shu jihatdan estetik tarbiyaning yana bir omili sifatida **mehnat** yuzaga chiqadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti yer maydonchasi va tabiat burchagidagi o'simlik va hayvonlarni kuzatish hamda parvarish qilish bolalarda estetik idrokni, ularga nisbatan to'g'ri munosabatni, go'zallik yaratish xohishini shakllantiradi hamda qizg'in faoliyatga undaydi. Yilning yoz fasllarida polizda, gulzorda, yer maydonchasida mehnat qilish jarayonida ham bolalar estetik zavq oladilar. Kuzda o'z mehnati mevasini yeyish bolaga alohida estetik huzur bag'ishlaydi. Dala va bog'larga sayrga borganda tabiatning go'zalligi va boyligidan, u yerdagi dehqonlarning yaratuvchilik mehnatlaridan benihoya zavqlanishadi.

Estetik tarbiya omillari orasida **san'at** muhim o'rin egallaydi. San'at – ijtimoiy ong va faoliyatning o'ziga xos shakli bo'lib, tevarak-atrof va borliqni badiiy obrazlarda aks ettirilishidir.

Estetik tarbiyaning eng muhim omili sifatida sanat nafaqat badiiy qadriyatlarni idrok qilish, balki ularni yaratishni ham o'z ichiga oladi. Badiiy qadriyatlarni yaratishga jamiyat a'zolarining, ayniqsa, yosh avlodning faol ishtirok etishi ularda estetik did-farosat va talab-ehtiyojlarning rivojlanishiga, ijodkorlik qobiliyatlarini rag'batlantirishga olib keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni estetik jihatdan tarbiyalashda san'atning xilma-xil turlari va janrlaridan, xususan musiqa va tasviriy san'atdan foydalaniladi.

Estetik tarbiyaning vositalaridan yana biri qo'g'irchoq teatridir.

Qo'g'irchoq teatri dunyoning ko'plab xalq va elatlariga qadim zamonlardan buyon ma'lum. U jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Qo'g'irchoq teatri har qaysi davlatda turli shaklda, turli hajmda, o'ziga xos tarzda taraqqiy etib, rivojlanib kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda qo'g'irchoq teatri vositasidan samarali foydalanish – bolalarning iqtidori, ob'ektiv borliq haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Qo'g'irchoq teatrining bolalarning estetik tarbiyalashda nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi, shuningdek, badiiy so'z, musiqa, qo'shiq, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi bola ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'g'irchoq teatri vositasida estetik sifatlarini shakllantirish jarayonida quyidagi bosqichlarning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- o'tkazilishi rejalashtirilgan teatr oldi suhbatlari (bolalarda teatr qahramonlarining o'ziga xos tabiati, xatti-harakatlari haqidagi tasavvurlarini savol-javob asosida aniqlash);
- teatrning ta'sirchan, xis-tuyg'u va mazmunga boy tarzda o'tkazilishi;
- teatr namoyishidan so'nggi suhbat (bolalarning voqealar, ularning mazmun-mohiyatini haqidagi fikrlari).

Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy didini o'stirishda **kitoblar** muhim rol o'ynaydi. Kitoblar faqat bolalarning yoshiga mos, mavzu, mazmun bilangina emas, shu bilan birga bayon qilish usuli hamda bezatilishi bilan ham ajralib turishi juda muhimdir.

Ayniqsa, ikki-uchli yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri katta bo'ladi. Bola kitobchadagi rasmlarni qayta-qayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchoq'iga "o'qib" berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar

bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Bolalar tomonidan eng ko'p o'qiladigan kitoblar **ertaklardir**. Ertaklar qisqa syujetli, tilining hayotiy va jonliligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari ertak qahramonlarining bolalarga yaqin va tanish ekanligi ham ular bilan birga hayratlanish, voqealarni qiziqish bilan eshitish imkonini beradi.

Estetik tarbiya maktabgacha ta'lim tashkilotida rasm chizish, qirqib yelimlash, loy ishi kabi faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu nuqtai nazardan bolalarni estetik tarbiyalashda **tasviriy san'at** muhim rol o'ynaydi. Bolalarning badiiy-estetik tasavvurlari tevarak-atrofdagi jonli va jonsiz narsa-hodisalarni turli usullar (rasm chizish, qirqib-elimlash, loydan narsalar yasash, tikish), an'anaviy (akvarel bo'yog'i, bo'r, qalam, mo'yqalam, flomaster, rangli qalam va iplar, qog'oz, karton, yelim, igna) va noan'anaviy (paxta, gubka, barmoqlar yordamida, sham, gugurt cho'plari) vositalar orqali tasvirlashda namoyon bo'ladi. Bularni badiiy-estetik savodxonlikning dastlabki elementlari sifatida qabul qilish mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy ko'nikma va malakalarni oson o'zlashtiradi. Ikki-uch yoshli bola qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlab malakasini oson egallaydi, undan foydalanishni qiyinchiliksiz o'rganib oladi. Olti yoshda bola bir qancha ko'nikma va malakalar zahirasiga ega bo'ladi va ulardan yangi predmetlarni tasvirlashda kerakli usullarni qo'llab, mustaqil ravishda o'z aqlu idrokiga tayangan holda foydalanishi mumkin.

Tarbiyaviy faoliyatda shunday vositalar qo'llaniladiki, ular shaxsning estetik voqelikka munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarbiyaviy faoliyatning bunday vositalari estetik tarbiya vositalari deb ataladi. Estetik tarbiya omillari va vositalari o'rtasidagi chegara nisbiy hamda shartlidir. Muayyan sharoitlarda estetik tarbiya omillari estetik tarbiya vositalari vazifasini o'tashi, aksincha, bo'lishi ham mumkin.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
MUSIQA TA'LIM -  
TARBIYASINING  
MAQSAD  
VA VAZIFALARI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirish hamda musiqiy didini o'stirib, bolalarga musiqani o'rgatish jarayonida unda hayot o'z aksini

topishini anglatishdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, musiqa mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan pedagogik maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, bolalarning musiqiy o'quvi va qobiliyatlarini muntazam ravishda o'stirib borish lozim. Bolalarning musiqiy qobiliyatlari quyidagilardan iborat:

- musiqiy o'quv (musiqiy tovushlar baland-pastligini his etish qobiliyati);
- tembr o'quvi (musiqiy tovushlarni bir-biridan farq qilish);
- ritm tuyg'usi (musiqaga mos harakat bajarish, qadam tashlab, chapak chalib musiqani xotirada saqlab, his etish va ifodalash).

Bolalarning musiqiy qobiliyatlari musiqiy mashg'ulotlarning barcha elementlarini amalga oshirish jarayonida muntazam ravishda rivojlanib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarni musiqaga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;
- musiqiy asarlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ularini hosil qilish yo'li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish;
- bolalarni musiqaga tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa ostida ritmik harakatlarni bajarish, bolalar cholg'u asboblariida jo'r bo'lish faoliyatlari yordamida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirib borish;
- bolalar ovozini asrab tarbiyalash, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylash o'rgatish va odatlantirish;
- musiqiy asarlardan zavq olishni, shu asosda musiqiy did va badiiy fikr yuritishni rivojlantirish;

- musiqa mashg'ulotlari jarayonida musiqiy asardagi badiiy obrazlarni o'yin va raqs shaklida ifoda etishga o'rgatish;
- musiqa mashg'ulotlari jarayonida bolalarni milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, milliy cholg'u asboblari jo'rligida milliy musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishga o'rgatish;
- musiqa mashg'ulotlari mazmunini bog'cha hayoti bilan bog'lash, maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkaziladigan tadbirlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlar bilan ishtirok etish.

Musiqa mashg'ulotlarida bola hayotini, tevarak-atrofnii musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida musiqiy tarbiya ishlari badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy ravishda bog'langan holda amalga oshiriladi.

Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning turli voqealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarini xilma-xil tovush bo'yoqlari orqali badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir etish bilan birga ularni nafasat olamiga olib kiradi. Buning uchun musiqa rahbari tomonidan tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalarni barkamol inson bo'lib yetishishlariga ijobiy ta'sir etadi. Musiqa mashg'ulotlarini gigiyenik talablarga javob beradigan darajada olib borish musiqa rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Musiqiy mashg'ulotlar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish, avvalo, musiqa rahbarining pedagogik tayyorgarligiga bog'liq. Musiqiy mashg'ulotlarni olib borishda musiqa rahbari bolalarning yoshi va qiziqishlarini e'tiborga olishi lozim. Mashg'ulotning tuzilishi o'quv materiallarining mazmunidan kelib chiqishi kerak. Bunda asarlarning ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy saviyasi, bolalar yoshiga mosligini hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan musiqiy mashg'ulotlar quyidagi faoliyat turlaridan iborat:

- 1) musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish;
- 2) musiqa tinglash;



- 3) musiqa savodi;
- 4) qo‘shiq kuylash;
- 5) bolalar cholg‘u asboblari jo‘r bo‘lish.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida musiqa mashg‘ulotlarini davomiyligi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda olib boriladi. Shunga muvofiq mashg‘ulotlar kichik guruh – 15-20 daqiqa, o‘rta guruhda – 20-25 daqiqa, katta guruhda – 25-30 daqiqa, tayyorlov guruhida – 30-35 daqiqa davomida olib boriladi.

Mashg‘ulotlar davomida bolalar qo‘shiq kuylashga, musiqa tinglashga, musiqiy-ritmik harakatlarni bajarish va cholg‘u asboblari va ularga jo‘r bo‘lishni o‘rganib boradi. Qo‘shiq kuylash musiqa mashg‘ulotining asosini tashkil etadi. Har bir qo‘shiq ma‘lum pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘shiqlarni ma‘lum bir tizimga solishda oddiydan murakkabga qarab borishga rioya qilish kerak. Qo‘shiq kuylash yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalb etadi. Musiqa ijrochiligida ovoz eng qulay vositadir, chunki qo‘shiq kuylashni turli sharoitlarda tez va oson tashkil etish mumkin. Qo‘shiq kuylash jarayonida bolaning fikrlash qobiliyati, nutqi, idroki o‘sadi. Bolalar ovozini asrab tarbiyalashning zarur shartlaridan biri qo‘shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazoniga qat‘iy rioya etib tanlashdan iborat.

**Musiqa** bolalarni go‘zallikni idrok eta olishlariga kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi vositadir. Estetik tarbiyaning mazkur vositasi bolalarda musiqaviy didni shakllantiradi, zamonaviy va mumtoz kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ana shu sababli bolalarni qo‘shiq aytish va raqsga tushishga o‘rgatishda faqat to‘g‘ri aytish va harakat qilishni emas, balki ifodali ijro etish hamda yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o‘rgatib borish maqsadga muvofiq.

Qo‘shiq kuylab, raqsga tushishda asosan, xalq og‘zaki ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni axloqiy-estetik tarbiyalash uchun g‘oyat qimmatli vositadir.

Xalq qo'shiqlari orasida esa bolani dunyoga kelgan kundan boshlab uning xarakteri, milliy ruhiyati, fe'l-atvori va dunyoqarashini shakllantirishda g'oyaviy-estetik asos vazifasini o'tovchi **allalar** alohida o'rin tutadi. Allalar bola shaxsigacha kuchli ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, o'zida ovutish, nimagadir qiziqtirish, go'zal hislarni to'yish, so'z go'zalliklaridan bahramand bo'lishni o'zida aks ettiradi.

Allalarda ifodalangan g'oya, ohang, shuningdek, uni ijro etishda sodir etiladigan amaliy harakatlar o'ziga xos estetik jihatdan tarbiyaviy kuch va imkoniyatga ega. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o'z davrida allaning bolani ma'naviy-estetik jihatdan rivojlanishiga ta'sirini quyidagicha bayon etgan: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi".

Bolalarning kuylash imkoniyatlaridan ko'ra, tinglash imkoniyatlari kengroq bo'ladi. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi. Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor beradilar. Chunki, har bir insonning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi. Musiqa tinglash uchun tavsiya etilgan va repertuarga kiritilgan musiqiy asarlar musiqiy obrazlar orqali bolalarda jonajon Vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, hamjihatlik, rahm-shafqat kabi hislatlarni shakllantirishga qaratilgan. Musiqa mashg'ulotlarida musiqiy – ritmik harakatlarni bajarish bolalarning axloqiy – ma'naviy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqaga mos raqs, o'yin harakatlarini bajarish bolalarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va jismonan sog'lom o'sishlariga yordam beradi. Eng muhimi, raqs va ritmik harakatlar vositasida bolalarning musiqiy iqtidori, ritmik tuyg'ular shakllanadi, xotirasi charxlanadi.

Musiqiy – ritmik harakatlar bolaning harakatchan, chaqqon bo'lishiga yordam

beradi, qomatining to'g'ri o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolaga tetiklik va g'ayrat bag'ishlab, turli emotsional hislarini uyg'otadi. Raqs kuylari esa bolalarda ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil qilib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va ularni behand zavqlantiradi. Musiqa mashg'ulotlari davomida bolalar musiqa cholg'u asboblari uchun g'oyatda yoqimlidir, chunki musiqa cholg'u asboblari, tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir bolani qiziqtiradi. Bolalar musiqa chalg'u asboblari, birinchi navbatda, bolalarda ijrochilik mahorati, musiqiy o'quvi va qiziqishni o'stiradi. Musiqa asarlarini diqqat bilan tinglash, musiqaning harakterini his etish musiqa cholg'u asboblari farqlashga, tovush balandligini bilishga o'rgatadi. Bolalar qo'shiqni kuydan ajrata olishga, qo'shiq so'zlarini aniq, tushunarli kuylashga, kirish qismidan so'ng qo'shiqni birga boshlash va tugallashga, metallofonda oddiy kuylarni, doirada oddiy ritmlarni ijro etishga harakat qiladi. Musiqa mashg'ulotlarida bolalar guruhidan bolalar musiqa cholg'u asboblari orkestri, vokal ansambllari tuzish mumkin bo'ladi. Kichik hajmdagi o'zbek xalq kuylaridan boshlab, kattaroq asarlargacha bolalar shiqildoqchalar, doirachalar va rumbalardan turli ritmik usullarni chalishni o'rganadi.

Shunday qilib, aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan estetik tarbiya tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlar, ijobiy xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida tarbiyalanuvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Estetik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Estetik tarbiyaning badiiy tarbiya bilan aloqadorligi nimada?
3. Estetik tarbiya tizimini tushuntirib bering.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik rivojlanishidagi o'ziga xosliklarni bayon eting.
5. Estetik tarbiya omillari deb nimaga aytiladi?
6. Estetik tarbiya vositalari deganda nimani tushunasiz?
7. Estetik tarbiya vositalariga nimalar kiradi?
8. Maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'rini qanday baholaysiz?

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tayyorlov guruhiga moslab o'zbek xalq ertagi asosida teatr ssenariysini yarating.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEHNATNI  
TASHKIL ETISH SHAKLLARI**



*Mehnat tarbiyasiga bo'lgan munosabat  
bolalikdan boshlanmog'i kerak. Buning  
uchun ota-ona namuna, tarbiyachi-  
murabbiylar ko'makchi bo'lmog'i lozimdir.*

*Sayyom Sayitov*

**REJA:**

1. Mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mehnat tarbiyasining mazmuni.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnatni tashkil etish shakllari.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar mehnatini rejalashtirish.

***Tayanch tushunchalar:** mehnat, mehnat tarbiyasi, mehnat tarbiyasining maqsadi, mehnat tarbiyasining vazifalari, mehnat tarbiyasining mazmuni, mehnat*

*tarbiyasining shakllari, o'z-o'ziga xizmat, xo'jalik-maishiy mehnat, tabiat quchog'idagi mehnat, qo'l mehnati, bolalar mehnatini rejalashtirish.*

**MEHNAT  
TARBIYASINING  
MAQSAD VA  
VAZIFALARI**

**Mehnat tarbiyasi** bolalarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

**Mehnat tarbiyasining maqsadi** bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Shuningdek, mehnat orqali bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarkib toptirish, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruhiy jihatdan tayyorlash, ularda mehnat qilish xohishini singdirib borish ham alohida ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi **mehnat tarbiyasining vazifalari** xilma-xil bo'lib, ularni quyidagi uch katta guruhga tasnif etish mumkin:

**Birinchi guruh vazifalari** bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi:

1. Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat ko'nikma va malakalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.
2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jarayonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.
3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini anglab yetish.

**Ikkinchi guruh vazifalari** kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan:


1. Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.
2. Bolalarga mehnat ahliga hurmatni, ularga qo‘lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.
3. Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o‘rgatish.

**Uchinchi guruh vazifalari** mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan:

1. Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatga qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamasklik, o‘z shaxsiy mehnatiga nisbatan to‘g‘ri munosabatni tarbiyalash.
2. Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat‘iylik, tashabbuskorlik vva faollik, sabr-matnatlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.
3. Madaniy xulq va o‘z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o‘zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o‘z mehnati bilan qatnashish, o‘zi va o‘rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTIDA  
BERILADIGAN  
MEHNAT  
TARBIYASINING  
MAZMUNI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarni mehnatning dastlabki asoslari bilan tanishtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu boradagi pedagogik faoliyat tizimli tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida mehnat tarbiyasi **ikki yo'nalish**da amalga oshiriladi:



**MTTda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasining asosiy yo'nalishlari**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni **kattalar mehnati bilan tanishtirish** orqali ularga kattalar mehnati ijtimoiy-foydali, ishlab chiqarish mehnati bo‘lib, moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratishga qaratilganligi haqida tushuncha berish, kattalar mehnati haqida aniq bilim va tasavvur hosil qilish, mehnat natijalarini qadrlashga o‘rgatish, mehnatga qiziqish va muhabbatni uyg‘otish, mehnat qilish xohishini tarbiyalash kabilar amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to‘g‘risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:

**Ilk yosh guruhida:**

1. Kattalar mehnatiga qiziqishni tarbiyalash.
2. MTT xodimlarining mehnat jarayonlari bilan tanishtirish.
3. Bolalarga kattalarning mehnatini hurmat qilish tuyg‘usini shakllantirish.

**Kichik yosh guruhida:**

1. Kattalar mehnati natijasida kerakli narsalar, predmetlar yaratilishini tushuntirish.
2. Oshpaz, kir yuvuvchi, sotuvchi, quruvchi, haydovchi mehnati va ularning asosiy ishlari haqida bilim berish.
3. Ish natijasi va uning ahamiyatini ajratib ko‘rsatishga o‘rgatish.
4. Kattalar mehnati uchun zarur bo‘ladigan materiallar, kishilar mehnatini yengillashtiradigan, mehnat jarayoni va natijalariga erishishni tezlashtiradigan mashinalar bilan tanishtirish.
5. Turli transport vositalari va kasblar haqida tushuncha berish. Bolalarning bu boradagi bilimlarini kengaytirish va ularning nomlarini to‘g‘ri aytishga odatlantirish.

**O‘rta guruhda:**

1. Bolalarda kattalar mehnatiga hurmat va qiziqish hissini tarbiyalash.
2. O‘zbek xalqining milliy hunarmandchilik mehnati – duradgorlik bilan tanishtirish.

3. Dehqon mehnati haqida qisqacha ma'lumot berish.
4. Bolalarning o'z tarbiyachisi va boshqalar mehnati haqidagi tushunchalarini kengaytirish.
5. Bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida ularda inson va uning mehnatiga hurmat hissini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirish.

**Katta guruhda:**

1. Bolalarning kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini umumlashtirish.
2. Ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalalarda qilinadigan mehnat haqidagi bilimlarini takomillashtirish.
3. Mehnatning shu joyda tarqalgan turlari bilan bolalarni yaqindan tanishtirish.
4. Ularni yaqin atrofdagi korxonaga olib borish (mebel, avtomobil, televizor, chinni ishlab chiqaruvchi korxonalar, novvoyxona va h.k.). Bu korxonaning nomi, u yerda kimlar ishlashi, qanday mahsulot ishlab chiqarishi, mehnat quroli va asboblari haqidagi bilimlarini aniqlash va takomillashtirish.
5. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni mamlakat aholisi uchun ahamiyati bilan tanishtirish.
6. Mashinasoz, tikuvchi, kosib, nonvoy, oshpaz, o'ymakor, bo'yoqchi, haydovchi kabi kasblar bilan tanishtirish.
7. Ishning maqsadi, natijasi va ularning jamiyat uchun ahamiyati, turli xil "aqlli" mashinalarning kishilar mehnatini yengillashtirishi, tovarlar sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni tezlashtirishdagi roli haqidagi bilimlarini kengaytirish.


**Maktabga tayyorlov guruhida:**

1. Bolalarni zargarlik, zardo'zlik, misgarlik, ganchkorlik kabi xalq hunarmandchiligi bilan tanishtirish.
2. Bolalarni kattalar mehnati haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish, kishilar mehnatiga hurmat hissini tarbiyalashni davom ettirish.
3. Bolalarga dehqonchilik, chorvachilik haqida so'zlab berish va ularni dehqon, chorvador va bog'bon mehnatining mazmuni bilan tanishtirish.
4. Bozor haqida tushuncha berish.



5. Pochta aloqasi xizmati bilan tanishtirish.
6. Pochtaning vazifasi va ahamiyati haqida ma'lumot berish.
7. Telefon aloqasi va telegrafchilar, ularning mehnati, telefon xizmatining hayotimizdagi ahamiyati haqida ma'lumot berish.
8. Buyumlarning bir necha xil belgilari va ulardan foydalanish haqida tushuncha berish.
9. Matodan qilingan buyumlar, ularning turlari va foydalanish usullari haqida tushuncha berish.
10. Temir va yog'ochdan ishlangan buyumlar va ulardan to'g'ri foydalanish haqida tushunchalar hosil qilish.

Maktabgacha yoshdagi **bolalar mehnatini tashkil etish**da mehnatning quyidagi turlaridan foydalaniladi:



### **Bolalar mehnatining asosiy turlari**

**O'z-o'ziga xizmat** - bolalar mehnatining bir turi bo'lib, unda bolalar ilk yoshidan boshlab mustaqil ovqatlanishga, yuvinishga, kiyinish va yechinishga, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga o'rgatiladi. O'z-o'ziga xizmat qilish jarayonida bolalarda mustaqillik, ma'lum maqsad bilan harakat qilish kabi sifatlar shakllanadi, bolalar mustaqil ravishda o'zlarining qo'llaridan kelgan ishni bajarishga o'rganadilar. O'z-o'ziga xizmat qilish bolalarda oddiy mehnat turlariga nisbatan qiziqish uyg'otadi, batartiblikka, intizomli bo'lishga, xulq-odobga o'rgatadi.

Bolalar **xo‘jalik-maishiy mehnat**ga maktabgacha ta’lim tashkiloti va oilada jalb etiladi. Xo‘jalik-maishiy mehnatga xona va maydonchani yig‘ishtirish, stolni bezatish va stoldagi idish-tovoqlarni yig‘ishtirish, choy idishlarini, qo‘g‘irchoq kiyimlarini, mayda narsalarni yuvish, mashg‘ulotga kerakli materialni tayyorlab qo‘yish, mashg‘ulotdan keyin stol ustidagi narsalarni yig‘ishtirib olish kabilarni kiritish mumkin.


**Tabiatdagi mehnat** bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘simlik va hayvonlar, yil fasllari, jonsiz tabiat burchagidagi bilimlar manbai, bolalarda mehnatsevarlikni, tabiatga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish vositasidir. Shu bilan birga bolalar mehnatning bu turi orqali tuproqni ekishga tayyorlash va o‘g‘itlash, ko‘chat o‘tqazish, o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish kabi bir qancha mehnat ko‘nikma va malakalarini egallab oladilar. Mehnatning asosan ochiq havoda tashkil etilishi bolalar organizmini chiniqtiradi, ularning sog‘ligini mustahkamlaydi.

Tabiatdagi mehnat bolada bilishga qiziqishni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bolalar jonli ob’ektning o‘sishi va rivojlanishini kuzatadilar, ayrim o‘simlik va hayvonlarning o‘ziga xosliklarini bilib oladi, tajribalarni o‘tkazishda ishtirok etadi.

**Qo‘l mehnati** – mashg‘ulot, o‘yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘yinchoq va qurilmalar (qog‘oz qiyqimlarini tashlash uchun, o‘simliklar urug‘i uchun qutichalar, qo‘g‘irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o‘xshash narsalar)ni tayyorlash bo‘yicha bolalar mehnatidir. Qo‘l mehnatini bajarish orqali bola aniq natijaga erishadi, ya’ni narsa-buyumlar vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo‘yash, qirqish, arralash, mix qoqish, tikish va shunga o‘xshash oddiy mehnat ko‘nikma va malakalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topqirlik, zehnlilik xislatlari rivojlanadi.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
MEHNATNI TASHKIL ETISH  
SHAKLLARI**

Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil etishga qaratilgan pedagogik faoliyat muayyan shakllarda tashkil etiladi. Ular:



**MTTda tashkil etiladigan mehnat tarbiyasining asosiy shakllari**

**Topshiriq** – maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil etishning boshlang'ich shakli hisoblanib, barcha yosh guruhlarida qo'llash imkoniyatini beradi.

Ilk va kichik yosh guruhlarida bolalarga uncha murakkab bo'lmagan va qisqa muddatli topshiriqlar beriladi: “O'yinchoqni, kitobni, stolni olib kel! Joyiga olib borib qo'y! Tushki ovqat uchun stol ustiga qoshiqlarni qo'yib chiq!”.

O'rta va katta guruhdagi bolalarga beriladigan topshiriqlar ancha murakkab bo'lib, ular endi xonadan tashqarida bajarishga mo'ljallangan va ma'lum bir kishiga murojaat qilish bilan bog'langan. Shuningdek, topshiriqlar (o'yinchoqlarni yig'ishtirish, gullarga suv qo'yish, to'kilgan barglarni terib, tegishli joyga olib borib tashlash) ikki-uch boladan tashkil topgan kichik guruhlar tomonidan bajarilishi mumkin.

Maktabga tayyorlov guruhida beriladigan topshiriqlar yana ham murakkablashadi. Bunday topshiriqlar boladan alohida mas'uliyatni va boshqalarga g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishni tarkib toptirish bilan

bog‘liq bo‘ladi: kichik guruh bolalarini sayrga chiqishdan oldin, uyqudan keyin kiyinishiga yordam berish, ularning stolini tushlik ovqatga tayyorlab berish, enaga toza sochiqlarni osish, toza choyshablarni olib kelishga yordamlash va boshqalar.

**Navbatchilik** – jamoa uchun mo‘ljallangan mehnat faoliyatining shakli bo‘lib, u majburiy tartibda bajariladi. Bolalarning navbatchiligi kichik guruhda yil oxiridan boshlanadi.

Barcha bolalarning mehnatda doimiy ishtirok etishlarini ta‘minlash uchun navbatchilikning xilma-xil turlari uyushtiriladi: oshxonada (hamma yosh guruhlarida), mashg‘ulotga tayyorlanishda (o‘rta guruhdan boshlab), o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilishda (katta va maktabga tayyorlov guruhlarida).

Kichik guruh bolalari oshxonada navbatchilik qiladilar. Birdaniga to‘rt-besh bola navbatchilik qilishi mumkin, har bir bola bir-ikki stolni bezatadi. Katta va tayyorlov guruhlarida bolalarning vazifalari kengyada. Nonushta va tushlik ovqatga, kech tushki va kechki ovqatga dasturxon tuzatish, ovqatlanib bo‘lingandan so‘ng idish-tovoqni ovqat tarqatiladigan stolga yig‘ishtirish, stollar ustini yig‘ishtirib olish, enagaga choy idishlarini yuvishda yordam berish shular jumlasidandir. Bu yoshdagi bolalar ikki nafardan navbatchilik qilishadi, ammo har bir bolaning ish hajmlari ortadi.

Mashg‘ulotga tayyorgarlik bo‘yicha navbatchilik o‘rta guruhda – bolalar oshxonada navbatchilik qilishni bilib olganlaridan so‘ng kiritiladi. Bu navbatchilar stol va stullarni, mashg‘ulotga kerakli materiallarni, qo‘llanmalarni mashg‘ulotga tayyorlaydilar va xonani tartibga keltiradilar.

Katta guruhdan boshlab bolalar tabiat burchagida navbatchilik qila boshlaydilar. Navbatchilikning bu turi ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Navbatchilikning bu turida ham bolalar ikkitadan tayinlanadi: biri o‘simliklarni parvarish qilsa, ikkinchisi jonivorlarga qaraydi. Ulardan qaysi biri bo‘sh qolsa, ikkinchisiga yordam beradi.

Bolalarning mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllaridan yana biri qo‘l mehnati bo‘yicha mashg‘ulotdir. Bilim va malaka birinchi marta berilayotgan bo‘lsa va u tushuntirish hamda barcha bolalarga yaqqol, ko‘rgazmali qilib ko‘rsatishni talab etgan hollarda ana shunday mashg‘ulotlar o‘tkaziladi.

Bolalarni mehnat tarbiyasini tashkil etishning topshiriq, navbatchilik kabilarga qaraganda yana bir nisbatan murakkab shakli – bolalarning **umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnatini tashkil etish**dir. Umumiy, birgalikdagi va ayniqsa, jamoaviy mehnat bolalarda o‘z harakatlarini boshqalarniki bilan uyg‘unlashtirish, bir-biriga yordam berishni tarkib toptirish uchun ijobiy shart-sharoit yaratadi, ishni bir xil sur‘atda bajarishni ta‘minlaydi.

Umumiy, birgalikdagi, jamoaviy mehnat bolalar faoliyatining ijtimoiy yo‘naltirilgan maqsadini birlashtiradi. Bunday mehnat natijasi hamma uchun foydali bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Xonani, maktabgacha ta‘lim tashkiloti maydonchasini tartibga keltirish, guruh xonasini bayramga bezatish kabilar bolalarning hammasini mehnat jarayonida ishtirok etishlarini talab etadi.

Umumiy mehnat qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda bolalarning mehnat faoliyatini tashkil etishda har bir bola ishning ma‘lum bir qismini bajarishlariga asoslaniladi. M: tarbiyachi bolalardan guruh xonasini tartibga keltirishni so‘raydi va ularga topshiriqlarni taqsimlab beradi: Alisher va Elyor qurilish materiallarini qutiga joylaydi; Shahnoza va Maftuna qo‘g‘irchoqqa toza kiyimlarini kiydiradi; biz Sora va Behro‘z bilan birgalikda stolni ustini tozalaymiz.

Birgalikdagi mehnat bolalarning bir xil sur‘at va sifatdagi o‘zaro harakatini talab etadi. Bunday mehnat turini tashkil etishda bolalarni alohida zvenolarga birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, har bir zvenoga berilgan topshiqlar ham bolalar o‘rtasida taqsimlanadi: bolalardan biri o‘yinchoqlarni javondan olib, polga qo‘yadi, boshqasi javonni changdan tozalaydi, uchinchisi esa, o‘yinchoqlarni qaytadan javonga taxlaydi.

Jamoaviy mehnat bolalarda mehnatga doir hamda axloqiy vazifalarni hal etishga imkon beradi: mehnatga doir topshiriqni taqsimlash, tasodifiy zaruriyat

bilan bog‘liqlikda bir-birlariga yordam beradi, umumiy, birgalikdagi ishning sifati uchun intilishadi. Bolalar mehnat faoliyatining jamoaviy shakli jamoaviy o‘zaro munosabatlarni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tarbiyalashga imkon beradi. Har qanday umumiy yoki birgalikdagi mehnat jamoaviy tavsifga ega bo‘lmasligi mumkin, biroq har qanday jamoaviy ish umumiy va birgalikdagi mehnatni o‘zida aks ettiradi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
BOLALAR MEHNATINI  
REJALASHTIRISH**

Bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish shakllariga doir rejalashtirish ma'quldir. Mehnatni tashkil etish shakli sifatida barcha guruhlarda topshiriqdan foydalaniladi. O‘z mazmuniga ko‘ra topshiriqlar turlicha bo‘lishi mumkin.

Tarbiyachining ish rejasida yangi topshiriq mazmunini qayd etish, so‘ngra uni bajarishga jalb etiladigan bolalar ismlarini ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu tarbiyachiga mazkur topshiriq bilan barcha tarbiyalanuvchilarni qamrab olish va ularni kerakli mehnat topshiriqlarini bajarishga o‘rgatish, barcha bolalarning qo‘lidan keladigan bo‘lib borishiga ko‘ra tarbiyachi o‘zining alo‘ida e‘tiboriga muhtoj bo‘lgan bolalarning ismlarinigina ko‘rsatib beradi.

Bolalar navbatchiligiga rahbarlikni rejalashtirar ekan, tarbiyachi mehnat hajmi va mazmunini, o‘zi bolalarga navbatchilarning vazifalarini tanishtirishda foydalanadigan jihoz, metod va usullarni ko‘rsatadi.

Keyinchalik navbatchilik ishiga rahbarlik rejada mehnat mazmuni murakkablashgan, navbatchilikka jalb qilinayotgan bolalar tarbiyachining alohida e‘tiboriga muhtoj bo‘lgan hollarda ko‘rsatiladi. Vaqti-vaqtida navbatchilik bolalarning birlaridan ikkinchilariga topshirilayotgan vaqtda (katta guruhda) bolalar bilan suhbat rejalashtiriladi.

Rejada bolalarning jamoa shaklidagi mehnatlarini tashkil qilish mazmuni va tarkibi, o‘tkazish vaqti ko‘rsatiladi. Zarur jihozlar belgilanadi va joylashtiriladi.

Navro‘z va mustaqillik bayramlaridan avval uyushtiriladigan umumxalq xasharlari, bayramlari maktabgacha ta‘lim tashkilotisida bolalarda Vatanga muhabbat, baynalmilalchi xislatini tarbiyalash, ularga xalqning jangovor va mehnat an‘analarini tanishtirish maqsadlarida nishonlanadi.

Bayramlar tarbiyaning muhim vositasi sifatida puxta rejalashtirilishi lozim. Rejada muassasaning butun jamoasi, shu jumladan bolalarning ham tayyorgarliklari aks ettiriladi.

Tarbiyachining joriy rejasida bolalarga u yoki bu bayram (yoki mashhur sana)ning ahamiyati haqida hikoya qilinadigan, bolalar katta yoshlilarning bayramga tayyorgarliklari bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladigan sayr-tomoshalar o‘tkaziladigan turli mashg‘ulotlar nazarda to‘tiladi. Bolalarni bayram ertaliklarida qatnashishga tayyorlash: she‘rlar, qo‘shiqlar aytish, raqsga tushish, libos va boshqa atributlarni tikishi ham rejalashtiriladi. Pedagogik kengashda bayram dasturi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, bolalarni bayramga tayyorlash jarayonida ham, bayramni o‘tkazish kunida ham uyushtirish shakllari o‘ylab chiqiladi va puxta rejalashtiriladi.

Umumxalq bayramlariga bag‘ishlangan ertaliklardan tashqari tarbiyachi bolalar bilan maishiy bayramlar va turli ko‘ngil ochishlar: yangi yil bayrami, bolalarni maktabga chiqarish, bir oyda tug‘ilgan bolalarning tug‘ilgan kunlarini bir kunda nishonlash, shuningdek, qo‘g‘irchoq, soya teatrini, ko‘ngil ochadigan videofilm va kinofilmlar, oynai jahon ko‘rsatuvlarini ko‘rsatish va shu kabilarni o‘tkazishni rejalashtiradi.

Maktabgacha ta‘lim tashkiloti ota-onalar o‘rtasida ishlashni rejalashtirish pedagogik targ‘ibotini amalga oshirish rejalashtiriladi. Ularni oila va MTTning bolalarga ta‘sir ko‘rsatishda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadlarida ta‘lim-tarbiyaviy ish mazmuni bilan tanishtiradi, bolalarni oilada tarbiyalashning ilg‘or tajribasini o‘rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi. Bu ish uzluksiz tarzida amalga oshiriladi va maktabgacha ta‘lim tashkiloti mudirasi tomonidan ham (yillik rejada), har bir guruh tarbiyachisi tomonidan ham rejalashtiriladi. Ishni tashkil

etish usullari va ularning mazmuni quyidagilarni: ota- onalar majlislarini, maslahatlarini o'tkazishni, bola oilasiga borishni, ochiq eshiklar kunini, mashg'ulotlar o'tkazishni, bolalar ishlari ko'rgazmalarini tashkil etishni, ota-onalar burchaklarini yangilash va shu kabilarni nazarda tutadi.

Shunday qilib, mehnat shaxsning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga erishishning muhim shartidir. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotida mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishga e'tibor qaratiladi. Mehnat tarbiyasi yordamida bolalarga mehnatning mohiyati anglatiladi, ularda mehnatga ongli munosabat, muayyan ijtimoiy-foydali harakat ko'nikma, malakalari shakllantiriladi. Tarbiyalanuvchilarda daslabki mehnat ko'nikmalarining shakllantirilishi uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlari va oilada murakkab ko'nikma, malakalarga egalikni taqozo etuvchi mehnat faoliyatini izchil tashkil etish orqali kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Mehnat tarbiyasining maqsadi nima?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi mehnat tarbiyasining vazifalari qaysilar?
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotida mehnat tarbiyasi necha yo'nalishda amalga oshiriladi?
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida har bir yosh guruhidagi bolalar kattalar mehnati to'g'risida qanday bilim va tasavvurlar egallashi lozim?
5. Maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil etishda mehnatning qanday turlari mavjud?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti yer uchastkasida bolalar bilan olib boriladigan ishlar haqida konspekt yozing.



**“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA  
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING FAOLIYAT  
MARKAZLARIDA TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL QILISH**



*“Ilk qadam” o‘quv dasturi bolani  
ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy  
jihatdan kompleks rivojlantirishga  
qaratilgan bo‘lib, hayoti davomida  
ta’lim va imkoniyatlar uchun  
mustahkam va keng poydevor yaratish  
maqsadi qo‘yilgan.*

*Agrippina Shin*

**REJA:**

1. Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti.
2. Davlat standartining tarkibiy qismlari.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi.
4. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat.
5. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim dasturi.

***Tayanch tushunchalar:** davlat standarti, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari, davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, “Men” konsepsiyasi, mayda motorika, sensomotorika, yirik motorika, kompetensiya, ijodkorlik.*

**MAKTABGACHA  
TA’LIM VA  
TARBIYANING  
DAVLAT  
STANDARTI**

O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini amalga oshirish, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga samarali ta’lim-tarbiya berish hamda qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar

Mahkamasining 802-son qaroriga asosan 2020 yil 22 dekabrda Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti qabul qilindi.

Davlat standartining maqsadi - maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablarni joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat.

Davlat standartining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'laqonli va xavfsiz ovqatlantirishni tashkil etishga bo'lgan sanitariya-gigiyenik talablarni belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish me'yorlarini tartibga solish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsion vositalar bilan jihozlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotlarining yong'in xavfsizligini ta'minlashga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini ta'minlash.

Mazkur Davlat standartining asosiy prinsiplari etib, tarbiyalanuvchining intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi; har bir bolaning, shu jumladan jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning maktabgacha ta'lim

va tarbiya olishga bo‘lgan huquqini amalga oshirish va imkoniyatining tengligi; davlat standartining ta’lim sohasidagi davlat va jamiyat talablariga mosligi; maktabgacha ta’limning boshqa ta’lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi; maktabgacha ta’lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi; maktabgacha ta’limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga asoslanilganligi hamda xorijiy mamlakatlarning ta’lim sohasida me’yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish belgilangan.

### DAVLAT STANDARTINING TARKIBIY QISMLARI

Davlat standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- İlk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me’yorlari.

**Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari** - ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta’lim-tarbiya berish, maktab ta’limiga tayyorlash bo‘yicha davlat talablarini belgilaydi.

Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar, quyidagi ta’lim tashkilotlariga nisbatan qo‘llaniladi:

- davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
- nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;
- maktabgacha yoshdagi guruhlar mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari".

Davlat talablarining maqsadi - mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inobatga olgan holda


maktabgacha ta'lim tizimida ma'naviy barkamol va intellektual jihatdan rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

Davlat talablarining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;
- milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablari rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari tug'ilgandan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalariga bo'lingan. Har bir rivojlanish sohasi o'z o'rnida kichik sohalarga bo'lingan bo'lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan (kutilayotgan rivojlanish ko'rsatkichlaridan) iborat.



1. **"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi"** sohasi quyidagi kichik sohalarga bo'linadi:

- ✓ yirik motorika;
  - ✓ mayda motorika;
  - ✓ sensomotorika;
  - ✓ sogʻlom turmush tarzi va xavfsizlik.
2. **"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish"** sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:
- ✓ "Men" konsepsiyasi;
  - ✓ hissiyotlar va ularni boshqarish;
  - ✓ ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.
3. **"Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari"** sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:
- ✓ nutq va til;
  - ✓ oʻqish malakasi;
  - ✓ qoʻl barmoqlari mayda motorikasi.
4. **"Bilish jarayonining rivojlanishi"** sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:
- ✓ intellektual-anglash malakalari;
  - ✓ elementar matematik malakalar;
  - ✓ tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.
5. **"Ijodiy rivojlanish"** sohasi quyidagi kichik sohalarga boʻlinadi:
- ✓ dunyoni badiiy tasavvur etish;
  - ✓ badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Davlat talablari asosidagi yosh davrlari quyidagi bosqichlarni oʻz ichiga oladi:

- goʻdaklik (tugʻilgandan 1 yoshgacha);
- erta yoshdagi bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha);
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha);
- oʻrta maktabgacha yosh (4 dan 5 yoshgacha);
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 6 yoshgacha);
- maktabga tayyorlov yoshi (6 yoshdan 7 yoshgacha).

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTINING  
DAVLAT O'QUV  
DASTURI**

**Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi** – maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalarini belgilab beradi.

Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lim tashkilotlarida qo'llash uchun majburiy hisoblanadi:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi nodavlat tashkilotlar;
- maktabgacha guruhlarga ega bo'lgan “Oilaviy bolalar uylari” va “Bolalar shaharchalari”;
- maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi maktabgacha ta'lim boshqaruvi organlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda alohida yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, “Men” obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni nazarda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

**Kompetensiya** bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir. Boshlang'ich kompetensiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilardan iborat:

**kommunikativ kompetensiya** - muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi;

**o‘yin kompetensiyasi** - bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi;

**ijtimoiy kompetensiya** - hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me‘yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tutish mahorati;

**bilish kompetensiyasi** - atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

**“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi”** sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakunlanganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z imkoniyatlari va yoshi bilan bog‘liq jismoniy rivojlanish me‘yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko‘rsatadi;
- turli harakatchanlik faolligini uyg‘un ravishda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o‘quv vaziyatlarida mayda motorika ko‘nikmalaridan foydalanadi;
- o‘z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiyena malakalarini qo‘llaydi;
- sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayotiy faoliyat asoslari qoidalariga rioya qiladi.

**“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”** sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- o‘z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- o‘z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o‘zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topadi.

**“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”** sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- nutqni eshitadi va tushunadi;
- o‘z nutqida to‘g‘ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan foydalanadi;
- ikkinchi tilni o‘rganishga qiziqish namoyon qiladi;
- ikkinchi tilni egallash bo‘yicha dastlabki bilimlarini ko‘rsatadi;
- badiiy adabiyot asarlariga qiziqish namoyon qiladi;
- so‘zning lug‘aviy, bo‘g‘inli va fonetik tuzilishi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘ladi;
- turli ma’no shakllarini mustaqil ravishda tuzish va so‘zlab berishni biladi;
- yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

**“Bilish jarayonining rivojlanishi”** sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- bilim olishga faol qiziqishni namoyon etadi;
- o‘quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil ravishda topadi va undan foydalanadi;
- predmetlar, voqealar va ko‘rinishlar o‘rtasidagi oddiy aloqalarni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, hisob-kitobni biladi va ularni hayotda qo‘llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematik hisoblashlarni amalga oshiradi;



- atrof muhitdagi voqea-hodisalar va ko‘rinishlarni kuzatadi hamda tadqiq qiladi;
- atrof muhitga nisbatan ehtiyotkorona va g‘amxo‘r munosabatni namoyon etadi.

“**Ijodkorlik**” sohasidagi o‘quv-tarbiyaviy faoliyat yakuniga yetganidan so‘ng 6-7 yoshli bola:

- san‘at va madaniyatga qiziqish namoyon qiladi;
- milliy an‘analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotning bir qismi sifatida idrok etadi;
- san‘atning muayyan turini afzal ko‘rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o‘z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o‘zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

**MAKTABGACHA TA’LIM  
TASHKILOTLARIDA  
O‘QUV-TARBIYAVIY  
FAOLIYAT**

**Maktabgacha ta’lim  
tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyat**  
– o‘quv-tarbiyaviy faoliyat O‘zbekiston  
Respublikasining ilk va maktab yoshidagi

bolalarni rivojlantirishga oid davlat talablari asosida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘quv va tarbiyaviy faoliyatini o‘quv yillari bo‘yicha tashkil qiladi. O‘quv yili 2 - sentyabrda boshlanadi va 31 - maygacha davom etadi.

1 - iyundan 31 - avgustgacha maktabgacha ta’lim tashkilotida yozgi sog‘lomlashtirish davri tashkil etiladi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyat guruhning kundalik ish tartibiga tayanadi va unda pedagog tomonidan rejalashtirilgan kundalik harakatlar, bolalar o‘yinlari, bo‘sh vaqt va o‘quv-tarbiyaviy faoliyat turlari navbatma-navbat amalga oshiriladi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat ta’lim va ijtimoiy ehtiyojlar (salomatlik, ovqatlanish va xavfsizlik)ni qondirish maqsadida bolaning yoshi va individual rivojlanishiga asoslanuvchi o‘quv rejasiga muvofiq olib boriladi. O‘quv-tarbiyaviy faoliyat bola

hayoti va uning atrofini o‘rab turgan muhitdan kelib chiquvchi yagona bir butun mavzuga birlashtiriladi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirish ta’lim sharoitlariga bog‘liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik tamoyillaridan tarkib topadi.

O‘quv-tarbiyaviy faoliyatda quyidagi rejalashtirish turlari mavjud:

- yillik mavzuli (tematik);
- haftalik.

Rejalashtirishda faoliyatning maqsadlari, mavzusi, mazmuni va turlari ifodalanadi. Faoliyat turini tanlashda nafaqat o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning umumiy maqsadlari, balki rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlar, faoliyat mazmuni va turlarini integratsiyalash ham hisobga olinadi.

Rejalashtirishda kun tartibini hisobga olish zarur. Kun tartibi ish sur‘atini belgilaydi va bolaga bir faoliyatdan boshqasiga oson o‘tishda yordam berishi lozim. Shuni yodda tutish joizki, o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati hisoblanadi. Kun tartibini tuzishda kunduzgi uyqu, dam olish vaqti va sayrga chiqish vaqti hisobga olinadi.

Yillik mavzuli rejada har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti hudud yoki boshqa xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘zining yillik mavzuli rejasini tuzishga haqli. Mazkur mavzuli reja maktabgacha ta’lim tashkilotining “Pedagogik kengashi”da tasdiqlanadi.

Haftalik reja yillik mavzuli rejaga asoslanadi va haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo‘yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg‘ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo‘naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o‘tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o‘yinlar rejalashtiriladi. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat / passiv faoliyat; individual faoliyat / kichik

guruhda / katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o‘tadigan faoliyat / bola rahbarligi ostida o‘tadigan faoliyat) va uni o‘tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat / ko‘chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o‘zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko‘proq yoxud kamroq vaqtga mo‘ljallanishi mumkin. Masalan, agar tarbiyachi bahorgi gullagan bog‘ga borishni rejalashtirgan bo‘lsa-yu, ob-havo juda yomg‘irli bo‘lsa, bu tadbirni xonada o‘tkazishning imkoni bo‘lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.

Haftalik reja - bu tarbiyachining ish jurnali va mashg‘ulotlar ishlanmasidan tashkil topadi. Tarbiyachining ish jurnali quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi:

- titul varag‘i;
- guruhning iliq va sovuq davrdagi kun tartibi;
- ertalabki badan tarbiya kompleksi;
- guruhda sentyabrdan avgustgacha bo‘lgan ta‘lim jarayonini rejalashtirish tarkibiga ertalabki suhbat, sayr, kunning ikkinchi yarmi kiradi;
- haftalik ish tahlili;
- ilovalar.

Mashg‘ulotlar konspektlarida maqsad, faoliyatning qisqacha ta‘rifi, zarur jihozlar ifodalanadi. Mazkur konspektlar tavsiyaviy hususiyatga ega va tarbiyachi tomonidan ijodiy o‘zgartirilishi mumkin.



**Maktabgacha ta‘lim tashkiloti ta‘lim dasturi.** Maktabgacha ta‘lim tashkiloti davlat o‘quv dasturiga asosan muayyan yosh guruhida tashkil etiladigan ta‘lim jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim hujjat bo‘lib, u qo‘yilgan maqsadlarga erishishni ta‘minlashi lozim.

Dastur – muhim vosita bo‘lib, uning yordamida tarbiyachilar (mutaxassislar) O‘zbekiston Respublikasida ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid Davlat talablariga muvofiq muayyan yosh guruhidagi bolalar uchun eng maqbul va samarali shakllar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil qilish yo‘llarini belgilaydilar.

Dastur majburiy qism va ta’lim jarayoni ishtirokchilari tomonidan shakllantiriladigan qismdan tashkil topadi. Har ikki qism ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablarini amalga oshirish nuqtai nazaridan o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi hamda zarur tarkibiy qism hisoblanadi.

Dasturning majburiy qismi barcha beshta ta’lim sohasi: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish; nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijtimoiy-hissiy rivojlanish hamda ijodiy rivojlanishni amalga oshirishga kompleks yondashuvni nazarda tutadi.

Dastur tarbiyachi (mutaxassis) ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojiga oid davlat talablari asosida bolalar rivojlanishining muayyan sharoitlari, ehtiyojlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limning individual pedagogik modelini qanday yaratayotganini ko‘rsatib berishi lozim.

Dastur uchta asosiy bo‘limni qamrab oladi:

**maqsadli** – bu tushuntirish xati hamda dastur o‘zlashtirilishining rejalashtirilayotgan natijalarini o‘z ichiga oladigan bo‘lim;

**mazmunli** – bu Dasturning umumiy mazmunini ifodalovchi va bolalar shaxsining to‘laqonli rivojlanishini ta’minlovchi bo‘lim;

**tashkiliy** – bu Dasturning moddiy-texnik ta’minoti ta’rifini, ta’lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta’minlanganligini, kun tartibini, shuningdek, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o‘z ichiga oluvchi bo‘lim.

Dastur maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik kengashida muhokama qilinadi va direktor buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

**Bolaning rivojlanish xaritasi** – bolaning rivojlanish xaritasini to‘ldirish uchun uch sikldan iborat bo‘lgan kuzatuv olib boriladi: dastlabki (o‘quv yili boshida), oraliq va yakuniy.

Dastlabki kuzatuv o‘quv yili boshida o‘tkaziladi (taxminan sentyabr oyi mobaynida). Bu bosqichda har bir bolaning boshlang‘ich imkoniyatlari aniqlanadi, uning shu davrgacha erishgan yutuqlari belgilanadi. Tarbiyachi ta’lim sohalari o‘zlashtirish bo‘yicha mavjud bo‘lgan muammolarga ham e’tibor qaratadi, bolaning qanday sifatlari qo‘llab-quvvatlashni talab etishini, har bir bola uchun qanday vazifalar dolzarbligini aniqlaydi. Keyin bolaning ayni davrdagi yoshini hisobga olgan holda uning rivojlanish sohalari bo‘yicha yutuqlari xaritasi to‘ldiriladi.

Oraliq kuzatuv birinchi yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar) o‘tkaziladi. Bu monitoringni o‘tkazishdan maqsad bolaga nisbatan tanlangan metodikaning to‘g‘riligini aniqlash, rivojlanish dinamikasini belgilashdan iborat. Mazkur kuzatuv natijalariga ko‘ra tarbiyachi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda, zarurat tug‘ilgan holatlarda pedagogika jarayoniga tuzatishlar kiritishi mumkin. O‘quv yili oxirida (odatda may oyida) tarbiyachi yakuniy kuzatuv o‘tkazadi. Mazkur kuzatuv asosida yil boshida qo‘yilgan vazifalar qanday hal qilingani baholanadi, mazkur bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olgan holda keyingi pedagogik jarayondan ko‘zda tutiladigan maqsadlar belgilanadi.

Kuzatuv o‘tkazishda quyidagi tamoyillarga tayanish lozim:

- kuzatuv bola uchun odatiy sharoitda amalga oshiriladi va bolaga yordam berishga yo‘naltirilgan bo‘ladi;
- bola rivoji borasida yanada xolis tasavvur hosil qilish uchun kuzatuv kamida ikki hafta (yoki oy) mobaynida olib boriladi;
- tarbiyachi bola to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ota-onalar yoki tashkilotning boshqa xodimlari bilan suhbatlar jarayonida olishi mumkin;
- tarbiyachi bolaning moyilliklari, qiziqishlariga, uning muloqot qilish va bilim olish xususiyatlariga e’tibor qaratishi lozim.

O'quv yili oxirida tarbiyachi yakuniy pedagogika kengashiga bolalar tomonidan o'quv dasturi o'zlashtirilishining sifat darajasi to'g'risida hisobot yozadi va unda bolalar tomonidan tegishli natijalarga erishilmagan bandler hamda ular nega bajarilmaganligi sabablariga to'xtalib o'tadi (ba'zi metodikalar o'zlashtirilmagani, tarqatma materiallar, adabiyotlarning yetarli bo'lmagani, guruh texnika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagani, bolaning betob bo'lgani va darslarni o'tkazib yuborgani, ota-onalarning faol bo'magani va h.k.). Ushbu natijalar asosida sabablarni bartaraf etish borasidagi ishlar rejalashtiriladi va mazkur guruh uchun kelasi yilga mo'ljallangan vazifalar belgilanadi.

Keyinchalik pedagog (tarbiyachi) bola yutuqlari xaritasini yiliga kamida 3 marta to'ldiradi va erishilgan natijani tegishli belgi (V) bilan belgilaydi. Kuzatuv rivojlanishning barcha sohalarini bo'yicha olib boriladi. Agar u yoki bu bilim olish sohasida indikator "ishlamasa", pedagog (tarbiyachi) daftar hoshiyalariga tegishli belgilar qo'yishi lozim. Bu bola rivojlanishini kuzatish kundaligini yuritishda yordam beradi. Mazkur tashxis (diagnostika) asosida pedagog (tarbiyachi) ruhshunos (psixolog), logoped, jismoniy tarbiya bo'yicha yo'riqchi va boshqalar bilan hamkorlikda bolaning yutuqlarini ajratadi, shuningdek, ta'lim sohalarini o'zlashtirishning salbiy tomonlarini aniqlaydi. Olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritiladi, shuningdek, individual ish rejalashtiriladi va uni amalga oshirish borasidagi vazifalar belgilanadi. O'quv yili oxirida (odatda may oyida) ushbu xarita bo'yicha yakuniy kuzatuv o'tkaziladi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti qachon qabul qilingan?
2. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartining maqsadi nima?
3. Davlat standartining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Davlat standartining asosiy prinsiplari etib nimalar belgilangan?
5. Davlat standartining tarkibiy qismlari qaysilar?

6. İlk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarida nimalar aks etgan?
7. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti tarkibiy qismi bo'lgan Maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturida nimalar aks etgan?
8. Kompetensiya nima? Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalariga nimalar kiradi?


### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Rivojlanish sohalari bo'yicha 6-7 yoshli bolalalarga qo'yilgan davlat talablarini tahlil qiling.

## **O'YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O'ZIGA XOSLIGI**

*Bolalar o'yini ko'p asrlik tarixga ega. Bu insonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan.*

*K.D.Ushinskiy*



### **REJA:**

1. O'yinning maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o'rni.
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan o'yinlar va ularni tashkil etish metodikasi.
3. Ijodiy o'yinlar va ularning turlari.
4. Didaktik o'yin turlari.

***Tayanch tushunchalar:** o'yin, harakat, ijodiy o'yin, qoidali o'yin, syujetli-rolli o'yinlar, sahnalashtirilgan o'yinlar, qurish-yasash o'yinlari, didaktik o'yinlar, og'zaki so'z o'yinlari.*

Yosh avlodni har tomonlama kamol topgan, yetuk, jismoniy sogʻlom, baquvvat qilib tarbiyalash hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir. Shunday ekan kelajagimiz boʻlmish bolaning ilk yoshlik chogʻidan boshlab ularning oʻsishi va tarbiyasi bilan jiddiy shugʻullanish taʼlim –tarbiya usuli va vositalaridan unumli foydalanish joizdir.

Tarbiya vositalari haqida gapirar ekanmiz, bolalar uchun eng sevimli va quvonchli vosita boʻlgan oʻyinning oʻrni beqiyosdir.

**Oʻyin** – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (koʻchirish, taqlid qilish) asosida oʻzlashtirish shakli sanaladi.

Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham oʻyin subʼekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, oʻqish bilan birga oʻyin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻyinlar vositasida katta avlod tomonidan toʻplangan hayotiy tajriba, oʻzlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan.

Oʻyin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga taʼlim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli oʻyinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri boʻlib kelmoqda. Bevosita oʻyinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni maʼnaviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

Oʻyin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. Oʻyin bolaning kelajakdagi oʻquv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. Oʻyin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha taʼlim tashkilotining taʼlim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda



katta o‘rin tutadi. O‘yinning maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tutgan o‘rni va ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi. Bola hayotining bir yoshidan boshlab unga o‘rab turgan tevarak-atrofni bilishga ehtiyoj xosdir. Bolalar o‘yinlari o‘zining barcha xilma-xilligi bilan unga yangi narsani bilish, o‘yin mazmunida aks etgan jihatga o‘z munosabatini bildirish imkonini beradi. Bola - o‘sib va rivojlanib boruvchi mavjudotdir.

**Harakat** – ma’lum maqsadga qaratilgan aqliy va jismoniy faoliyat, mehnat. O‘z mohiyatiga ko‘ra aqliy yoki jismoniy bo‘lishidan qat’iy nazar harakat maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining to‘la-to‘kis o‘sib-ulg‘ayishlarini ta’minlovchi muhim shartlaridan biri sanaladi. Faol harakatlarga ehtiyoj o‘yinning barcha turlari, ayniqsa, harakatli va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaladigan didaktik o‘yinlar orqali to‘liq qoniqtiriladi. Shuningdek, o‘yinlar bolaning muloqotga kirishishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda katta imkoniyatga ega.

2. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir. Ilmiy asoslangan o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalar hayoti va faoliyatini tashkil etish shakli sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda tarbiyachi yetakchi o‘rin egallab, u eng avvalo, o‘yin orqali ta’lim-tarbiyaga doir qanday vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish mumkinligini aniq tasavvur qila olishi lozim. Shuningdek, bolalar o‘yiniga ajratilgan vaqtni mashg‘ulot yoki kun tartibidagi boshqa tadbirlarni cho‘zib yuborish orqali egallash mumkin emas. Maktabgacha ta’lim tashkiloti dasturida har kungi kun tartibiga ovqatlanish, badantarbiya, sayr, mashg‘ulotlar o‘tkazish bilan bir qatorda o‘yin ham kiritilgan. O‘yin bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida kichik guruhdan boshlanadi. O‘yin ertalab nonushtagacha (15-20 daqiqa) boshlanadi va nonushtadan keyin, mashg‘ulotlar o‘rtasida, ochiq havoda, o‘yqudan keyin o‘tkaziladi. Ertalab rolli o‘yinlar, qurish-yasash, harakatli o‘yinlarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Mashg'ulot o'rtasida harakatli, qoidali o'yinlar o'tkaziladi. Ular asosan, mashg'ulotning mazmuniga bog'liq bo'ladi. Sayr vaqtida ochiq havodagi o'yinlardan foydalaniladi. Kunduzgi uyqudan keyingi o'yinlarga qurilish o'yinlari, ertak bo'yicha qo'yiladigan o'yin, rolli, didaktik o'yinlar kiradi.


3. O'yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir. Pedagogika fani o'yinni bola shaxsini tarbiyalashning asosiy vositasi deb hisoblaydi. O'yin orqali bolalar kattalarning mehnat tajribasini, bilim, ko'nikma va malakalari, harakat usullari, axloq me'yorlari va qoidalarini, mulohaza va muhokamalarini egallab oladi. O'yinda bolaning o'z tengqurlari va kattalar bilan bo'ladigan munosabat usullari shakllanadi, his va didlari tarbiyalanadi.

4. O'yin bolalarga ta'lim-tarbiya berishning metod va usulidir. O'yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O'yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o'zining butun diqqatini o'yinga qaratishi lozim. Bola o'ynayotganida kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to'g'risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Shunday qilib, o'yin bolalardagi bilim va tasavvurlarni mustahkamlaydi. Bunda pedagogning to'g'ri rahbarligida uning tushunchalari kengayadi.

Tarbiyachi o'yin orqali bolalarda ona-vatanga, o'z xalqiga, boshqa millat vakillariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O'yin orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, rostgo'ylik, o'zini tuta bilishlik, tashabbuskorlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O'yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo'lgan munosabatni shakllantiruvchi maktab vazifasini bajaradi. Tarbiyachi bolalarning o'yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O'yin jarayonida bolalar o'z xohish-istaklarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o'yinda o'rnatilgan qoidalarga rioya qilishga o'rganadi.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
TASHKIL ETILADIGAN  
O'YINLAR VA ULARNI  
TASHKIL ETISH  
METODIKASI**


Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra xilma-xildir, umumlashtirgan holda, uni ikki turga ajratish mumkin:



O'z mohiyatiga ko'ra ijodiy o'yinlar bir necha turli bo'ladi.

**Ijodiy o'yinlar** qat'iy belgilangan qoidalarga ega bo'lmagan va o'yin qoidalarini bolalarning o'zlari o'yin jarayonida belgilaydigan o'yinlar sanaladi. Odatda bu kabi o'yinlarni bolalarning o'zlari o'ylab topadi.

Ular:



**Syujetli-rolli o'yin** o'z xususiyatiga ega aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur turdagi o'yinlarning o'ziga xosligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo'lishidir. Buning uchun albatta, bolalar biror narsa yoki voqea to'g'risida yetarlicha tasavvurga ega bo'lishi lozim. M: bolalar "parovoz" o'yinini o'ynashmoqchi bo'lishadi. Bunga o'yinning qanday borishi to'g'risida syujet (voqeaning borishi) kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog'liq bo'ladi. Bolada avval g'oya tug'iladi,

keyin mazmuni rivojlanadi. Ba'zan bolalarning o'yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. M: ular orasidan kim "parovoz" bo'lishi, qolganlar uning orqasidan ergashishi, qayerga borganda navbat almashishlarini oldindan kelishib olishadi.

Syujetli-rolli o'yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o'ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalarni kerakli yo'nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

- 1) bolalar o'yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o'yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;
- 2) tarbiyachi bolalarning o'yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istaklarini bilib olib, ularni to'g'ri yo'lga solish, ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;
- 3) syujetli-rolli o'yinlarni o'ynash uchun ma'lum joy ajratish lozim;
- 4) o'yin jarayonida kerak bo'ladigan o'yinchoqlarni bolalar mustaqil o'zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog'och bo'laklari, mix, loy, qog'oz, karton, bo'yoq va kerakli asboblari – bolg'acha, qo'l arra, qaychi, pichoq kabilarni berish kerak. Biroq o'yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;
- 5) o'yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalarni o'ynashga o'rgatish usullaridan biridir; tarbiyachi bolalarning rolli o'yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to'g'risida ham o'ylashi kerak;
- 6) tarbiyachi bolalarning barchasi o'yinga qatnashishlari to'g'rsida g'amxo'rlik qilishi kerak; o'yinda ko'pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladi; bolalarni bu kabi kelishmovchiliklarni haqqoniy yechishga o'rgatish lozim.

**Sahnalashtirilgan o‘yinlar** bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajarishiga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi. Sahnalashtirilgan o‘yinlarni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

**I bosqich.** Sahnalashtirish uchun badiiy asarni tanlash. Badiiy asarni tanlashda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

- 1) ertak yoki hikoyada qatnashuvchilar soni ko‘p bo‘lishi kerak;
- 2) asarning nafaqat mazmuni, balki unda harakatlarning ham turfa xil bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim;
- 3) asar ifodali o‘qishga mos bo‘lishi kerak;
- 4) asar mazmuni qiziqarli va emotsional bo‘lishi zarur;
- 5) asar bolalarning yoshiga mos kelishi lozim.

**II bosqich.** Sahnalashtirish uchun tanlangan ertak yoki hikoyaning mazmunini o‘qib berish.

**III bosqich.** Asarni bolalar tomonidan eslab qolinishiga erishish: qayta o‘qib berish, har bir bolaning aytadigan gaplari ustida individual ish olib borish, rasmlar namoyish etish.

**IV bosqich.** O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlash hamda rahbarlikni to‘g‘ri amalga oshirish.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga muvofiq. M: o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaydigan o‘yinining tarkibiy qismidir. Biror narsani qurish bolalarni o‘z fikrlarini ro‘yobga chiqarish usulidir. Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlarda

bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar.

Qurilish materiallari bilan bog'liq o'yinlarni o'tkazishda quyidagi jihatlarni hisobga olish lozim:

- 1) qurilish materiallari butun guruh bolalarining bir paytda o'ynashlari uchun yetarli bo'lishi lozim;
- 2) guruh xonasida qurilish materiallarini saqlaydigan, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qo'yishning iloji bo'lgan joy bo'lishi kerak;
- 3) qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo'lgan g'ildirakli shkaf bo'lishi, uni bolalar istagan tomonlariga sudrab olib yurishlariga imkon yaratilishi kerak;
- 4) qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o'yinchoqlar, o'yinchoqli odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo'lishi mumkin;
- 5) bolalarning o'zlari o'yinchoq yasashlari uchun har doim kerakli material bo'lishi zarur;
- 6) bolalarga qurilish usullarini o'rgatish lozim;
- 7) qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha, hatto undan ko'proq muddat saqlash kerak.

Qurilish-yasashga doir o'yinlar uchun qum, suv, qor kabilar asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Qum bolalarning yozda o'ynashlari uchun yaxshi material. Har bir guruhda ikkitadan qum yashigi bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Shunda hamma bolalar o'ynash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qum bolalarning o'ynashlari uchun eng qulay o'yin vositasi bo'lib hisoblanadi. Qum maxsus yashiklarda nam holatda saqlanadi.

Qumni saqlashga muayyan gigiyenik talablar qo'yiladi. Ular:

- a) qum turli xil tosh, shishalardan tozalangan bo'lishi;
- b) qum faqat namroq holda saqlanishi;
- d) bolalarning salomatligiga xavf solmasligi kerak.

Kichik yoshdagi bolalarni qum bilan o'ynashlari uchun bayroqchalar, o'yinchoqlar tayyorlab qo'yilishi kerak.

Suv bilan o'ynaladigan o'yinlar bilan kichik yoshdan boshlab shug'ullanish mumkin. Suvda qo'g'irchoqni cho'miltirish, o'yinchoqlar bilan o'ynash, katta yoshdagi bolalar esa suvda cho'milishlari mumkin.

Qor bilan o'ynaladigan o'yinlar bolalarda quvnoq kayfiyatni uyg'otadi. Buning uchun yog'och belkurakcha, qorni tashish uchun quticha ortilgan chana bo'lishi shart. Kattalar yordamida qor uyumlaridan turli shakllar, qorbobo, qorqiz, hayvonlarning qiyofasini yasaydilar.

**Didaktik o'yinlar** – o'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi hisoblanadi. Bu kabi o'yinlar tarbiyalanuvchilar tomonidan ijtimoiy-foydali mehnat va o'qish ko'nikmalarini faol o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning ahamiyati natijalar bilan emas, balki jarayonning mazmuni va kechishi bilan belgilanadi; bu kabi o'yinlar bolalarni ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi, ulardagi turli psixologik zo'riqishlarni kamaytiradi.

Mazmuniga ko'ra didaktik o'yinlar ta'limiy o'yin sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan o'yinlar sirasiga kiradi. Didaktik o'yinlarning muhim belgisi undagi qoidalarning mavjudligidir. O'yinda o'yin niyati, o'yin qoidalari, o'yin harakatlari o'rtasida uzviy aloqa mavjud. O'yin niyati o'yin harakatlarining tabiatini belgilaydi. O'yin qoidasi esa, o'yin harakatlarini, vazifasini hal yetishga va o'yindagi harakatlarni amalga oshirishga yordam beradi.

Didaktik o'yinlar orqali bolalarga yangi bilimlar, tushunchalar berib boriladi. Bu o'yinlarda bolaning har tomonlama rivojlanishi, bilim jarayoni, sensor madaniyati, nutq faoliyati, aqliy qobiliyatlari takomillashadi. O'yin qoidasiga rioya qilish, unga amal qilish o'yin mazmunini boyitadi.


Didaktik o'yinlarda tabiiy narsa va buyumlardan keng foydalaniladi. Bolaning kun tartibida didaktik o'yin uchun vaqt va joy ajratilishi kerak. Bunday o'yinlar mashg'ulot jarayonida va o'yindan tashqari vaqtlarda guruh yoki yakka-yakka o'tkaziladi. Bunda o'yin mazmuni va natijasi puxta aniqlanadi.

Didaktik o'yinlar jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilinishi kerak:

- 1) navbatma-navbat ta'sir etish;
- 2) so'ralganda javob berish;
- 3) o'rtoqlari fikrini eshita olish;
- 4) o'yin jarayonida boshqalarga halaqit bermaslik;
- 5) o'yin qoidasini bajarish;
- 6) o'z xatosini tan olish.

Didaktik o'yinlarda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish lozim. O'yinda o'yin sur'ati va ritmi katta rol o'ynaydi, juda sekin va bir tekisdagi temp bolani ko'p kuttiradi, juda tez temp esa bolalarni hayajonga soladi, turli bahs-munozaralarga olib keladi. Kattalar tomonidan o'yin ishtirokchilarini to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning quyidagi turlari mavjud:



**Stol-bosma o'yinlari** bolalarning tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash, bir tizimga solish, tafakkurini (tahlil qilish, umumlashtirish, tavsiflash) o'stirish imkonini beruvchi o'yin turidir. Bu o'yin turiga **lotto, juft rasmlar, domino va labirint** kiradi.

**Og'zaki so'z o'yinlari** bolani eshita olish, zudlik bilan javob topa olish, o'z fikrlarini tez va aniq ifoda eta olishga o'rgatadigan o'yinlar sanaladi. Bu kabi



o'yinlar odatda katta maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladi. Bunday o'yinlar bolaning aqliy rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'yin turlarida didaktik maqsad va o'yin materiallarining mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Buyum va o'yinchoqlar bilan o'ynaladigan o'yinlar** bolaning ilk yoshidan boshlab, to maktab yoshiga yetgunga qadar o'ynaladigan o'yin turi hisoblanadi. Bunda bolalarning tasavvurlari, diqqatlari o'yin asosini tashkil etadi. Ularda tevarak-atrofdagi narsa va buyumlar, ularning sifati, foydali tomonlari to'g'risida umumiy tushuncha hosil bo'ladi. O'yinda o'ynaladigan har bir buyum yoki o'yinchoq o'zining tashqi ko'rinishiga ega bo'lishi, narsaning asosiy belgisini ajrata bilish imkonini berishi lozim. Bunday o'yinlar bolalarning narsalarning shakli, hajmi, belgisi, sifati haqidagi bilimlarini kengaytiradi.

Demak, o'yin kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyatining asosiy shakli sanaladi. U orqali bola shaxs sifatida shakllanadi. O'yin bolaning kelajakdagi o'quv, mehnat faoliyati, kishilarga munosabatning qay darajada shakllanishini belgilab beradi. O'yin bolalarning jismoniy rivojlanishi, maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya ishida, bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va estetik jihatdan tarbiyalashda katta o'rin tutadi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Bola shaxs faoliyatining muhim turlariga nimalar kiradi?
2. Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etiladigan bolalar o'yini o'zining mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko'ra necha turga ajratish mumkin?
3. Ijodiy o'yinlar deb nimaga aytiladi? Ijodiy o'yin turlari qaysilar?
4. Qoidali o'yinga ta'rif bering.

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Didaktik va qoidali o'yinlardan namunalar keltiring.

## BOLA TARBIYASIDA O‘YINCHOQNING AHAMIYATI



*O‘yinchoqlar kitoblar kabi muhimdir: agar bunday bo‘lmaganida, bolalar ularni sevmasdi. Bolalar o‘yinchoqlarni sevganlari uchun, ularga boshqa yo‘l bilan o‘rgatib bo‘lmaydigan narsalarni o‘yinchoq orqali o‘rgatish mumkin.*

*Janni Rodari*

### REJA:

1. O‘yinchoq - bola hayotining yo‘ldoshi.
2. O‘yinchoqlar tanlashga qo‘yiladigan talablar.
3. O‘yinchoqlarning turlari va ko‘rinishlari.

*Tayanch tushunchalar: o‘yinchoq, pedagogik talab, gigienik talab, badiiy talab, syujetli-obrazli o‘yinchoqlar, texnika o‘yinchoqlari, qurish-yasash o‘yinchoqlari, didaktik o‘yinchoqlar, harakatli o‘yinlar, o‘yinchoq-ovutmacholqlar.*

### O‘YINCHOQ - BOLA HAYOTINING YO‘LDOSHI

O‘yinchoq – bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab ularga yo‘ldosh quvonch manbaidir. O‘yinchoq bolaning o‘ynashi uchun mo‘ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

Pedagog A.S.Makarenko, “O‘yinchoq o‘yinning “material asosi”, o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi”, - deb ta’kidlaydi. Rus pedagoglari o‘yinchoq bolalarga atrofdagi mavjud voqelikni o‘rganishga yordam

beradigan, ranglar, buyumlar ko'lamini ularning materiallarini farqlash malakasini rivojlantiruvchi vosita deb ta'kidlab, bola dunyoqarashini kengaytirishdagi ahamiyatini ko'rsatib berdilar.

Xalq pedagogikasida o'yinchoqlarning butun bir tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bular bolaning sensor qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

O'yinchoqlar bolalarning nutqiy faolligini uyg'otadi, lug'at boyligini oshiradi, ularda tahlil qilish, yaxlit holatga keltirish, umumlashtirish, taqqoslash, tavsiflash, diqqatni jamlash kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi.

**O'YINCHOQLAR  
TANLASHGA  
QO'YILADIGAN  
TALABLAR**

O'yinchoq bolalarda – ma'naviy-axloqiy tuyg'ularni (mehribonlik, avaylash, e'tiborlilik) shakllantiradi, atrof-muhitga ijobiy munosabatni uyg'otadi. O'yinchoqlar tanlashda bolaning yosh va individual xususiyatlari, qiziqishlari, istaklari hisobga olinadi. Maqsadga qaratilgan bunday yondoshuv - o'yinchoq tanlashga bo'lgan talabni yanada oshiradi. Asosan, pedagogik, gigiyenik, badiiy talab orqali o'yinchoq tanlanadi.

**Pedagogik talab.** O'yinchoq obrazi va mazmunining bola tarbiyasiga muvofiqligi; jamiyatimiz g'oyasi nuqtai nazariga mos kelishi, g'oyaviy jihatdan qimmatli bo'lishi pedagogik talabning muhim belgisi hisoblanadi. O'yinchoq bolada olijanob tuyg'ularni uyg'otishi, boshqa millat bolalari bilan do'stona munosabatlarni tarbiyalash, voqelikka nisbatan olijanob tuyg'ular uyg'otishi, ijobiy axloqiy tajriba to'plashga yordam berishi lozim. Bolaning faollikka bo'lgan intilishini qoniqtirishi va uni uyg'otishi kerak. Obrazli o'yinchoq real haqiqatni ifoda etadi, buyum, uning xususiyatlari va hayotdagi ahamiyatini aks ettiradi.

O'yinchoqning dinamiklik xususiyati undan ko'p marotaba rejali tarzda foydalanish imkonini yaratadi. Bu xususiyatidan kelib chiqib, o'yinchoqqa quyidagi talablar qo'yiladi:

**Gigiyenik talablar.** O‘yinchoq qanday materialdan va rangdan tayyorlanganligi, bolaning hayotiga hech qanday xavf solmasligi, yaxshi tozalanishi mumkinligi asosiy talablardan hisoblanadi.

**Badiiy talablar.** Shakl, bo‘yoq va bezaklarning har tomonlama uyg‘unlashuvi, bir-birini rang va shakl jihatdan to‘ldirib, ta’kidlab, o‘yinchoqning badiiy ifodaliligini oshiradi. O‘yinchoqlarning tuzilishi va bezalishi bolalarning turli yosh bosqichlarida idrok etish xususiyatlariga to‘la mos kelmog‘i lozim.

To‘g‘ri tanlangan o‘yinchoq - bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolani aqliy jihatdan tarbiyalashda didaktik o‘yinchoqlarning butun bir tizimi katta ahamiyat kasb etib, sensor va nutq rivojiga ta’sir etadi, fikrlash jarayonlari va diqqatini tarbiyalaydi, buyum va uning xususiyatlariga, qurilishiga bo‘lgan qiziqish shakllanadi, bilimi, tushunchalari boyib boradi.

O‘yinchoq bolani quvontiradi, atrofdagilarga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash tuyg‘usini uyg‘otadi va ijobiy his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Axloqiy his-tuyg‘ularni shakllantirishda qo‘g‘irchoq muhim ahamiyatga ega. Milliy qo‘g‘irchoq bolalarni boshqa millatga mansub bo‘lgan tengdoshlariga bo‘lgan ijobiy munosabatini tarbiyalash manbalaridan hisoblanadi. San’atni birinchi yorqin obrazli va eng tushunarli buyumi bo‘lgan o‘yinchoq estetik hislar va kechinmalarni uyg‘otadi, estetik tarbiyani to‘plashga yordam beradi va badiiy didni shakllantiradi. Shu o‘rinda bolalarga yaqin va tushunarli bo‘lgan xalq o‘yinchoqlarining ahamiyatini alohida ta’kidlash lozim.

O‘yinchoq bolalarni turli rang-barang harakatlarga undaydi va bolaning faol harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Tezkor javob reaksiyasini, harakatlarning aniqligi va muvofiqlashtirishini rivojlantiradi.

## O'YINCHOQLARNING TURLARI VA KO'RINISHLARI

Ilk yoshdagi bolalarga mo'ljallangan ko'p o'yinchoqlar (shaqildoqlar, rezina koptokchalar, shaklchalar va boshq.) bolada ko'rish va eshitish diqqatini rivojlantiradi,

ushlash harakatlari va buyumli harakatlarni o'stirishga yordam beradi.

O'yinchoqlarning turlari va ko'rinishlari bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi:

- syujetli-obrazli;
- texnika o'yinchoqlari;
- qurish-yasash, qurilish materiallari o'yinchoqlari;
- didaktik o'yinchoq va o'yinlar;
- sport va harakatli o'yinlar uchun mo'ljallangan o'yinchoqlar;
- yig'ma-bo'linma o'yinchoqlar;
- teatr va dekorativ o'yinchoqlar (soya va qo'g'irchoq teatrlarining personajlari, dramalashtirilgan o'yinlar uchun kiyimlar, archa o'yinchoqlari);
- o'yinchoq-ermaklar;
- ohang chiqaruvchi musiqaviy o'yinchoqlar;
- qo'lbola o'yinchoqlar va o'yin materiallari, turli-tuman o'yin jihozlari.

**Syujetli-obrazli o'yinchoqlar** syujetli-rolli o'yin uchun foydalaniladi. U bolalarda ijobiy xarakter qirralarini, muloyimlik, g'amxo'rlik, yordam berishga ehtiyoj, shuningdek kattalar mehnatiga hurmat va tengdoshlari bilan o'ynay olish malakalarini tarbiyalaydi.

**Texnika o'yinchoqlari** bolalarda texnikaga va texnika asboblari bo'lgan qiziqish uyg'otib, ularni o'z o'yinlarida qo'llay olish imkonini yaratadi. Bolalarga texnikaga bevosita aloqasi bor buyumning (mashinalar, mexanizmlar, transport turlari, aloqa vositalari) tashqi ko'rinishi, obrazini va unga xos harakatlarini tanishtiruvchi texnik o'yinchoqlar yaqin turadi.

**Qurish-yasash o'yinchoqlari** sodda, boshqarish va foydalanish jihatdan qulay va osondir. Bu o'yinchoqlarni o'ynash buyumning asosiy vazifalariga

taqlid qilish imkonini yaratishi lozim (avtomobilda g'ildiraklar harakatlanishi, eshik ochilishi). Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan o'yinchoqlarning asosiy 2 tipi mavjud:

a) kublar, prizmalar, konuslar, piramida, selindrlar, plastinkalar, geometrik shakllar to'plami.

b) turli blok - devor, fronton, kolonka, tom, ark va boshqa arxitektura va qurilish materiallari. Mayda (stol o'yinlari uchun) va yirik (polda va maydonchada) o'ynashga mo'ljallangan bu qurilish materiallarining rangi har xil bo'lishi mumkin.

**Didaktik o'yinchoqlarning** asosini xalq o'yinchoqlari tashkil qiladi. Ular o'ynashda bola o'z-o'zini nazorat qiladi. Xilma-xil mozaikalar sensor qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ulardagi o'yin vazifasi naqshlar, rasmlarni tanlash va joylashtirishdan iborat.

**Harakatli o'yinlarga** mo'ljallangan o'yinchoqlar: suv, qum bilan o'ynaladigan o'yinchoqlar, koptoklar, arg'amchilar, chambaraklar, kegli va boshqalar. Ularning asosiy vazifasi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashdir.

**Musiqali va teatrlashtirilgan o'yinchoqlar** bolalarning musiqaviy ohang va ritmni eshita olish qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Katta yoshdagi bolalar ertaklarni sahnalashtiradilar.

**O'yinchoq-ovutmacholqlar** harakatchan, ko'pincha ovoz chiqaradigan bo'ladi. Ular bolalarni o'zlarining ajoyib xatti-harakatlari bilan quvontiradilar, syujetlari esa vaqtichog'lik bag'ishlaydi.

**Qo'l bola o'yinchoqlarni** kattalar bolalar bilan birgalikda tayyorlaydilar va turli ertak, hikoyalarni sahnalashtiradilar.

**O'yinchoqlarni materialiga ko'ra:** hunarmandchilik, qo'lbola usulida, fabrikada tayyorlanadi.

Taniqli pedagog A.S.Makarenko o'yinchoqlarning 3 turini ajratib ko'rsatgan edi: tayyor o'yinchoqlar, yarim tayyor o'yinchoqlar va o'yin materiallari. Birinchi turi bolalarni buyumlar va narsalarning rang-barangligi

bilan tanishtiradi, tasavvurini o‘stiradi. Ikkinchi turi boladan faol faoliyatni talab qiladi, mantiqan va aqlan o‘shiga yordam beradi. Uchinchi turi bevosita bolaning ijodiy faoliyatini ta‘minlaydi.

#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. O‘yinchoqqa qanday talablar qo‘yiladi?
2. O‘yinchoqlar tur va ko‘rinishi bo‘yicha qanday turkumlarga ajratiladi?
3. O‘yinchoqlar materialiga ko‘ra qaysi turlarga bo‘linadi?
4. Syujetli-obrazli o‘yinchoqlarning vazifasiga nimalar kiradi?
5. Texnika o‘yinchoqlari bolalar ta‘lim-tarbiyasiga qanday ta‘siri bor?
6. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy necha turi mavjud?
7. Harakatli o‘yinlarga mo‘ljallangan o‘yinchoqlarga nimalar kiradi?

#### **Mustaqil ta‘lim uchun topshiriq:**

“O‘yinchoqning bola hayotidagi o‘rni” mavzusida konspekt yozing.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA‘LIMIGA TAYYORLASH. MAKTAB TA‘LIMIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI**



*Maktabgacha yoshdagi bola maktab talimiga tayyor bo‘lishi uchun undan jismonan sog‘lomlik, nutq va tafakkurning ma‘lum doirada rivojlanganligi, shaxsida ma‘naviy va axloqiy xususiyatlarning yetarli shakllanganligi, maktab hayoti haqida tegishli tasavvurlarga ega bo‘lishi talab etiladi.*

*Shaxlo Xaydarova*

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni maktabga tayyorlash ishlarining ahamiyati.

2. Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi.
3. Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash.
4. “Ilm yo‘li” dasturi asosida 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash.
5. 6 yoshdan 7 yoshgacha bolalar rivojlanishidagi o‘ziga xosliklar.
6. Maktabga tayyorgarlikka ta’sir etuvchi asosiy omillar.

*Tayanch tushunchalar:* bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi, bolaning burch va huquqlari, maktabga tayyor bo‘lgan bola, bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash, “Ilm yo‘li” variativ dasturi.

**MAKTABGACHA TA’LIM  
TASHKILOTLARIDA  
BOLALARNI MAKTABGA  
TAYYORLASH ISHLARINING  
AHAMIYATI**

Maktabdagi majburiy ta’lim bolaga ma’lum talablarni qo‘yadi. Ma’lumki, bola ta’lim-tarbiyaviy muassasaning talablarini bajara oladigan rivojlanish darajasiga

yetishi kerak, faqat shundagina bolani maktabga berish mumkin.

Olimlar bolani qanday qilib maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlashadi?

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda bolaning ta’lim va tarbiya jarayoniga kirib, uning mazmunini muvaffaqiyatli o‘zlashtirib olishi shaxsning umumiy rivojlanganligi deb ko‘rsatiladi. Psixologlar maktabga umumiy tayyorgarlikning quyidagi tomonlarini ajratadilar: **jismoniy, aqliy, ijtimoiy-axloqiy (yoki ijtimoiy his-tuyg‘uli) va sababli (motivli).**

Boshlang‘ich maktab bolani o‘qitishga tayyorgarlik darajasiga o‘z talablarini qo‘yadi. Talablardan biri maktabgacha ta’lim tashkilotiga xos bo‘lgan kun tartibiga rioya qilish. Bolaning bog‘chaga borish vaqti oilaviy sharoitga qarab belgilanadi. Ammo maktabga borish majburiy - bola darslarga har kuni kelishi shart. Bog‘cha bolasi kun bo‘yi tuzilishi va mazmuni qiziq bo‘lgan turli xil faoliyatlar bilan shug‘ullanadi. Bola asosan, o‘z xohish bo‘yicha o‘ynaydi yoki ish bilan shug‘ullanadi. Maktabda esa uning birinchi qismini tartibli (sistemali) o‘qitish egallaydi, undan tashqari kunning ikkinchi qismida ham



ma'lum vaqtni darslarni tayyorlashga ajratish kerak. Maktabda bola o'z xohishlari qiziqishi bilan tanlagan mashg'ulotlar chegaralangan. Bola maktab tartibi va darslar jadvaliga bo'ysunishi kerak. Har qanday ob-havoda bola maktabga vaqtida kelishi, o'quv qurollarini olib kelishi lozim. Maktab ta'lim sharoitlariga ko'nikishi kerak. Darslarda ma'lum vaqt tinch o'tirib, diqqatini bir joyga jalb qilib ishlashi tana ustini esa nisbatan qisqa vaqt ichida o'z kuchlarini tiklab olishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, maktab hayotiga jismoniy va ruhiy jihatdan o'rganish uchun bola eng avval sog'lom, jismoniy chiniqqan va chidamli bo'lishi kerak. Sistemali ta'lim uchun bolaning aqliy rivojlanishi, ya'ni, aniqrog'i, maktabga umumiy ruhiy tayyorgarligi muhim deb hisoblanadi.

Bola birinchi sinfda uchta fan (o'qish, yozuv va matematika)ning asoslarini, tabiat va jamiyat to'g'risida oddiy bilimlarni egallaydi. Bola odamlar, jismlar va tevarak-atrofdagi hodisalar haqida ma'lum tasavvur bilan maktabga kelishi kerak. Bolaning o'quv materialni to'liq o'zlashtirishi va ta'limning bola qobiliyatlariga mos kelishilining aqliy faoliyatiga bog'liq bo'ladi.

Bolaning yaxshi o'qishiga aqliy faoliyatining rivojlanish darajasi, idrok, tasavvur, xotira va tafakkur funksiyalari hamda aqliy faoliyat bilan shug'ullanish odatlari ta'sir qiladi. Bola tahlil qilishni, ya'ni narsalarni (predmetlarni) idrok etganda muhim va muhim bo'lmaganlarni ajrata bilish, kuzatayotgan hodisalarni umumlashtirish, guruhlash kabilarni o'rganishi kerak. Bola zehnli, ziyrak, topqir, mustaqil bo'lishi kerak. Zavq, xursandchilik keltiradigan aqliy faoliyatiga nisbatan bolada qiziqish paydo bo'ladi.

Ta'limning muvaffaqiyatli bo'lishi ko'p jihatdan bola nutqining rivojlanish darajasiga, uning lug'at boyligiga, mustaqil, aniq, ifodali va grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishiga bog'liq bo'ladi.

Bolada maktabga borish bilan nafaqat hayot tartibi va asosiy faoliyatida, balki ijtimoiy o'rnida ham o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bola munosabatlari shakllangan tanish tengdoshlar va kattalar jamoasidan, notanish bolalar va kattalar jamiyatiga o'tadi. Oldingi jamoada bola o'zining

huquq, burch va imtiyozlarini bilar edi, yangi shakllanayotgan maktab jamoasida esa bola o'zini boshidan ko'rsatishi kerak. Bolaning burch va huquqlari, maktabgacha davrga nisbatan aniqroq va qattiqroq belgilanadi.

Bola faoliyatini baholashning muhim mezonlaridan biri nafaqat maktabda, balki oilada, tengdoshlar davrasida muvaffaqiyatli o'qish bo'lib qoladi. Maktabda uzoq muddat ota-ona g'amxo'rligisiz bo'lgani sababli, bola o'z yoshiga mos his-tuyg'u va iroda mustahkamligiga ega bo'lishi, o'z xulqini nazorat qila olishi kerak. Agar o'quvchi o'qishga ijobiy yondashsa, o'qishni xohlab, intilsa, ta'limdagi boshlang'ch qiyinchiliklarni tezroq va osonroq bartaraf etadi. Irodali bo'lish bolaga barcha maktab vazifalarini doimiy va muvaffaqiyatli bajarishida muhim ahamiyatga ega.

Bilim va ijtimoiy hayot qonun-qoidalariga rioya qilish, xarakter ijobiy jihatlarning shakllanganligi bolaga boshqa bolalar bilan muloqotda, sinfdoshlar bilan do'stona munosabat o'rnatishda va jamoada faol ishtirok etishida juda katta yordam beradi.

**BOLANING  
MAKTABGA  
UMUMIY  
TAYYORGARLIGI**

**Bolaning maktabga umumiy tayyorgarligi**

deganda uning har tomonlama rivojlanganligi tushuniladi. Biror tomonining rivojlanmagani, zaifligi (aqliy, his-tuyg'uli, irodaviy yoki amaliy) maktabda o'zlashtirmaslikning sabablaridan bo'lishi mumkin. Shu bilan birgalikda, bolalar birinchi sinfda o'quv fanlarning (o'qish, yozuv, matematika) mazmunini o'zlashtirish uchun maxsus bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak. Masalan, matematikani o'qitishda o'qituvchi bola narsalarning rangi, shakli, katta-kichikligi, sonini ajrata biladi deb hisoblaydi, yozuvni o'rganishda esa bola yozuv va rasm qurollarini to'g'ri ishlata olishiga, grafik mashqlarni bajara olishiga tayanadi. Shu kabi bilim, malaka va ko'nikmalar maktabga maxsus tayyorgarlikni tashkil etadi. Umumiy va maxsus tayyorgarlik bir-biriga zid kelmaydi. Maktab fanlarini o'zlashtirishda bolaning maxsus tayyorgarligi umumiy tayyorgarlikdan

kelib chiqadi, unga mos keladi, tayanadi. Bola shaxsini rivojlantirishda ma'lum bir tomoniga (asosan, aqliy) kuchli yo'naltirish berishga alohida e'tibor berish kerak. Kattalar har doim shuni esda tutishlari kerakki, bolani tezlashtirilgan, jadal o'qitish zarur hisoblanadi.

Maktabgacha davr inson shaxsini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Agar shaxsni har taraflama shakllantirishda aynan shu yoshdagi qulay sharoitlar qo'llanilmasa, rivojlanish to'xtab qolishi mumkin yoki chetlanishlarini bartaraf etish nihoyatda og'ir kechadi.

7 yosh – bola yangi sharoitga tez o'rganadigan va o'qish jarayonida muvaffaqiyatli ishtirok etadigan davr hisoblanadi. Y.A.Komenskiy bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o'qishni boshlaydigan vaqt deb hisoblagan. Bolaning ona maktabida 5-6 yil ta'lim-tarbiya olishini (bolaning oiladagi tarbiyasi nazarada tutilgan) u yetarli va optimal muhlat deb hisoblagan.

Maktabga tayyor bo'lgan bola jismoniy chiniqqan, har qanday ob-havoda uzoq vaqt yura oladi, asosiy harakat malakalariga ega, u o'zining harakatlarini nazorat qila oladi, tozalikka rioya qiladi. Bola bilimining rivojlanganligi uning jamiyat va tabiatdagi voqea-hodisalarni tushunib yetishi, kuzatish qobiliyati, hodisalarni to'g'ri nomlashi bilan aniqlanadi. Bola o'z fikrlarini ifoda eta bilishi kerak, ijodiy va mustaqil fikrlay olishi, aniq ko'rgazma materialga tayanib, masalalarni yecha bilishi kerak. 6 - 7 yoshli bola oiladan tashqarida ham o'zini dadil tutishi kerak. Shakllangan madaniy ko'nikmalari o'z tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatishiga yordam beradi. Bola mustaqil kiyinishni, ovqat yeyishni, narsalarini toza va tartibli saqlashni o'rganishi kerak. Bola kattalar mehnatining muhimligini tushunishi va hurmat qilishi kerak. Har qanday ishga ijobiy yondashib, uni diqqat, e'tibor bilan vaqtda bajarishi lozim. Bolada estetik idrokni shakllantirish, uning yoshiga mos badiiy asarlarga qiziqish uyg'otish, yon-atrofni estetik jihatdan bezatishiga intilishini rivojlantirish kerak. Bola musiqa, adabiy so'z, rasmlarning

chiroyini sezishni o'rganishi, ashula aytish, rasm chizish, yasash, topishmoqlar, laparlar, tez aytishlar, maqollar, ertaklarni bilishi va aytib berishi, kitoblarni avaylashni bilishi kerak.

**BOLANING  
MAKTABGA  
TAYYORGARLIGINI  
ANIQLASH**

**Bolaning maktabga tayyorgarligini aniqlash.** Har qanday pedagog hech qanday vositalardan foydalanmay, bolani maktabga tayyorgarligini aniqlay oladi. Ba'zi ota-onalar ham bola qanchalik sog'lom, chaqqon, mustaqil, aqlli, o'qishga tayyor ekanligini taxminan bilishadi. Bog'cha tarbiyachilari har bir bolaning maktabga tayyorgarligini to'g'ri aniqlashda yetarli pedagogik, texnologik bilim va tajribalarga ega bo'lishlari kerak, bunda ular maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim va tarbiya dasturi talablariga tayanishlari kerak. Agar maktabgacha davrda bola normal rivojlangan bo'lsa, uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetadi. Ammo, ba'zi oilalar va bog'chada maktabga tayyor bo'lmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar mutaxassis nazoratida maxsus tekshiruvdan o'tishadi va o'qishga tayyorgarligi darajasi haqida mutaxassis xulosa chiqaradi. Bolaning o'yinqaroqligi, mustaqil bola olmasligi, his-tuyg'u va ijtimoiy rivojlanishining juda past darajaliligi uning maktabga tayyor bo'lishiga to'siq bo'ladi. Bunday bolalar o'rtoqlari va tengdoshlari orasida o'z o'nini topa olmaydilar. Ular kundalik faoliyatlarida yordamga muhtoj berilgan vazifalarni tushuna olmaydilar va mustaqil bajara olmaydilar, qo'llarining mayda harakatlari yaxshi rivojlanmagan. Lug'at boyligi o'z fikrlarini ifodalashi chegaralangan, xotirasi sust, umumlashtirishni bajara olmaydi va hokazo. Bularga nafaqat bolaning yomon ijtimoiy ahvoli sabab bo'ladi, balki nasliy omillar, jiddiy va murakkab kasalliklari, yangi tug'ma jarohatlari, nevrozlar keltirib chiqaradigan sharoitlar ham sabab bo'ladi. Maktabga tayyor bo'lmagan bolaning qabul qilishi bola shaxsining rivojlanishiga har tomonlama yomon ta'sir etadi. O'qishdagi o'zlashtira olmasliklar bolada

o‘qishga nisbatan salbiy munosabat tug‘diradi. Uning jismoniy va ruhiy sog‘ligi ham xavf ostida. Ularda nevroz belgilari paydo bo‘lishi mumkin: uyquning buzilishi, siydik ushlay olmaslik, bosh og‘riqlari va boshqalar. Tarbiyasida ham qiyinchiliklar paydo bo‘la boshlaydi, bola qanday bo‘lmasin o‘ziga diqqat-e‘tiborni qaratmoqchi bo‘ladi, yomon harakatlar qila boshlaydi. Agar bolaning tayyor emasligini vaqtida aniqlansa, bunday hollarning oldini olish mumkin bo‘ladi.

Bolaning maktabga tayyorligini turli sohadagi mutaxassisla aniqlay oladilar. Bolalar shifokori bolani tekshirib, somatik rivojlanishini aniqlaydi, agar ma‘lum bir jismoniy, ruhiy kamchilik bo‘lsa, uni ruhiy-pedagogik tekshiruvga yuboradi. Ma‘lum bir nuqsonlarga ega bo‘lgan bolalar maxsus maktabga yuboriladi.

**“ILM YO‘LI” DASTURI  
ASOSIDA 6-7 YOSHLI  
BOLALARNI MAKTABGA  
TAYYORLASH**

**“Ilm yo‘li” dasturi asosida 6-7  
yoshli bolalarni maktabga tayyorlash.**

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimiga katta e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 5198-son Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi. Shu bois, eng yaxshi xalqaro tajribalar asosida tizimdagi dasturiy va o‘quv-metodik ta‘minotni takomillashtirish maqsadida maktabgacha ta‘lim tizimini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Boshlang‘ich ta‘limga bolalarni majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar haqida”gi 999-sonli qarorini ijro etish doirasida O‘zbekiston o‘z zimmasiga 6-7 yoshli bolalarning maktabga to‘lovsiz majburiy bir yillik tayyorgarligi bo‘yicha majburiyatni oldi. 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta‘lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash

maqsadida “Ilm yo‘li” dasturini ishlab chiqish hamda uni tasdiqlash zarurati paydo bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining tashabbusi bilan 6-7 yoshli bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularga ta’lim-tarbiya berish va maktabga tayyorlash maqsadida “Ilm yo‘li” variativ dasturi ishlab chiqildi.

“Ilm yo‘li” variativ dasturi bolaning to‘laqonli rivojlanishi, tarbiyalanishi va o‘qishini, uning maktabda ta’lim olishga samarali tayyorlanishini ta’minlashga qaratilgan, bolalarni maktabga tayyorlash bo‘yicha xalqaro tajribalarning hisobga olinib, ishlab chiqilgan hujjat bo‘lib sanaladi.

Mazkur dastur o‘ziga xos bo‘lib, unga ko‘ra, o‘quv-tarbiyaviy faoliyat kuniga 3 soat davomida amalga oshiriladi, uning majburiy qismi 80 foizni va variativ qismi esa 20 foizni tashkil etadi.

Dastur idoraviy bo‘ysunishidan va mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida qo‘llanilishi mumkin:

- bolalarni maktabga majburiy bir yillik tayyorlov guruhlariga ega bo‘lgan umumiy hamda ixtisoslashtirilgan tipdagi davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlarida;
- maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni amalga oshiradigan o‘rta-maxsus va oliy ta’lim muassasalarida;
- maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tizimi uchun pedagog-kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonini amalga oshiruvchi muassasalarda.

Shuningdek, har bir maktabgacha ta’lim tashkiloti, shu jumladan, maktabgacha ta’limning muqobil shakllari hududiy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqib, o‘z muqobil shakllarini ishlab chiqishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limi tizimini modernizatsiya qilish maktabgacha ta’limga teng imkoniyatlar yaratishning zarurati va muhimligi

hamda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning muqobil va kamchiqim modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

6-7 yoshli bolalarni o'qitish majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan ta'lim sektori rejasi, maktabgacha ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasi, Davlat talablariga tayangan holda bolaga yo'naltirilgan sifatli pedagogikaga prinsiplariga asoslangan.

Bolaning erta rivojlanishi uning kelgusida shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bolaning erta rivojlanishiga investitsiya ajratilishi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi:

- katta yoshdagi kishi intellektual qobiliyatining 70% hayotining dastlabki 5 yilida shakllanadi;
- maktabgacha ta'limga sarf-harajatlarning iqtisodiy samaradorligi 17:1 nisbatni tashkil etadi (bolalar qamrovi 50% kam bo'lmaganda);
- umumiy ta'limda erishiladigan sezilarli yutuqlar;
- ta'limni yuqoriroq bosqichda davom ettirish uchun katta imkoniyat mavjudligi;
- g'ayriaxloqiy va jinoiy xatti-harakatlar ehtimolining kamayishi.

Dasturning maqsadlari va vazifalari maktabgacha bolalar uchun quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutadi:

- zarur bo'lgan rivojlanish amaliyoti va maktabga tayyorlash uchun teng imkoniyatlarni vujudga keltirish;
- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar bolalarini to'liq kunli maktabgacha ta'lim tashkilotiga berish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoki muayyan sabablarga ko'ra, bunga intilmaydigan ota-onalarning talab-ehtiyojlarini qondirishi kerak;
- 6-7 yoshli bolalar uchun mo'ljallangan majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlar maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq, 5 muhim sohada bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashi

zarur (jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish; ijtimoiy-hissiy rivojlanish; nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari; bilish jarayonining rivojlanishi; ijodiy rivojlanish) har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga mo'ljallangan;

➤ maktab ta'limiga umumiy psixologik tayyorgarlik.

Dastur zamonaviy pedagogika va psixologiya tamoyillariga tayangan holda:

➤ istisnosiz barcha bolalarning ta'lim olish va rivojlanishga teng imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga;

➤ amaliyotga bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillarini joriy etishga;

➤ oila va jamoalar bilan hamkorlik;

➤ ta'lim-tarbiyaning madaniy jihatdan maqbul uslublariga tayangan holda milliy qadriyat va ustuvorliklarni e'tiborga olish;

➤ qulay, do'stona va xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Majburiy boshlang'ich ta'limga bir yillik tayyorlash guruhlardagi ta'lim jarayoni quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuvi;
- inklyuziv ta'lim haqida mushohada yuritish;
- bolani xolistik(yaxlit) rivojlanishini ta'minlaydigan ta'lim muhitining xususiyatlarini belgilash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyatning yetakchi turi – o'yin asosida ta'lim berish;
- bola – ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi;
- rejalashtirish va baholash samaradorligi;
- bolani tarbiyalash va rivojlantirish jarayoniga ota-onalarni hamkorlik asosida jalb etish;



- interfaol ta'lim;
- integrativ o'qitish.

**6 YOSHDAN 7  
YOSHGACHA BOLALAR  
RIVOJLANISHIDAGI  
O'ZIGA XOSLIKLAR**

**Fiziologik rivojlanish.** Mazkur davrda organizmning tayanch-harakat va yurak-qon-tomir tizimlarining intensiv rivojlanishi hamda takomillashishi, mayda mushaklarning rivojlanishi, markaziy asab

tizimidagi ayrim bo'linmalarning rivojlanishi va differensirovkalanishi ro'y beradi. Bolaning vazni oyiga taxminan 200 gr atrofida, bo'yi o'sishi esa 0,5 sm ga ortib boradi, tana proporsiyalari o'zgarib boshlaydi. 7 yoshli bolalarning bo'yi o'rtacha 113-122 sm ga, o'rtacha vazni esa 21-25 kg ga teng bo'ladi. Miya sohalari deyarli katta yoshli kishilarnikidek shakllangan. Harakat sohalari yaxshi rivojlangan. Suyaklar mustahkamlanishi davom etadi, lekin umurtqa egilishlari hali barqaror emas. Yirik va ayniqsa, mayda motorikanin rivojlanishi davom etadi. Qo'l panjalari mushaklarning koordinatsiyasi intensiv rivojlanadi. Umumiy jismoniy rivojlanish bolaning nozik motorikasi rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Qo'l barmoqlarining mashq qildirilishi boladagi intellektni oshirish, nutqni rivojlantirish va yozishga tayyorgarlik ko'rish vositasi bo'lib sanaladi.

**Psixik jarayonlarning rivojlanishi.** Bu yosh bosqichining o'ziga xos tomoni bo'lib bilishga doir va fikriy psixik jarayonlarning faol rivojlanishi hisoblanadi. Bola kuzatishga, qarab izlash kabi ixtiyoriy harakatlarni bajaradi. Mana shu yoshda sensor etalonlar – shakl, rang, o'lcham to'la o'zlashtiriladi. Maydon-makonni anglashning rivojlanishi davom etadi. Bola pastga, tepaga, boshqa tomonga kabi tushunchalar bilan amallarni bajara boshlaydi. Shuningdek, endilikda o'ng va chap tomonni tasavvur qilish aniq shakllangan bo'lishi lozim. Biroq, bu yoshdagi bolalarda bir vaqtning o'zida turli xildagi belgilarning hisobga olinishi lozim bo'ladigan paytlarda xatolikka yo'l qo'yishlari uchrashi mumkin.

**Diqqat.** Maktabgacha yosh oxiriga kelib ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Bola diqqatini ongli ravishda ma'lum bir predmetlarga va ob'ektlarga

yo'naltirib va jamlab tura oladi. Diqqatning barqarorligi ortishi – 20-25 daqiqa, diqqat hajmi 7-8 ta predmetni qamrab oladi. Bola ikkiyoqlama tasvirlarni ko'ra olishi mumkin.

**Xotira.** Maktabgacha yosh oxiriga kelib bolada psixik faollikning ixtiyoriy shakllari paydo bo'ladi. U endilikda predmetlarni qarab chiqa oladi, maqsadga qaratilgan kuzatishni amalga oshira olishi mumkin, ixtiyoriy diqqat paydo bo'ladi va buning natijasida ixtiyoriy xotira elementlari yuzaga kela boshlaydi. Ixtiyoriy xotira bola o'zi mustaqil ravishda maqsadni belgilaganda – eslab qolish va eslash holatlarda namoyon bo'ladi. Bolaning eslab qolish istagini har tomonlama rag'batlantirish zarur, chunki bu nafaqat xotiraning, balki bilishga doir boshqa qobiliyatlar – anglash, diqqat, fikrlash, tasavvur qilishning ham muvaffaqiyatli rivojlanish garovidir. Ixtiyoriy xotiraning paydo bo'lishi vositalangan xotiraning – eslab qolishning eng mahsuldor shakli rivojlanishiga yordam beradi. Bu yo'ldagi birinchi qadamlar eslab qolinadigan materialning o'ziga xosliklari – yorqinligi, ommabopligi, noodatiyligi, ko'rgazmalilik va boshqa shu kabilar bilan shartlanadi. Bu davrda maktabgacha yoshdagi bolalarni eslab qolish maqsadlarida tasniflash va guruhlash usullariga maqsadli ravishda o'rgatish mumkin.

**Fikrlash.** Ilgarigidek, yetakchi bo'lib ko'rgazmali-qiyofaviy fikrlash hisoblanadi, lekin maktabgacha yosh oxiriga kelib so'zli-mantiqiy fikrlash shakllana boshlaydi. U so'zlarni ishlata bilish, fikr-mulohazalar mantig'ini tushuna olish mahoratining rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu yerda albatta katta yoshlilarning yordami zarur bo'lib hisoblanadi, chunki bolalarning, masalan, predmetlar kattaligi yoki sonini taqqoslashlaridagi bolalarcha fikr-mulohazalarining nomantiqiyliги mavjud bo'lishi ma'lumdir. Maktabgacha bo'lgan yoshda tushunchalarning rivojlanishi boshlanadi. To'la holda so'zli-mantiqiy, tushunchali yoki abstrakt fikrlash o'smirlik yoshiga kelib shakllanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bola sabab oqibatli aloqadorliklarni belgilay olishi, muammoli vaziyatlar yechimini topa olishi mumkin bo'ladi.

**Tasavvur.** Bola hayotining bu davri tasavvur qilishning o‘ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu fakat yaratuvchilik tasavvurlari bo‘ladi, ya’ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo‘ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo‘lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

**Nutq.** Grammatika va leksikaning rivojlanishi davom etadi, nutq ravon bo‘la boradi. So‘z boyligi ortadi, bolalar umumlashtiruvchi otlarni ishlata boshlaydilar, sinonimlar, antonimlar va sifatlardan foydalana boshlaydilar. Agarda bola bilan birga ko‘p o‘qilsa va muloqot qilinsa, unda bu yoshga kelib ham monologik nutq (tushuntirishli va talqin qiluvchi, bayoniy nutq) hamda muloqotda ishtirok eta olish mahorati yaxshi darajada shakllangan bo‘ladi. Yozma nutq shakllana boshlaydi. So‘z boyligi taxminan 3000 ta so‘zgacha boyib boradi.

**Shaxs rivojlanishi.** Maktabgacha yoshdagi bolaning ongidagi asosiy o‘zgarish bo‘lib “harakatlar ichki rejasi”ning paydo bo‘lishi hisoblanib, u bolaga nafaqat ko‘rgazmali tarzda, balki ongli ravishda ham turli xildagi tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi.

Bolaning o‘z-o‘zini anglashida “Men” obrazini anglashi refleksif qobiliyatini belgilaydi, ya’ni, tahlil qilishi, o‘z harakatlarining maqsadlari va natijalari uchun javob bera olishi, shu jumladan, o‘z kechinmalari, hissiyotlarini anglashi. Aynan shu yangilanish bolaning ma’nan rivojlanishining asosi bo‘lib hisoblanadi. 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishining eng muhim yangi hosilasi sifatida motivlarning bo‘ysundirilishi hisoblanadi. “Men qilishim kerak”, “men qila olaman” motivlarining anglanishi “men xohlayman” motivi ustidan ustunlik qila boshlaydi.

**O‘z “Men”ini anglash** va mana shu asosida maktab yoshi oxiriga kelib ichki hissiyotlarning paydo bo‘lishi yangi ehtiyojlarni tug‘diradi. Butun maktabgacha yosh davomidagi faoliyatning yetakchi turi bo‘lib hisoblangan o‘yin mana shuning natijasida endi bolaning ehtiyojlarini to‘la qondira olmay qoladi. Bolada endilikda o‘z bolalarcha hayoti doirasidan tashqariga chiqishga intilish,

ijtimoiy-ahamiyatli faoliyatda o'z o'rnini egallash istagi yuzaga keladi, ya'ni, bola yangi ijtimoiy hissiyotni – “maktab o'quvchisi o'rnini”ni egallashga intiladi, bu esa 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy hamda psixik rivojlanishidagi eng muhim natija va o'ziga xosligi bo'lib sanaladi.

6-7 yoshda bola o'zini nafaqat uning o'zi hosil qilgan amaliy harakatlar chegaralarida anglay boshlaydi, balki u o'zining atrof-muhitga va boshqa kishilar orasidagi o'z o'rniga nisbatan munosabatlarini tushuna olish hamda tahlil qila olishga (bu yosh uchun xos bo'lgan shaklda) qobil bo'ladi: o'zini ijtimoiy munosabatlar tizimidagi sub'ekt sifatida tushunish – o'zining ijtimoiy “Men”ini anglash paydo bo'ladi.

O'z-o'zini baholash bu yoshdagi bolada qoidaga ko'ra, o'zini ko'ra olish tendensiyasiga ega bo'ladi. Bunda bola tashqi baholashga juda bog'liq bo'ladi, chunki u o'zi haqida ob'ektiv fikrni tuza olish imkoniga ega bo'lmaydi, u o'zining qiyofasini tengdoshlari va kattalar o'z nomiga eshitgan baholardan kelib chiqib tuzadi. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar yaxshi, va birinchi bo'lishga jon-dili bilan intiladilar, muvaffaqiyatsizlikka uchraganda juda xafa bo'ladilar, kattalarning munosabati, kayfiyati o'zgarib qolishiga yorqin va emotsional ravishda reaksiya ko'rsatadilar. Bu davrda bolalarning guruhda taniqli va yoqimsiz bolalarga ajralib qolishlari aniq namoyon bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi ehtiyoji bo'lib ham o'z tengdoshlar, ham kattalar bilan muloqoti sanaladi. Oldingi yosh davridagidek yetakchi faoliyat bo'lib syujetli-rolli o'yinlar qolaveradi. Bu yoshdagi o'yinlarning o'ziga xosligi bo'lib shu narsa hisoblanadiki, bunda bolalar kishilarning murakkab o'zaro harakatlarini o'zlashtirishni va uni amalga oshirib ko'rishni, atrof-muhitdagi asosiy hayotiy vaziyatlarni sinab ko'rishni boshlaydilar.

O'yinlar murakkablasha boradi, ba'zan kattalar har doim ham tushuna olmaydigan alohida mazmunga ega bo'ladi. Bunda bolalar butun o'yin maydonini to'la kuzatib turishga, o'yindagi barcha ishtirokchilarni ko'rib turishga va zaruriy

o‘yin harakatlariga bog‘liq bo‘ladigan o‘z xulq-atvori yoki rolini o‘zgartirib turishga qodir bo‘ladilar.

**6-7 yoshli bolaning muloqoti.** Bu yoshdagi muloqot vaziyatli-shaxsiy, ya’ni, berilgan konkret vaqtdagi vaziyatni emas, balki “nima bo‘ldi” yoki “nima bo‘ladi” tarzidagi vaziyatni aks ettiruvchi sifatida bo‘ladi. Muloqotning asosiy mazmuni kishilar dunyosi, xulq-ator qoidalari, tabiiy hodisalardan iborat bo‘ladi. Kattalar dunyo tabiatini ochuvchi ijtimoiy me’yorlar, ijtimoiy kontaktlar va odamlar orasidagi qoidalarning tashuvchisi bo‘lib sanaladi. muloqot jarayonidagi yetakchi ehtiyoj – o‘zaro tushunish, his-tuyg‘ularni his qilish ehtiyojidir. Bola kattalar bilan o‘zining ham ijobiy, ham salbiy yorqin kechinmalari bilan o‘rtoqlashadi. Ota-onalar hamda pedagoglarning asosiy vazifasi bolaning emotsiyalarini ularning bola hayoti uchun ahamiyatligini kamaytirmagan holda qabul qilishdan iboratdir.

Tengdoshlari bilan muloqotda bola yoshining quyidagicha namoyon bo‘lishi ifodalanadi:

- muloqot tashabbusini boshlash;
- birinchi yaqinlik;
- biri-biriga, tan olinishga va hurmatga ehtiyoj;
- musobaqalashuv tarzidagi taqlid qilish;
- sherikka nisbatan yuqori sezuvchanlik (ranjish, qarshilik, janjal);
- guruhda bolalarning tutgan o‘rni bo‘yicha farqlanishi paydo bo‘ladi.

7 yoshlarga kelib bolada maktabgacha bo‘lgan yosh davri tugaydi. Bu davrdagi asosiy ko‘nikmalar bo‘lib quyidagilar sanaladi:

- bola tomonidan odam turmush madaniyati predmetlari va narsalari dunyosining o‘zlashtirilishi;
- boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qila olish qobiliyati;
- “maktab o‘quvchisi ichki hissiyoti”ning shakllanishi, ya’ni, ongli ravishda, u nima qilish kerakligi va kattalar undan nimani kutayotganliklarini to‘la tushuna olish bilan bolaning maktabga borish istagining paydo bo‘lishi.

Maktabgacha yoshda davomida bolalar narsalar dunyosini kishilik madaniyatining predmetlari sifatida o'zlashtiradilar; boshqa kishilar bilan pozitiv muloqot qilishni o'rganadilar; ularda jinsiy identifikatsiyalanish rivojlanadi, maktab o'quvchisi pozitsiyasi shakllanadi.

Maktabgacha bo'lgan yosh oxiriga kelib bola endilikda bilishga doir va shaxsiy rivojlanishning yuqori darajasiga ega bo'lib, bu unga maktabda keyinchalik muvaffaqiyatli o'qishga imkon beradi.

**MAKTABGA  
TAYYORGARLIKKA  
TA'SIR ETUVCHI  
ASOSIY OMILLAR**

**Maktabga tayyorgarlikka ta'sir etuvchi asosiy omillar.** Maktabga umumiy va maxsus tayyorgarlik ko'rishga jiddiy talablar qo'yilgan, shuning uchun bolani maktabga doimiy ravishda tayyorlash kerak. Tayyorgarlik o'z-o'zidan, avtomatik tarzda paydo bo'ladi. Faqat maqsadga yo'naltirilgan va uzoq muddatga mo'ljallangan tarbiya jarayoni bolani maktabga yaxshi tayyorlanishiga olib keladi. Bolani qachon va qancha tayyorlash kerakligi haqida kattalar orasida turli fikrlar mavjud. Ko'pchilik ota-ona va tarbiyachilar 3 yoshdan boshlab, 1-sinfga bir yil qolgungacha tayyorlashni kuchaytirish kerak deb hisoblashadi. Ammo boshqalar faqat maktabdan oldingi bir yil davomida tayyorgarlik qilish kerak deb aytishadi. Ba'zi ota-onalar bola bog'chaga borishi bilan maktabga tayyorgarlik boshlanadi, deb o'ylashadi.

Maktab hayotiga bolani kim tayyorlashi kerak? MTTi tarbiyachilari bolani maktabga tayyorlash butun bog'cha davrida amalga oshishi kerakligini tushunishadi va dastur talablariga binoan uni amalga oshirishadi. Lekin aynan maktabga borishdan avval ular tayyorgarlikka alohida diqqat-e'tiborini qaratishadi: talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etishadi, bilimlarni bir sistemaga solishadi, qo'llarning mayda harakatini rivojlantirishadi va hokazo.

**Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Psixologlar bolani maktabga umumiy tayyorgarligining qaysi tomonlarini ajratganlar?

2. Qaysi olim tomonidan “bola hayotining yettinchi yilini bekorchilikda buzilib ketmaslik uchun maktabda o‘qishni boshlaydigan vaqt” deb hisoblangan?
3. Maktabga tayyor bo‘lgan bola nimalar qila oladi?
4. Bolaning maktabga tayyorgarligini qanday aniqlash mumkin?
5. “Ilm yo‘li” variativ dasturi qanday hujjat bo‘lib sanaladi?

### **Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:**

“Ilm yo‘li” variativ dasturini to‘liq tahlil qiling.

## **MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI**

*Ta’lim muassasalarida oila hamkorligi –  
bola shaxsini sog‘lom bo‘lishini hamda  
ijtimoiy – ma’naviy rivojlanishini  
ta’minlaydi.*

*Dilnoza Narzikulova*



### **REJA:**

1. “Oila” tushunchasi va uning mohiyati.
2. Bolani maktabga tayyorlashda oilaning o‘rni.
3. Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishlash shakllari.
4. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni.

*Tayanch tushunchalar: oila, oilaviy munosabat shakllari, MTT, hamkorlik, oila va MTT hamkorligi, ma’naviy tarbiya, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, ota-ona va oila bilan individual ishlash, ota-onalar bilan ishlash shakllari.*

**“OILA”  
TUSHUNCHASI  
VA UNING  
MOHIYATI**

**Oila** – nikohga yoki a’zolarining ijtimoiy turmush tarzi, o’zaro axloqiy javobgarligi va o’zaro yordamiga asoslangan qon-qarindoshlarning kichik guruhi. Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo’lgan oilaga quyidagicha ta’rif mavjud: “Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo’g’ini bo’lib, yuridik ma’noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog’langan shaxslar doirasidan iborat bo’lgan milliy mustaqillik mafkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir”.

Oila jamiyatning asosiy bo’g’ini, u nikoh va qon-qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo’lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta’minlaydi.

Psixolog olimlar oilani kichik bir ijtimoiy guruh sifatida ta’riflaydi. Oilani tashkil etuvchi ushbu guruh nikoh orqali hamda yaqin urug’chilik rishtalari bilan bir-biriga bog’langan bo’lib, ular o’rtasidagi munosabatlarga xos bo’lgan muhim jihatlar – o’zaro mehr-muhabbat, g’amxo’rlik, mas’uliyatlilik va albatta, hayot, turmush tarzidagi umumiylikdir.


Sotsiologiya oilaga yaxlit ijtimoiy organizmning qismi, jamiyat bo’g’ini, ijtimoiy tarbiya jamoasi sifatida qaraydi. Ijtimoiy-iqtisodiy sohada sodir bo’layotgan o’zgarishlar albatta, oilada o’z aksini topadi. Biroq boshqa – ishlab chiqarish, kasbiy, siyosiy ijtimoiy birlashmalardan farqli ravishda oila to’g’ridan-to’g’ri qayta qurishga uchramaydi. Oilaning axloqiy, psixologik jihatdan yangilanishi uzoq, murakkab, qarama-qarshiliklarga bog’liq jarayondir.



Iqtisodiy sohadagiga qaraganda, yangi munosabat, yangi axloq me'yorlari oilada sekin sur'atlarda amalga oshadi. Oilaviy o'zgarishlarning amalga oshishida biologik, psixologik, demografik omillar ham ishtirok etadi.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayotdir. Binobarin, oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiya o'chog'i hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o'tgan yaxshi udum, odatlar mavjud.

Oila hayoti mazmunidan kelib chiqqan holda ko'p tomonlamali munosabatlar bilan tavsiflanadi, shunga ko'ra oilaviy munosabatlar quyidagi shakllarga ega:



### **Oilaviy munosabatlarning shakllari**

Oila rivojining har bir bosqichi bir funksiyasining tugashi, boshqasining paydo bo'lishi, uning a'zolarining ijtimoiy faoliyatining o'sib borish ko'lami va tavsifi bilan bog'liq. V.A. Slastenin, I.F. Isayev, Ye.N. Isayevlarning fikricha, oila jamiyat va odamlarga munosabati bo'yicha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajaradi.

## **OILANING BOLANI MAKTABGA TAYYORLASHDA O'RNI**

Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a'zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to'g'ri munosabatni, balki

ularning taqdiri uchun yuksak mas'uliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir.

Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

**Ma'naviy tarbiyani** bolaga o'tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she'r va qo'shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator **axloqiy** jihatlari shakllanadiki, boshqa hech qaysi tarbiya ob'ekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, raxm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadoqat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga **estetik tarbiya** berishda ham oilaning muhim o'rni bor. Oila davrasida qo'shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o'qish, birga spektakl va kino ko'rish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining **jismoniy barkamolligiga** o'ta mas'uliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur.

Bola hayotida **mehnat tarbiyasi** muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini

hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir.


Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va tarbiyachi-uslubchilarning muhim vazifasidir.

Bolalar maktab ta'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari, pedagog olimlar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlarning o'rni juda katta.

Bola kunning asosiy qismini maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tkazsa ham, inson komoloti uchun eng muhim bo'lgan omillardan biri tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yiladi. Shu sababli ham maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etishning asosiy maqsadi bo'lgan bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashda maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan oila hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashida keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakllarini keltiramiz.

**Ota-ona va oila bilan individual ishlash.** Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni

bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.



### MTTning oila bilan olib boriladigan ishlar

**Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar.** Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

**Ko'rsatmali ishlar** – tarbiyachi-metodist tomonidan maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi bilan hamkorlikda yoki shaxsiy tashabbusi asosida sub'ektlar, ob'ekt va jarayon bilan bevosita tanishish maqsadida tashkil etiladigan amaliy-ko'rsatmali tadbirlar sanaladi.

Bu turdagi ishlar quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1. Ko'rgazmalar uyushtirish (bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish).
2. Bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.
3. Ota-onalarga pedagogik ta'lim berish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan olib boriladigan jamoaviy ishlar quyidagi mazmunga ega:

**Pedagogik ma'ruzalar** ota-onalarning e'tiborini tarbiyaning zamonaviy muammolariga qaratishni maqsad qilib qo'yadi. Mazkur shakl ota-onalarni tarbiya nazariyasi asoslariga doir tizimli bilimlar bilan qurollantirishni talab etadi.

**Pedagogik majburiy o'qishni** ilk yosh guruhdanoq ota-onalar bilan boshlash lozim, chunki ayni shu paytda maktabgacha ta'lim tashkilotiga, pedagogik ma'rifatparvarlikka munosabat paydo bo'ladi. Agar birinchi mashg'ulotni maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori o'tib bersa, juda yaxshi bo'ladi. Pedagogik majburiy o'qishda parallel guruhlar birlashtirilishi ham mumkin.

Ko'pgina ta'lim tashkilotlarida ota-onalar uchun pedagogik ma'ruzalar majburiy o'qish bilan taqqoslaganda, ota-onalarning tarbiya nazariyasini egallashlari bo'yicha murakkab ish shakllaridan biri hisoblangan **pedagogik ta'lim universiteti** ishlaydi. Mashg'ulotlar ham ma'ruza, ham seminar tarzida tashkil etiladi. Albatta, hamma ota-onalar auditoriyasi bunday ish shakliga tayyor emas. Tez-tez ta'lim tashkilotlarida bunday "universitet" tizimi ishlari soddalashlashtirib turiladi, nomi o'zgarmasdan qolsa ham, mazmuniga o'zgartirishlar kiritiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiya jarayonini tashkil etish muammolari bo'yicha ota-onalarning an'anaviy **yillik ilmiy-amaliy anjumani** shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb muammo aniqlab olinadi. MTT va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o'rganish amalga oshiriladi. Shundagina anjuman haqiqatdan ham yakuniy bo'lishi mumkin.

Ochiq eshiklar kuni yoki maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar kuni juda katta tayyorgarlikni talab etib, odatda uni bolalar bir guruhni tugallab, keyingi bosqichga o'tishlariga mo'ljallanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maxsus jihozlanadi, navbatchilar belgilanadi, ajoyib bayram dasturi tayyorlanadi.

**Bayramni o'tkazishning namunaviy tuzilishi:**

- majlislar zalida o‘ttiz daqiqa davomida turli guruh ota-onalari uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti faol tarbiyalanuvchilarining chiqishlari tashkil etiladi, eng yaxshi guruh va alohida tarbiyalanuvchilar belgilanadi;
- guruhlar bilan tanishish (tarbiyalanuvchilar ota-onalarga qanday yashayotganliklari, qanday ta’lim olayotganliklari, nimani o‘rganganliklari, o‘zlarining ko‘nikma va malakalarini namoyish etishadi; katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari suvenirlar tayyorlashada va ota-onalarga topshirishadi);
- ko‘rgazmalarga tashrif buyurish: “Eng yaxshi rasmlar”, “Eng yaxshi qo‘lda bajarilgan ishlar”, “Kichik musavvirlar va konstruktorlar” va boshqalar;
- ota-onalar qo‘mitasi sovrini uchun tashkil etilgan sport musobaqalari;
- tarbiyalanuvchilarning badiiy film ko‘rishi;
- ota-onalar uchun film namoyish etish.

Albatta bunday ochiq eshiklar kunini o‘tkazish variantlari ko‘p. Eng asosiysi maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borilayotgan ishlarni namoyish etish, ota-onalarning e’tiborini tarbiyaviy masalalarga qaratish.

**Ota-onalar majlisi** – an’anaviy, hammaga yaxshi ma’lum ish shakli. Shu bilan birga bugun majlis o‘tkazish metodikasi uni takomillashtirishni talab etadi. Guruh majlisini tashkil etishga yondashuvlardan biri – majlis mavzularini muammoli tarzda shakllantirish: “Qiyinchiliklardan qochish yoki ularni chetlab o‘tish bolalarni tarbiyalashga yordam beradimi?”, “Rahmdil, g‘amxo‘r qilib tarbiyalashni kechiktirish mumkinmi?”, “Bolalardagi dangasalikni qanday yo‘qotish kerak?”, “Bolalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalash ishlariga qanday jalb etish kerak?”. Faqatgina muammo shakllantirilib qolmasdan, o‘tkazish uchun qiziqarli ham bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan **individual ishlar** ota-onalar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi.

Individual ish shakllaridan biri – **tarbiyalanuvchining oilasiga tashrif buyurish**dir. Bu shakl tarbiyachi va ota-onalarga juda yaxshi ma'lum, biroq, ikki holatda tashrif buyurish to'xtatilishi zarur.

Oila tashrif buyurish oldindan kelishilgan holda amalga oshirilishi zarur. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugun 90% bolalar ota ham, ona ham ishlaydigan oilalarda tarbiyalanadi. Demak, har qanday vaqt ham tarbiyalanuvchiga tashrif buyurish uchun qulay emas. Noo'rin tashrif buyurish biror ish bilan mashg'ul bo'lib turgan ota-onalarda norozilik uyg'otishi mumkin. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, tarbiyachi uyga borganda kim bilan suhbatlashishni ham rejalashtirmaydi. Oila tarbiyasiga doir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "taklif bo'yicha tashrif buyurish" tarbiyachining oilaga tashrif buyurishiga nisbatan tarbiyalanuvchilarning salbiydan ijobiy, faolgacha bo'lgan radikal munosabatlarini o'zgartiradi.

Bola oilasi bilan aloqalarni o'rnatish shakllaridan biri dastlabki **pedagogik topshiriq**ni bajarish jarayonidagi ota-onalar va tarbiyachining muloqotida aks etadi. Pedagogik topshiriqning bir necha turlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bolalar bilan uzluksiz (yakka, guruhiy, jamoaviy) ishlash, faol tarbiyaviy nuqtai nazarni talab etuvchi topshiriq: bolalarning qiziqishlari bilan bog'liq to'garaklarga rahbarlik qilish va boshqalar. Tarbiyachiga tashkiliy yordam ko'rsatishni talab etuvchi topshiriq: ekskursiyani tashkil etishga yordamlashish (transport, yo'llanma bilan ta'minlash); taniqli kishilar bilan uchrashuvlarni tashkil etishga ko'maklashish; guruh xonasini jihozlashga yordamlashish. Xo'jalik vazifalarini hal etishga qaratilgan, ta'lim tashkilotining moddiy bazasini rivojlantirish va mustahkamlashni talab etuvchi topshiriq: xonalarni jihozlash, o'quv jihozlari va qurollarini tayyorlashga ishtirok etish; ta'mirlash ishlariga yordam berish.

Pedagogik topshiriqlarning sanab o'tilgan mazkur turlari ota-onalarning ijtimoiy ishlarining barcha turlarini qamrab olmaydi. Ota-onalarga ular nima bilan

shug'ullanishni xohlayotganliklari bo'yicha savol bilan murojaat va anketa to'ldirishni taklif etish mumkin.

**OTA-ONALAR BILAN  
OLIB BORILADIGAN  
ISHLARNING MAZMUNI**

**Pedagogik maslahat** – maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan ota-onalarga maktabgacha ta'lim yoshi bolalarini samarali tarbiyalashga doir muammolarni

hal qilishda ko'rsatiladigan amaliy-metodik yordam. Maslahatning pedagogik-psixologik shartlari o'zida tarbiyachi va psixologning ota-onalarning tashabbuslariga ijobiy munosabati, oilaga yordam ko'rsatishga tayyor turish, ota-onalarda paydo bo'lgan savollar bo'yicha aniq tavsiya maslahatlar berishni aks ettiradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi.

Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi-pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Tarbiyachilarning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari shakl va metodlarini tavsiflashdan oldin ularning o'zaro birgalikdagi faoliyati va oila bilan aloqalarni yo'lga qo'yish usullarining ba'zi psixologik-pedagogik ta'sirlariga to'xtalib o'tish lozim.



**Birinchi qoida.** MTT va tarbiyachilarning oila va jamoatchilik bilan olib boradigan ishlari asosida ota-onalarning obro‘cini oshirish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan harakat va tadbirlar turishi kerak. Ota-onalar bilan maslahatlashganda, hech vaqt “qilishingiz kerak”, “majbursiz” kabi jummalarni ishlatmaslik ma’qul. Chunki ko‘pchilik ota-onalar o‘z majburiyatlarini yaxshi biladilar, faqat amaliyotda ular ana shu bilganlarini qanday amalga oshirish muammosiga duch kelishlari mumkin. Tarbiyachi va ota-onalarning o‘zaro munosabatlarining yagona to‘g‘ri shakli – bu o‘zaro hurmat. Qachonki, nazorat shaklida tajriba almashish, maslahat va birgalikda muhokama, yagona qaror shakllantirilsa, ikkala tomon uchun ham qoniqish hosil qiladi. Bunday munosabatlarning qimmatini shundaki, tarbiyachilarda ham, ota-onalarda ham shaxsiy javobgarlik hissini, talabchanlik, fuqarolik burchini rivojlantiradi.

Ota-onalarning ish joylariga “Rivojlanish xaritasi”, “Ochiq jurnal” kabilarni olib borish kutilgan natijalarni bermaydi. Ota-onalar bilan suhbatda “qora ro‘yxat”dagi ma’lumotlardan foydalanish ham yaxshi foyda bermaydi, chunki birinchidan, ota-onalarda bolalaridan norozilik paydo bo‘ladi, ikkinchidan ta’lim muassasasiga nisbatan ular da salbiy munosabat shakllanadi. Keyin ota-onalar ta’lim tashkilotiga borgisi kelmasligi, ular bolalari haqida yomon fikr aytganliklari uchun ko‘ngli tortmasligini aytib arz qiladi. Ba’zan bunday holat oilada ota-ona munosabatlari yomonlashuviga ham olib keladi. Oxir-oqibat bolada ta’lim tashkilotiga nisbatan ham, tarbiyachilarga nisbatan ham salbiy munosabat hosil bo‘ladi. Tarbiyachi tarbiyaviy ish shakli va metodlarini tanlashda qabul qilingan qaror va talab bolalar ko‘z oldida ota-onaning obro‘cini mustahkamlash va oshirishga imkon berishini hisobga olishi kerak.

**Ikkinchi qoida.** Ota-onalarning tarbiyalovchi imkoniyatlariga ishonish, ularning pedagogik madaniyati darajasi va tarbiyalashdagi faolligini oshirish. Ko‘pchilik ota-onalar psixologik jihatdan barcha talablarni qabul qilishga tayyor bo‘lishsa ham, biroq shunday ota-onalar borki, bolalarni tarbiyalashga mas’uliyat

bilan yondashish va bu jarayonni chuqur tushunishga doir yetarlicha ma'lumotga va pedagogik tayyorgarlikka ega emas.

**Uchinchi qoida.** Pedagogik takt, oila hayotiga nojo'ya aralashishga yo'l qo'yilmasligi. Tarbiyachi – rasmiy shaxs, biroq u o'z faoliyatida oila hayotining maxfiy tomonlariga, “boshqalar”dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo'ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo'lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi. Oila qanday bo'lishi, ota-onalar tarbiyachilar bilan qanday bo'lishlariga qaramasdan, tarbiyachi hamma vaqt uddaburon, yordamga tayyor bo'lishi kerak. Oila haqidagi hamma narsaga yaxshi tomondan e'tibor qaratishi, tarbiyada ota-onalarga yordam ko'rsatishi kerak.

**To'rtinchi qoida.** Oilaviy muammolarni hal qilishga doir qaror qabul qilishda ko'tarinki ruh va kayfiyat, bolaning ijobiy sifatlari, oila tarbiyasining kuchli tomonlari, shaxsning muvaffaqiyatli rivojlantirishga tayanish. Tarbiyalanuvchining xarakterini shakllanishi qiyinchiliklarsiz, qarama-qarshiliklarsiz kechmaydi. Agar bu jarayon shaxs rivojlanishi qonuniyatining namoyon bo'lishi sifatida idrok etilsa, u holda mazkur qiyinchilik, qarama-qarshilik, kutilmagan natijalar tarbiyachining sarosimaga tushib qolishiga olib kelmaydi. Hammamizga yaxshi ma'lumki, yuzaga kelgan pedagogik vazifalarni hal etishning o'nlab usullari mavjud, biroq ulardan faqat biri mazkur aniq vaziyat uchun to'g'ri bo'lib chiqadi. Ana shuning uchun ham maktabgacha pedagogikaga tayyor ko'rsatma sifatida emas, shaxsga samarali ta'sir etishning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan sifatida qarash kerak.

MTT va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni

bog'chaga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish.

**Oilaga tashrif buyurishdan ko'zlangan maqsad** – oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali metodlari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdan iborat.

Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak.

Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlari, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi.

Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi.

Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonarli bo'lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko'radilar va bolalarning o'quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasi va

hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida ikki marta borishi kerak.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo‘lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etadi. M:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- maktabgacha ta‘lim tashkilotining yillik ish rejasi to‘g‘risida;
- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqida.

Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

**Ota-onalar majlisi.** Ota-onalar majlisiga bog‘chadagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin.

Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo‘mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda direktor yoki uslubchi-tarbiyachi ma‘ruza qiladi, ota-onalar so‘zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta‘lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o‘z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda bog‘chaga qiziqish uyg‘onadi.

Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur ishdagi bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilinadi.

M: umumiy majlis mavzusi “Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli” bo‘lsa, o‘rta guruhda o‘tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, “Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda bog‘cha va oilaning birgalikdagi ishlari”, “Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash” va h.k. bo‘lishi mumkin.

Ota-onalar uchun tayyorlangan ma‘ruzani bolalar ishini, tegishli

mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko‘rish bilan qo‘shib olib borish mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to‘g‘risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko‘proq bo‘lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarning nomlari ko‘rsatilmashligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga yetkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin.

Yilning oxirida o‘tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta‘lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

**Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish.** Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e‘lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi.

Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun va qarorlar, maktabgacha ta‘lim tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘rishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘yinchoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e‘tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan baxslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi.

Ota-onalar uchun ochiq kunlar tashkil etilishi ham maktabgacha ta‘lim

muassasalari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg‘ulotlari, mehnat, o‘yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o‘larining qanday tutushlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

**Ota-onalar qo‘mitasi.** Ota-onalar qo‘mitasi “Maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi”ga binoan direktoriga yordam berish maqsadida tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo‘mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi direktoriga maktabgacha ta’lim tashkilotining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo‘mita a‘zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o‘tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko‘maklashishdir.

Ota-onalar qo‘mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo‘yicha ular bilan ish olib boradi. Qo‘mita a‘zolari har ikki oyda bir marta yig‘ilish o‘tkazadi. Ota-onalar qo‘mitasi direktorining ish rejalari va ishning ahvoli to‘g‘risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba‘zi masalalar haqidagi ma‘ruza va hisobotni eshitishga haqlidir.

Ota-onalar qo‘mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotida saqlanadi.

**Aholi o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish.** Pedagogik bilimlarni targ‘ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalash tamoyillarini ongli ravishda anglab oldi.

Korxonalarda, xo‘jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to‘g‘risida ma‘ruzalar bilan chiqish, televideniya va radio eshittirishlar, pedagogik targ‘ibot ishining keng ommalashgan vositalaridir. Targ‘ibot, shuningdek, vaqtli matbuot: “Maktabgacha ta’lim”, “Xalq ta’limi”, “Pedagogik ta’lim” kabi jurnallar, ko‘p sonli badiiy pedagogik, ilmiy ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi.

Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruxshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘qish,

bolalar tarbiyasi to'g'risida kinofilm va spektakllar namoyish qilish.

Bu mashg'ulotlarni turli sohalar bo'yicha yuqori malakali tarbiyachi, aktyor, ruxshunos mutaxassislar olib boradi.

Pedagogik targ'ibot ishida quyidagi **shartlarga** amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.
2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlarini olib boriladi.
3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning xis tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak.

Shunday qilib, MTT va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtasidagi birlik o'rnatilishi mumkin.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
OTA-ONALAR  
UCHUN KECHALAR  
VA TO'GARAKLAR  
UYUSHTIRISHNING  
AHAMIYATI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ota-onalar bilan ishlashning eng samarali shakllaridan biri ochiq eshiklar kunidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ishining murakkabligi, ko'p qirraliligi va uning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tushunish uchun hamma ota-onalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lib turishlari kerak.

Ochiq eshiklar kuni jamoaning o'z kalendar yillik rejasi bo'yicha, har bir yoshdagi guruhning ma'lum rejimi bo'yicha odatdagi mehnat kunidir. Bunday kunlarni yiliga 1-2 marta o'tkazish tavsiya qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazish mo'ljallanganda avval tayyorgarlik ishini o'tkazish zarur, ya'ni, ota-onalarga bolalarni jismoniy chiniqtirish, ovqatlantirish,

mashg'ulotlarning borshi, sayr qilish va boshqa ko'pgina narsalarni ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishlari haqida ma'lum qilinadi.

Ota-onalarga esa quyidagilar eslatiladi: bolalar bilan oddiy munosabatda bo'lish, ularning faoliyatida imkoni boricha ishtirok etish, tarbiyachi mashg'ulot o'tkazayotgan bolalar diqqatini chetga tortmaslik, o'zining farzandiga hatto u diqqat qilmayotgan yoki biror narsani noto'g'ri qilayotgan bo'lsa ham tanbeh bermaslik, o'z tassurotlarini, fikrlarini ko'rik tugagandan so'ng bolalar ishtirokisiz aytish mumkinligi kabi odob qoidalariga rioya qilishni iltimos qilinadi.

Ochiq eshiklar kunini o'tkazishga tayyorlanayotganda fotosuratchini taklif etish, keyinchalik esa "Ota-onalar bizning mehmonimiz" yoki "Bizda ochiq eshiklar kuni" mavzuida foto ko'rgazma tashkil etish mumkin. Bu ko'rgazma maktabgacha ta'lim tashkilotiga shu kun tashrif buyurmagan ota va onalarda ancha qiziqish uyg'otadi.

Bolalarni tarbiyalash san'ati haqida ma'ruza va suhbatlar siklini tashkil etish mumkin. M: respublika, viloyat, tuman va mahallalardagi namunali oilalar tanlab olinib, oilalarda ota-onalar qarashidagi birlik, o'zaro munosabatda rostgo'ylik, samimiylilik va mehnatsevarlik yuqori axloqiy g'oyalarni shakllantiradi mazmunidagi suhbat va ma'ruzalarni o'tkazib turish samara beradi.

Ota-onalar bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish va uning mazmuni maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlayotgan sharoitlarga bog'liqdir. Birgalikdagi faoliyat kerakli darajada amalga oshiriladigan joyda o'zaro yordam, bir-birini tushunish, topshirilgan ishga javobgarlik holati vujudga keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota-onalar va boshqa oila a'zolari uchun o'tkaziladigan kechalar mavzuli harakterga ega bo'lib. "Musiqqa va hayot", "Bola hayotida kitob", "Bola va tabiat" kabi mavzularni tanlash mumkii.

Hamkorlikning bu shaklining o'ziga xosligi shundaki, unda qisqacha axborotdan so'ng yig'ilganlarga bolalar, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari



va ota-onalarning badiiy chiqishlarini ko'rish tavsiya qilinadi. M: musiqiy rahbarning chiqishidan so'ng bolalar o'zlari o'rgangan ashula, o'yinlarni bajarishadi, sahnalar ko'rsatishadi yoki biror ertak sahnalashtiriladi.

Bunday kechalar uchun "Bolani qanday sevish kerak?", "Bolalar tarbiyasida otaning roli", "Biz o'z bolalarimizni bilamizmi?", "Savol va javoblar kechasi" va h.k. mavzularni tanlash mumkin.

Ota-onalarning bolalar yozuvchilari, shoirlari, bastakorlari bilan uchrashuvlari foydalidir. Oila bilan ishlashning og'zaki jurnal, yumaloq stol atrofida uchrashuv kabi shakllari yaxshi natija beradi, bunda pedagog, shifokor, huquqshunos va b. ishtirok etadi.

Bolalar tarbiyasida zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishda ota-onalarga yordam berish maqsadida ular uchun qisqa muddatli to'garaklar tashkil etilib, undagi mashg'ulotlarda bolalar kiyimini bichish va tikishni, to'qishni, turli xil ovqatlar tayyorlashni o'rganishadi. Ular bilan bolalar ashulalari o'rganiladi, yasama o'yinchoqlar tayyorlash san'ati o'rgatiladi.

Ota-onalar bilan o'tkaziladigan savol va javob kechalari, ochiq eshiklar kunlari diqqatga sazovordir. Ota-onalarni tanlov xarakteridagi tashkiliy-pedagogik ishlarga jalb qilish, M: yumshoq o'yinchoq tayyorlash, suv va qum bilan o'ynash uchun o'yinchoqlar yasash, syujetli-rolli o'yinlar, maydonchalarni ko'kalamzorlashtirish uchun jihozlar tayyorlash muhim tadbirlardir.

Bunday tanlovlar yillik rejada o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Tanlov shartlarini umumiy ota-onalar majlisida muhokama qilish va ma'qullatib olish kerak.

Faol ishtirokchi ota-onalarga tashakkurnoma e'lon qilib, ish joylariga ma'lum qilish kerak, bundan ular ma'naviy qoniqish oladi.

Bunday ishlarni o'tkazishda katta yoshdagilarni ham yoddan chiqarmaslik kerak. Buvi va buvalarning amaliy maslahatlari, ularning boy hayotiy tajribalari yosh ota-onalar uchun ham, tarbiyachilar uchun ham qimmatlidir.

Shunday qilib, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qon-

qarindoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Bolalarni maktabga tayyorlashda oila alohida ahamiyat kasb etadigan maskandir. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar maktabgacha ta'limni uyda ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb qilingan bolalar uchun bolalar bog'chasida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Oila sharoitida ta'lim maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan o'zaro hamkorlikda tashkil etilsagina kutilgan natijalarga erishish mumkin. Shu maqsadda maktabgacha ta'lim tashkiloti oilalarga metodik yordam ko'rsatadi. Bu boradagi pedagogik faoliyat jamoaviy va individual ishlar shaklida amalga oshiriladi.


#### **Mavzu yuzasidan savollar:**

1. Oila tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oilaning psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy talqinini bayon eting.
3. Qanday asoslarga ko'ra oilaning vazifalarini tasnif etish mumkin?
4. Jamiyatga munosabati bo'yicha oilaning vazifalarini aytib bering.
5. Insonlarga munosabati bo'yicha oilaning vazifalariga nimalar kiradi?
6. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda hozirgi zamon oilasining qanday vazifalari ajratib ko'rsatilgan?
7. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan olib boradigan ishlarining nechta shaklini ajratib ko'rsatish mumkin?
8. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan olib boradigan ishlarining jamoaviy shakllariga nimalar kiradi?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

“Baliq skeleti” organayzeri asosida “MTT va oila hamkorligining zamonaviy shakllari”ni shakllantiring.

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH



*Oynani qanchalik chang bosgan bo'lsa ham,  
baribir kishi o'z aksini ko'rishi mumkin,  
albatta, toza oyna kishi aksini toza  
ko'rsatadi. Tarbiyachining vazifasi oynadagi  
changni artib tashlash, ya'ni bilimni bola  
ongiga yetkazish, uni aqliy tomondan  
o'stirishdir.*

*Yan Amos Komenskiy*

### REJA:


1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat va uning turlari.
2. Kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish.
3. Bolalar hayotini tashkil etishga qo'yiladigan talablar.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.

*Tayanch tushunchalar: pedagogik jarayon, bolalar faoliyatining turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar o'tkazish, gigiyenik tadbirlar, mashg'ulotlar va ularga qo'yilgan talablar, kun tartibi, kunning birinchi va ikkinchi qismi.*

### MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT VA UNING TURLARI

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir. Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari:

mashgʻulotlarda taʼlim berish orqali, ijodiy va qoidali oʻyinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, ularning oʻz mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali, oʻz-oʻziga xizmat qilish, sayrlar oʻtkazish, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi.



#### **Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tashkil etiladigan faoliyat turlari.**

Taʼlim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish maktabgacha taʼlim tashkilotidagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini toʻgʻri tashkil etishga bogʻliq.

Maktabgacha taʼlim tashkilotining pedagogik jarayonida taʼlim muhim ahamiyat kasb etadi va u kundalik hayotda, oʻyinda, mehnatda, oʻquv taʼlim-tarbiya faoliyati orqali amalga oshiriladi. Oʻquv taʼlim-tarbiya faoliyatida taʼlim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutqni oʻstirish va savod oʻrganish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa boʻyicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka va koʻnikmalar sistemasini egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak boʻlgan bilim, malaka va koʻnikmalar maktabgacha taʼlim tashkilotining davlat oʻquv dasturida belgilab berilgan boʻlib, u bolalarning umumiy rivojlanishida va ularni maktab taʼlimiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Oʻquv taʼlim-tarbiya faoliyatlarida taʼlim berish didaktika prinsiplari asosida bolalarning yosh va oʻziga xos xususiyatlarini

e'tiborga olib ma'lum izchilikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

Davlat o'quv dasturida har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan. Tarbiyachi mana shunga asoslanib, o'zining haftalik mashg'ulotlar jadvalini tuzib oladi, bu ta'limning hamma bo'limlari bo'yicha belgilangan ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri taqsimlash va bir xilda amalga oshirishga imkon yaratadi. O'quv ta'lim-tarbiya faoliyatlar jadvalini tuzishda quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.

Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematik),

Ikkinchi mashg'ulotga yengilroqlari: tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa mashg'uloti va shunga o'xshashlar rejalashtiriladi. Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va hokazo.

Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi.

O'yin bolalarning muhim faoliyati hisoblanadi. U bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishida, shaxs sifatida shakllanishida va bolalar jamoasining tashkil topishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaga quvonch bag'ishlaydi, ijobiy his va kechinmalarini, hayotdan olgan taassurotlarini aks ettiradi.

O‘yin mazmuni bola shaxsining shakllanishiga muhim ta‘sir ko‘rsatadi, shuning uchun kattalar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularda tevarak-atrofdan olayotgan taassurotlari ijobiy tomonini aks ettirish xohishini uyg‘otishlari kerak. Tarbiyachi bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, ularning tevarak-atrofdagi hayot to‘g‘risidagi bilimlarini boyitadi (bu orqali o‘yin mavzusi, mazmuni, syujeti boyiydi), bolalarning axloqiy hislarini, o‘zaro ijobiy munosabati va odatlarini tarbiyalaydi. O‘yindan bolalardagi o‘zaro o‘rtoqlik, do‘stlik, bir-biriga yordam ko‘rsatish xislatlarini tarbiyalashda va bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida foydalanadi. Bolalarning o‘yin bilan shug‘ullanishi va mehnat qilishlari uchun kerakli materiallar bilan ta‘minlanadi, shu orqali bolalar o‘yining mehnat bilan uyg‘unlashib ketishiga erishiladi.

Tarbiyachi bolalarning syujetli-rasmi o‘yinlarining hamma xilini syujetli-rolli, qurilish drammalashtirilgan tabiiy materiallar bilan o‘ynaydigan qilib tashkil etadi. Bolalarga o‘yin harakatlarini o‘rgatadi, tengdoshiari bilan bo‘ladigan munosabatlarda haqqoniylik prinsipiga rioya qilishni uqtiradi.

Shu bilan birga u bolalardagi ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik va boshqa xislatlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ijodiy o‘yinlar ertalabki qabul paytida, kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi sayrda, ya‘ni mashg‘ulotdan tashqari hamma vaqtda tashkil etilaveradi.

Mashg‘ulotlarda va mashg‘ulotdan tashqari vaqtda o‘ynaladigan didaktik va harakatli o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi bolalarning sensor rivojlanishini, aqliy tarbiyasini, bilish jarayonlarini didaktik o‘yinlar orqali amalga oshiradi, harakatli o‘yinlarda bolalarning jismoniy madaniyatini tarbiyalash uchun yaxshi shart-sharoit yaratish kerak.

Harakatli o‘yinlar ertalabki va kechki sayr soatlarida tashkil etilib, kuniga 1-2 marta butun guruh, yoki guruhcha bilan o‘tkazilishi kerak. O‘rta va katta guruhlarda turli xil sport o‘yinlari o‘tkazib turiladi. Hamma o‘yinlar uchun kun tartibidan vaqt ajratish va kerakli materiallar bilan ta‘minlash tarbiyachining zimmasiga yuklatilgan. Kun davomida bir necha marta:

ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi. Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini (plastilindan) yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar. Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq, madaniyati, irodaviy sifatlarining tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi taqozo etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda yordam berishda, tarbiyachining maslahati lozim bo'ladi. Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi.

Bu ish mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnatida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, axloqiy munosabatlariga qaratiladi.

Bolalarning ovqatlanishga, mashg'ulotga tayyorlanishlari, tabiat burchagida navbatchilik vazifasini bajarishlari, ularda topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissini rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi.

Navbatchilik ikkinchi kichik guruhda yilning ikkinchi yarmidan boshlanadi va hamma yosh guruhlarida davom etadi. Katta guruh bolalarining qo'l mehnati, tabiatdagi mehnati, xo'jalik-maishiy mehnatlari har kuni ertalabki soatda, ertalabki va kechki sayrda sistemali ravishda tashkil etib boriladi. Haftasiga bir marta butun guruh ishtirokida bolalarning jamoa mehnati tashkil etiladi, mashg'ulotlarda qo'l mehnatining yangi turi o'rgatiladi. Mehnat

jarayonida bolalarning mehnat qilish malaka va ko'nikmalari takomillashadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, qiziqishlari ortadi, mehnatsevarlik, javobgarlik, burch hissi kabi axloqiy sifatleri shakllanib boradi. Bolalarning mehnat faoliyatini ularning jismoniy va aqliy faolligini o'stiradigan qilib tashkil etilishi kerak. Buning uchun ularni hamma kerakli materiallar va mehnat qurollari bilan ta'minlash lozim. O'z-o'ziga xizmat bolalar mehnatini tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi.

Kichkina guruhdan boshlab bolalar mustaqil kiyinish va yechinishga o'rgatiladi. Katta guruh bolalari o'zlarini har doim batartib (tashqi ko'rinishi, sochi, kiyimlari, oyoq kiyimi) tutishlari kerak. Ular o'yinchoqlarni, kitoblarni, ish qurollarini o'yin va mashg'ulotdan keyin joy-joyiga yig'ishtirib qo'yadilar.

Har kuni ertalabki mashg'ulotdan keyin, kunduzi uyqu, kechki nonushtadan keyin sayr uyushtiriladi. Sayrda ijodiy o'yinning hamma turlari, bolalarga tanish va yangi qoidalari, o'yinlar tashkil etiladi. Bolalarning o'yin, mehnat, mustaqil faoliyatlariga rahbarlik qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalarning xilma-xil mustaqil faoliyatlari uchun shart-sharoit yaratadi: kerakli material, asbob-anjomlar, o'yinchoqlar bilan ta'minlaydi, maydonchada, guruh xonasida o'yin uchun joy tayyorlaydi. O'yin va mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy gigiyenik jihatdan talabga javob berishi (yorug', ozoda, yaxshi shamollatilgan, nam latta bilan pollari artilgan, havo temperaturasi normal bo'lishi) kerak. Sayrda tabiatni, kattalar faoliyatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatish imkoni yaratiladi. Sayr boshlanishida bolalarning mustaqil xatti-harakat qilishlari: yugurish, o'tirish, gaplashish va tomosha qilish uchun sharoit mavjud bo'ladi. Keyin harakatli o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, kuzatish, turli-tuman ijodiy o'yinlar tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar turmushini tashkil etishga katta e'tibor beriladi. Har bir yosh guruhida tashkil etilgan kun tartibi bolalarning uyquga, ovqatlanishga, faol mehnat qilishga bo'lgan talabini to'la qondirishi, bolalarda ijobiy hissiy kayfiyatni saqlash bolalar va kattalar



o'rtasida to'g'ri munosabat o'rnatish uchun kerakli shart-sharoit yaratilishi kerak. Amalga oshiriladigan tadbirlarda tarbiyachi bolalarda madaniy-gigiyenik malakalarni: ijtimoiy xulqni, xatti-harakatlar madaniyatini tarbiyalab boradi.

Bolaning sog'lom bo'lib, to'g'ri rivojlanishi uchun tinch va chuqur, kerakli uyqu muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi guruh xonasida bolalarni uyquga yotqizgandan keyin xonaning shamollatilgan bo'lishini, tinchlikni ta'minlaydi. Bolalarning uyg'onganlarini sekin-astalik bilan turg'azish kerak. Bola organizmining o'zgaruvchan tashqi ta'sirlarga chidamliligini oshirish maqsadida har xil chiniqtiruvchi tadbirlar havo, quyosh, suv vannasi bilan chiniqtirish amalga oshiriladi.

Bunga chiniqtiruvchi tadbirlar vaqtini sekin-asta ko'paytirib borish, suv temperaturasini pasaytirib borish, kunduzi uyquni ochiq havoda tashkil etish, bolalar kiyimlarini yengillatib borish orqali erishiladi. Bolalarning kunduzi va kechki soatlarda ochiq havoda bo'lishlarini ta'minlash ularning sog'lom, barkamol bo'lib o'sishlarida katta ahamiyatga ega. Bolalarning ochiq havodagi faoliyatlarini qiziqarli va maroqli o'tishini ta'minlash uchun har xil o'yinlar, sport, ermak o'yinlari, kuzatish va mehnat faoliyatlariga kerakli shart-sharoit yaratiladi.

**KUNNING BIRINCHI VA  
IKKINCHI YARMIDA  
BOLALAR HAYOTINI  
TASHKIL ETISH**

Bolalar hayoti kunning birinchi va ikkinchi yarmidagi kun tartibiga binoan tashkil etiladi. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlarni yaratish zarur.

**Kichik guruh bolalarining** ko'p vaqti guruh xonasida o'tadi. Yaxshi jihozlangan xona, o'yinchoq va qo'llanmalarni to'g'ri tanlash bolalarning to'laqonli hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Guruh xonasidagi o'yinchoqlar bu yoshdagi bolalarning 3-4 ta bo'lib o'ynashlarini e'tiborga olib joylashtirilishi, «Oila», «Bolalar bog'chasi» va shunga o'xshash o'yinlarni o'ynashlari uchun o'yinchoq burchagi tashkil etilishi, unda yana qurilish materiallari, harakatlanuvchi o'yinchoqlar ham bo'lishi kerak, qolgan

o'yinchoqlar, rasmlar shkaflarga bolalar bemalol oladigan qilib joylashtirishi lozim.

Xonada bolalarning polda mashina, aravachalarni bemalol yurgiza olishlari va yirik qurilish materiallari bilan o'ynashlari uchun ham joy ajratilishi kerak. Harakatlarni rivojlantiruvchi jihozlar binoning maxsus xonalarida saqlanadi va jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridagina olib chiqiladi. Maydonchaga qum yashiklari, bolalarning sakrashlari, tirmashib chiqishlari uchun kerakli jihozlar, qorda, muzda uchishlari uchun chanalar qo'yiladi.

**II kichik guruh bolalari** uchun ham xuddi birinchi kichik guruhnikidek muhit tashkil etiladi. Bundan tashqari kuzatish va mehnat uchun tabiat burchagiga akvariumda balki, to'rlarda qushlar va mayda hayvonlar joylashtiriladi. Guruh xonasidan kitob javoni uchun joy ajratiladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti maydonchasida sport o'yinlari bilan shug'ullanish uchun maxsus joy bo'ladi, u kerakli anjomlar bilan jihozlab qo'yiladi: velosipedda uchish uchun yo'lka, tirmashib chiqish uchun jismoniy tarbiya narvonchalari, muvozanatni saqlash uchun ma'lum balandlikda yotqizilgan g'ola va shunga o'xshashlar bo'ladi. Olib chiqilgan o'yinchoqlarni o'ynash uchun maxsus stollar, o'rindiqlar, suv bilan o'ynash uchun maxsus idish, qum yashigi bo'lishi kerak.

**O'rta guruh xonasi** uxlash xonasi, hojatxona va yechinish xonasiga ega bo'lishi kerak. Guruh xonasi bir necha bo'limdan iborat bo'lishi kerak. Birinchi o'yin bo'limida qo'g'irchoq bilan o'ynash uchun hamma kerakli narsalar joylashtirilgan shkaf bo'ladi. Ikkinchi o'yin bo'limida qurilish materiallari qo'yiladigan shkaf va ular bilan o'ynash uchun joy ajratiladi. Shu xonaning yana bir qismida bolalarning badiiy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanishlari uchun kerakli materiallar qo'yiladi. Kitob burchagi va stol usti bosma o'yini bilan shug'ullanishlari uchun o'yin burchagida tinchroq joyni ajratish kerak. Tabiat burchagini derazalarga yaqinroqda joylashtirgan ma'qul. Xona amaliy san'at asarlari va ko'kalamzorlashtiruvchi o'simliklar bilan

bezatiladi. Maydoncha boshqa maydonchalardan yashil, manzarali o'simliklar bilan to'silib, jismoniy mashqlar va sport ermak o'yinlari uchun kerakli asboblardan bilan jihozlanadi.

**Katta guruh.** O'yin bo'limlari bolalarning yoshiga mos holda, o'rta guruh xonasi kabi jihozlanadi. Guruh xonasida yana mashg'ulot o'tkaziladigan bo'lim ajratiladi va u yerga tarbiyachining stoli, ekran, shkaf, doska joylashtiriladi. Bolalarning mustaqil o'ynashlari uchun hamma kerakli materiallar ular bemalol foydalana oladigan qilib joylashtirilishi kerak (stollar, o'yinchoqlar solingan qutichalar, vitrina shkafi, tokchalar va boshqalar). Tabiat burchagi, qo'l mehnati bilan shug'ullanadigan burchak, kitob burchagi, tasviriy faoliyat bilan mustaqil shug'ullanadigan burchak, musiqaviy faoliyat burchaklari bo'lishi kerak, Bulardan tashqari bolalar bemalol, erkin harakat qilishlari uchun kattagina bo'sh joy bo'lishi zarur.

Maydonchada sport o'yinlari, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, irg'itish uchun katta joy ajratiladi. Syujetli o'yinlar uchun o'yinchoqlar ham bo'ladi.

**Tayyorlov guruhi.** Bu yerdagi mashg'ulot o'tkaziladigan bo'limda katta guruhdagi singari bolalar uchun ikki kishilik stollar qo'yiladi. Guruh xonasidagi jihozlar zarurat tufayli shug'ullanganda o'yinga joy bo'shatish maqsadida boshqa tomonga surib qo'yadigan qilib joylashtiriladi. Maydonchada sport o'yinlari va har xil o'yinlar uchun joy ajratiladi, gulxona va poliz tashkil etilib, u yerda bolalar o'zlari gul va sabzavotlarni yetishtiradilar.

**BOLALAR HAYOTINI  
TASHKIL ETISHGA  
QO'YILADIGAN  
TALABLAR**

Kunning birinchi yarmida bolalar hayotini tashkil etish, bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotida 9-10 soat bo'lishi kun tartibida belgilab qo'yilgan. Bunda ertalabki qabul muhim rol o'ynaydi.

Tarbiyachi bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi vaqti qiziqarli, sermazmunli o'tishini ta'minlaydi.

Buning uchun ertalab bolalarni ochiq chehra bilan kutib oladi, otanalari bilan xushmuomala, xayrixoh munosabatda bo'ladi. Ertalabki qabul vaqtida ijodiy o'yinning hamma turlari tashkil etiladi, tabiat burchagida kuzatish, bolalarning guruh xonasidagi, ovqat va mashg'ulotlardagi navbatchiliklari, nonushtadan oldin ertalabki gimnastika va yuvinish tashkil etiladi. Nonushta vaqtida tarbiyachi bolalarning ovqatlanish madaniyatini nazorat qilib turadi.

Nonushtadan keyin dasturda ko'rsatilgan vaqt mobaynida mashg'ulot o'tkaziladi. Mashg'ulotgacha va mashg'ulot o'rtasida o'yinlar tashkil etiladi. Qanday o'yin o'tkazilishi mashg'ulotning mazmuni va xususiyatiga bog'liq. Bolalar o'tirib shug'ullanadigan mashg'ulotdan oldin harakatli o'yinlar, jismoniy tarbiya va musiqaviy mashg'ulotdan oldin tinch o'yinlar o'ynashadi. Mashg'ulotdan keyin sayr o'tkaziladi. Tarbiyachi tevarak-atrofdagi tabiatni, kattalar mehnatini, ijtimoiy hayot voqealarini kuzatishni tashkil etadi. Harakatli o'yinlar o'tkazadi, mustaqil o'yin o'tkazishni taklif etadi. Mana shu vaqt ichida bolalarning mustaqil faoliyatlari, mehnat, didaktik o'yinlar, ijodiy o'yin turlari bilan shug'ullanishlari uchun katta e'tibor beriladi. Maqsadli sayrlar uyushtiriladi. Sport o'yinlari va mashqlar, jismoniy dam olish va shunga o'xshashlar bolalarning harakat faolligini o'stirishga ham katta ahamiyat beriladi.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTIDA  
PEDAGOGIK JARAYONNI  
TASHKIL ETISHNING  
MAQSADI VA  
VAZIFALARI**

Bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayon murakkab va rang-barangdir.

Fiziologiya, gigiyena, psixologiya, pedagogika sohasida olib

borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar hayotini tashkil etishning quyidagi tamoyillari ishlab chiqildi:

1. Har bir yosh guruhida bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan bir xil shart-sharoitlar yaratish.
2. Bolalarni yosh guruhlariga taqsimlashda har bir guruhga faqat bir xil yoshdagi bolalarni tanlash va shunga qarab ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.
3. Bolalarning har xil faoliyat bilan shug'ullanishlari va bir-birlari bilan muloqotga kirisha olishlari uchun zarur bo'lgan moddiy muhitni yaratish. Buning uchun guruh xonasi va maydonchani gigiyenik, pedagogik, estetik talablar darajasida kerakli asbob- anjomlar bilan ta'minlash.
4. Bolalarning yoshiga mos kun tartibiga rioya qilish va uning barqarorligini ta'minlash.
5. Bolalar shaxsini shakllantiradigan faoliyat turlarini tashkil etish va bu faoliyatlar uchun kun tartibidan ma'lum vaqt ajratish. Bolalarning har xil faoliyatlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida almashtirib borish bolalar Maktabgacha ta'lim tashkilotining har xil yosh guruhlarida bolalar hayotini to'g'ri tashkil etishni ta'minlaydi.

Tarbiya masalalari ta'lim-tarbiya ishining tashkiliy shakllari, bolalar faoliyatining har xil turlari: mashg'ulotlarda ta'lim berish orqali, ijodiy va qoidali o'yinlar, bolalarning mustaqil faoliyati, ularning o'z mehnati va kattalar mehnati bilan tanishtirish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sayrlar, gigiyenik tadbirlar orqali amalga oshiriladi. Ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish maktabgacha ta'limtashkilotidagi pedagogik jarayonning har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagogik jarayonida ta'lim muhim ahamiyat kasb etadi va kundalik hayot, o'yin, mehnat, mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ta'lim va tarbiya vazifalari hal etiladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishish, nutq o'stirish, savod o'rgatish, matematika, jismoniy madaniyat, tasviriy faoliyat, musiqa bo'yicha eng oddiy tasavvur va bilimlarni, malaka hamda ko'nikma sistemasini

egallab oladilar. Bolalar egallab olishlari kerak bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar maktabgacha ta'limtashkiloti davlat o'quv dasturida belgilab berilgan bo'lib, u bolalarning umumiy rivojlanishi va ularni maktab ta'limiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarda ta'lim berish didaktika tamoyillari asosida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ma'lum izchillikda olib boriladi, mazmuni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Natijada, u rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'ladi. Dasturda har bir yosh guruhida hafta davomida o'tkaziladigan mashg'ulotlar soni va har bir mashg'ulot qancha davom etishi belgilab qo'yilgan.

Dasturning hamma bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni haftaga teng taqsimlanadi.

1. Haftaning birinchi va oxirgi kuniga osonroq mashg'ulotlar qo'yiladi.
2. Haftaning seshanba, chorshanba va payshanba kunlarida bolalardagi aqliy faoliyat tezlashadi, shuning uchun bu kunlarga murakkabroq ishlar rejalashtiriladi.
3. Kun davomida birinchi bo'lib bolalardan aqliy zo'r berishni ko'proq talab etadigan, kam harakatli mashg'ulotlar rejalashtiriladi (tevarak-atrofdagi hayot va tabiat bilan tanishtirish, ona tili, matematika). Tasviriy faoliyat, jismoniy tarbiya, musiqa va shunga o'xshash mashg'ulotlar keyinroqqa rejalashtiriladi.
4. Kun davomida mashg'ulotlar quyidagicha tartibda almashtirib boriladi: matematika va jismoniy tarbiya, ona tili va tasviriy faoliyat va h.k.
5. Mashg'ulotlarni bunday taqsimlash bolalarning dastur materialini yengilroq o'zlashtirib olishiga imkon yaratadi. Kun davomida bir necha marta: ertalabki qabul vaqtida, ertalabki va kechki sayrda bolalarning mustaqil faoliyatlari tashkil etiladi.

Bolalar o'zlariga tanish bo'lgan didaktik va harakatli o'yinlarni o'ynaydilar, xohlagan rasmlarini chizadilar, xohlagan narsalarini yasaydilar, kitoblar, rasmlarni tomosha qiladilar, xohlagan badiiy asarlarini tinglaydilar.

Bolalarning mustaqil faoliyati ular uchun dam olish soati hisoblanadi, ammo ish bilan bir vaqtda bolalarning o'z-o'zini tashkil eta bilish qobiliyati o'sishiga, xulq madaniyati irodaviy sifatlarning tarbiyalanishiga, jamoa munosabatlarining shakllanishiga yordam beradi. U har xil faoliyatlarda bolalardagi o'ziga xos ijodkorlikning rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Shuning uchun bolalarning mustaqil faoliyatiga ham tarbiyachining rahbarlik qilishi talab etiladi: chunki xohlagan ishi bilan shug'ullanishiga imkon yaratish, kerakli material va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda, tarbiyachining maslahati lozim bo'ladi. Kun davomida sistemali ravishda mehnat faoliyati tashkil etilib, bolalar kattalarning mehnati bilan tanishtirib boriladi. Bu ish mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, maqsadli sayrlarda, bolalarning kattalar bilan birgalikdagi mehnati davomida amalga oshiriladi. Bunda bolalarning asosiy e'tibori mehnatning insonlar uchun foydasiga, uning xilma-xilligiga, ishlayotganlarning axloqiy munosabatlariga qaratiladi. Bolalarning ovqatlanishi, mashg'ulotga tayyorlanishi, tabiat burchagida navbatchi vazifasini bajarish ularni topshiriqqa nisbatan javobgarlik hissinu rivojlantiradi, shu bilan birga ijtimoiy his va munosabatlarni shakllantiradi.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan faoliyat turlari qaysilar?
2. Davlat o'quv dasturida har bir yosh guruhida nimalar belgilab qo'yilgan?
3. O'quv ta'lim-tarbiya faoliyatlar jadvalini tuzishda qanqay talablarga rioya qilish kerak?

#### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

“Ilk qadam” davlat o'quv dasturini tahlil qiling hamda oy, hafta mavzularning ketma-ketligini jadvalda ifodalang.

## UMUMIY TIPDAGI DAVLAT VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL QILISH

*Maktabgacha ta'lim tashkiloti – bu  
bolalarning hayotga qarashlari  
shakllanadigan hamda o'z “Men”iga ega  
bo'ladigan ijtimoiylashuv institutidir.  
Surayyo Sanayeva*



### REJA:

1. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilish.
2. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari.
3. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibi.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.
5. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti.
6. Qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlash.
7. Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari.

***Tayanch so'zlar:** davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi va vazifasi, maktabgacha ta'lim tashkilotining huquq va majburiyatlari, davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limning mazmun – mohiyati, qisqa muddatli guruh, qisqa kunli guruh, to'liq kunli guruh, kechayu kunduz bo'ladigan guruh, o'quv yili, yozgi sog'lomlashtirish davri, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.*



**DAVLAT  
MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTINI  
TASHKIL QILISH**

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatadigan tashkilot hisoblanadi.

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunning 4-bobi “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashkil etish” to'g'risida bo'lib, 18-moddasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish, davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari:

- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari;
- mahalliy davlat hokimiyati organlari.

Boshqa davlat organlari va tashkilotlar ham qonun hujjatlariga muvofiq davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, Nizomga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiya asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari yuridik shaxs hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va shtampga, mustaqil balansga, byudjet va byudjetdan tashqari shaxsiy g'azna hisob varaqlariga ega.



**Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ bolaning ta'lim olishga bo'lgan huquqini amalga oshirishni ta'minlash;
- ❖ bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini saqlash va mustahkamlash;
- ❖ umumta'lim muassasalarida bolaning jamiyatga moslashishini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining vazifalari esa quyidagilar hisoblanadi:

- ❖ bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;
- ❖ bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish;
- ❖ bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- ❖ bolaning jamiyatga moslashishini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;
- ❖ ta'lim - tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish.

**DAVLAT MAKTABGACHA  
TA'LIM TASHKILOTINI  
TASHKIL ETISH, QAYTA  
TASHKIL ETISH VA  
TUGATISH TARTIBI**

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs shaklida tashkil etiladi va o'z faoliyatini ustav asosida amalga oshiradi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat tashkilotlari davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxslar - xususiy mulk huquqi sub'ektlari va jismoniy shaxslar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining muassislari bo'lishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari binolari va inshootlarini O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishmasdan xususiylashtirish, o'zga berish va qayta ixtisoslashtirish mumkin emas.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.**

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagi huquqlarga ega:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi asosida o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- ❖ maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturida ko'rsatilgandan tashqari qo'shimcha pulli ta'lim xizmatlari ko'rsatish, ishlanmaydigan kunlarda yoki belgilangan ish soatlaridan tashqari bolaning qonuniy vakillari bilan kelishuv asosida bolalarni parvarishlash va ularga qarab turish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- ❖ bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;
- ❖ maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish;

❖ maktabgacha ta'lim tashkilotlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari:

❖ ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishi;

❖ maktabgacha ta'limning tegishli sifatini ta'minlashi;

❖ bolani tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha uning qonuniy vakillariga maslahatlar bilan yordam berishi;

❖ bolalarni kamol toptirish, tarbiyalash va o'qitish uchun xavfsiz shart-sharoitlarni yaratishi;

❖ maktabgacha ta'lim sifati ta'minlanishini nazorat qilishda vakolatli davlat organlariga ko'maklashishi shart.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quyidagilar uchun javob beradi:

➤ bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishi;

➤ bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtida ularning hayotini himoya qilishni va sog'lig'ini mustahkamlashni tashkil etish;

➤ ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiq kelmasligi;

➤ bolalarni maktablar boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;

➤ ta'lim dasturlari tegishli sifatda va belgilangan hajmda amalga oshirilishini ta'minlash;

➤ Nizomda nazarda tutilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyati ustidan monitoring olib borish va nazorat qilish vakolatli davlat organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki ta'lim olayotgan bolalarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga zid harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etish uchun javob beradilar.

**Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tashkil etish.** Maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, ularga qarab turishni, ularni parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta'minlaydi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'limning mazmun – mohiyati.** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Maktabgacha ta'lim davlat ta'lim dasturi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturida belgilab beriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni mashg'ulotlarning yillik, kalendar-mavzuli rejalari va jadvali bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, "Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning Davlat standarti" va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ta'lim berish va tarbiyalash shakllari, vositalari hamda usullarini tanlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy shakli o'yin hisoblanadi.

Har bir yosh guruhidagi mashg'ulotlar, o'yinlarning har kungi soni, davom etadigan davri va izchilligi maktabgacha ta'lim tashkilotining o'quv rejasida belgilab beriladi.

Bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lish vaqtiga qarab u yerdagi guruhlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- bolalar qisqa muddatli (kuniga 3 - 4 soat) bo'ladigan guruh;
- qisqa kunli guruh (bir kunda 9 soatgacha);

- to'liq kunli guruh (kuniga 10,5 va 12 soat);
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruh.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ishlash tartibi va bolalarning unda bo'lish vaqti uning ustavi va muassisning qarori bilan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga o'tkazilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Shartnomada bola maktabgacha ta'lim tashkilotiga boradigan rejim, necha marta ovqatlanish va boshqa shartlar ko'rsatiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv yili joriy yilning 2 sentyabridan keyingi yilning 31 mayigacha bo'lgan davrni, yozgi sog'lomlashtirish davri joriy yilning 1 iyunidan 31 avgustigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga ta'lim berish va tarbiyalash "Davlat tili to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq davlat tili va boshqa tillarda olib boriladi.

**Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish va undan chiqarish.** Bolani maktabgacha ta'lim tashkilotlariga doimiy yoki vaqtincha qatnashga qabul qilish ushbu tashkilotda bo'sh joylar bo'lsa, kalendar yil davomida quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- bola qonuniy vakilining arizasi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vakolatli organ bergan yo'llanma (DMTT uchun);
- bola sog'lig'i holati to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi.

Bolalar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq qabul qilinadi.

Bolalar nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ustaviga muvofiq qabul qilinadi.

Bolani davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish MTT rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Bolaning qonuniy vakili bilan tuzilgan shartnoma bolani nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish uchun asos hisoblanadi.

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarini to'ldirish.** Guruh maktabgacha ta'lim tashkilotining tarkibiy birligi hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhlar ham bir xil yoshdagi, ham turli yoshdagi bolalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini to'ldirish va bir guruhdan boshqasiga o'tkazish har yili o'quv yili boshlanishidan oldin amalga oshiriladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida guruhlar quyidagi miqdorda to'ldiriladi:

- 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan guruhlarda - kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola;
- bolalar qisqa vaqt bo'ladigan guruhlarda - ko'pi bilan 30 nafar bola;
- turli yoshdagi guruhlarda - kamida 20 nafar va ko'pi bilan 25 nafar bola;
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlarda - ko'pi bilan 10 nafar bola.

Agar davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan joyda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga borishni xohlovchi maktabgacha yoshdagi bolalar soni 20 nafar boladan kam bo'lsa va bu joyda boshqa davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda kam sonli bolalardan iborat guruhlarni tashkil etishga yo'l qo'yiladi.



**Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish.**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda

boshqariladi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishuv bo'yicha hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan mudir rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatiga mudir joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisi oldida hisob beradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanadi:

✚ Pedagogika kengashi;

✚ Kuzatuv kengashi.

#### **Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi:**

- maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi;
- maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;



➤ maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Pedagogika kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o'qitishda ko'maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi.

#### **Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi:**

➤ maktabgacha ta'lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

➤ maktabgacha ta'limning tuman (shahar) bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi;

➤ maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora - tadbirlar, moliya - xo'jalik holati, daromadlar va harajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarini vaqti-vaqti bilan eshitadi;

➤ maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi;

➤ tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqlari va majburiyatlari qonun hujjatlarida, ustavda, boshqa normativ - huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalar va diniy muassasalarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga va faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Xalqaro hamkorlik, pedagogik axborot va tajriba almashish, pedagog xodimlar amaliyotini o'tkazish va malakasini oshirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**NODAVLAT  
MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTINI TASHKIL  
QILISH**

**Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti.** Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti – qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan litsenziya asosida, shuningdek, ilk va maktabgacha yoshdagi

bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z faoliyatini davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti singari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga, ushbu Nizomga va o'z ustaviga muvofiq amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyadan asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda akkreditatsiyadan o'tkaziladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga ega, o'z majburiyatlari bo'yicha ixtiyoridagi mol-mulk bilan javob beradi, o'z nomi yozilgan muhr va shtampga ega bo'lishi mumkin.

**QISQA MUDDATLI  
GURUHLARDA BOLALARNI  
MAKTAB TA'LIMIGA  
TAYYORLASH**

Qisqa muddatli guruhlar faoliyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari Ustavi bilan tartibga solinadi. Bu guruhlar maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning to'laqonli kamol topishini ta'minlash, ularni tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish uchun mo'ljallangan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda amalga oshiriladi. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etilgan qisqa muddatli guruhlarda bolalarning bo'lishi uchun to'lov muassis tomonidan belgilanadigan narxlar va tariflar bo'yicha belgilanadi, bundan qonun hujjatlarida belgilangan hollar mustasno.

Qisqa muddatli guruhlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolaning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishini saqlash hamda mustahkamlash;
- bola shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- bolaning yosh va o'ziga xos imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab har tomonlama kamol topishini ta'minlash;
- bolani shakllantirishda, tarbiyalashda va o'qitishda oilaga har tomonlama yordam berish;
- bolalarning bilim orttirishini, ijtimoiy-shaxsiy, badiiy-estetik va jismoniy kamol topishini ta'minlash.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qisqa muddatli guruhlarining quyidagi turlari faoliyat ko'rsatishi mumkin:

- rivojlantirish guruhi;
- bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi;
- inklyuziv guruh;
- kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh.

**Rivojlantirish guruhi** - 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ularni har tomonlama kamol toptirish, tengdoshlari va kattalar davrasiga moslashtirish maqsadida tashkil etiladi. Rivojlantirish guruhi kamida 20 nafar va ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

**Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi** – 5-6 yoshdagi bolalar uchun (umumta'lim tashkilotlariga qabul qilishdan bir yil avval) maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishida yordam berish maqsadida, shuningdek, bolalarni umumta'lim tashkilotlarida o'qishga tayyorlash va teng imkoniyatlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

**Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi** – ko'pi bilan 30 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yil majburiy bepul tayyorlov guruhi ko'pincha maktabgacha ta'lim tashkilotlari negizida, shuningdek, bo'sh turgan xonalar bo'lsa — umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, «Barkamol avlod» bolalar markazlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, madaniyat markazlari, bolalar musiqa va san'at maktablari negizida tashkil etiladi;

**Inklyuziv guruh** - 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun o'ziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni ta'minlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik ko'maklashish, o'ziga xos ehtiyoji bor bolalarning bunday zaiflikka ega bo'lmagan bolalar bilan birga o'qishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etiladi.

**Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh** - 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar uchun bolalarni tarbiyalash, ta'lim berish, parvarishlash va ularga qarab turish masalalarida qonuniy vakillarga yordam berish maqsadda tashkil etiladi. Kechki, dam olish va bayram kunidagi guruh ko'pi bilan 15 nafar bola bilan to'ldiriladi.

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qisqa muddatli guruhlarining turiga qarab 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qonun hujjatlariga muvofiq qisqa muddatli guruhlarining boshqa turlari ham tashkil etilishi mumkin.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlar uchun quyidagi shtat birliklari belgilanadi:

- bitta guruh uchun — 0,5 birlik tarbiyachi va 0,5 birlik tarbiyachi yordamchisi;
- ikkita guruh uchun — 0,25 birlik tibbiy hamshira va 0,25 birlik musiqa rahbari.

Qisqa muddatli guruhlar faoliyati tashkil etilgan MTT quyidagilar uchun javob beradi:

- bolaning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan vaqtda ularning hayoti himoya qilinishini va sog'lig'i mustahkamlanishini tashkil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda qo'llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, ruhiy va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga muvofiqligi;
- bolalarni umumta'lim tashkilotlaridagi boshlang'ich ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni qo'llagan holda tayyorlash sifati;
- umumta'lim dasturlarini amalga oshirishni tegishli sifatda va belgilangan hajmda ta'minlamaslik.

Qisqa muddatli guruhlardagi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan Maktabgacha ta'limning davlat o'quv dasturiga hamda Ilk va

maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan maktabgacha ta‘lim tashkiloti dasturida belgilab beriladi.

Qisqa muddatli guruhlardagi ta‘lim-tarbiya jarayoni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatlari katta yoshdagilarning bolalar bilan, hamda bolalarning o‘zlari ishtirokidagi shakllarini o‘z ichiga oladi.

Qisqa muddatli guruhlarda bolalar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda ta‘lim yuklamasi bir haftalik ta‘lim yuklamasining eng ko‘p ruxsat etilgan hajmidan va mashg‘ulotlarning eng ko‘p ruxsat etilgan sonidan oshmasligi kerak.

Uzluksiz ta‘lim faoliyati muddati sanitariya talablariga muvofiq hisoblab chiqiladi.

Ta‘lim faoliyatini olib boruvchi qisqa muddatli guruhlarining pedagog xodimlari mehnatiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda haq to‘lanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash bo‘yicha mashg‘ulotlar ikki smenada kun davomida kuniga 3,5 soat sharti bilan o‘tkazish mumkin:

Qisqa muddatli guruhlariga mashg‘ulotlar taqsimoti quyidagicha bo‘ladi:

1- smena 8:30-12:00 (3,5 soat)

8:30-8:50 Qabul, birlamchi tibbiy ko‘rik, ertalabki badantarbiya

8:50-9:00 Bolalar bilan suhbat

9:00-10:30 O‘yinli ta‘lim faoliyatlari

10:30-11:00 O‘yin, mustaqil faoliyat

11:00-11:15 Ikkinchi nonushta

11:35-12:00 Sayr va undan keyin bolalarni uyiga kuzatish

12:00-13:00 Pedagoglar uchun tushlik tanaffus

13:00-13:30 Pedagoglarning ikkinchi smenadagi ta‘limiy faoliyatlarga tayyorlanishi

2- smena 13:30-17:00 (3,5 soat)

13:30-13:40 Qabul qilish, birlamchi tibbiy ko‘rik

13:40-14:00 Bolalar bilan suhbat  
14:00-15:30 O‘yinli ta’lim faoliyatlari  
15:30-16:00 O‘yin, mustaqil faoliyat  
16:00-16:20 Tushdan keyingi ovqatlanish  
16:20:16:35 Sayrga tayyorgarlik  
16:35-17:00 Sayr va undan keyin bolalarni uyiga kuzatish

Qisqa muddatli guruhlar uchun bunday ta’limiy faoliyatlar jadvali, bolalarni maktabga tayyorlashning ham 9 oylik, ham 3 oylik kurslarida taklif etiladi. Bunday jadvalning afzalligi shundaki, agarda ota-onalar pedagog tomonidan ta’limiy faoliyatning aynan shu turi oldiga quyilgan vazifalarga erishish borasida uni qo‘llab-quvvatlab, mashg‘ulotlarni davom ettirsalar, ochiq havodagi faoliyatlar vaqti uzaytirilishi ham mumkin.

**KO‘P TARMOQLI  
IXTISOSLASHTIRILGAN  
MAKTABGACHA TA’LIM  
TASHKILOTLARI VA  
QO‘SHMA TIPDAGI  
MAKTABGACHA TA’LIM  
TASHKILOTLARI**

Bugungi kunda har bir bola har tomonlama to‘la - to‘kis kamolga etishi uchun bir qancha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Aynan shu jarayonlarni tashkil etish me‘yoriy hujjatlarda ham yoritilgan. Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan

maktabgacha ta’lim tashkilotlari va qo‘shma tipdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlari ish faoliyati alohida nizomda ko‘rsatib berilgan bo‘lib, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonunning 29 - moddasida ham Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi bolani to‘laqonli har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etilishini ta’minlaydi.

Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi:

- bolaning bilim jihatidan va intellektual rivojlanishini;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlikni;

- bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O‘zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf - odatlari va an’analari bilan tanishtirishni;
- bolaning ijtimoiy moslashuvini;
- alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan pedagogik - tuzatish (korreksiyalash) va tibbiy - psixologik ishlar amalga oshirilishini;
- bolalarni umumiy o‘rta ta’limga tayyorlashni ta’minlashi kerak.

Jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlarini tuzatishga (korreksiyalashga) hamda reabilitatsiya qilishga muhtoj bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim va tarbiya olishi maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturi asosida ishlab chiqilgan yakka tartibdagi rejalar bo‘yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilot maqsadlari quyidagilardan iborat:

- bolaning ta’lim olishga bo‘lgan huquqi amalga oshirilishini ta’minlash;
- bolalarni o‘qitish va tarbiyalash, jamiyatga moslashtirish, shuningdek, rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiyalash uchun qulay shart - sharoitlar yaratish;
- bolalarning yosh va o‘ziga xos imkoniyatlariga, qobiliyatlari va ehtiyojlariga muvofiq ularning jismoniy, aqliy va ma’naviy kamol topishini ta’minlash;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, uning ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga, shuningdek, ular asosida ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya va korreksion ishlarni tashkil etish dasturlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta’lim - tarbiya va korreksiya - pedagogik yordam berilishini ta’minlash;



- bolalarda Vatanga muhabbat, oilaga hurmat bilan munosabatda bo'lish, milliy qadriyatlar va urf - odatlarga hurmat, o'ziga va atrof - muhitga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash;
- tibbiy abilitatsiya va reabilitatsiya o'tkazish, bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarni kompensatsiya va korreksiya qilish;
- bolalarga sifatli maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan shart-sharoitlar yaratish;
- bolalarning ijtimoiy moslashuvchanligini hamda ta'lim va tarbiya olishni davom ettirishga tayyorligini ta'minlash;
- bolalarni umumta'lim muassasalarida o'qishga tayyorlash;
- o'quv jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish hisoblanadi.

**Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlarning va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.** Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar quyidagi huquqlarga ega:

- tasdiqlangan moslashtirilgan ta'lim dasturi asosida mustaqil ravishda o'z ta'lim dasturini ishlab chiqish;
- bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik qilish;
- maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha innovatsion faoliyatda qatnashish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar:

- bolalarning jismoniy o'sishi va sog'lig'i mustahkamlanishi uchun sanitariya-gigiyena me'yorlariga muvofiq shart – sharoitlar yaratishi va ularga rioya etilishini ta'minlashi;

- O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli nozologiyalarni davolash standartlariga muvofiq bolalarning abilitatsiyasi va rehabilitatsiyasini o‘tkazish uchun shart-sharoitlarni yaratishi;
- ta’lim-tarbiya va korreksion - pedagogika jarayonini tashkil etishda qo‘llaniladigan shakllar, usullar va vositalarning bolalarning yosh, psixik va fiziologik xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari, manfaatlari va ehtiyojlariga mos kelishini ta’minlashi;
- bolalar to‘g‘ri ovqatlanishini va ularga tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etish uchun zarur shart - sharoitlar yaratishi;
- bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llagan holda umumta’lim muassasalarida o‘qishga sifatli tayyorlashni ta’minlashi;
- maktabgacha ta’lim sifatini ta’minlash ustidan nazorat olib borishda, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash, abilitatsiya va rehabilitatsiya tadbirlarini o‘tkazishda vakolatli davlat organlariga ko‘maklashishi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda, qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotning jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan hamda inklyuziv guruhlarda bo‘lish davri, korreksion ishlari muddati tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya tomonidan belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotga va qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotga quyidagi nuqsonlari bo‘lgan bolalar qabul qilinmaydi:

- ✓ og‘ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik;
- ✓ shizofreniya, hissiy irodaning chuqur buzilishlari;
- ✓ tez-tez takrorlanuvchi umumlashgan epileptik xurujlar;
- ✓ turli sababli psixopatiya va psixopatsimon holatlarning og‘ir shakllari;
- ✓ asab tizimining organik shikastlanganligi sababli siydik va najas ushlab turolmaslik;
- ✓ yurak-qon tomir, nafas olish va ovqat hazm qilish tizimining xuruj va dekompensatsiya bosqichi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim - tarbiya jarayoni ishlab chiqiladigan yakka tartibdagi yo'nalish asosida bolalarning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar frontal, kichik guruh va yakka tartibda olib boriladi.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalarga quyidagi tamoyillar asosida ta'lim beriladi va tarbiyalanadi:

- ✓ ta'limning korreksion yo'naltirilganligi;
- ✓ ijtimoiy moslashuvi;
- ✓ ta'lim - tarbiya jarayonini tashkil etishda ta'limning maxsus metodologiyasidan va toifalangan yondashuvdan foydalanish.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda besh kunlik ish haftasi belgilanadi.

Bolalar tashkilotda bo'ladigan muddatga qarab ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotdagi guruhlar:

- qisqa muddatli guruhlar (kuniga 3,5 — 4 soat);
- to'liq kunli guruhlar (kuniga 10,5 va 12 soatgacha);
- bolalar kechayu kunduz bo'ladigan guruhlar bo'lishi mumkin.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ishlash tartibi hamda tarbiyalanuvchilarning bo'lish muddati uning ustavida va muassis qarorida belgilanadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilot va bolaning qonuniy vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar bola ushbu tashkilotga joylashtirilganda tuziladigan shartnoma bilan tartibga solinadi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotda va qo'shma tipdagi maktabgacha tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus maktabgacha ta'lim bo'yicha tegishli malakaga ega pedagog xodimlar tomonidan o'tkaziladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotdagi va qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotdagi ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik kuzatuv psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qanday tashkilot?
2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 4-bobi 18-moddasi nima haqida?
3. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsadlari va vazifalari?
4. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti qanday tshkil etiladi?
5. Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari?
6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi qisqa muddatli guruhlarining maqsad va vazifalari?
9. Qisqa muddatli guruhlar faoliyati qanday tartibga solinadi?
10. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkilotlar va qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlar qanday huquqlarga ega?

**Mustaqil ta’lim uchun topshiriq:**

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti, qisqa muddatli, ixtisoslashtirilgan hamda qo‘shma tipdagi maktabgacha tashkilotlarining umumiyli va xususiyligini “Venn diagrammasi” asosida tahlil qiling.

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA METODIK  
ISHLARNI TASHKIL ETISH VA RAHBARLIK QILISH.  
MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-  
TARBIYA ISHLARI**

*Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat‘iy,  
tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli  
bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd  
kishidan yaxshiroqdir.  
Amir Temur*



#### **REJA:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi, uning huquqi, vazifalari va unga qo'yilgan talablar.
2. Uslubchining pedagogik jarayonda amalga oshiradigan ishlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-metodistining lavozim malaka tavsiflari.
4. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori tashkilotchi, ma'muriyatchi, yuqori malakali pedagog va unga qo'yilgan talablar.
5. Sharq mutafakkirlarining rahbarlik faoliyati haqidagi qarashlari.
6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kasbiy kompetentligi.

*Tayanch tushunchalar: uslubchi, rahbar, maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish, Pedagogik kengash, Kuzatuv kengashi, mutafakkirlar asarlarida rahbarlik haqida: Farobiy, Beruniy, Davoniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Amir Temurning davlatni boshqarishda amal qilgan 12 ta qoidasi, Islom Karimov va Shavkat Mirziyoyevning rahbarlik haqidagi qarashlari, rahbar kompetentligi, rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari, zamonaviy rahbar kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalari, rahbar bilishi zarur bo'lgan masalalar.*

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTI  
USLUBCHISI,  
UNING HUQUQI,  
VAZIFALARI VA  
UNGA QO'YILGAN  
TALABLAR**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti qonun hujjatlarida belgilanganidek va "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim

tashkilotlari to'g'risida" Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim standartida uslubchining malaka tavsiflari, lavozim vazifalari aniq belgilab berilgan. U ta'lim - tarbiya uslublarini mukammal egallagan, siyosiy ongi, dunyoqarashi keng, yuksak ma'naviy fazilatlar sohibi, tadbirkor, kamida bitta xorijiy tilni biladigan pedagoglar orasidan tayinlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- tashkilotdagi ta'lim - tarbiya ishlariga metodik rahbarlikni amalga oshiradi;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining davlat o'quv dasturi bajarilishini ta'minlaydi va nazorat qiladi, ta'lim - tarbiya ishlarining to'g'ri tashkil etilishi uchun javob beradi;
- pedagogik tajribani o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishga mas'uldir;
- Pedagogik kengashda ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;
- tashkilotdagi metodik kabinetning ishini tashkil qiladi;
- bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo'llanmalar va o'yinchoqdarni tanlaydi;
- ota - onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib etish, turli guruh tarbiyachilari, shuningdek, MTT va umumta'lim maktablari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda uzviylikni ta'minlashga yunaltilgan ishlarni tashkil etadi.

Uslubchi hamkasblarining hurmatini qozonish va ularga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlarida yordam berish uchun muayyan rahbarlik salohiyatiga ham ega bo'lishi lozim.

U nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikka, balki bilim va tajribalarini amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bo'lishi zarur.

Tajribali uslubchi tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondashish g'oyalarini umumlashtira bilishi, aniq, masadni kuzlab faoliyat yuritishi, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini e'tiborga olishi bilan ajralib turadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining ta'lim - tarbiya yo'nalishidagi

faoliyatining samaradorligi, uning obru – e'tibori ko'p jihatdan pedagoglar jamoasi, eng avvalo, tashkilot rahbariyatining jipsligi, uyushoqqligi va bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat yuritishiga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim – tarbiya ishlarini talab darajasida amalga oshirish, tarbiyachilarda mehnat intizomiga qat'iy amal qilish ko'nikmasini, bir - birining kamchiliklariga tanqidiy munosabatni shakllantirish, mehnat va ijodiy faolligini oshirish orqali ish samaradorligini ko'tarish; qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash uslubchidan yuksak bilim va malaka, tarbiyachilar bilan ularning ruhiyatini inobatga olgan holda ishlash salohiyati, katta tajriba hamda ko'plab ma'naviy fazilatlar sohibi bo'lishni talab etadi. Shuning uchun ishini endi boshlayotgan har bir yosh mutaxassis yordam va maslahatga muhtojligini e'tiborga olib, uni yetarli bilim va tajribaga ega murabbiyga biriktirish maqsadga muvofiqdir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotiga kelgan yosh mutaxassis kasb mahoratini egallashi va jamoada obru - e'tibor qozonishi oson kechmaydi. Shuning uchun ham uslubchining asosiy vazifalaridan biri - yosh mutaxassisning yetuk tarbiyachi - pedagoglarning ilg'or ish tajribasi va usullarini egallash, o'z ustida tinimsiz ishlab, bilim doirasini kengaytirib borish va ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga joriy etish borasidagi intilishlarini har jihatdan qullab - quvvatlash, zarur hollarda amaliy yordam va maslahat berishdan iborat.

Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va mohoratlarini hisobga olishga qarab farqlanadi.

Uslubchi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga bo'ysinuvchilar bilan muloqotining emotsional - irodaviy tomonini ifodalovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim xislati - talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, hayrixohlik, odamlarga hurmat bilan birga qo'shib olib borish zarur.

Talabchanlik - bu qattiqqo‘llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, hayfsanlarning foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi. MTT ta‘lim - tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi, uning obro‘si ko‘p jihatdan pedagoglar jamoasining jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbarlarning birgalikda, hamjihatlikda va o‘zaro bir-birlarini tushunishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta‘minlash; jamoada jamoatchilik fikrini, tarbiyachilarning bir - birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnatdagi faolligi va ijodiy ishlash ehtiyojini rag‘batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta‘minlash kabi sotsial -psixologik masalalarni hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi.

**USLUBCHINING  
PEDAGOGIK  
JARAYONDA AMALGA  
OSHIRADIGAN  
ISHLARI**

Uslubchi maktabgacha bolalar tashkilotidagi ta‘lim - tarbiyaviy ishga metodik rahbarlikni amalga oshiradi.

➤ maktabgacha ta‘lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi bajarilishini ta‘minlaydi va nazorat qiladi, ta‘lim - tarbiyaviy ishning to‘g‘ri uyushtirilishi uchun javobgar;

➤ ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganadi, umumlashtiradi va tarqatadi, pedagogik kengashda ko‘rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi;

➤ maktabgacha bolalar tashkilotidagi metodik xonaning ishini tashkil qiladi; bolalarning yoshlariga muvofiq pedagogik qo‘llanmalar va o‘yinchoqlarni tanlaydi.

Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish, turli yosh guruhlari tarbiyachilari, shuningdek maktabgacha bolalar tashkiloti va maktab ishida ketma-ketlilikni ta‘minlash bo‘yicha ishni uyushtiradi.

Uslubchi shuningdek Pedagogik kengashni tashkil etadi va borish jarayonini kuzatib boradi.

**Uslubchining ish hujjatlari 04 - indeks raqami bilan boshlanadi:**



<b>Y/J indeksi</b>	<b>Yig‘ma jild nomi</b>	<b>Saqlanish muddati va modda nomlari</b>	<b>Izoh</b>
<b>04 – MTT metodisti</b>			
04-01	Davlat talablari, o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar	Yangilar bilan almashtirilgandan so‘ng	
04-02	Metodistning shaxsiy ish rejasi (Ish jurnali)	3 yil 124-modda	
04-03	MTTda ta‘lim sifati hamda pedagoglarning kasbiy malakasini	3 yil 171-modda	
04-04	Bolaning rivojlanish haritasi yuritilishini nazorat qilish kitobi	3 yil 124-modda	

Pedagoglar uchun maslahatlar soati metodist tomonidan tashkil etilib, unda mudira, metodist, psixolog, shifokor, musiqa rahbari, defektolog, ilg‘or pedagoglar ma‘ruzalar va mahorat darslarini o‘tadi.

Maslahat soatlari oyda ikki marta (o‘n besh kunda bir marta) har bir yo‘nalish bo‘yicha dolzarb mavzular asosida rejalashtiriladi.

**Pedagogik jarayonni jamoa bo‘lib kuzatish.** Pedagogik jarayonni jamoa bo‘lib kuzatish har bir guruhlar kesimida yilda 2 marta rejalashtiriladi. Bunda, markazlarda ishlash, umumiy guruh bo‘lib ishlash jarayonlarining tashkil etilishi kuzatiladi. Pedagogik ish staji 3 yil bo‘lmagan yosh mutaxassislar uchun pedagogik jarayonni jamoa bo‘lib kuzatish rejalashtirilmaydi.

**Ko‘rik - tanlovlar va tadbirlar.** Mazkur bandga ko‘rik - tanlovlar va ommaviy tadbirlar, bayram ertaliklari, ko‘ngil ochish soatlari, sport bayramlari va musobaqalari rejalari kiritiladi.

**Yosh mutaxassislar bilan ishlash.** Maktabgacha ta‘lim tashkilotida yosh mutaxassislar soni 3 nafardan ko‘p bo‘lgan taqdirda yosh mutaxassislar bilan

ishlash rejasi tuziladi. Bu rejada yosh mutaxassislar tajribali pedagoglarga birlashtirilib, maslahat soatlari belgilanadi.

**Ilg'or ish tajribani o'rganish va ommalashtirish.** Pedagogning ilg'or ish tajribasi bir yil o'rganiladi, bir yil keyin ya'ni ikkinchi yili ommalashtiriladi, uchinchi yili o'rganilgan va ommalashtirilgan hujjatlar umumlashtirilib, tuman miqyosida ommalashtirishga tavsiya qilinadi. Ilg'or ish tajribani o'rganish - seminar yoki ishlab chiqarish yig'ilishlarida, ommalashtirish pedagogik kengashda muhokama qilinadi (MTT, tuman, viloyat va respublika miqyosida shu bosqichda amalga oshiriladi).

**Maktabgacha ta'lim tashkilotining metodik ta'minoti va resurs bazasini boyitish.**

Yillik ish reja asosida olib borilgan tashkiliy va ta'lim-tarbiyaviy ishlar asosida to'plangan materiallar:

- jamlangan yig'ma jild;
- innovatsion ish ko'rinishlariga oid ko'rgazma;
- jihozlar, tarqatma materiallar;
- o'quv yili davomida o'tkazilgan ko'rik-tanlov;
- ko'rgazma, tadbirlardan to'plangan materiallar, fotosuratlar.

**Axborot - kommunikativ texnologiyalar:**

- Televizor;
- DVD;
- Kompyuter;
- Multimedia;
- Smartstol;
- Interaktiv doska;
- Planshet;
- O'yin va o'yinchoqlar;
- Mebel;
- Markazlar uchun jihozlar;

- Musiqa, o‘yin va sport maydonchalari uchun jihozlar va boshqalar.

**Yuqorida ko‘rsatilgan barcha vazifalarni uslubchi tomonidan amalga oshirishida asosiy o‘rinni egallaydi.**

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunining 39 - moddasida “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari” belgilab berilgan bo‘lib, uslubchi ham bevosita ana shu talablarga so‘zsiz amal qiladi. Bajarilishini nazorat qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

- kasbiy sha’ni, qadr - qimmatini va ishchanlik obrusini himoya qilish;
- ijodiy tashabbus ko‘rsatish, ta’lim va tarbiya uslubiyotlarini, o‘quv qo‘llanmalarini hamda ta’lim vositalarini erkin tanlash;
- maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarishda ishtirok egish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma’naviy va moddiy rag‘batlantirilish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlarini o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan ish turlariga jalb etishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

- bolalarga yuqori darajada ta’lim va tarbiya berishi;
- pedagogik etikaga rioya etishi;
- bolaning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishi;
- bolalarni zo‘ravonlik ko‘rinishlaridan himoya qilishi;

- ularni vatanparvarlik, mehnatga, qonuniy vakillariga xurmat bilan va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalashi;
- maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim dasturini bajarishi;
- o‘z malakasini oshirishi;
- o‘z kasbiy ko‘nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining pedagog xodimlari zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Ta’lim - tarbiya jarayonidan siyosiy maqsadlarda yoki bolalarni qonun hujjatlariga zid bo‘lgan harakatlarni sodir etishga undash uchun foydalanish taqiqlanadi.

**MAKTABGACHA TA’LIM  
TASHKILOTLARI  
TARBIYACHI-  
METODISTINING LAVOZIM  
MALAKA TAVSIFLARI**

Maktabgacha ta’lim vazirligining 2020 yil 26-oktabrdagi “Maktabgacha ta’lim xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘grisida”gi

173-sonli buyrug‘iga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlarining barcha xodimlari va shu jumladan uslubchining malaka tavsiflari quyidagicha qilib belgilandi.

**Maktabgacha ta’lim tashkiloti uslubchisining lavozim vazifalari quyidagilardan iborat:**

- Maktabgacha ta’lim tashkilotining faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish;
- Maktabgacha ta’lim tashkiloti metodisti o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining Farmon, Qaror va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda ta’limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning hududiy boshqaruv organlari, buysunuviga qarab Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi,

Toshkent shahar va viloyatlar hokimlarining qarorlari, buyruqlari, tadbirlari va boshqa hujjatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to'liq bajarilishini ta'minlash;

- maktabgacha ta'lim sohasiga oid normativ - hujjatlarni amaliyotga to'laqonli tatbiq etish;
- tashkilotning o'quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish;
- bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy - estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim - tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish;
- tashkilotning yillik va istiqbol ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish;
- tashkilot pedagog xodimlarining ish rejalari, o'quv-mavzu rejalari hamda mashg'ulotlarga tayyorgarlik holatlarini ko'rish;
- tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma'lumotlarni umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko'ra aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;
- ta'lim - tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni maktabgacha ta'limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unda pedagogik kengash a'zolarining faol ishtirokini ta'minlash, kiritilgan masalalarni chuqur o'rganish, natijalari bo'yicha sifatli, tahliliy, tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash, qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta'minlash;
- tashkilotning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarini tegishliligi bo'yicha sifatli va samarali o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, pedagogik jamoaga ta'limdagi yangiliklarni yetkazish bo'yicha nazariy, amaliy seminar mashg'ulotlarini tashkil etish;
- tashkilotdagi guruh, xonalarini bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash

yuzasidan tegishli maslahatlar berish;

- ta'lim - tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora - tadbirlarni amalga oshirish;
- tashkilotda ta'lim - tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarning to'laqonli bajarilishini nazorat qilish;
- axborot va pedagogik texnologiyalarni, jumladan masofaviy o'qitish usullarini tashkil etish ishlarini qo'llash va takomillashtirishni ta'minlash;
- tashkilot pedagog xodimlari o'rtasida sog'lom raqobatli muhitni yaratish maqsadida ko'rik-tanlovlar, tadbirlar, sport musobaqalari, o'quv va amaliy seminarlar tashkil etish va o'tkazish;
- tarbiyalanuvchilar va ota-onalarni qiziqishini orttirish uchun turli sport musobaqalari, bayram ertaliklari, ochik mashg'ulotlar, ko'urik-tanlovlar o'tkazilishini tashkil etish;
- tashkilot xodimlariga vakolati doirasida topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy mahorati va metodik salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;
- tashkilot pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini nazorat qilish, o'z vakolati doirasida eng faollarini rag'batlantirish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda takliflar kiritish;
- tashkilotni o'quv-didaktik, metodik va ko'rgazmali materiallar, o'yin, o'yinchoklar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

➤ tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash.

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi bilishi lozim:**

➤ maktabgacha ta'lim tizimiga oid normativ-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun - mohiyatini;

➤ maktabgacha ta'limning davlat ta'lim talablari, ta'lim - tarbiya reja va o'quv dasturlarining mazmunini;

➤ zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalana olishni;

➤ maktabgacha ta'lim pedagogikasi, psixologiyasi va maktabgacha yoshdagi bolalar fiziologiyasini;

➤ bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi va "Ilm yo'li" variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tatbiq etish va uzluksiz takomillashtirib borish yo'llarini;

➤ jamoa shartnomasida belgilangan talablarga qat'iy rioya etish hamda jamoada sog'lom raqobatli ma'naviy-muhitni shakllantirish, ahillik va inoqlikni mustahkamlash orqali faoliyat yuritishni;

➤ O'zbekiston Respublikasining sanitariya - gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishni.

**Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining malaka talablari:**

➤ maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy pedagogik ma'lumot (nomutaxassis oliy ma'lumotlilar maktabgacha ta'lim yo'nalishidagi kasbiy qayta tayyorlov kursini tamomlagan);

➤ xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilishi;

➤ ikki yildan kam bo'lmagan pedagogik ish staji.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTI DIREKTORI  
TASHKILOTCHI,  
MA'MURIYATCHI,  
YUQORI MALAKALI  
PEDAGOG VA UNGA  
OO'YILGAN TALABLAR**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti murakkab tarmoq bo'lib, rahbarning undagi roli, faoliyati ko'p qirralidir. Rahbar – maktabgacha ta'lim tashkilotining tashkilotchisi, rahbari, malakali pedagog, uning faoliyati

maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni komil inson qilib tarbiyalash vazifalarini to'laonli hal etishga qaratilgan. U bolalar muassasalaridagi ta'lim - tarbiyaviy, pedagogik va gigiyenik talablarga muvofiq ravishda amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. O'z jamoasida ishchanlik, maqsadga qaratilgan inoqlik vaziyatini yaratadi. Ularga umumiy rahbarlik qiladi. Rahbar o'z ishida davlatimiz va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan qabul qilingan qaror, qonunlarga amal qiladi va o'z ustida ijodiy ravishda ishlashni amalga oshiradi. Yuksak onglilik va siyosiy yetuklik, prinsiplilik, o'ziga va qo'l ostidagilarga talabchanlik – bu rahbarga qo'yiladigan asosiy talablardir.

Jamoadagi to'g'ri, o'zaro munosabatlar har bir xodimning mehnat va ishlab chiqarish intizomligiga rioya qilishni ta'minlaydi.

Rahbarlik mavqei rahbar o'z g'oyaviy, ma'naviy - ma'rifiy, siyosiy, huquqiy saviyasini va mintaqaviylik mahoratini doimo ongli ravishda pedagogik bilimlarni bolalarga ta'lim - tarbiya berish nazariyasi va amaliyotini puxta egallashga, hozirgi bosqichda maktabgacha ta'lim oldida to'rgan vazifalarni bilishga, o'z bilimlaridan amaliy faoliyatiga foydalanishga majbur etadi. U dastur, metodik instruktiv, normativ hujjatlarni yaxshi bilishi va unga amal qilishi kerak. U pedagogik jarayonning mohiyatini chuqur bilib, yetuk va kamchiliklarini darhol bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish bugungi kunda direktor tomonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini ishga qabul qilish qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Direktor bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatda tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunining 9-bobi "Maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi" deb nomlanib, ana shu bobning 48-moddasida davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarish Pedagogik kengash, Kuzatuv kengashi va davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan amalga oshirilishi, nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish tartibi esa uning mu'asisi hujjatlari asosida belgilanishi ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga kelishib olishga kiritish uchun tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarini belgilaydi, shuningdek uni egallab turgan lavozimidan ozod etish yuzasidan takliflar kiritadi.

Ushbu Qonunning 51 - moddasida esa davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining rahbari - direktor hisoblanib, u tashkilotning faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshirishi va davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining huquq va majburiyatlari me'yoriy - huquqiy hujjatlar, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ustavi, shuningdek mehnat shartnomasi bilan amalga oshirilishi belgilangan.

Mamlakatimizda erkin va mustaqil fikrlovchi, jamiyat hayotida ongli ravishda faol ishtirok etadigan barkamol shaxsni shakllantirish zamon bilan hamnafas, har tomonlama rivojlangan mutaxassislarni tizimini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Hozirgi kunda rahbar salohiyatini oshirish ularda boshqaruvchanlik, tashkilotchilik kabi zaruriy sifatlarni tarkib toptirish, ularni zamon talablariga mos ravishda shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda milliy merosimiz bo'lgan mutafakkirlarmiz asarlaridan foydalanish samarali natija beradi.

**SHARQ  
MUTAFAKKIRLARINING  
RAHBARLIK FAOLIYATI  
HAQIDAGI QARASHLARI**

Biz mutafakkirlarimiz asarlarida rahbarlik faoliyatida boshqaruvchilik va tashkilotchilik qobiliyatlarini bayon etilgan fikrlarni ko‘rib chiqamiz. Bu xususiyatlar shaxsning individual qobiliyatlari hisoblanib, mutafakkirlarimiz, psixolog olimlarimiz asarlarida keng yoritilgan bo‘lib, ba‘zi manbaalarda “tashkilotchilik”, “boshqaruvchilik” atamasi bilan izohlangan.

Mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Farobiy o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida aholining ma’naviy va psixologik jihatdan boshqarishda shahar aholisining stratometrik (aholi qatlamlarni jinsi, yoshi, siyosiy imtiyozlari, ma’lumot, daromad darajasi va boshqalar) xususiyatlariga ko‘ra tabaqalanish va jamiyat a‘zolari o‘zlarini boshqarishlari jamiyat boshqaruvining umumiy talablariga mos kelishi lozim deydi. Shu o‘rinda rahbar shaxsi haqida ham to‘xtalib, jamiyatni boshqaruvchi rahbar esa doimo odil, oqil bo‘lishi lozimligini va insonlarning yaxshi hayot kechirishi rahbar shaxsi boshqaruviga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Olimning fikricha, rahbar boshqalarni baxt - saodatga erishtirishlari uchun zarur bo‘lgan ish-harakatga boshlab, ruhlantira olmasa va bu ish uning qo‘lidan kelmasa, buni bajara olishga kuch-quvvati yetmasa, bunday odam sira ham boshqaruvchi bo‘la olmaydi. Rahbar boshqaruv faoliyatini yo‘l - yo‘riqlarini o‘zidan ilgari yashab o‘tgan boshliqlardan o‘rganadi, lekin o‘tmishdagi rasm - rusumlarni isloh qilmoqchi bo‘lsa, turmush taqozosiga qarab o‘zgartirsin, chunki boshqaruvda o‘tmish talablari saqlanib qolsa, turmushda hech qanday yengillik, yangilik, o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi. Farobiyning bu fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, rahbar shaxsi o‘zini yomon odatlardan xalos qilgan holda yaxshi va adolatli tashkilotchi, boshqaruvchi bo‘lmog‘i kerak deydi. Boshqaruvchi, yetakchi u qaysi zamonda, qaysi tashkilotni boshqarishidan qa‘tiy nazar o‘z ortidan boshqalarni ergashtirib, jipslashtirmog‘i va ijobiy faoliyatga boshlamog‘i, ruhlantirmog‘i muhim ahamiyatga egadir.

O'rta Osiyoning yana bir donishmandi Abu Rayhon Beruniy ham o'zining "Hindiston" asarida boshqaruv haqida fikr bildirib, boshqaruvchi tabiati (bu yerda xarakter xislati nazarda tutilgan) boshqarish va siyosat ishlariga qiziquvchi, haqiqatgo'y, fikr va maqsadda qat'iy, mamlakatni boshqarish uchun qanday qabul qilib olgan bo'lsa, davlatni keyingi avlodlarga bekamu - ko'st qoldirib, ota - bobolari tomonidan qabul qilingan har bir qarorga qarshi bo'lmasdan uni rivojlantirgan holda shunday qarorlar qabul qilishi kerakki, bu buyruqlarga uzoq zamonlar o'tsada, keyingi avlod vakillari ham bo'ysunishlari lozim. Uning fikricha tabiatan boshqaruvga moyil bo'lgan boshqaruvchi o'z fikri va qarashlarida qat'iy bo'lishi, o'z ishlarini amalga oshirishda donishmandlar tomonidan bildirilgan fikr - mulohazalarga tayanmog'i maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshqaruvda rahbarning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik va adolat o'rnatishdan iboratdir. Ushbu asarda olimimiz boshqaruvchining shaxsiy xislatlariga ham to'xtalib, ziyrak, o'z xatolarini anlay olishi, boshqaruv jarayonida tirishqoq bo'lishi, mehnatidan zerikmasligi, o'z - o'zini nazorat qilib, qilgan ishlarini tahlil qilib borishi kerak deydi.

Bu fikrlar bugungi kunda ham boshqaruv faoliyatida o'z ahamiyatini yo'qotmay boshqaruv va rahbarlik psixologiyasida asosiy manba sifatida qo'llaniladi.

Atoqli shoir va davlat arbobi Jaloliddin Davoniyning "Ahloqi Jaloliy" asarining 3 - qismida "Shahar", "Davlatni boshqarish", "Podshohlar siyosati" haqida so'z yuritiladi. Davoniy boshqaruvchilik xususiyatlarini tahlil qilar ekan, boshqaruvchi shaxsni yoshlikdan boshlab tarbiyalash kerakligi va ularda quyidagi xislatlar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi:

✓ **Zukkolik – zehn o'tkirligi** – bu har bir masalani tezda hal qila olish, ilg'ab olish va malaka hosil qilish, harakatli bo'lishni talab etadi.

- ✓ **Fahmlilik** – fikrni har xil narsalarga jalb qilmasdan, zarur masalalarga tez qarata bilish qobiliyati, ya'ni murakkab va chigal masalalar ichidan eng muhimini tanlay olish malakasini hosil qilish talab etiladi.
- ✓ **Zehn ravshanligi** – bir masalani hech qanday qiyinchiliklarsiz, oson yo'l bilan hal qilish iste'dodi.
- ✓ **Bilimni tez egallay olishlik** – diqqat e'tiborni ma'lum masalaga qaratib, tezda uni o'zlashtira olish.

Davoniy boshqaruvchini xushmuomalalikka chorlab, u o'z qobiliyatlarini doimo o'stirib, rivojlantirib borishi kerakligini uqtiradi.

O'zbek tilining asoschisi Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida jamiyatni adolat bilan boshqarish uchun shaxsda mavjud bo'lishi lozim bo'lgan sifatlar majmuini Iskandar obrazi orqali bayon etilgan: "Dili, niyati pok, xayr va saxovatli, kamtarin va muloyim shaxs, dono podshoh va dunyo sirlarini bilishga qiziquvchi aql - zakovat egasi rahbar bo'lishi kerak. Boshqaruvchi bo'lishda manmanlik, o'zini boshqalardan ustun qo'yish, o'zgalarni isand qilmaslik, avom xalq bilan birga bo'lolmaslik xislatlari uning nuqsonlaridir", - deydi.

Boshqaruv haqida fikr yuritganda Temur bobomiz faoliyatiga to'xtalib o'tmaslikni iloji yo'q. Boshqaruv faoliyatida avvalo u kishining davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik ishlari, ilm - fan, san'at va me'morchilikka oid ishlari, dinu - diyonat va adolatni joyiga qo'yish, saltanat ishlarini kengash va tadbir, qonun-qoida asosida amalga oshirganliklarini alohida ta'kidlab o'tmish lozim. Shuning uchun ham o'zining beqiyos azmu - shijoati, mardlik va jasorati bilan Movarounnahr zaminida mo'g'il zulmiga barham berib, xalqimizni qaramlikdan xalos etgan, tarqoq va yo'qolib ketayotgan xalqni birlashtirib, mustaqil va qudratli davlatga asos solgan bu ulug' siymoning bildirgan fikrlari, bajargan amallari o'z davri, nafaqat bugungi kun balki, biz o'ylaymizki kelgusi avlodimiz uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Sohibqiron katta bir saltanatning asoschisi, rahbari sifatida boshqarish masalalariga oid kuchli tamoyillarni yaratgan. Bu tamoyillarni

yaratish uchun juda inson katta tajribaga, kuchli bilimga ega bo'lib, tadbirkor, mard va tashabbuskor bo'lmog'i zarur. Bu sifatlar esa albatta boshqaruvchiga xosdir.

Sarkardada boshqaruvchanlik qobiliyati borligini uning yoshlik yillaridan ham ma'lum bo'lgan. U atrofiga sadoqatli odamlarni to'play olgan va ularni boshqarish qobiliyatiga ega bo'lgan. O'n to'qqiz yoshida Amir Yaxmak oldiga ish so'rab borganida uni devonxona ishlarini boshqarishga yoshlik qilishi, lekin qo'shinni ishonish mumkinligini aytib, qo'shinni topshirganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Qo'l ostidagi aholi orasidan jang qilishga layoqatli, kuchli, irodali erkaklardan iborat yuz ming kishilik qo'shin to'play oladi. Janglarda xuddi oddiy askar kabi safda turib o'zi bosh qilgan. Dunyoning biror bir mamlakatida Temur bobomiz qo'shinida joriy etilgan tartib intizom yo'q bo'lgan.

Amir Temur davlatni boshqarishda amal qilgan 12 ta qoida bugungi kun rahbar, boshqaruvchilari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan:

- 1) O'z fikriga ega bo'lish;
- 2) Adolatlilik;
- 3) Qat'iylik;
- 4) Qaror va har qanday ishni qilishga ahd qildimi, to bitirmaguncha undan qo'l tortmaslik; tizimlilik, izchillik;
- 5) Hushyorlik;
- 6) Muomalali bo'lish;
- 7) Shoshmaslik, mulohaza bilan ish yuritish;
- 8) Boshqalarni (xalqni) o'z ortidan ergashtira olish;
- 9) Mustaqil bo'lmoqlik;
- 10) O'z hatti - harakati bilan o'rnak bo'lish;
- 11) Saltanatga hech kimni sherik qilmaslik;
- 12) Majlislarda ohog va hushyor bo'lmoqlik.

Amir Temur saltanatni adolat va insof bilan boshqargan. Uning “Temur tuziklari” asarida shunday deyildan: “Tangrimni yaratgan bandalarini o‘zimdanda rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm - shavqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Zolimdan mazlumning haqqini oldim. Zolim yetkazgan moddiy va jismoniy zararni isbotlaganimdan keyin, shariat talablariga binoan ikkalasi o‘rtasida muhokama qildim va bir gunohkorning o‘rniga boshqasiga jabr - zulm yetkazmadim”. Xalqni ahvolidan boxabar bolib, yoshi ulug‘larni og‘a, kichiklarni esa farzand o‘rnida ko‘rgan. Barcha mamlakat aholisini kayfiyati, turush - turmushi, qiladigan ishlaridan xabardor bo‘lish uchun diyonatli insonlarni tayinlagan. Turli millat va turli qabila ulug‘lariga hurmat ko‘rsatib, yaxshiliklariga yaxshilik qilgan, kimki do‘stlik qilsa qadrlagan, kimki xizmatini qilsa, uning xizmat haqqini ado etgan, agarda dushmanlik qilsa-yu, keyin pushaymon bo‘lib, huzuriga kelsa dushmanligini unutib, muruvvat va do‘stlik ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham o‘z tajribasidan kelib chiqib, rahbar shaxslarni quyidagi toifalarga bo‘ladi:

1. Birinchi toifa - amal kursisini yaxshi ko‘ruvchilar, ularni zamona shamoliga qarab turuvchilar deb atash mumkin.
2. Ikkinchi toifa - kuzatib turuvchilar. Bundaylar kim g‘olib bo‘lsa, shu tomonga og‘adilar.
3. Uchinchi toifa - zamon talablarini anglab yetgan kishilar. Afsuski, bundaylar oz, deya rahbarlik faoliyatini talqin etib, “Rahbarlik - lavozim, mansab emas, avvalo, odamlarga xizmat qilish. Rahbar degani hammadan ko‘proq ishlab, fuqarolar saodati va yurti ravnaqi uchun yelib yuguradigan fidoyi inson bo‘lishi kerak”, - degan fikrlarni bildirgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev “Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari”ga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan

majlisidagi ma'ruzasida: "Endi har birimiz, eng avvalo, davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining vazifasi – o'zimiz mas'ul bo'lgan soha va tarmoqda ishlarning ahvolini tanqidiy baholash asosida zimmamizga yuklatilgan vazifalarni mas'uliyat bilan bajarishni ta'minlashdan iborat. Shunday davr keldi", deya bejiz ta'kidlamagan.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTI  
RAHBARLARINING  
KASBIY  
KOMPETENTLIGI**

**Kompetentlik** - deganda ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qobiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlar nazarda tutiladi. Demak, kompetensiya va kompetentlik tushunchalari

bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarini o'z ichiga oladi.

**Rahbarning kompetentligi** - bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetensiyasining shakllanishi besh bosqichdan iborat bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

**Rahbar kompetensiyasining shakllanish bosqichlari:**

- Qobiliyatni aniqlash;
- Tarbiyalash va shakllantirish;
- Chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
- Ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
- Rahbarlik cho'qqisi.

Zamonaviy rahbar kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- Rejalashtirish;
- Tashkillashtirish;

- Tahlil qilish;
- Asoslash (motivatsiya);
- Nazorat qilish.

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, shuni qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, ushbu muhim vazifalar o'rtasida mutanosiblik va uyg'unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot yakdilligini ta'minlashdir.

**Rejalashtirish** vazifasi birinchi navbatda rahbar o'z tashkilotining maqsadi, vazifalari, amalga oshirish jarayoni, faoliyat natijalarini aniqlashi va belgilashi zarur. **Tashkillashtirish** belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqtni hisobini aniq belgilab olishi, ya'ni tashkilot turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir. Rahbar ado etishi zarur bo'lgan ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to'liq **tahlil qilishi** maqsadga muvofiq. Bu olib borilayotgan ish va mahsulot natijalaridagi ba'zi holatlarning kamchiligini joyida tushunib borishga imkon yaratadi. Rahbar strategik maqsadlarni ko'zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga **asosli dalillar** ham zarur. Shu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o'zaro qiyosiy tahlillarga ega bo'lishi kerak. Boshqaruvdagi **nazorat qilish** vazifasi ta'lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud Qonun va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan talablar asosida kechishini ta'minlaydi.

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga mehnat jarayonida kompetenlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Ta'lim muassasasi rahbarining kompetentligi bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi. Ularni quyidagilardan iboratdir:

- **Standart kompetensiya** – ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati;
- **Asosiy kompetensiya** – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati;
- **Yetakchi kompetensiya** – kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati.



### **Rahbar bilishi zarur bo'lgan masalalar:**

- **Pedagogik kvalimetriya** – bu ta'lim tizimi xodimlarini kasbiy va pedagogik mahorati sifati, novatorligi darajasini aniklashga yo'naltirilgan tadqiqot sohasini.
- **Pedagogik deontologiya** – pedagogning kasbiy odob – axloqi haqidagi fan.
- **Andragogika** – kattalarni o'qitish san'ati va ilmi.
- **Rahbarlik nazokatining tarkibiy qismlari:** ixtisoslik sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisoslikka doir vijdon, izzat nafs, pedagogik oriyat va boshqalar.
- **Rahbar faoliyatida muloqot odobiga qo'yiladigan talablar** – do'stlik, xizmatdagi moslik, chiqishib hamjixat bo'lib ishlash, maslakdoshlik, mayinlik, iltifotlilik, samiyimiylik va boshqalar.

Rahbarning o'zini boshqara olish bilan bog'liq ko'nikmasi, shaxs va jamoaga ta'sir ko'rsatish ko'nikmalari pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari demakdir.

- **Kasbiy refleksiya** – o'z - o'zini anglashi, o'zini - o'zi boshqarish va o'z-o'zini bilish demakdir.
- **Rahbarning mahorati** – ishga bo'lgan fidoiylik, bilim va tajribalarning birikmasi bo'lib, rahbar faoliyatining eng yuqori cho'qqisidir, chunki u o'ziga ajratilgan juda qisqa vaqt ichida eng yuqori mukammal natijaga erishadi.
- **Muloqot odobi, nutq texnikasi** – rahbarning muloqot madaniyati me'yorlari, kommunikativ faoliyatni nutq texnikasi qoidalari asosida amalga oshirish jarayonidir.

Rahbarning yakka shaxs va jamoaga ta'sir etish bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi (didaktik ko'nikma, tashkilotchilik ko'nikmasi, konstruktiv va kommunikativ ko'nikmasi, pedagogik munosabatni boshqarish, jamoaning ijodiy ishini tashkil etish).

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisi qanday huquq va vazifalarga ega?
2. Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi qay hollarda namoyon bo'ladi?
3. Uslubchining ish hujjatlari qaysi indeks raqam bilan raqamlangan?
4. Pedagoglar uchun maslahatlar soati kim tomonidan tashkil etiladi?
5. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi - metodistining lavozim malaka tavsiflari?
6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining asosiy vazifalari qaysilar?
7. Sharq mutafakkirlarining rahbar va uning boshqaruvi haqidagi qarshlari haqida gapiring.
8. Zamonaviy rahbar kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o'ziga xos vazifalariga nimalar kiradi?
9. Rahbar bilishi zarur bo'lgan masalalar qaysilar?

**Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining Pedagogik Kengashdagi faoliyatini to'liq o'rganing.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINI NAZORAT QILISH VA  
TA'LIM-TARBIYA ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH**

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan sifatli ta'lim va tarbiya jarayoni – bu davlatimiz ravnaqining boshlanish nuqtasi. Zero, maktabgacha ta'lim bu ta'limning ilk qadami, ta'lim esa taraqqiyot asosidir.*

*Gulnoz Ermatova*



### **REJA:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishning maqsad va vazifalari.
2. Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishga vakolatli davlat organlari.
3. Maktabgacha ta'lim tashkilotini nazorat qilishning asosiy maqsad va vazifalari.
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish.

*Tayanch tushunchalar: nazorat qilish, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishning maqsadi, maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishning vazifalari, tekshirish shakllari: rejali tekshirish, rejadan tashqari tekshirish, nazorat tartibida tekshirish, nazorat qilish, ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish.*

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTI  
FAOLIYATINI  
TEKSHIRISHNING  
MAQSAD VA  
VAZIFALARI**

Nazorat qilish – deganda – Davlat nazorati, maktabgacha ta'lim vazirligi, maktabgacha ta'lim boshqarmalari va maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlikning tekshirish shakliga aytiladi.

Bu – mamlakatimizda qabul qilingan qarorlar, farmon - farmoyishlarini, hukumatning ko'rsatma, yo'l – yo'riqlarini, “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun asoslarini bajarilishini, maktabgacha ta'limi vazirligi yoki tashkilotlar tomonidan, maktabgacha ta'lim

ahvolini tekshirish, shuningdek, maktabgacha ta'lim bilan bog'liq bo'lgan ariza, shikoyat, iltimoslarni tekshirishdir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishning maqsadi maktabgacha ta'lim bo'yicha yagona davlat siyosatini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sifatli ta'lim - tarbiya berilishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ijro intizomini mustahkamlash, pedagoglar va boshqa xodimlarning kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvga chek qo'yish, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan ta'lim - tarbiya sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini tekshirishning vazifalari hisoblanadi:

- ✚ maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim - tarbiya jarayonining sifatini, pedashglarning bilim darajasini va pedagogik mahoratini oshirishga ko'maklashish;

- ✚ qonun hujjatlari buzilishi holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish buyicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

- ✚ amaldagi normativ-xuquqiy hujjatlar ijrosi o'z vaqtida va sifatli ta'minlanishini tashkil etish;

- ✚ maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatida kam samarali taftishlarni qisqartirish bilan bir vaqtda to'laqonli tekshirishlar samaradorligini oshirish;

- ✚ maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatidagi ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash, ta'lim - tarbiya jarayoni ustidan samarali davlat nazoratini o'rnatish;

✚ maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini taminlash;

✚ davlat organlari va tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati bilan bog'lik vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini aniq belgilash va tartibga solish.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTI  
FAOLIYATINI  
TEKSHIRISHGA  
VAKOLATLI  
DAVLAT  
ORGANLARI**

Maktabgacha ta'lim tashkilotida:

✚ tarbiyalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash masalalari bo'yicha tekshirish – O'zbekistan Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning voyaga etmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linmalari tomonidan;

✚ yong'inlarning oldini olish hamda ularni uchirishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va ilmiy-texnik chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish – O'zbekistan Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yongin xavfsizligi xizmati va uning hududiy bo'linmalari tomonidan;

✚ aholining sanitariya - epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qilinishini o'rganish, sanitariya - gigiyena tadbirlarini va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish, pedagog xodimlar va tarbiyalanuvchilarning sanitariya madaniyati darajasini oshirish. Davlat sanitariya nazoratini amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish – O'zbekistan Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati respublika markazi va hududiy davlat sanitariya - epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan;

✚ Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini o'rganish, xodimning hayoti va sog'lig'i ustuvorligini ta'minlash, mehnatni

muhofaza qilishga oid talablarga rioya etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda uning hududiy bandlikka ko'maklashish va aholini ish bilan ta'minlash markazlari tomonidan;

✚ Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini o'rganish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish va zararini kamaytirish yuzasidan choralarni amalga oshirish, favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish masalalari bo'yicha tekshirish - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan;

✚ Yer, yer osti boyliklari, suv, daraxtlar va usimlik dunyosini muxofaza qilish hamda ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratini o'rnatish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish borasida yagoia siyosatni amalga oshirish, chiqindilar bilan bog'lik ishlarni amalga oshirish, pedagoglar va tarbiyalanuvchilarning ekologik madaniyatini oshirish masalalari bo'yicha tekshirish – O'zbekiston Respublikasi ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi va uning tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatini tekshirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- rejali tekshirish;
- rejadan tashqari tekshirish;
- nazorat tartibida tekshirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida rejali tekshirishlarni o'tkazish tekshirishga vakolatli organlar bilan tegishliligi bo'yicha tizimida maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lgan vazirliklar va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo'linmalari

tomonidan qo‘shma tasdiqlanadigan tekshirishlarning yillik reja-jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

Tekshirishga vakolatli organlar yoki ularning hududiy bo‘linmalari tomonidan tekshirish rejalashtirilayotgan yildan oldingi yilning 1 dekabrighacha bo‘lgan muddatda maktabgacha ta‘lim tashkilotini yillik tekshirishlarning reja - jadvali loyihasi maktabgacha ta‘lim tashkiloti tizimida maktabgacha ta‘lim tashkiloti bo‘lgan vazirliklar va tashkilotlarining hududiy bo‘linmalari tomonidan har yili 15 dekabrga qadar tasdiqlanadi. Tasdiqlangan yillik reja - jadvallarning nusxalari tegishliligi bo‘yicha maktabgacha ta‘lim tashkilotiga har yili 25 dekabrga qadar yetkazib beriladi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nazorat qilish ishlarini amalga oshirish, bu – O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-dekabrda 802-sonli qaroriga asosan ishlab chiqilgan “Maktabgacha ta‘lim va tarbiyaning Davlat standarti”, Maktabgacha ta‘lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli buyrug‘iga asosan, “Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari”, “Maktabgacha ta‘lim tashkiloti Ustavi” hamda “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risida”gi tegishli hujjatlar bajarilishini nazorat qilinishi hisoblanadi.

Bu - har bir maktabgacha ta‘lim tashkiloti ishidagi kamchiliklarni yo‘qotish choralarini ko‘ruvchi, pedagogik, ta‘lim – tarbiyaviy, pedagogik ish sifatini o‘stirishda aniq - amaliy yordam ko‘rsatuvchi tekshirish shaklidir.

Tekshirish – nazorat qilishning metodologik asosini – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”sida ko‘rsatib berilgan ilmiy jihatdan asoslangan g‘oyalarni egallaydi.

**MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTINI NAZORAT  
QILISHNING ASOSIY MAQSAD  
VA VAZIFALARI**

Nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va uni nazorat qiluvchi organlar prinsiplariga asoslanadi.

Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshira borib, Maktabgacha ta'lim bo'limlarida nazorat ishlarini amalga oshirishda asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi.

Nazorat qilishda qonun ustunligi shuni anglatadiki, bunda barcha joriy qonunlar va me'yoriy – huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va unga muvofiq bo'lishi talab etiladi. Ulug' bobokalonimiz Amir Temur aytganidek: “Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi”.

Maktabgacha ta'lim bo'limlarida nazorat amalga oshiradi.

**Inspektor** – ya'ni tekshiruvchi - bu ma'lum sohaga tegishli qonun - qoidalarning to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi shaxs hisoblanadi.

**Nazorat qilishda** – boshqarishni obdon puxta uylangan tizimini ishlab chiqish, o'tmishni ma'suliyat bilan tahlil etish – kelajak yo'lini talab borishini, o'tkir muammolarni tortinchoqlik bilan emas, balki royrost ochib tashlash kerakli uqtiriladi.

Belgilangan vazifalar to'g'ri o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida bo'limlar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat qilishning ahamiyati beqiyosdir.

**Nazoratchilarning asosiy maqsadi** – “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonun asoslarida, maktabgacha tarbiya ishlarini takomillashtirish, ilmiy fanlar yutuqlariga suyangan holda, zamon talablari darajasidagi – maktabgacha tarbiya tizimini tashkil etishdir.

**Nazorat qilishning asosiy vazifalari quyidagicha:**

- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda eng yaxshi shakllarini aniqlash va amaliyotga tadbiq etish;
- Maktabgacha tarbiyani boshqarish darajasini o'stirish;



- Maktabgacha tarbiya dasturi talabalarni amalga oshirish asosida maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishni davlat nazoratidan o'tkazish;
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishini maqsadga muvofiq tekshirish;
- Ularning ishidagi kamchiliklarni yo'qotish choralarini topish va ularga amaliy yordam berish;
- Ishdagi ijobiy tomonlarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish, rag'batlantirish;
- Rahbarning xodimlar bilan ishlash malakalarini o'stirish o'sishdan nazorat ishlarini tashkil etish;
- Maktabgacha ta'lim xodimlariga ta'lim – tarbiya ishini yanada rivojlantirishda metodik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Maktabgacha ta'limi vazirligining Maktabgacha ta'lim boshqarmasi o'z qaramogidagi viloyat va ularning joylaridagi bo'limlarini, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini nazorat qilish huquqiga egadir.

Maktabgacha ta'limi bo'limlari va MTTlari nazorat qilish ilmiylik, hayot bilan bog'liq prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Aniqlangan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish hamda uning bajarilishini doimo tekshirib turish bilan yakunlanadi.

#### **Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muhim talabalaridan:**

- ✚ Tekshirishning rejali bo'lishi va tizimliliigi.
- ✚ Ish ahvolini analiz qilishning - har tomonlama va ilmiy – pedagogik chuqurliligi;
- ✚ Ishlarga baho berishning ob'ektivligi; va xulosalarning isbotlanganligi;
- ✚ Tekshirishni o'z vaqtida boshlash va tugatish;
- ✚ Takliflarning bajarilishini nazorat;
- ✚ Nazoratning yordam berish bilan qo'shib olib borilishi;
- ✚ Har qaysi masalaga alohida yondashish. (farq qilmoq).
- ✚ Talabchanlik bilan pedagogik takti qo'shib olib borish.

Tekshiruvchi shaxs shuni unutmasligi kerakki:

tekshiruvchi – nazoratchiman deb magʻurmasligi,

tekshiruvchi – rahbar xodimlarga qoʻpol, qattiqqoʻl muomalada boʻlib, uning shaxsiyatiga tegmasligi;

tekshirish natijada topilgan kamchiliklarni, hamkorlik prinsipida hal etish;

eng muhimi, mehnat jamoalarida ish olib boradigan nazoratchilarining keng tarmogʻiga tayanadigan bunday nazorat tizimi jamiyatining salbiy hodisalaridan musaffo qiladigan chinakam qudratli kuch boʻlishini taʼminlaydi.

Nazorat qilishni tizimli oʻtkazish uchun (mavsumiy, doimiy yoki tashkilotlarga qarashli boʻlgan) maktabgacha taʼlim tashkilotlari uchun tekshiruvchi – nazoratchi tomonidan 5 yilga moʻljallangan istiqbol reja tuzilib, shahar yoki tuman maktabgacha taʼlimi boʻlimi boshligʻi tomonidan tasdiqlanadi. Bunda tekshirish muddati aniq koʻrsatiladi.

Asosan, nazorat qilishda turli shundagi, maxsus ahamiyatga molik boʻlgan muassasalar (aqliy jihatdan, jismoniy jihatdan zaif, kamchiligi boʻlgan, nutqida kamchiligi), (logopedik), sanatoriya ishidagi maktabgacha tarbiya muassasalarini tekshirilib, nazorat qilish maqsadi shu turiga qarab belgilanadi.

Nazorat qilish muddati: muassasadagi guruhlarining soniga qarab, tekshirish turiga qarab esa 10 kundan oshmasligi kerak. Shahar, tuman maktabgacha taʼlim boʻlimlarini nazorat qilish 5 yilda bir marta oʻtkaziladi. Nazorat qilish ishiga eng ilgʻor tajribali, oʻz ishini ustasi boʻlgan maktabgacha taʼlim sohasi xodimlaridan iborat boʻlgan jamoa tuzilib, bunda mudiralar, katta – tarbiyachilar, tarbiyachilar, tibbiyot shifokorlari, metodik kabinet xodimlari, malaka oshirish instituti xodimlari va hududda joylashgan oliygohning maktabgacha taʼlim kafedralarining yetakchi professor-oʻqituvchilari jamoasidan nazoratchilardan tashkil topadi. Nazorat qilishning jamoasi – tarkibini, uning rejasini, muddatini tegishli maktabgacha taʼlim boʻlimlari tomonidan tasdiqlanadi.

**Nazorat qilishga nazoratchining tayyorgarligi:**

- 1) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tekshirish oldidan tekshiriladigan tashkilotlari maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan belgilanadi, "Ruxsatnoma" xati olinadi.
- 2) Tekshirish shahar, hokimiyat – shahar hokimiyatlari tomonidan bo'lsa, tekshirish uchun "Eslatma – savolnomalar" tuziladi va shu asosida muassasa ishi tekshiriladi.
- 3) Tekshirilishi lozim bo'lgan tashkilot haqida bo'limlardan ma'lumot olish; uning butun faoliyatini aks ettiruvchi hujjatlar bilan tanishiladi.
- 4) Tekshirish rejasi tuzilib, tekshirish muddati, kim tomonidan tekshirilayotganligi ko'rsatiladi.

Nazorat qilishga tayyorgarlik bu – davlatimizning Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha qaror, ko'rsatma, buyruq, instruktiv va direktiv hujjatlarini yana bir bor ko'zdan kechirib chiqishni nazoratchidan talab qiladi.

Kerakli hujjatlar yana bir bor chuqur o'rganishini talab qiladi.

Direktiv hujjat – bu – yo'l – yo'riq, ko'rsatma, ya'ni yuqori bo'limlar tomonidan quyi bo'limlarga yoki rahbarning o'z xodimlariga bergan ko'rsatma, yo'l – yo'riqlariga aytiladi.

Normativ ya'ni me'yoriy hujjat esa – norma ya'ni meyyorlar qoidasiga asoslangan hujjatdir.

Masalan: Bolalarning yoshi bo'yicha yosh guruhlariga to'g'ri taqsimlash, xodimlarni shtab normasi bo'yicha ishga qabul qilish, smeta bo'yicha xarajatlarni taqsimlash – sarflash, bolalarning ovqatlantirish meyyorlari, tarbiyachilarning oylik ish haqlari va x.k. iborat.

Demak, nazorat qilishni tashkil etish, unga tayyorgarlik tekshiruvchilardan o'z ustida ko'proq ishlashni, g'oyaviy – siyosiy va ilmiy yetuklikni, tashkiliy – pedagogik – metodik ishlarning mohirona o'z ishida qo'llashni talab etadi.

**Nazorat qilishni mazmunli** – tizimli amalga oshirishda nazorat qilishning olib borish bosqichlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ular quyidagilar:

1. Tekshirish rejasini tuzish va tasdiqlatish;
2. Tekshirishning maqsadi va vazifalari to'g'risida muddirani ogohlantirish;
3. Ishning borishi xarakterlovchi hukumatlarni o'rganish (hisobot, akt va x.k)
4. Tashlilot xodimlari bilan suhbat;
5. Maktabgacha ta'limni boshqarish ishni o'rganish, uning holatini analiz qilish;
6. MTTlarining ishni tanlangan holda tekshirish;
7. Maktabgacha ta'limni tashkil etish va uni rivojlantirishda ijobiy natijalari tajribalarini aniqlash; ularni amalda tadbiq etish yo'llarini ishlab chiqish; tavsiyanomalar ishlab chiqish;
8. Aniqlangan kamchiliklarni analiz qilish, ularni yo'qotish uchun ko'rsatmalar, amalda yordam berish. Jamoada muhokama qilish;
9. Tekshirish yakunlari bo'yicha ma'lumotnoma yoki akt tuzish;
10. Bajirilgan ishlar bo'yicha boshqarma, bo'lim, (amaliyot rahbari oldida hisobot berish).

**Nazorat qilishning asosiy usul va uslublari quyidagilar hisoblanadi:**

- Bolalar hayotini uyushtirish mashg'ulotlari, rejimining turli jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;
- Pedagogik va moliyaviy xo'jalik ish hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish;
- Bolalar ishlarini tahlil qilish;
- Mudira, tarbiyachilar, ota – onalar va bolalar bilan (ularning bilimi, ongi, nutqining rivojlanishini aniqlash maqsadida) suhbatlashish;
- “Pedagogik kengash”, “Ishlab chiqarish yig'ilishlarida” ota-onalar kengashlarida ishtirok etish;
- Jamoat tashkilotlari vakillari bilan suhbatlashishdan iborat.

Bu usul, uslublarni qo'llash – nazorat qilish turiga, qaysi guruhda tarbiyaviy jarayonning qaysi qismi yoki muassasa moliyaviy – xo'jalik ishlarining qaysi tomonlarini tekshirish nazoratchining mutaxassisligi va ish

tajribasiga bog'liqdir.

Ko'p qirrali usullarni qo'llash – maktabgacha

ta'lim ishini har tamonlama o'rganishda g'oyat ahamiyatlidir.

**MAKTABGACHA  
TA'LIM  
TASHKILOTLARIDA  
TA'LIM-TARBIYA  
JARAYONINI  
KUZATISH**

**Kuzatish usuli** – bu pedagogik jarayonidagi yutuq va kamchiliklarini, ishdagi qiyinchiliklarni yo'qotish va ta'lim – tarbiyaviy ish sifatini o'stirishni ta'minlaydi.

**Kuzatish** – pedagogik jarayonini, metodik va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining ahvoriga

to'g'ri baho beradi va kerakli xulosalar chiqaradi.

**Yalpi** – tekshirish turida kun davomida tekshirilayotgan pedagogik jarayonini o'z ichiga oladi, bunda: rejali, ta'lim – tarbiya ish mazmunini va turli tarbiya ishini muvofiqlashganligi, maishiy hayotda bolalar hayotini va tarbiyasini tashkil etish, o'quv - tarbiya usul - uslublarini tashkil etish, bolalarning o'yini, mehnati faoliyatlari kuzatiladi.

Mavzuli nazorat turida esa – kuzatish usuli tanlangan mavzuga va uning xarakteriga bog'liqdir. Agar maktabgacha ta'lim tashkilotining umumiy ahvoli kuzatilayotgan bo'lsa, unda tekshiruvchi mashg'ulotlarini chuqur kuzatadi, uning dastur mazmuniga, tuzilishiga, metodikasiga chuqur ahamiyat beradi.

O'yin – jarayonini kuzatayotganda – diqqatni o'yin turiga, o'yin uchun sharoit, bolalarning munosabatlariga va tarbiyachining o'yinga rahbarligiga qaratadi.

Pedagogik ishlarini kuzatishdan aniq, yaqqol tushuncha hosil qilinmasa qo'shimcha yoki takroriy kuzatishlar o'tkazish kerak.

Mudiraning shu ish kunini to'g'ri tashkil etganligiga, uning tarbiyaviy va xo'jalik ishlari bir tekisda olib berishga, jamoa bilan munosabati, tarbiyachi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar bilan suhbatning mazmuniga, ota-onalarini qabul qilish tartibiga qaratish kerak.

Kuzatishda – kuzatilayotgan jarayonining, rejim jarayonlardagi aniqlilik, rejimni buzilishi, bolalarning bilim darajasini, ularning axloq normalari,

tarbiyachining dastur talabalarini va metodikaning egallaganligi va boshqalarga ahamiyat berish kerak.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarini tekshirish jarayonida kuzatish usuli turlicha xarakterga ega bo`lib, nazoratchi bu jarayonlarni amalga oshirish uchun tekshirish reja sxemasini tuzadi.

**Bu reja quyidagicha amalga oshiriladi:**

Har bir ayniqsa yosh nazoratchilar uchun bunday kuzatish sxemasini tuzib ishlash – bu jarayonni puxta, mazmunli, har tomonlama keng olib borishini ta`minlaydi. Bunday kuzatish sxemasini yo`qligi, tekshirishning yuzaki, mazmunsiz, ishlarga nisbatan baho berishda yuzakichilikka olib keladi.

Oldindan o`ylangan rejali kuzatish – tashkilotdagi ilg`or ish tajribalarini o`rganadi, umumlashtiradi va boshqa tashkilotlarga tashviqot qiladi. Kuzatishda tarbiyachi yoki mudira tomonidan xato, kamchilik qilinayotgan bo`lsa, nazoratchi alohida individual kuzatishdan so`ng, ularning shaxsiyatlariga tegmasdan, shoshilmasdan, tinch holatda, kamchiliklarni oldini olish choralarini ko`rsatib, tushuntirib berishi, metodik yordam ko`rsatish kerak. Agar kuzatish jarayonida bolalar sog`ligi va hayotiga xavf soluvchi xato kamchiliklar bo`lsa, u vaqtda nazoratchi aralashuviga sabab bo`ladi. Kuzatish jarayonida kuzatish daftariga yozib boriladi.

Kuzatishni yana ham mukammalroq izohlash maqsadida quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Ish hujjatlarini o`rganish.
2. Bolalar sog`ligini izohlovchi materiallar.
3. Ta`lim-tarbiyaviy ish rejalarini o`rganish.
4. Tarbiyachilarning kundalik daftarlarini (ilk yosh guruhi).
5. Bolalar ishlarini analiz qilish.
6. Pedagogik kengash, ishlab chiqarish, ota-onalar yig`lishlarining qarorlarini o`rganish.
7. Moliyaviy - xo`jalik ish hujjatlarini o`rganib chiqish.

Bular tashkilot haqida to'laroq ma'lumot berishi mumkin. Buning uchun nazoratchi – mudira, shifokor va tarbiyachilarga tegishli ish hujjatlarini tayyorlashlari kerakligini ogohlantiradi.

Ta'lim - tarbiya jarayoni, tarbiyachilarning kundalik daftarlaridan bolalarning o'sish suratlari, ularning qiziqishlari, dastur talablarini egallash jarayonlarini bilish mumkin.

Bolalar sog'ligini izohlovchi materiallar – patronaj daftari, kundalik davomat, forma №63 va boshqa hujjatlarni tibbiyot hamshirasidan aniqlash mumkin. Shuningdek, kasallikni oldin olish ishlarini amalga oshiruvchi olimlar to'g'risida nazorat ishlarini amalga oshiradi.

Ta'lim - tarbiya ish rejalarini dasturga asoslanib haftalik ish rejalarining sifati tuzilganligini, mashg'ulotlar jadvali, chorak, istiqbol, haftalik ish rejalarining sifati, bolalarning dunyoqarashlarni o'stiruvchi olimlarni yoritilishi, bolalarning nutq madaniyati o'sishda individual ishlash, ota - onalar bilan individual ishlarining mavzularining boyligi va bolalarning ijodiy barkamollashuvida tarbiyachining roli alohida kuzatiladi hamda o'rganiladi.

Pedagogik va kuzatuv kengashlarining qarorlarini o'rganish esa yillik rejadagi asosiy masalalarni, o'rganilayotgan masalalarining dolzarbligi, ota - onalarining qiziqishlaridan xabardor qiladi.

Suhbat usuli metodi – kuzatish jarayonidagi hujjatlarni o'rganishdagi, tushunarsiz bo'lgan jarayonlarni aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Suhbat mazmuni va uning xarakteri turlicha bo'lishi mumkin.

1. Guruhdagi bir kunlik pedagogik jarayonini kuzatish bo'yicha tarbiyachi bilan suhat – muhokama o'tkazish;
2. Kuzatish natijalarini analiz qilish; (suhbat - analiz).

Suhbatlar tarbiyachining ta'lim - tarbiya jarayonlarida qo'llagan usullari haqida ham bo'lishi mumkin. Kuzatish jarayoni tugagandan so'ng o'tkaziladigan suhatda mudira yoki katta tarbiyachi ishtirokida tarbiyachi ishiga baho beriladi. Ishdagi yutuq va kamchiliklarga ob'ektivlik bilan yondoshish kerak. Bunda

nazoratchi avval – tarbiyachini ishiga baho beradi, pedagogik ish jarayonidagi yangilik – yarata olish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Tekshiruvchi - nazoratchi kuzatishda tarbiyachiga turli maslahatlar berib boradi. Masalan: qurish-yasash, qo‘l mehnati, tasviriy faoliyat yoki rivojlantiruvchi faoliyat markazlari haqida.

Yuqoridagi usullardan foydalanib nazoratchi muassasa ishini atroflicha, chuqur o‘rganib chiqishini ta‘minlaydi.

Guruh tarbiyachisining ishini avval uning o‘zi bilan muhokama qilinadi keyin pedagogik kengash ishiga olib chiqiladi. Yutuq kamchiliklar, taklif va mulohazalar ochiqchasiga – oshkora holda tushuntiriladi. Kerakli yo‘llanma, ko‘rsatma va metodik yordam o‘z vaqtida ko‘rsatiladi.

Bolalarning bilim - saviyalarini, ko‘nikma va malakalari bilish maqsadida guruhda – savol-javob – anketa – savollariga – javob olish usulini ham o‘tkazish muhim ahamiyatga egadir. Bu jarayon choraklar orasidagi o‘tgan vaqtda dastur talablarini bajarilganligi va tarbiyachining qay tarzda yetkaza olganligi bolalarning bilim doirasi, dunyoqarashi, ijodiy o‘sishi, kabi bo‘lgan murakkab psixologik-ruhiy rivojlanishi uchun eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Anketa savollari turli mavzuda – masalan: “Jonajon O‘zbekistonimiz” to‘g‘risida, undagi tarixiy joylar, shahar, viloyat, tumanlarning nomlari – tarixiy atamalarining mazmuni, Ulug‘ bobokolonlarimiz – Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur, Abdulla Qodiriylarning – bebaho durdona asarlari, ular bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ham o‘tkazishi mumkin.

Bu jarayondan guruh bolalariga va tarbiyachi ishiga baho berish mumkin. Shu yo‘sindagi anketa – savollarini tarbiyachi, katta tarbiyachi va mudiraning bilim saviyasi, g‘oyaviy - siyosiy yetukligini, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilim - malakasini aniqlash maqsadida ham o‘tkazish mumkin.

Tashkilotda – tarbiyachi bolalarini tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha qo‘llanmalarni va metodikani erkin tanlash huquqiga ega.



Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'z pedagogik faoliyatidagi prinsiplarga og'ishmay amal qiladi:

- bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lish asosiga ko'riladigan butun pedagogik jarayon insoniylik yo'nalishlari bilan sug'orilgan bo'lishi;
- psixologik - pedagogik fikr va aralash fanlarning zamonaviy yutuqlariga mo'ljallangan o'z - o'zini rivojlantirishga zo'r berishni.

Nazoratchi –bayon etilgan prinsiplarni muassasada amalga oshirishini nazorat qilish va bajarishini tekshirish, qabul qilingan avvalgi qarorlarni ijrosini ko'rish maqsadida. “Pedagogik kengash” ishiga qatnashadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning hayotiy, jismoniy va ruhiy sog'lomligi uchun, har bir bolaning yoshi va shaxsiy xususiyatlariga mos keluvchi emotsional va to'laqonli rivojlanishi, bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishning tanlangan tizimi samaradorligi uchun yaratilgan shart – sharoitlarni yaratishda, tarbiyaviy jarayonni psixologik ta'minlash psixolog yoki psixologik xizmatini yaratish tashkil etish ishida metodik yordam ko'rsatadi.

Nazoratchi, yuqorida ko'rsatib o'tilgan usul va metodlardan foydalanib, tashkilotni yalpi va mavzuli tekshirishni amalga oshiradi.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nazorat qilish ishlarini qanday amalga oshiriladi?
2. Nazorat qilishning asosiy vazifalari?
3. Nazorat qilishning samaradorligiga erishishning muhim talabalari?
4. Nazorat qilishga nazoratchining tayyorgarligi qanday kechadi?
5. Nazorat qilishning asosiy usul va uslublari?
6. Nazorat qilish jarayonida kuzatish rejasini kim tuzadi?
7. Nazoratchi tashkilot haqida to'laroq tushuncha bo'lish uchun nima ishlarni amalga oshiradi?

### **Mustaqil ta'lim uchun topshiriq:**

“Maktabgacha ta'limda nazoratchi-inspektor” mavzusida “ESSE” yozing

## IZOHLI LUG'AT

(glossariy)

**Axloq** – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan jarayon.

**Axloq normasi** – kishilarning xulq-atvorini tartibga soluvchi axloqiy talablar mezoni.

**Axloqiy tarbiya** - normalari har bir jamiyatning huquqiy normalariga asos bo'ladi. Axloqiy tarbiyada kishi axloqiy bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, har qanday vaziyatlarda o'zini ana shu normalarga munosib tuta oladigan kishilar axloqiy tarbiyalangan hisoblanadi.

**Aql** – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

**Aqliy tarbiya** – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish.

**Amaliyot** – nazariy bilimlarni bevosita amaliy jarayonga qo'llash.

**Audio va video vizual materiallar** – o'quv axborotlarini kompyuter texnologiyasi yordamida ovozli va vizual shaklda qabul qilinishini ta'minlovchi materallar.

**Bilish** – inson tomonidan voqelikni aks ettirish jarayoni. Bilish jarayoni sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protseslarda ifodalanadi.

**Bilish faoliyati** – boladagi individual o'zgarishlar sur'atini e'tiborga olgan holda tashkil etiladi. Bunda didaktik harakatlarning takrorlanishi va mazmuni jihatidan yakka yutuqqa erishiladi.

**Bilish usullari** – bilish jarayonining qonun-qoidasi, mezoni, tamoyili, shakli va usullari hamda vositalari, shuningdek bilish jarayoniga qo'yiladigan talablar tizimlarining majmuasiga bilish usullari deyiladi.

**“Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya”** – bu butun jahon bolalariga xos bo'lgan bolalar huquqi haqidagi Bilashgan Millatlar Tashkilotining bitimidir.

**Bolaga yo‘naltirilgan yondashuv** – bu bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, talab-ehtiyojlari, uning ta‘lim maqsadlariga erishish uchun yordam beradigan maktabgacha ta‘lim muassasasiga kelgunga qadar to‘plagan tajribasini e‘tiborga oladigan ta‘lim shakli.

**Bozor iqtisodiyoti** – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui.

**Diagnostika (tashxislash)** – pedagogikaning bo‘limi, ta‘lim-tarbiya jarayonlarining maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari, natijalarining sifati va samaradorligini, pedagogik xodimlarning kasbiy tayyorgarliklari, bilim, ko‘nikma, malaka va mahoratlarini, o‘quvchi va maktabgacha yoshdagilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari va tarbiyalanganlik darajalarini har tomonlama o‘rganish, tahlil qilish asosida xulosalar chiqarish, baholash va takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish bilan shug‘ullanadi.

**Didaktik o‘yin** – o‘rganilayotgan ob‘ekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida bolaning bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

**Didaktika** – pedagogikaning ta‘lim va o‘qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmoqdir. Didaktika yunoncha so‘z bo‘lib, “didasko” – o‘qitish, “Didaskol” – o‘rganuvchi degan so‘zlardan kelib chiqqan. Didaktika pedagogikaning “Nimaga o‘qitish”, “Nimani o‘qitish” va “Qanday o‘qitish” kabi savollarga javob izlaydi.

**Didaktik tizim** (yunoncha “systema” – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma‘lum mezonlari asosida ta‘lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko‘rsatish.

**Gavdani tutish** - to‘g‘ri tutish (yurishda, o‘tirib turishda), qo‘llarning rahbar va xodimi stolida erkin holatda bo‘lishi, batartibli, ixchamligi.

**Idrok** – aniq maqsadga yo‘naltirilgan anglash jarayoni.

**Ijod** – ijtimoiy subyektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi.

**Ijodiy qobiliyat** – ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish.

**Ijodiy faoliyat** – bu barcha ruhiy va aqliy kuchlarni ishga solib insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiyot holati – ilhomlanish, shuningdek ruhiy kechinmasi, muammoni jon-jahti bilan hal etish istaklari majmuasi.

**Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha adapto – moslashish) – anomal bolalar individual yoki guruhli xulqlarining ijtimoiy qadriyatlar va xulq-atvor qoidalari tizimiga mos kelishi.

**Ijtimoiy yo‘nalganlik** – ta’limda yangicha yo‘nalganlik bo‘lib, u insonga fuqaro sifatida, ijtimoiy va kasbiy uyushmalar a’zosi sifatida ijtimoiy mehnatga bo‘lgan qobiliyatni, fidoyiligiga, mas’uliyatli va ma’naviyatli bo‘lish sifatiga qo‘yilgan talablar.

**Ijtimoiylashuv** – ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi asosida shaxsning hayot va ishlab chiqarish jarayoniga moslashuvi.

**Imidj** – (ing. —image”) siymo, timsol, qiyofa va obraz

**Individ** – (lotincha “individuum” bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

**Individual yondashuv** – ta’lim beruvchining guruhdagi har bir faol harakati va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e’tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o‘qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo‘ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e’tiborga olishini bildiradi.

**Individuallik** – shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

**Inklyuziv ta’lim va tarbiya** — bolalarning alohida ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan jarayon.

**Innovatsion ta'lim** (ingl.-innovation – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim.

**Innovatsion texnologiya** – pedagogik taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy faollik jarayoni (faollik, didaktik o'yinlar, evristik, kreativ, muammoli, loyihastirilgan, AKT texnologiyalari).

**Innovatsion o'qitish** –1) yangicha o'qitish tizimi, 2) ta'lim oluvchilarni yangi kiritilgan texnologiyalar asosida o'qitish jarayoni (algoritmash, loyihali, modulli va b.)

**Innovatsion faoliyat** – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat.

**Innovatsiya** - ingliz tilidan tarjima qilinganda (—innovation) —yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi. Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

**Insonparvarlik** - insonning qadri erkinligi baxt-saodati, teng huquqliligi to'g'risida insoniylikning barcha tamoyillarini yuzaga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tushuncha.

**Informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma'lumotlarni izlash, yig'ish, aralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o'rinli, samarali foydalanish.

**Integratsiya** – o'qitishning maqsad va omillarini bir butun qilib birlashtirish.

**Integratsiyalash** – lotincha so'z “integer” – umumiylik, “integerara” – to'ldirish, yaratish, tiklash demakdir. Ta'lim mazmunidagi uyg'unliklarni ta'minlash muammolari ham integratsiyalashning shug'ullangan sohasi.

**Intellekt** – insonning umuman bilish faoliyati, fikrlash qobiliyati, tushunish, mulohaza, tafakkur, aql ma'nosini anglatadi.

**Interfaol mashg‘ulot** – tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘zaro faol ishtirok etadigan mashg‘ulot.

**Interfaol usul** – bu ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikdagi ta’lim usuli bo‘lib, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi bir-birini to‘liq tushunishga erishiladi. “Inter” so‘zi lotincha bo‘lib, o‘zbek tilidagi “oraliq”, “o‘rtasi”, “o‘zaro” kabi ma’nolarni bildiradi.

**Iqtisodiy ta’lim** – bolalarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

**Iqtisodiy tarbiya** – bolalarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyat (oila byudjetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik jarayon.

**Iqtisodiy tushunchalar** – moddiy, mehnat, information resurslar , ishlab chiqarish, tadbikorlik bozor, biznes, biznesmen, bank, pul, tovar, narx, firma.

**Istiqbol reja** – bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini (mashg‘ulot, o‘yin, mehnat, individual ishlash, ota-onalar bilan ishlash) o‘zida aks ettiruvchi bolalar bilan ishlashda asosiy hujjat hisoblanadi.

**Ixtisoslik** – birorta kasb doirasida ma’lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari bilan erishilgan zaruriy bilimlar, ko‘nikma va malakalar majmuasi.

**Jamoa** (lotincha “kollektivus” so‘zining tarjimasini bo‘lib, yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma’nolarni anglatadi) – bir necha a‘zo (kishi)lardan iborat bo‘lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

**Jamoa an‘analari** – jamoa a‘zolari tomonidan birdek qo‘llab-quvvatlanuvchi barqarorlashgan odat.

**Jismoniy tarbiya** – bolalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

**Ko‘nikma** – olingan bilimlarga asoslanib qo‘yilgan vazifalar va shartlarga binoan bajariladigan harakatlar yig‘indisi.

**Ko‘rgazmali metodlar** – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiiy holatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko‘rsatishda qo‘llaniluvchi usullar.

**Konvensiya** – bolalar rivojlanishining turli davrlarida bolalar farovonligining mavjud mezonlarini aniqlaydi.

**Korreksiya** (yunoncha “correctio” - tuzatish) – pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizimi yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanishidagi kamchiliklarini qisman yoki to‘liq tuzatish.

**Kundalik reja** – bir-ikki haftaga mo‘ljallab tuzilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat -konspekt shaklida batafsil yoritiladi.

**Kuzatuv** – bola ishlayotgan yoki o‘ynayotgan paytda uning faoliyatiga aralashmagan holda kuzatish jarayoni.

**Kasbiy kompetentlik** – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

**Kasbiy-ijodiy faoliyat** – mutaxassisning kasbiy masalalarni ijodiy hal qilish muvaffaqiyatini tavsiflovchi faoliyati, innovatsion xatti-harakati.

**Kiyinish** - ozodaligi, shinam va bashangligi, kamtarligi, ranglarning mos holda tanlanishi, kiyimning yoshiga va kasbiga mosligi, kiyimni modaga muvofiqligi, bijuteriya, taqinchoqlarning ko‘p va kamligi, ishiga mosligi.

**Kommunikativ kompetentlik** – ta‘lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, ta‘lim oluvchilar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta‘sir ko‘rsata olish.

**Kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

**Kreativ shaxs** – jarayon yoki natija sifatida ijodkorlikni namoyon etuvchi, masalalarni yechishga nostandart usullar bilan yondasha olishga moyil, o‘ziga xos harakatlarni tashkil etish, yangiliklarni ilgari surishga, ijodiy mahsulotlarni yaratishga layoqatli va tayyor shaxs.

**Kreativlik** - (lot., ing. —create – yaratish, —creative yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

**Loyihalashtirish (rejalashtirish)** – bolalarning o‘quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

**Ma’lumot** – ta’lim-tarbiya natijasida o‘zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

**Madaniyat** (“cultura” so‘zidan olingan bo‘lib, parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo‘lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy boyliklar tizimi.

**Maktabgacha ta’lim** – bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlovchi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otuvchi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguniga qadar davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari va oilalarda amalga oshiriluvchi ta’lim bosqichi.

**Maktabgacha pedagogika** – maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o‘rganadi.

**Malaka** – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

**“Men” konsepsiyasi** – insonning o‘z hayotiy faoliyati, boshqa kishilar bilan o‘zaro aloqalari, o‘zi va boshqalarga munosabatini shakllantirishga xizmat qiladigan, uning o‘zi haqidagi anglangan va his etadigan tasavvurlari.



**Mashq va o'rgatish (faoliyatda mashqlantirish) metodlari** - muayyan mashq yordamida bolalar faoliyatini oqilona, maqsadga muvofiq va har tomonlama puxta tashkil qilish, ularni axloq me'yorlari va xulq-atvor qoidalarini bajarishga odatlantirish usullari.

**Materialni og'zaki bayon qilish metodlari** – o'quv materialini mohiyatini o'zgaraki (hikoya, tushuntirish, maktab ma'ruzasi kabi shakllarda) yoritishda qo'llaniluvchi usullar.

**Mazmun** (ta'lim (bilim olish) mazmuni) – ta'lim jarayonida bola tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

**Model** (lotincha – me'yor, namuna) – hodisa yoki jarayonning tabiat va jamiyatdagi tavsifi.

**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko'nikma va malakani izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik.

**Mehnat tarbiyasi** – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

**Mehnatsevarlik** – mehnat turidan qat'iy nazar uni sevib, unga sadoqatli bo'lgan, uni malakali bajaruvchi kishining fazilati.

**Metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta'lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to'g'ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo'llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo'llash .

**Mimika** - his-hayajonning ifoda etishi, yuz mushaklarining, ma'noli harakatlarning so'zlayotgan nuqtaga gapga mosligi. Mimika-bu o'z fikrlarini, kayfiyati, holati, hissiyotini tinglovchi bajarayotgan ishdan roziligi yoki

norizoligini bildirish maqsadida uchun yuz, qosh, ko‘z muskullarini harakatga keltira olish san’atidir.

**Moderator** - qabul qilingan qoidalarga amal qilishni tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarni rivojlantirish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam beradi.

**Muloqot** – 1) kishilarning o‘zaro aloqasi, bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari kishilar o‘rtasidagi aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni; 2) kishilarning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishi asosida ular o‘rtasida ro‘y beradigan axborot almashinuvi.

**Muloqot madaniyati** – 1) muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik; 2) pedagogik madaniyatning tarkibiy elementlaridan biri.

**Multimedia** – bir necha ko‘rinishdagi: elektron shakldagi grafik, matnli, raqamli, ovozli, musiqali, video, audio, fotografiya, harakatlanuvchi obrazlar (animatsiyalar) va boshqa axborotlarni uzatuvchi kompyuter texnologiyalari uchun taalluqli umumiy tushuncha.

**Novatsiya** (yangilanish) - faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat.

**Nutq apparati** – nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar.

**Nutq madaniyati** – o‘z fikrini nutq yordamida mantiqli, to‘g‘ri, obrazli, aniq va ifodali yetkazib berish malakalarining o‘zlashtirilganlik darajasi.

**Nutq texnikasi** – nutqni tinglovchi yoki ta’lim oluvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar majmui.

**Pantomimika** – bu gavda, qo‘l, oyoq harakatidir.

**Pedagogik ijod** – pedagog (tarbiyachi)ning mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo‘l.

**Pedagogik imidj** - pedagogning ma'naviy-axloqiy qiyofasi bilan tashqi ko'rinishi o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikdir.

**Pedagogik qobiliyat** - pedagogik jarayonda tarbiyachining aqliy, emotsional – irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog'liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

**Pedagogik madaniyat** - tarbiyachilik burchi, mas'uliyati, qadr-qimmatini, vijdoni, axloqiy e'tiqodini nazarda tutib, uning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo'yiligi, to'g'riligini anglatadi.

**Pedagogik mahorat** - tarbiyachining shunday shaxsiy (bolajonligi, hayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o'z fanini chuqur va atroflicha bilishda, psixologik va metodik tayyorgarlikda, yoshlarni o'rgatish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo'llarini izlab-topib amaliy faoliyatda qo'llashida namoyon bo'ladi.

**Pedagogik nazokat (takt)** – tarbiyachining pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o'lchovi, me'yori va ta'sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi.

**Pedagogik texnika** – pedagogning nafaqat ta'lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

**Perseptiv qobiliyat** – bolalarning ruhiy holatini his qilish, tushuna olish orqali yuzaga chiqariluvchi qobiliyat.

**Prezentatsiya** (taqdimot; lot. —praesentatio|| – taqdim etish) – muayyan mavzu yoki muammo bo'yicha o'quv (ilmiy, amaliy) xarakterdagi materiallarning ish qog'ozlari (oddiy yoki vatman qog'ozlar) hamda axborot-kommunikatsion vositalar (kompyuter, proyektor, protsesor va b. qurilmalar) yordamida taqdim etilishi.

**Psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, ta‘lim oluvchilar va ta‘lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish.

**Pedagogik diagnostika** (yunoncha – “bilish, “aniqlash” ma’nosini anglatadi) – bu muayyan bosqichlarda bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish istiqbollari aniqlash imkoniyatini beradigan mexanizm.

**Pedagogik strategiya** – bu bolalarning kutilgan maqsadlariga erishishga imkon beradigan pedagog qo‘llaydigan muayyan uslublar yig‘indisi.

**Pul** - bozor aloqalarining hammabop va universal iqtisodiy vositadir. Bozor munosabatlarining asosiy vositasi, uning yordamida barcha iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi.

**Qobiliyat** – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisiga aytiladi, zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi.

**Qayd qilish** – bu bolalar faolligini kuzatish asosida hajjatlashtirish. Aksariyat pedagoglar tomonidan tabiiy ravishda amalga oshiriladigan bu ishga bolalarni tizimli (muntazam) kuzatish asosida yondashishni joriy etish, u haqida to‘liq ma’lumot olish imkoniyatini yaratadi.

**Rag‘batlantirish** – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘ngilini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

**Rejalashtirish** – bu zarur shart-sharoit, foydalanilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko‘rsatgan holda, ta‘lim-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma-ketligini oldindan belgilash jarayoni.

**Rejalashtirish vositalari** – bu faoliyat mazmuni turli sohalarda kutilayotgan natijalarga erishish imkoniyatlarini (resurslarni) belgilab olish uchun pedagog tomonidan qo‘llaniladigan vosita, usul va uslublardir.

**Rivojlanish** – shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

**Rivojlantiruvchi yondashuv** – bolaning tabiiy ravishda ulg‘ayishining muhimligini baholash va tahlil etish imkoniyatini yaratadigan rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv.

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub‘ekti va ob‘ekti, ta‘lim sohasidagi xizmatlarning iste‘molchisi va ularni amalga oshiruvchisi.

**Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv** – pedagogning butun diqqat-e‘tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratilishi, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas‘uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv.

**Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘shiga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**Suhbat** – savol va javob shaklidagi dialogik ta‘lim metodi.

**Samimiylilik**- atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofdillik, vijdonlilik ifodalanadigan shaxsiy sifat.

**Sezgi** – bu atrof olamdagi moddiy dunyoni, narsa va hodisalarning inson ongida aks etishi.

**Sezish** – atrofdagi narsa hodisalarning sezgi a‘zolarimizga bevosita ta‘sir etishi natijasida ularning ayrim belgi xususiyatlarining miyamizga ta‘sir etishi.

**“Sensor”** so‘zi lotincha “sensus” – “tuyg‘u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma‘nolarini anglatadi.

**Sensor tarbiya** - sezgi va idrokni biror maqsadga qaratilgan holda rivojlantirishdir.

**Odob** – jamiyatda e‘tirof etilgan xulq normasi.

**Ob'ekt** – tadqiq e'tilishi lozim bo'lgan narsa va hodisalardan iborat bo'lib, ular o'ziga o'xshash narsa va hodisalardan alohidaligi bilan farq qiladi.

**Ta'lim** – bolalarga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon.

**Ta'limning rivojlantiruvchi muhiti** – bola rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar (o'yinlar, o'yin predmetlari va jihozlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, bolalarning turli faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun mo'ljallangan uskunalari) o'zaro bo'g'liqligini belgilab beradigan hal qiluvchi ko'rsatkichlar.

**Ta'lim innovatsiyalari** – ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar.

**Tafakkur** – ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli.

**Tamoyil** (yunoncha “principium”) – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

**Tarbiya** – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

**Tarbiya jarayoni** – pedagog va bola (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

**Tarbiya mazmuni** – shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyati.

**Tarbiya metodi** (yunoncha “metodos” – yo'l) – tarbiya maqsadiga erishish yo'li; tarbiyalanuvchilarning ongi, irodasi, tuyg'ulari va xulqiga ta'sir etish usullari.

**Tarbiya nazariyasi** – pedagogikaning muhim tarkibiy qismi; tarbiyaviy jarayon mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o‘rganadi.

**Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakani boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**Tyutor** - (Tutorem-lotincha) ustoz, murabbiy vazifasini bajaradi. Ba’zi hollarda ma’ruzachi bilan tinglovchi orasidagi bog‘lovchi rolini ham bajaradi.

**Tashxis** – didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash.

**Fasilitator** - (ingliz tilida facilitator, lotincha facilis–yengil, qulay)-guruhlardagi faoliyat natijasini samarali holash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo‘naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

**Fidoyilik** - tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, muhofaza qilish, otabobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni to‘plash, o‘rganish, avaylab saqlash va targ‘ib qilish.

**Huquq** – jamiyat a’zolari rivojlanishini, jamiyatda tartib o‘rnatishni tashkil etish, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish vositasidir.

**Huquqiy tarbiya** – muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko‘zlagan va shaxs (guruh) da huquqiy ong, huquqiy bilim va qoidalarga rioya etish jihatlarini namoyon etishga undaydigan pedagogik yo‘ldir.

**Huquqiy madaniyat** – davlat tomonidan belgilangan qonun-qoidalarga rioya etishdagi shaxsning xulqi, munosabati tushuniladi. Bir so‘z bilan aytganda huquqiy madaniyat ongli ravishda huquqiy me’yorlarga rioya qilish va bo‘ysunishdir.

**Huquqiy ong** - O‘zbekiston davlati va uning organlari tomonida qabul qilingan qonun hujjatlarini anglash, ularga rioya etish, ulardan ongli ravishda foydalana olish qobiliyatidir.

**Ekologik madaniyat** – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lish.

**Estetik tarbiya** (nafosat tarbiyasi) – bu bolalarga voqelikdagi, san’atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go‘zallikni idrok qilish hamda to‘g‘ri tushunishga o‘rgatish, ularning badiiy didini o‘stirish, ularda go‘zallikka muhabbat uyg‘otish va hayotga go‘zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

**Estetik his** – insonni o‘rab turgan muhitga munosabatining asosiy shakli bo‘lib, hayot haqiqatini o‘zlashtirishning asosiy bosqichidir.

**Edvayzer** (advisor) – (fransuzcha-avisen—o‘ylamoq) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

**Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

**Vatanni sevish** - ona yurtiga, ota-onasiga va yoru do‘stlariga sadoqatli bo‘lish va e‘tiqod qilish; mustaqil respublikamiz konstitutsiyasi va qonunlari, davlatimiz ramzlari, milliy urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.

**Yondashuv** – bu pedagogik faoliyatning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan g‘oyalar, tushunchalar va usullar majmuini qo‘llashga undaydigan metodologik yo‘naltirish.

**Yosh xususiyatlari** – muayyan bir yosh davriga xos bo‘lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar.



## MAVZULAR YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

**1. Toshkentning sobiq eski shahar qismida o‘zbek bolalari uchun nechta bog‘cha ochishga muvaffaq bo‘lingan?**

- A) 5 ta
- B) 6 ta
- C) 4 ta
- D) 7 ta

**2. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fanining asosiy kategoriyalari nimalardan iborat?**

- A) ta’lim, tarbiya, o‘qitish, o‘qish, din
- B) ta’lim, tarbiya, ma’lumot, shakllanish, rivojlanish
- C) tarbiya, ma’lumot, rivojlanish, bolalar
- D) shakllanish, rivojlanish

**3. Shaxsning fiziologik va intellektual o‘shida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi jarayon....**

- A) ma’lumot
- B) shakllanish
- C) rivojlanish
- D) tarbiya

**4. “Didaktika” so‘zining ma’nosi?**

- A) yunoncha so‘z bo‘lib - o‘rgatuvchi, o‘rganuvchi
- B) grekcha so‘z bo‘lib - o‘qituvchi, o‘rganuvchi
- C) yunoncha so‘z bo‘lib - o‘quvchi
- D) lotincha so‘z bo‘lib - o‘rgatuvchi

**5. 1909-1910 yillarda va keyinchalik xususiy bog‘chalar paydo bo‘ldi. Bu bog‘chalarda necha yoshdan boshlab bolalarni asosan gimnaziya tayyorlanar edi?**

- A) 6 yosh
- B) 5 yosh
- C) 4 yosh
- D) 8 yosh

**6. Shaxs nima ta'sirida rivojlanadi va kamol topadi?**

- A) Muhit
- B) Mehnat
- C) Biologik omil
- D) Ta'lim-tarbiya.

**7. Shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi jarayon qanday ataladi?**

- A) Rivojlanish jarayoni
- B) Biologik yo'nalish jarayoni
- C) Ijtimoiy jarayon
- D) O'sish jarayoni

**8. Bolaning boshqalar nutqiga taqlid qilishi, musiqa, badiiy so'z ta'siriga tez berilishi qaysi yoshda ko'zga tashlanadi?**

- A) 3-4 yosh
- B) 2-3 yosh
- C) 4-5 yosh
- D) 1-2 yosh

**9. Zamonaviy pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondashuvlarni aniqlang.**

- A) Biologik, ijtimoiy, texnologik
- B) Biologik, texnologik, fiziologik, ijtimoiy
- C) Biologik, fiziologik, psixologik, yaxlit
- D) Biologik, fiziologik, psixologik

**10. Maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy va psixik kamoloti shartli ravishdagi davrlarning eng oxirgi bosqichi?**

- A) Maktabga tayyorlov davri
- B) Katta yosh
- C) O'rta yosh
- D) Kichik yosh

**11. Bu davr bolalarida o'zgarlar nutqiga taqlid qilish jarayoni boshlanadi, bola musiqa, badiiy so'z ta'siriga beriladi. Qaysi yosh ta'rifi berilgan?**

- A) O'rta guruh
- B) Katta guruh
- C) Kichik yosh guruh
- D) Ilk yosh guruh

**12. O'rta guruh bolalariga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni toping.**

- A) Bo'yi 105-108 smgacha, og'irligi 18-19 kg, miyasi tez rivojlanadi, nutqi ravon
- B) Oyoqlari gavdasiga nisbatan tezroq rivojlanadi, og'irligi 20-22 kg
- C) O'zini idora qilish, mustaqil faoliyat ko'rsatish, tashabbuskorlik rivojlanadi
- D) Bo'yi 90-95sm ga yetadi, jismonan chiniqib, asab tizimi taraqqiy etadi.

**13. ....ta'lim jarayonida shaxsning qiziqish va hayotiy ehtiyojlarini, ta'lim tizimida shaxs istaklarini inobatga olish, unga moslashish bo'lib, yangilanayotgan jamiyatda fuqarolik haq-huquqini anglaydigan, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishni taqozo qiladi. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying.**

- A) Ta'limni differensiyalash
- B) Ta'limni demokratlash
- C) Ta'limning ijtimoiylashuvi
- D) Texnologik yondashuv

**14. Ta'limning an'anaviy tizimida markaziy o'rinni kim egallaydi?**

- A) Tarbiyachi
- B) Tarbiyalanuvchi

- C) Psixolog  
D) Defaktolog
- 15. Ta'limning zamonaviy tizimida markaziy o'rinni kim egallaydi?**
- A) Tarbiyachi  
B) Tarbiyalanuvchi  
C) Psixolog  
D) Defektolog
- 16. "Fikr tarbiyasi – ko'p zamonlardan beri tadqiq qilinib kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladir". Fikri qaysi mutafakkirga tegishli?**
- A) Abdulla Qodiriy  
B) Abdurauf Fitrat  
C) Abdulla Avloniy  
D) Abu Nasr Forobiy
- 17. XXI asrning jamiyat taraqqiyotida barcha davlatlar siyosatining ma'naviy omili nima?**
- A) Pedagogik mahorat  
B) Pedagogik texnologiya  
C) Ta'limning demokratlashuvi  
D) Ijodkorlik qobiliyati
- 18. Zamonaviy sharoitda pedagogika nazariyasi va amaliyotida qanday tushuncha yangi mazmun kasb etmoqda?**
- A. Texnologiya  
B. Konsepsiya  
C. Shaxs  
D. Ijtimoylashuv

**19. Shaxsning tarixan tarkib topgan va tartibga solingan, shuningdek, murakkab skakl, tarkibiy tuzilmaga ega faoliyati va ijtimoiy munosabatlarni nima o'rganadi?**

- A) Intellektual salohiyat
- B) Ijtimoiy institutlar
- C) Pedagogik texnologiya
- D) Individuallashtirish

**20. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilingan?**

- A) 2020 yil 19 mayda
- B) 2019 yil 18 iyulda
- C) 2018 yil 25 avgustda
- D) 2021 yil 2 aprelda

**21. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining nechanchi bobida ta'lim turlari haqida ma'lumot berilgan?**

- A) 5-bobida
- B) 8-bobida
- C) 7-bobida
- D) 6-bobida

**22. Ta'lim turlarini aniqlang**

- A) maktabgacha ta'lim va tarbiya; umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim
- B) umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim
- C) professional ta'lim; oliy ta'lim; oliy ta'limdan keyingi ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; maktabdan tashqari ta'lim

D) umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim; professional taʼlim; oliy taʼlim; oliy taʼlimdan keyingi taʼlim; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish

**23. “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonunning nechanchi moddasida maktabgacha taʼlim va tarbiya haqida yozilgan?**

- A) 5-moddasida
- B) 4-moddasida
- C) 6-moddasida
- D) 8-moddasida

**24. Taʼlim va tarbiyaning muqobil shakli**

- A) maktabgacha taʼlim va tarbiya tizimidagi innovatsion taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.
- B) maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlari koʻrsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.
- C) nodavlat taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlarini koʻrsatuvchi yuridik shaxs.
- D) MTT pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va koʻnikmalariga doir asosiy talablar majmui.

**25. Maktabgacha taʼlim tashkiloti – bu ...**

- A) maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlari koʻrsatuvchi davlat va nodavlat tashkiloti.
- B) nodavlat taʼlim xizmatlarini koʻrsatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirishga doir litsenziya asosida maktabgacha taʼlim va tarbiya sohasida taʼlim va tarbiya xizmatlarini koʻrsatuvchi yuridik shaxs.
- C) MTT pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va koʻnikmalariga doir asosiy talablar majmui.
- D) maktabgacha taʼlim va tarbiya tizimidagi innovatsion taʼlim-tarbiya jarayonini tashkil etish modeli.

**26. O‘zbekiston Respubliaksi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-2707-sonli qarori qachon qabul qilingan?**

- A) 2017-yil 9-sentabrda
- B) 2016-yil 29-dekabrda
- C) 2020-yil 13-oktabrda
- D) 2016-yil 16-dekabrda

**27. Mamlakatimiz tarixida ilk bor “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan qachon qabul qilindi?**

- A) 2019 yil 16 dekabrda
- B) 2019 yil 14 dekabrda
- C) 2019 yil 22 oktyabrda
- D) 2020 yil 25 sentyabrda

**28. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning nechanchi moddasida maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimi haqida berilgan?**

- A) 8-moddasida
- B) 10-moddasida
- C) 15-moddasida
- D) 25-moddasida

**29. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasida nima ko‘rsatilgan?**

- A) MTTning huquq va majburiyatlari belgilangan.
- B) davlat maktabgacha ta’lim va tarbiya standarti talablariga mos keladigan maktabgacha ta’lim darajasini ta’minlashi;
- C) davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etishning majburiyligi bayon etilgan bo‘lib, davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari shaharlar, shaharchalar va boshqa aholi punktlari tashkil etilganda, turar joy majmualari qurilganda, tegishli hududda maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning qonun

hujjatlarida belgilangan cheklangan soni oshganda majburiy tartibda tashkil etilishi

D) bolalarning rivojlanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun xavfsiz shart-sharoitlar yaratishi;

**30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-son qaroriga asosan qachon "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" qabul qilindi?**

A) 2019 yil 19 oktyabrda

B) 2020 yil 18 sentyabrda

C) 2020 yil 22 dekabrda

D) 2019 yil 7 iyulda

**31. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti"ning maqsadi nimadan iborat?**

A) maktabgacha ta'limning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash;

B) maktabgacha ta'lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash,

C) milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

D) o'quv-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

**32. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti"ning tarkibiy qismlari nimalardan iborat?**

A) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari; MTTning davlat o'quv dasturi; Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini o'yinlar to'plami, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me'yorlari



B) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari; MTTning davlat o‘quv dasturi

C) MTTning davlat o‘quv dasturi; Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarini o‘yinlar to‘plami, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik, rehabilitatsiya vositalari bilan jihozlash me‘yorlari

D) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari

**33. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” O‘zbekiston Respublikasi hududida tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’iy nazar, qanday ta‘lim tashkilotlarga nisbatan qo‘llaniladi?**

A) davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari; nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari; maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari"

B) nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari; maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari"

C) davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari; nodavlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari

D) "Mehribonlik" uylari va "Bolalar shaharchalari"

**34. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi qanday kichik sohalarga bo‘linadi?**

A) Nutq va til; o‘qish malakasi; qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.

B) intellektual-anglash malakalari; elementar matematik malakalar;

C) Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.

D) "Men" konsepsiyasi; hissiyotlar va ularni boshqarish; ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

**35. Kommunikativ kompetensiya bu ...**

A) muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi

B) bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi

- C) bolaning bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlari majmuidir
- D) hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tutish mahorati

**36. MTTda o'quv yili qachondan boshlanib, qachongacha davom etadi?**

- A) 2 sentyabrdan -31 avgustgacha
- B) 1 iyundan - 31 avgustgacha
- C) 1 sentyabrdan - 25 maygacha
- D) 2 sentyabrdan - 31 maygacha

**37. Yillik mavzuli rejada nimalar aks etadi?**

- A) Har bir yosh guruhi uchun oy mavzulari va hafta mavzulari aks ettiriladi
- B) Haftaning kichik mavzulari, shuningdek, mazkur mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi
- C) Rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan
- D) Mavzu bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

**38. Rivojlanish xaritasi bo'yicha oraliq kuzatuv qachon o'tkaziladi?**

- A) birinchi yarim yillik oxirida (dekabr, yanvar) o'tkaziladi
- B) o'quv yili oxirida (may oyida)
- C) dastlabki kunlardananoq
- D) noyabr, oktyabr oylarida

**39. O'yin ertalab nonushtagacha necha daqiqani tashkil etadi?**

- A) 15-20 daqiqa
- B) 20-25 daqiqa
- C) 5-10 daqiqa
- D) 10-25 daqiqa

**40. MTTda qo'llaniladigan bolalar o'yinlarining asosiy turlarini aniqlang**

- A) Syujetli-rolli o'yinlar, Ijodiy o'yinlar
- B) Qoidali o'yinlar, ijodiy o'yinlar, rolli

- C) Ijodiy va qoidali o‘yin
- D) Qurish-yasash o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar

**41. Ijodiy o‘yinlar necha turga bo‘linadi?**

- A) Qurish-yasashga doir o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar
- B) Ijodiy o‘yinlar, qurish-yasashga doir o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar
- C) Syujetli-rolli o‘yinlar, qoidali o‘yin.
- D) Syujetli-rolli o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, qurish-yasashga doir o‘yinlar

**42. Tarbiyachi syujetli-rolli o‘yinlarga rahbarlik qilishda qanday jihatlarga e‘tibor qaratishi lozim?**

- A) bolalar o‘yiniga rahbarlik qilish uchun ularning o‘yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim;
- B) tarbiyachi bolalarning o‘yin davomidagi muloqotlari, xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istaklarini bilib olib, ularni to‘g‘ri yo‘lga solish, ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi;
- C) syujetli-rolli o‘yinlarni o‘ynash uchun ma‘lum joy ajratish lozim;
- D) o‘yin jarayonida kerak bo‘ladigan o‘yinchoqlarni bolalar mustaqil o‘zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog‘och bo‘laklari, mix, loy, qog‘oz, karton, bo‘yoq va kerakli asboblari – bolg‘acha, qo‘l arra, qaychi, pichoq kabilarni berish kerak.

- A) 1,2,3,4
- B) 2, 4
- C) 3, 4
- D) 1, 2, 4

**43. O‘rganilayotgan ob‘yekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida tarbiyalanuvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o‘quv faoliyati turi?**

- A) Ta‘limiy o‘yinlar

- B) Didaktik o‘yinlar
- C) Tarbiyaviy o‘yinlar
- D) Harakatlantiruvchi o‘yinlar

**44. Didaktik o‘yinlarning asosiy turlarini aniqlang?**

- A) Stol-bosma o‘yinlar, og‘zaki so‘z o‘yinlari, buyum va o‘yinchoqlar asosida tashkil etiladigan o‘yinlar
- B) Buyum va o‘yinchoqlar asosida tashkil etiladigan o‘yinlar, yozma o‘yinlar
- C) Stol-bosma o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar
- D) Rolli o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar, og‘zaki o‘yinlar

**45. Stol-bosma o‘yinlarini aniqlang**

- A) “Juftini Top”, “Aytishuv”, “Bekinmashoq”
- B) “Xola-Xola”, “Quvnoq Barmoqchalar”
- C) “Lotto”, “Juft Rasmlar”, “Domino” Va “Labirint”
- D) “Kun-Tun”, “Lotto”, “Quvnoq Barmoqchalar”

**46. Qaysi pedagog, “O‘yinchoq o‘yinning “material asosi”, o‘yinchoq o‘yinni yaratishda ishtirok etadi, bolaning o‘ziga xos sherigi sifatida namoyon bo‘ladi, uning shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi”, - deb ta’kidlaydi?**

- A) A.S.Makarenko
- B) Ushenskiy
- C) Y.A.Komenskiy
- D) Pistoletsi

**47. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinchoqlarning asosiy qanday tipi mavjud?**

- A) 3 tipi: fazoviy va geometrik figuralar, blok materiallar
- B) 2 tipi: geometrik shakllar to‘plami va turli blok materiallari
- C) 2 tipi: fazoviy figuralar, turli blok materiallari
- D) 4 tipi: turli blok materiallari, fazoviy va geometrik figuralar, arxitektura materiallari.

**48. Taniqli pedagog A.S.Makarenko o‘yinchoqlarning necha turini ajratib ko‘rsatgan edi?**

- A) 3 turini
- B) 5 turini
- C) 6 turini
- D) 4 turini

**49. Kimning fikricha o‘yin bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o‘zlashtirish vositasi sifatida ta’riflanadi?**

- A) Y.A. Komenskiy
- B) A.S.Makarenko
- C) S.A. Shmakov
- D) L.S. Vigodskiy

**50. Ijrochilik o‘yinlarini bola necha yoshdan boshlab o‘zlashtira boshlaydi?**

- A) 3 yoshdan
- B) 4 yoshdan
- C) 5 yoshdan
- D) 4-5 yoshdan

**51. Kimning fikricha, insoniyat tajribasini “o‘zlashtirish” butunlay bola yashayotgan va rivojlanayotgan ijtimoiy sharoitlarda qo‘lga kiritilganligi bilan xarakterlanadi.**

- A) A.N.Leontev
- B) E.N.Kabanov-Meller,
- C) V.A.Krutetskiy
- D) Y.A. Komenskiy

**52. Bola yangi materialni egallashda mavhumlashtira olishi mumkin bo‘lgan belgilarning muhimligi uni o‘zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo‘lishi...**

- A) aqlning teranligi
- B) aqlning sustligi

- C) fikrning moslashuvchanligi
- D) aqlning barqarorligi

**53. Aqlning barqarorligi nimalarda namoyon bo'ladi?**

- A) uning mahsuli sifatida so'z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati;
- B) bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi; ushbu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi;
- C) yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi;
- D) kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi.

**54. "Sensor" tushunchasi qanday ma'nolarini anglatadi?**

- A) lotinchadan "sensus" – "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati"
- B) inglizcha "sensus" – "tuyg'u", "sezgi", "idrok", "sezish qobiliyati"
- C) lotinchadan "sensos" – "sezgi", "idrok", "sezish"
- D) grekcha "sensus" – "idrok", "sezish qobiliyati"

**55. Insonning fikrlashiga faoliyatda muhrlanadigan axborot jarayoni sifatida qaraydigan soha?**

- A) Kibernetika
- B) Fiziologiya
- C) Psixologiya
- D) Pedagogika

**56. Qaysi metodda tarbiyachi bolalarga narsani o'zini yoki tasvirini ko'rsatadi. Bunda bevosita ko'rib bo'lmaydigan narsalar (boshqa tabiiy zonadagi hayvonlar, o'simliklar, kishilar hayoti bilan) qo'llaniladi.**

- A) Kuzatish
- B) Hikoya qilib berish
- C) Suhbat metodi
- D) Namoyish etish metodi.

**57. Suhbat metodi necha yoshli bolalar bilan o‘tkazilmaydi?**

- A) 4-5
- B) 6-7
- C) 3-4.
- D) 5-6

**58. Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo‘ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o‘zida birlashtirgan shaxs tavsifi nima deb ataladi?**

- A) axloqiy kategoriya
- B) axloqiy tamoyillar
- C) axloqiy ideal
- D) axloqiy birdamlik

**59. Axloqiy ideal deb nimaga aytiladi?**

- A) hayotda qoida sifatida qabul qilingan talablardan kishilar o‘zlariga odamlar orasidan namuna tanlashi
- B) ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo‘ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o‘zida birlashtirgan shaxs tavsifi
- C) axloqning, jamiyat a‘zolarining faoliyatiga yo‘nalganligi va uni boshqarilishi ma’nosida, faoliyatli tavsifini ko‘rsatib o‘tish
- D) umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohasidagi munosabatlarni qamrab oladi

**60. Axloqiy xulq-atvorni shakllantirish metodlarini aniqlang.**

- A) mashq, o‘rgatish, pedagogik talab, tarbiyalovchi vaziyat, topshiriq va hokazolar
- B) hikoya, tushuntirish, etik suhbat, izohlash
- C) nasihat, o‘git, ko‘rsatma, namuna va boshqalar
- D) rag‘batlantirish, musobaqa, tanbeh berish kabilar

**61. Axloqiy mazmundagi hikoya samaradorligini ta’minlash uchun qanday shartlarga rioya qilinishi zarur?**

A) Hikoya maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy tajribasiga mos kelishi lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun hikoyaning qisqa, emotsional, tushunarli bo‘lishi maqsadga muvofiq.

B) Hikoyaning rasmlar bilan, musiqa jo‘rligida bayon qilinishi uning yaxshi idrok qilinishini ta’minlaydi.

C) Axloqiy mavzudagi hikoyaning yaxshi idrok qilinishi uchun unga mos muhitning yaratilganligi muhim ahamiyatga ega.

D) Hikoyadan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun uni mohirona bayon etib bera olish lozim. Ishonarsiz, bir xil ohangda hikoya qilish orqali buni amalga oshirib bo‘lmaydi.

A) a, d

B) a, c, b

C) b, s, d

D) a, b, c, d

**62. Bolani qadrlash, munosib baholash, bolaga uning qadri bor ekanligini sezdirish bu -....**

A) Taqdirlash

B) Maqtash

C) Tahsinlash

D) Tergash

**63. Jamoa so‘zi qanday tildan olingan?**

A) yunoncha “kollection” – birlashma

B) grekcha “kollekt” – omma, majlis

C) lot. “kollektivus” – yig‘ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh

D) inglizcha “kollekt” – guruh, jamoa

**64. Vatanparvarlik tuyg‘usi o‘zida qanday ko‘nikmalarini aks ettiradi?**

A) emotsional va xulq-atvor

B) kognitiv, emotsional va xulq-atvor

C) kognitiv, emotsional



D) psixologik, bilishga oid

**65. Qaysi yosh guruhidan boshlab bolalar ota-onalar, tarbiyachilar ularga qanday g'amxo'rlik qilayotganini ko'ra oladilar va his etadilar, natijada bolalarda ularga bo'lgan muhabbat yanada, ortadi, ularning g'amxo'rlik va himoyasiga ishonch hosil qiladi?**

A) O'rta yosh guruhi

B) Katta guruh

C) Tayyorlov guruhi

D) Kichik yosh guruhida

**66. O'rta yosh guruhiga xos bo'lgan xususiyatni aniqlang.**

A) bolalari kattalar mehnatini, ularning jamiyat rivoji uchun qo'shayotgan hissalarini, kishilar tomonidan amalga oshirilayotgan obodonlashtirish ishlarini tushunadigan bo'lib qoladi

B) bolalariga uyda ota-onasi, bobo-buvilariga yordam berish topshiriladi. Butun guruh bolalari bilan ular oilada kattalarga qanday yordam berganliklari haqida suhbatlashiladi

C) tarbiyachi jonajon shahar, qishloqdagi eng ko'rkam joylarni, maydonlarni, binolarni, bog'larni ko'rsatadi. Ko'cha, maydonlar va xiyobonlarning nomi shahar yoki qishloqning kelib chiqish tarixini, xalqning o'tmishini anglatishini tushuntirib boradi

D) Vatanga muhabbat hissi o'z uyiga, MTTga, tarbiyachiga muhabbatni tarbiyalashdan boshlanadi.

**67. "Maktabgacha yoshdagi bolalar organizmining o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi". Mazkur fikr qaysi pedagog olimaning fikri?**

A) P.Yusupova

B) V.A.Slastenin

C) I.F.Isayev

D) Y.N.Shiyanov

**68. Jismoniy tarbiyaning muhim omillarini aniqlang.**

- A) Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar
- B) Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar, jismoniy mashqlar
- C) Gigienik shart-sharoitlar, jismoniy mashqlar
- D) Jismoniy mashqlar, tabiiy omillar

**69. Havo vannasi asta-sekin necha daqiqadan necha daqiqagacha olib boriladi.**

- A) 10-15 daqiqadan 25 daqiqagacha
- B) 5-10 daqiqadan 15 daqiqagacha
- C) 10-15 daqiqadan 30 daqiqagacha
- D) 5-15 daqiqadan 35 daqiqagacha

**70. Kichik guruh (3-4 yoshli) tarbiyalanuvchilarning jismoniy rivojlantirishda qanday jihatlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq?**

- A) bolalarni turgan joyda sakrashga ikki oyoqni juftlab sakrashga va yengil tushishga, emaklashga, tirmashib chiqishga to'p bilan harakat qilishga, dumalatish, uloqtirishga o'rgatish;
- B) uch va undan ortiq qismlardan iborat minoralar qurish, qopcha va qutichaga mayda predmet va o'yinchoqlarni solish va ularning ichidan olish;
- C) o'z-o'ziga xizmat qilish, qo'llarini yuvish, cho'milishga ijobiy munosabatda bo'lish, piyoladan choy ichish, mustaqil yuz-qo'llarini yuvish va artish;
- D) mashqlar va o'yinlarni tanlashda mashg'ulotlar uchun joylarni tayyorlashda va jihozlarni saqlashni ta'minlashda tashabbus ko'rsatish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. RAHBARIYAT ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” T.: – “O‘zbekiston”-2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi” T.: – “O‘zbekiston”-2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2020 yil 29 dekabr.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: O‘zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. —T.: O‘zbekiston, 2001.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
9. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021 – yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. T.: -2016 y. 29-dekabr
10. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori. T.: -2017 y. 9-sentyabr
11. Sh.M. Mirziyoyevning “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi - faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-sonli Qarori . T.: -2017 y. 30-sentyabr

## II. ASOSIY ADABIYOTLAR:

12. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
13. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi 595-sonli Qonuni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat Standarti” 802-sonli Qarori.
15. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312 sonli Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 iyundagi “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-6012-son Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 13 maydagi 391-sonli Qarori.
18. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023 yil 28 avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlar” 99-sonli buyrug‘i.
19. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. Toshkent. O‘zRMTV. 2019.
20. Xasanboyeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
21. Sodiqova Sh.A.“Maktabgacha pedagogika”.“Tafakkur sarchashmalari” T.: 2013.
22. Qayumova N.M. “Maktabgacha pedagogika”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013
23. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019.
24. “6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash va maktabga moslashuvini o‘rganish”. Metodik qo‘llanma. K.Nizomova, T.: 2006.

25. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017.
26. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi- T.: "Iqtisod-moliya" 2011.
27. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: Faylasuflar nashriyoti, 2017.
28. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. Metodik qo'llanma.– T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012. – 193 b.
29. Sharipova D. va boshqalar. "Agar bolam sog'lom bo'lsin desangiz." (Otonalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigiyenik tarbiyasi haqida) T.: 2006.
30. Yusupova P. "Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish." T.: —O'qituvchi. 1995.
31. Ishmuhamedov R. Ta'limda innovatsiya. – T.: —Fan va texnologiyalar. 2010.
32. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – T.: 2015.
33. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv - metodik qo'llanma – T.: "Sano-standart", 2015. – 150 b.
34. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma– TDPU, T.: 2013.
35. Xasanova Sh.T. Estetik tarbiya metodikasi. Ma'ruzalar matni. Nizomiy nomli TDPU. T.: 2014.
36. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, T.: 1993.
37. Kaykovus. Qobusnoma / Forschadan Muhammad Rizo Ogahiy tarjimasi. – T.: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

38. Komilova G.O. Maktabgacha yoshdagi (5-6 yosh) bolalarga ekologik tarbiya berishda xalq topishmoqlaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari: Ped. fan. nomz. ... dis. avtoreferati. – T., O‘zPFITI, 2005
39. Ermatova G.P., Haydarova Sh.N. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining normativ-huquqiy hujjatlari.” Uslubiy-amaliy qo‘llanma. NavDPI. 2019.
40. Davlatova R.H., Haydarova Sh.N. “Bolalarning ijtimoiy moslashuvi” Darslik. T.: “Bookmany print” nashriyoti, 2023.

### **III. AXBOROT MANBAALARI:**

41. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: <http://www.edu.uz>.
42. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi: [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
43. Xalq ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi: [www.multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)
44. Ijtimoiy axborot ta’lim portal: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
45. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi: [www.mtv.uz](http://www.mtv.uz)
46. Respublika bolalar kutubxonasi: [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
47. <http://.pedagog.uz>
48. <http://.nspi.uz>
49. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)
50. <https://lex.uz/docs/>

## MUNDARIJA:

SO‘Z BOSHI .....	3
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARINI PAYDO BO‘LISH TARIXI.....	5
O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA‘LIM TIZIMINING ME‘YORIY ASOSLARI.....	21
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARINING ISH HUJJATLARI.....	37
MAKTABGACHA TA‘LIM VA TARBIYANING UMUMIY ASOSLARI.....	48
MAKTABGACHA TA‘LIM TARBIYANING TASHKIL TOPISHI.....	65
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI SHAXSIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.....	75
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHI VA TA‘LIM-TARBIYASI.....	92
BOLA SHAXSINI RIVOJLANISH OMILLARI.....	104
TARBIYA TURLARI VA ULARNING SHAXS KAMOLOTIGA TA‘SIRI.....	118
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA SENSOR TARBIYA BERISH.....	140
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA AXLOQIY TARBIYA BERISH.....	150
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI JISMONIY TARBIYALASH.....	165
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA EKOLOGIK TARBIYA BERISH.....	189
“ILM FAN VA TABIAT” MARKAZIDA EKOLOGIK TARBIYA.....	202
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA IQTISODIY TARBIYA BERISH.....	213
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA FUQAROLIK TARBIYASINI BERISH.....	224
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASH.....	233
MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA MEHNATNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI.....	252

<b>“ILK QADAM” DAVLAT O‘QUV DASTURI ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING FAOLIYAT MARKAZLARIDA TA’LIM JARAYONLARINI TASHKIL QILISH.....</b>	<b>265</b>
<b>O‘YINNING BOLA FAOLIYATI SIFATIDAGI MOHIYATI VA O‘ZIGA XOSLIGI.....</b>	<b>279</b>
<b>BOLA TARBIYASIDA O‘YINCHOQNING AHAMIYATI.....</b>	<b>290</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH. MAKTAB TA’LIMIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI.....</b>	<b>295</b>
<b>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI VA OILA HAMKORLIGI.....</b>	<b>311</b>
<b>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.....</b>	<b>331</b>
<b>UMUMIY TIPDAGI DAVLAT VA NODAVLAT MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINI TASHKIL QILISH.....</b>	<b>344</b>
<b>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA METODIK ISHLARNI TASHKIL ETISH VA RAHBARLIK QILISH. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM-TARBIYA ISHLARI.....</b>	<b>365</b>
<b>MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTINI NAZORAT QILISH VA TA’LIM-TARBIYA ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH.....</b>	<b>387</b>
<b>IZOHLI LUG‘AT (glossariy).....</b>	<b>402</b>
<b>MAVZULAR YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI.....</b>	<b>417</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>435</b>



## ОГЛАВЛЕНИЕ:

ВВЕДЕНИЕ.....	3
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	5
НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	21
РАБОЧИЕ ДОКУМЕНТЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	37
ОБЩИЕ ПРИНЦИПЫ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ОБРАЗОВАНИЯ.....	48
ОРГАНИЗАЦИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	65
ТРЕБОВАНИЯ К ПЕДАГОГАМ ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ.....	75
РАЗВИТИЕ И ОБРАЗОВАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	92
ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ ДЕТЕЙ.....	104
ВИДЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ЛИЧНОСТИ.....	118
СЕНСОРНОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	140
НРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	150
ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	165
ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	189
ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В ЦЕНТРЕ «НАУКА И ПРИРОДА».....	202
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	213
ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГРАЖДАНСКОГО ВОСПИТАНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ.....	224
ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИК.....	233
ФОРМЫ ОРГАНИЗАЦИИ РАБОТЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ.....	252

<b>ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕССОВ В ЦЕНТРАХ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ НА ОСНОВЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ УЧЕБНОЙ ПРОГРАММЫ “ПЕРВЫЙ ШАГ”</b> .....	<b>265</b>
<b>СУЩНОСТЬ И ХАРАКТЕРИСТИКА ИГРЫ КАК ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ</b> .....	<b>279</b>
<b>ЗНАЧЕНИЕ ИГРУШЕК В ОБРАЗОВАНИИ ДЕТЕЙ</b> .....	<b>290</b>
<b>ПОДГОТОВКА ДОШКОЛЬНИКОВ К ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ. ЗНАЧЕНИЕ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДЕТЕЙ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ</b> .....	<b>295</b>
<b>ОРГАНИЗАЦИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ И СЕМЕЙНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА</b> .....	<b>311</b>
<b>ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> .....	<b>331</b>
<b>ОРГАНИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ И НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ ОБЩЕГО ВИДА</b> .....	<b>344</b>
<b>ОРГАНИЗАЦИЯ И ВЕДЕНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ РАБОТА В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ</b> .....	<b>365</b>
<b>НАДЗОР ЗА ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ И ОРГАНИЗАЦИЯ ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ</b> .....	<b>387</b>
<b>ТОЛКОВЫЙ СЛОВАРЬ (глоссарий)</b> .....	<b>402</b>
<b>ТЕСТЫ ПО ТЕМАМ</b> .....	<b>417</b>
<b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ</b> .....	<b>435</b>

## TABLE OF CONTENTS:

INTRODUCTION.....	3
HISTORY OF EMERGENCE OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.....	5
REGULATORY BASIS OF PRE-SCHOOL EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN.....	21
WORKING DOCUMENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.....	37
GENERAL PRINCIPLES OF PRESCHOOL EDUCATION AND EDUCATION.....	48
ORGANIZATION OF PRE-SCHOOL EDUCATION.....	65
REQUIREMENTS FOR THE TEACHER OF PRE-SCHOOL EDUCATION ORGANIZATION.....	75
DEVELOPMENT AND EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	92
FACTORS OF CHILD PERSONALITY DEVELOPMENT.....	104
TYPES OF EDUCATION AND THEIR EFFECT ON PERSONAL DEVELOPMENT.....	118
SENSORY EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN.....	140
MORAL EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	150
PHYSICAL EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	165
ENVIRONMENTAL EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	189
ECOLOGICAL EDUCATION AT THE “SCIENCE AND NATURE” CENTER.....	202
ECONOMIC EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	213
PROVIDING CIVIC EDUCATION TO PRE-SCHOOL CHILDREN.....	224
AESTHETIC EDUCATION OF PRE-SCHOOL CHILDREN.....	233
FORMS OF WORK ORGANIZATION IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.....	252

<b>ORGANIZING EDUCATIONAL PROCESSES IN THE ACTIVITY CENTERS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF THE STATE CURRICULUM "FIRST STEP" .....</b>	<b>265</b>
<b>THE ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF THE GAME AS A CHILDREN'S ACTIVITY.....</b>	<b>279</b>
<b>THE IMPORTANCE OF TOYS IN CHILD EDUCATION.....</b>	<b>290</b>
<b>PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION. THE SIGNIFICANCE OF ORGANIZING CHILDREN'S ACTIVITY IN SCHOOL EDUCATION.....</b>	<b>295</b>
<b>ORGANIZATION OF PRESCHOOL EDUCATION AND FAMILY COOPERATION.....</b>	<b>311</b>
<b>ORGANIZING EDUCATIONAL ACTIVITIES IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.....</b>	<b>331</b>
<b>ORGANIZATION OF PUBLIC AND NON-PUBLIC PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS OF GENERAL TYPE.....</b>	<b>344</b>
<b>ORGANIZING AND LEADING METHODOLOGICAL WORK IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. EDUCATIONAL WORK IN PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS.....</b>	<b>365</b>
<b>SUPERVISION OF PRE-SCHOOL EDUCATION AND ORGANIZATION OF EDUCATIONAL WORK.....</b>	<b>387</b>
<b>EXPLANATORY DICTIONARY (glossary).....</b>	<b>402</b>
<b>SUBJECT TEST TASKS.....</b>	<b>417</b>
<b>LIST OF REFERENCES.....</b>	<b>435</b>